

QAYTISH MIGRATSIYASI

XALQARO YONDASHUVLAR
VA MARKAZIY OSIYONING MINTAQAVIY
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Ma'ruzada bildirilgan fikrlar mualiflarga tegishli bo'lib, Xalqaro Migratsiya Tashkilotining (XMgT) fikrlarini aks ettirishi shart emas. Ma'ruba davomida foydalanilgan belgilari va material bayoni XMgT tomonidan har qanday mamlakat, hudud, shahar yoki mintaqaning yoki ularning hokimiyatlarining huquqiy maqomiga yoki chegaralar yoki chegaraviy hududlarga taalluqli qandaydir fikrning ifodasini nazarda tutmaydi.

XMgT o'z faoliyatida insonparvar va tartibli migratsiya migrantlarga va jamiyatga foyda keltirishi kerak degan tamoyilga amal qiladi. Hukumatlararo tashkilot sifatida XMgT xalqaro hamjamiyatdagi hamkorlar bilan birgalikda migratsiya sohasidagi tezkor muammolarni hal etishga; migratsiya bilan bog'liq masalalarni tushunishni targ'ib qilishga; migratsiya orqali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlanirishga va migrantlarning insoniq qadr-qimmati va farovonligini himoya qilishga qaratilgan faoliyat olib boradi.

Ushbu qo'llanmada ishlataligan IQRY (Ixтирий qaytish va reintegratsiyalashga yordam) atamasasi, shuningdek uning asosiy jihatlar va tamoyillari Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMgT) tomonidan keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi kerak. Shunday qilib, IQRY atamasiga havolalar, undan foydalanish va undan misollar keltirish iomalmaty@iom.int elektron manziliga tegishli so'rov orqali XMgT bilan oldindan kelishib olinishi kerak.

O'quv qo'llanmasi XMgTning AQSh Davlat Departamentining Aholi, qo'chqinlar va migratsiya ishlari bo'yicha byurosi (AQMB AQSh) tomonidan mablag'lari bilan ta'minlangan "Osiyo mintaqaviy migratsiya dasturi" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan .

"QAYTISH MIGRATSIVASI. XALQARO YONDASHUVLAR VA MARKAZIY OSIYONING MINTAQAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI" o'quv qo'llanmasi demografiya sohasidagi malakasini oshirayotgan davlat xizmatchilari va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda demografik ma'lumotlardan foydalanish, shuningdek ijtimoiy va gumanitar yo'nalishdagi talabalar va aspirantlar uchun mo'ljallangan.

Rossiya Fanlar Akademiyasining "Rossianing demografik va migratsiya muammolari" Ilmiy Kengashi tomonidan o'quv-uslubiy jarayonda foydalanish uchun tavsija etilgan (2-sonli Bayonnomma, 2020 yil 2-iyun).

© 2020, barcha huquqlar himoyalangan.

Ushbu nashrning hech bir qismi takrorlanishi, ma'lumot qidirish tizimlarida saqlanishi yoki hech bir shaklda yoki tarzda, xoh u elektron, mexanik bo'lsin, xoh nusxa ko'chirish, ovoz yozish vositalari bo'lsin noshirning yozma ruxsatisiz tarqatilishi mumkin emas.

Xalqaro migratsiya tashkiloti (XMgT) /
BMT migratsiya Agentligi, Qozog'iston
Respublikasidagi Markaziy Osijo bo'yicha
Submintaqaviy Muvofiglashtirish ofisi:

XMgT Nur-Sulton,
Mambetov ko'ch., 14 BMT binosi,
01000, Nur-Sulton,
Tel.: +7 7172 696553
Elektron pochta: iomastana@iom.int

XMgT Almati,
Bayzakov ko'ch., 303 BMT binosi,
050040, Almati,
Tel.: +7 727 2582643
Elektron pochta: iomalmaty@iom.int

Websayt: kazakhstan.iom.int

Ushbu nashr tarjimalar bo'llimining rasmiy tarjimasiz chiqarildi.

Muqovadagi fotosurat: Dulat Yesnazar
Dizayn va kompyuterda sahifalash: AWATERA

ISBN 978-92-9068-912-6 (Print)
ISBN 978-92-9068-913-3 (PDF)
© 2020 International Organization for Migration (IOM)

Korr. a'zolari tomonidan tahrirlangan iqtisodiyot fanlari doktori S.V. Ryazansev (2020). Qaytish migratsiyasi: xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osioning mintaqaviy o'ziga xos xususiyatlari O'quv qo'llanmasi Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMgT) – BMT migratsiya Agentligi, Almati.

Ushbu nashrning hech bir qismi nashr etuvchining yozma ruxsatisiz takrorlanishi, axborot-izlash tizimlarida saqlanishi yoki har qanday shaklda yoki har qanday elektron, mexanik vositalar bilan, fotonusxa ko'chirish, ovoz yozib olish yoki boshqa har qanday usul bilan uzatilishi mumkin emas.

QAYTISH MIGRATSİYASI

XALQARO YONDASHUVLAR

VA MINTAQAVIY O'ZIGA

XOS XUSUSIYATLAR

MAMLAKATLARIDA QAYTIB

KELGAN MIGRANLARNING

MOSLASHISH VA

REINTEGRATSİYALASHISH

MUAMMOLARI

HURMATLI O'QUVCHILAR!

Qo'lingizdag'i "Qaytish migratsiyasi: xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy, o'ziga xos xususiyatlari" nomli darslik olti mamlakat: Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekistonda yashab, ilmiy faoliyat olib borayotgan mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan. Darslik qaytish migratsiyasiga, shuningdek ish, o'qish va chet elda yashaganidan keyin uga qaytadigan insonlar – qaytuvchi migrantlarga bag'ishlangan. Darslik uchun aynan ushbu mavzunin tanlanishi tasodif emas. Markaziy Osiyodagi mehnat migratsiyasining miqyosi juda katta: 2,7 million 4,2 milliongacha odam (iqtisodiy faol aholining 10 % idan 16 % gacha) chet elda – Rossiya Federatsiyasida, Qozog'istonda, Turkiyada, Koreya Respublikasi va ko'plab boshqa mamlakatlarda ishlaydi. Tobora ko'proq odamlar turli vaziyatlar tufayli o'z vatanlariga qaytishmoqda, ular o'zlarini bilim, tajriba, malaka va pul mablag'lарини olib kelishmoqda. Qaytib kelgan migrantlar Markaziy Osiyo mamlakatlarining inson kapitali va iqtisodiy resurslarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqdalar. Kitobda Markaziy Osiyoda va boshqa mamlakatlarda qaytib kelgan migrantlarning salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha misollar, shuningdek, qaytgan migrantlar o'z vatanida duch kelayotgan muammolar keltirilgan.

Kitob qaytish migratsiyasi muammosini yaxlit yoritadigan to'rt bo'llimdan iborat. Ular mantiqan nazariyadan amaliyotga asoslangan. "Zamonaviy sharoitlarda qaytish migratsiyasi" deb nomlanuvchi birinchi bo'llimda qaytish migratsiyasining nazariy jihatlari, tasnifi va ta'rifi, tasnif va ta'riflar, davlatlarning qaytish migratsiyasi dasturlarini amalga oshirish boyicha maqsad va vazifalari ko'rib chiqiladi. "Qaytish migratsiyasining huquqiy asoslari" deb nomlanuvchi ikkinchi bo'llimda qaytish migratsiyasi xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlarda, ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya dasturlarining (IQRD) huquqiy asoslari va IQRDning mintaqadagi salohiyati ko'rib chiqiladi. "Markaziy Osiyoda qaytish migratsiyasining shart-sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlanuvchi uchinchi bo'llimda demografik va migratsion vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari, Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytish migratsiyasining sabablari va tendensiyalari ochib berilgan. Shuningdek, qaytish migratsiyasining iqtisodiy va ijtimoiy-demografik ulushi, qaytib kelgan migrantlarning moslashuvi va reintegratsiyasi masalalari ham yoritib berilgan. Markaziy Osiyo mintaqasi uchun diasporalarning roli hamda ularda qaytish migratsiyasining salohiyati ko'rib chiqilgan. Va nihoyat, "Qaytish migratsiyasini boshqarish va Markaziy Osiyoda IQRKnri rivojlantirish" bo'llimida mintaqqa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va bandlikni rag'batlantirish strategiyalarida migratsiya siyosati va qaytish migratsiyasini amalga oshirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytish migratsiyasi va IQRK dasturlarini rivojlantirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining roli bayon etiladi.

Darslikda tinglovchilar (talabalar) mustaqil tayyorgarlik ko'rishda va o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo'lgan nazorat savollari va amaliy topshiriqlar, shuningdek video lavhalarga havolalar; asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati mavjud. Darslik materiallari 2019 yilning aprel oyida Qirg'iziston Respublikasi Bishkek shahridagi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasida xalqaro ekspertlar jamoasi tomonidan sinovdan o'tkazildi va ma'qullandi.

Qo'llanmaning mualliflari Xalqaro migratsiya tashkilotining (XMgT) Qozog'iston Respublikasidagi Markaziy Osiyo bo'yicha Submintaqaviy Muvoofiqlashtirish ofisiga ushbu loyiha tashabbus ko'rsatgan va har tomonlama qo'llab-quvvatlagani uchun o'zining alohida minnatdorchiligini izhor qiladi.

Ushbu darslik davlat xizmatchilari va talabalarni davlat boshqaruvi hamda migratsiya siyosati sohasida tayyorlashga o'z hissasini qo'shadi, pirovardida Markaziy Osiyo mamlakatlarining muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va inson salohiyatini shakllantirishga yordam beradi deb umid qilamiz.

MUALLIFLAR JAMOASI

Alayeva G.T., yuridik fanlar nomzodi, Turon universiteti (Olmaota, Qozog'iston Respublikasi)

Delovarova L.F., "Xalqaro munosabatlar" mutaxassisligi bo'yicha PhD, Al-Farobi nomidagi Qozoq milliy universiteti (Olmaota, Qozog'iston Respublikasi)

Dinorshoyev A.M., yuridik fanlar doktori, professor, Tojikiston milliy universiteti (Dushanbe, Tojikiston Respublikasi)

Jampeisov D.A., "Yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha PhD, Qozog'iston gumanitar-yuridik innovatsiya universiteti (Semey, Qozog'iston Respublikasi)

Jolonbayeva A.J., iqtisodiyot fanlari nomzodi, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (Bishkek, Qirg'iziston Respublikasi)

Kepbanov Yo.A., yuridik fanlar nomzodi (Ashxobod, Turkmaniston)

Mutiyeva S.J., Tojikiston Respublikasi Mehnat, migratsiya va aholi bandligi vazirligining Mehnat, migratsiya va aholi bandligi ilmiy-tadqiqot instituti iqtisod fanlari nomzodi (Dushanbe, Tojikiston Respublikasi)

Muxtorov Z.M., filologiya fanlari doktori, Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi (Dushanbe, Tojikiston Respublikasi)

Nurmatov T.A., yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Qirg'iziston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi Diplomatik akademiyasi (Bishkek, Qirg'iziston Respublikasi)

Raximova M.A., yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (Toshkent, O'zbekiston Respublikasi)

Ryazantsev S.V., Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Iqtisod fanlari doktori, professor, Rossiya Fanlar akademiyasining Federal ilmiy-tadqiqot sotsiologik markazi Demografik tadqiqotlar Instituti direktori, Rossiya Federatsiyasi TIV MDXMI (Moskva, Rossiya Federatsiyasi)

Tillabayev M.A., yuridik fanlar doktori, dotsent, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi (Toshkent, O'zbekiston Respublikasi)

Xudoynazarov G.E., "Hukukchi xizmatdash" yuridik firmasi (Ashxobod, Turkmaniston)

MUALLIFLARDAN



**GULNAZ ALAYEVA,
yuridik fanlar nomzodi, Turan universiteti
(Olmaota, Qozog'iston Respublikasi)**

Ushbu loyihada ishtirok etish imkoniyati uchun XMgT va Turan universitetiga chuqur minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. O'yalyman-ki, ushbu o'quv qo'llanmasi qaytish migrantsiyasiga oid birinchi ilmiy ish bo'lib, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan va o'z vataniga qaytish uchun yordamga muhtoj bo'lgan odamlar uchun katta foyda keltiradi. Birinchi marotaba kitobda Markaziy Osiyo mintaqasida migrantsiyani boshqarishda davlat tuzilmalarining roli va ahamiyati ta'kidlangan va birinchi marta mintaqaviy rivojlanishning bir qismi sifatida migrantlarning ixtiyoriy ravishda qaytishi bo'yicha xalqaro dasturlar tasvirlangan.

Kitob ustida ishslash davomida men yangi do'stlar orttirdim, yangi bilimlar hamda kasbiy malakalarni o'zlashtirdim va eng muhimmi, bizning hamkorligimiz misolida shuni tushunib yetdim-ki, agar insoniyat manfaati uchun yangi, ijobiy, zaruriy hissa qo'shishga katta xohish bo'lsa siz har doim murosaga kelishingiz va har qanday muammolarni birqalikda hal qilishingiz mumkin ekan.



**LEYLA DELOVAROVA,
"Xalqaro munosabatlar" mutaxassisligi bo'yicha PhD,
Al-Farobi nomidagi Qozoq milliy universiteti
(Olmaota, Qozog'iston Respublikasi)**

Migratsiya, birinchi navbatda, rivojlanish bilan bog'liq holda birga tilga olinishi kerak, va qaytish migrantsiyasi barcha jalg qilingan tomonlarning rivojlanishi va hamkorligi uchun imkoniyatdir. Markaziy Osiyo mintaqasi uchun bu ayniqsa dolzarbdir. Umid qilaman-ki, ushbu darslik ushbu g'oyaning ishonchli tasdig'i, akademik doiralarning vakillari, mintaqaning barcha mamlakatlari davlat xizmatchilari uchun muvaffaqiyatli qo'llanma bo'lib, kitobxonlar keng doirasi uchun qiziqarli bo'ladi!



**AZIZ DINORSHOEV,
yuridik fanlar doktori, professor, Tojikiston milliy universiteti
(Dushanbe, Tojikiston Respublikasi)**



**DUMAN JAMPEISOV,
"Yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha PhD,
Qozog'iston gumanitar-huquqiy innovatsiya universiteti
(Semey, Qozog'iston Respublikasi)**



**AJAR JOLONBAYEVA,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, Qирғизистон Республикасы
Президенти ҳузуридагы Давлат башқаруви академиясы
(Бишкек, Qирғизистон Республикасы)**

"Qaytish migratsiyasi" kabi atama haqida hech eshitganmisisiz? Qaytish migratsiyasi Markaziy Osiyoda yangi trend bo'lil, u kam o'rganilgan va tadqiqotchilar tomonidan yaxshi ifodalanmagan. Qaytish migrantlari juda nozik guruhdir, ular hozirgi dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga duch keladilar va tegishli yechimlarni topishlari uchun ularga jamiyat va davlatning qol'lab-quvvatlashi zarur. Ushbu qo'llanma qaytish migratsiyasi sohasida birinchilardan bo'lib, eng muhim, alohida olingan mamlakat bo'yicha emas, balki butun mintaqaga bo'yicha mayjud vaziyatni taqdim etadi.



**YO'LBARS KEPBANOV,
yuridik fanlar doktori
(Ashxobod, Turkmaniston)**



**ZAYNIDIN MUXTOROV,
filologiya fanlari doktori, Тоҷикистон Республикаси
Президенти ҳузуридагы Давлат башқаруви академиясы
(Душанбе, Тоҷикистон Республикасы)**



**SAODAT MUTIYEVA,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, Тоҷикистон Республикаси Менхат
ва бандлиқ vazirligining Menhat migratsiyasi va bandlik
ilmiy-tadqiqot instituti (Dushanbe, Тоҷикистон Республикаси)**

Migratsiya – jahon mehnat bozoridagi asosiy ko'rinishlardan biri. Tojikiston Respublikasi global migratsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Ushbu qo'llanma migrantlarning o'zi, davlat xizmatchilari va ushbu jarayonning boshqa ishtirokchilari uchun ishonchli yordamchiga aylanadi. Odamlar mamlakatni tark etishadi, unga qaytib kelishadi va biz ularni yuda kutayotganimizni hamda doimo yordam berishga tayyor ekanligimizni bilishlari kerak. Ushbu qo'llanmani tayyorlashda Markaziy Osiyo va Rossiya Federatsiyasining eng yaxshi mutaxassislari ishtirok etdilar. Men ular bilan tanishganim va ular bilan hamkorlik qilganim uchun taqdirimdan minnatdorman. Barchamizga tinchlik, baxt va farovonlik tilayman.



TEMIRBEK NURMATOV,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent,
Qирғызстан Ташкы ишлар вазиригі Diplomatik akademiyasi
(Bishkek, Qırğıziston Respublikası)



MUATTARA RAHIMOVA,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
(Toshkent, O'zbekiston Respublikasi)

Jamoaviy ilmiy ishimiz yaxshi ishlarga – mehnat qiluvchi migrantlarning hayoti sifatli o'zgarishiga xizmat qilsin. Ular har doim va hamma joyda faqat o'z vatanlari ko'rsatadigan g'amxo'rlik va iliqlikni his qilishsin!



SERGEY RYAZANTSEV,
Rossiya Fanlay Akademiyasining muxbir a'zosi, Iqtisod fanlari doktori, professor, Rossiya Fanlar akademiyasining Federal ilmiy-tadqiqot sotsiologik markazi Demografik tadqiqotlar Instituti direktori, Rossiya Federatsiyasi TIV MDXMI
(Moskva, Rossiya Federatsiyasi)

Markaziy Osiyoga qaytish migratsiyasi to'g'risidagi kitob, birinchi navbatda, uga qaytgan odamlar haqida hikoya qiladi... Siz har doim uga xotiralar, yangi his-tuy'ular, qarindoshlar va do'stlarni ko'rish istagi bilan qaytasiz. Hammamizning uyimiz bor va u yerga qaytib borishni xohlaymiz. Bizni doimo kutishadigan joyga...



MIRZATILLO TILLABAYEV,
yuridik fanlar doktori, dotsent,
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi
(Toshkent, O'zbekiston Respublikasi)



GADAM XUDAYNAZAROV,
"Hukukchi Xizmatdash" yuridik firmasi
(Ashxobod, Turkmaniston)

QISQARTMALAR RO'YXATI

BMT QOKB	Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qochqinlar ishlari bo'yicha Oliy Komissar Boshqarmasi
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
BRM	Barqaror rivojlanish maqsadlari
BSST	Butunjahon sog'lioni saqlash tashkiloti
DMX	Davlat migratsiya xizmati
FMX	Federal migratsiya xizmati
FPK	Fuqarolik protsessual kodeksi
FQ	Federal qonun
FX	Federal Xavfsizlik Xizmati
IIB	Ichki ishlar bo'limi
IIV	Ichki Ishlar Vazirligi
IQRY	Ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashishga yordam
JK	Jinoyat kodeksi
JPK	Jinoyat protsessual kodeksi
KXST	Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti
MB	Markaziy Bank
MDH	Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi
MHR	Milliy Harakatlar rejasи
MHtK	Ma'muriy huquqbarzaliklar to'grisida kodeks
MMMD	Munosib mehnat bo'yicha mamlakat dasturi

MO	Markaziy Osiyo
MTS	Majburiy tibbiy sug'urtalash
NHT	Nohukumat tashkiloti
NTT	Motijorat tashkiloti
O'zR	O'zbekiston Respublikasi
QrR	Qirg'iziston Respublikasi
QzR	Qozog'iston Respublikasi
RF	Rossiya Federatsiyasi
RFA	Rossiya Fanlar Akademiyasi
RSFSR	Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi
ShHT	Shanxay Hamkorlik Tashkiloti
SSRI	Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi
TIV	Tashqi Ishlar Vazirligi
TR	Tojikiston Respublikasi
VYR	Vaqtincha yashash ruxsatnomasi
XMgT	Xalqaro Migratsiya Tashkiloti
XMhT	Xalqaro Mehnat Tashkiloti
YevrOIH	Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati
YI	Yevropa Ittifoqi
YII	Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi
YXHT	Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti

MUNDARIJA

I BO'LIM. ZAMONAVIY SHAROITLarda QAYTISH MIGRatsiyasi	16
1.1. Migratsyaning terminologiyasi va tasnifi. Migratsyaning omillari va sabablari.....	17
1.2. Qaytish migratsiyasining ta'rifи, turlari va tendensiyalari	27
1.3. Qaytish migratsiyasining dasturlarini amalga oshirish bo'yicha mamlakatlarning maqsadlari va yondashuvlari	38
II BO'LIM. QAYTISH MIGRAtSIyASINING HUQUQiy ASOSLARI	50
2.1. Qaytish migratsiyasi xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlarda	51
2.2. IQRY (Ixтиориј qaytish va reintegratsiyalashishga yordam) ning huquqiy asoslari	63
2.3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy qonun hujjatlaridagi qaytish migratsiyasi	76
III BO'LIM. MARKAZIY OSIYODA QAYTISH MIGRAtSIyASINING DASTLABKI SHART-SHAROITLARI VA XUSUSiyATLARI	94
3.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining demografik rivojlanishi va migratsiya holati	95
3.2. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytish migratsiyasining sabablari va tendensiyalari	110
3.3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy rivojlanishiga iqtisodiy va ijtimoiy-demografik hissa va qaytish migratsiyasining salohiyati	123
3.4. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytib kelgan migrantlarning moslashish va reintegratsiyalashish muammolari.....	139
3.5. Diasporalar Markaziy Osiyo mamlakatlarining qaytish migratsiyasi uchun resursi va salohiyati sifatida	154
IV BO'LIM. MARKAZIY OSIYODA QAYTISH MIGRAtSIyASI, TAHDiDLAR VA STRATEGiYALAR	178
4.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va migratsiya siyosati: qaytish migratsiyasining roli	179
4.2. Migratsiya siyosati va IQRY inobatga olgam holda markaziy osiyo mamlakatlarida qaytish migratsiyasining amalga oshirilishi	201
ILOVALAR	215
1-ilova Migratsiya bo'yicha xalqaro me'yoriy-huquqiy baza	216
2-ilova Qozog'iston Respublikasining migratsiyaga doir me'yoriy-huquqiy bazasi.....	218
3-ilova Qирг'изистон Respublikasining migratsiyaga doir me'yoriy-huquqiy bazasi	220
4-ilova Tojikiston Respublikasining migratsiya to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy bazasi.....	223
5-ilova Turkmaniston Respublikasining migratsiyaga doir me'yoriy-huquqiy bazasi	224
6-ilova O'zbekiston Respublikasinnig migratsiya bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazasi	225
7-ilova Rossiya Federatsiyasining migratsiya bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazasi.....	229

"Qaytish migratsiyasi: xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy xususiyatlari" o'quv qo'llanmasi 2019 yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari: Qozog'iston, Qиргизистон, Тоҷикистон, Түркменистон ва О'збекистон oliv o'quv yurtlarining yetakchi o'qituvchilari bilan hamkorlikda xalqaro migratsiya tashkiloti (XMgR)/BMTning Markaziy Osiyo bo'yicha migratsiya agentligi (Olmaota) submintaqaviy koordinatsion ofisi tomonidan yaratildi.

Ushbu qo'llanmaning maqsadi – xalqaro migratsyaning huquqiy asoslari, migratsiya jarayonlarini boshqarishning huquqiy jihatlari, xususan, mehnat, etnik va qaytish migratsiyasining turli shakllari, shu jumladan ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maxsus o'quv qo'llanmasining maqsadli auditoriyasi – o'z mamlakatlarining migratsiya siyosatini amalga oshirish, migratsiya jarayonlarini xalqaro, mintaqaviy va milliy darajalarda huquqiy tartibga solish sohasida band bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining davlat va munitsipal xizmatchilari, shuningdek migratsiya sohasida ishlaydigan boshqa shaxslardir.

Qo'llanmani o'zlashtirishning dolzarbli global migratsiya jarayonlarini faollashtirish, migratsiya masalalari bilan bog'liq siyosiy nizolarning o'sishi, qaytish migratsiyasining huquqiy mexanizmlarini qo'llash orqali huquqiy holati tartibga solinmagan migrantlarga nisbatan keskinlikni bartaraf etish bo'yicha qarorlarni ishlab chiqish, shuningdek, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish, shu jumladan BMTning xavfsiz, tartibga solingan va tartibga solinadigan migratsiya to'g'risidagi global shartnomasi doirasida mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurati bilan bog'liq.

Bunday o'quv dasturlari va kurslari davlat va munitsipal organlari xodimlari uchun foydali bo'ladi. Ular migratsiya masalalarida mayjud bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi va yangi bilimlar beradi; xalqaro migratsiya huquqining rivojlanish tarixi va zamonaviy tendensiyalari, mehnat qiluvchi migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish mexanizmlari va kafolatlari, migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo'yicha turli milliy yondashuvlar, ularni amalga oshirish bo'yicha dasturlar va chora-tadbirlar bilan tanishishga imkon beradi, bu dasturlar va chora-tadbirlar migrantlarning nozik toifalarini himoya qilishga va ularga yordam berishga, ularni reintegratsiyalashga qaratilgan.

"Qaytish migratsiyasi: xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy xususiyatlari" kursi migratsiya jarayonlarini tartibga solish sohasida xalqaro standartlarning implementatsiyasi bo'yicha mamlakatlarning ilg'or amaliyotlariga murojaat qiladi. Shuning uchun uning amaliy yo'nalishi davlat va munitsipal xizmatchilarga o'z ishlarida olingan bilimlarni qo'llashga imkon beradi. Kurs, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya siyosatini amalga oshirish sohasida davlat va munitsipal xizmatchilar – amaliyotchilarni o'qitish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular majburiy ravishda huquqiy ta'limga ega bo'lishlari shart emas.

1. Qo'llanmaning vazifalari:

- migratsiya va rivojlanish, migrantlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida ishlaydigan davlat va munitsipal xodimlarining bilim, ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish;

- tinglovchilarni xalqaro migratsiya huquqining asosiy qoidalari, mehnat, etnik va qaytish migratsiyasining huquqiy jihatlari, shuningdek Markaziy Osiyo mamlakatlarining tegishli migratsiya qonun hujjatlari bilan tanishtirish;
- kurs tinglovchilariga ixtiyoriy ravishda qaytish migratsiyasi va reintegratsiyalashish sohasida zarur xalqaro standartlarni belgilashga o'rgatish;
- kurs tinglovchilarini Mehnat qiluvchi migrantlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etishga asoslangan holda o'z ishlarida yondashuvni qo'llashga o'rgatish;
- migratsiya boshqaruvida davlatning asosiy rolini va fuqarolik jamiyatining ushbu jarayonga qo'shgan hissasini o'rghanish.

2. Kurs oxirida olingan bilim, mahorat va ko'nikmalar (natijalar)

Kurs xalqaro migratsiya huquqining asosiy bilimlarini, migratsiya boshqaruvining huquqiy asoslarini, ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashishga yordam (IQRY) dasturlarini amalga oshirishda yondashuvlarni ta'minlaydi. Kurs tinglovchilari migratsiya va IQRY sohasida kerakli ma'lumotlarni to'plash, kasbiy faoliyatining tegishli sohalarida IQRY bo'yicha strategik va tahliliy hujjatlarni tuzish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Kurs tinglovchilari migratsiyani boshqarish sohasida qo'llaniladigan asosiy xalqaro, mintaqaviy va milliy huquqiy hujjatlar, jumladan, qaytish migratsiyasi va ayniqsa ixtiyoriy ravishda qaytish migratsiyasi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Bu ularga davlat yoki munitsipal xizmatchillarning keyingi kasbiy faoliyatida yordam beradi.

Kursni o'rgangach, o'quvchilar:

Quyidagilarni bilib olishjadi:

- migratsiya jarayonlarini xalqaro-huquqiy tartibga solishning asosiy tarixiy bosqichlari;
- migratsiya jarayonlarini ularning ko'p darajali tuzilishi va ko'p qirrali xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarishda mamlakatlar va mamlakatlararo hamkorlikning ustuvor ahamiyati to'g'risida;
- Xalqaro migratsiya huquqi va uning global, mintaqaviy va milliy darajadagi manbalari nima?
- ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashish xususiyatlari haqida.

Quyidagilarni o'rganishadi:

- migratsiyani, shu jumladan, qaytish migratsiyasini tartibga soluvchi tegishli xalqaro, mintaqaviy va milliy normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish;
- migratsiya sohasidagi dasturiy va tahliliy hujjatlarni ishlab chiqish va olingan bilimlarni migrantlarning, shu jumladan Mehnat qiluvchi migrantlarning huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash;
- ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashish jarayonlarida xalqaro huquqiy standartlarni qo'llash.

Quyidagilarni o'zlashtiradilar:

- xalqaro migratsiya huquqi, ixtiyoriy ravishda qaytish va reintegratsiyalashish terminologiyasi;
- qaytish migratsiyasining xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini to'g'risida ma'lumotlar.

3. O'qish uchuno'quvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan asosiy bilimlar (zarur shart-sharoitlar)

Kurs Markaziy Osiyoda migratsiya siyosatini amalga oshirishda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar, shuningdek xalqaro migratsiya huquqi asoslarini va Markaziy Osiyo mintaqasidagi mehnat, etnik va qaytish migratsiyasini tartibga solishni o'rjanmoqchi bo'lganlar uchun mo'ljallangan.

4. Qo'llanmaning qisqacha mazmuni

O'quv qo'llanmasi doirasida o'quvchilar xalqaro migratsiya huquqining rivojlanish tarixi va hozirgi tendensiyalari; migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi xalqaro, mintaqaviy va mintaqalararo huquqiy vositalar; ixtiyoriy qaytish konsepsiysi, mazmuni va afzalliklari, asosiy atamalar; migratsiya masalalarini huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy davlatlar va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tajribasi, migratsiyani boshqarishda davlatlarning roli va fuqarolik jamiyatining yordami bilan tanishadilar. Qo'llanma 4 bo'limdan iborat:

I Bo'lim. Zamonaviy sharoitlarda qaytish migratsiyasi

Birinchi bo'limda migratsyaning asosiy terminologiyasi va tasnifi, shuningdek migratsiya omillari va sabablari keltiriladi. Darslik mualliflari tomonidan asosiy tushunchalar keltirilgan va qaytish migratsiyasining turlari va tendensiyalarini, shu bilan qatorda dunyoning ba'zi mamlakatlarida qaytish migratsiyasi salohiyatini shakllantirishning tarixiy xususiyatlari tavsiflangan. Bo'lim, shuningdek, mamlakatlarning qaytish migratsiyasi dasturlarini amalga oshirish maqsadlari va yondashuvlariga bag'ishlangan.

II Bo'lim. Qaytish migratsiyaning huquqiy asoslari

Ikkinchi bo'limda xalqaro migratsiya huquqidagi migratsyaning, shu jumladan, qaytish migratsiyasining roli va o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Qaytish migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish sohasida mamlakatlararo, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik hamda migratsiya, odam savdosiga qarshi kurashish, MDH, ShHT, YOII, KXShT va Olmaota jarayoni kabi tashkilotlar va saytlarga daxldor bo'lgan mintaqaviy shartnomalar va mexanizmlar tasvirlanadi. Shuningdek, ushbu bo'limda Ixtiyoriy qaytish migratsiyasi dasturining huquqiy asoslari, uning xalqaro va mintaqaviy jihatlari, tamoyillari, bosqichlari va xorijiy mamlakatlarning ularni amalga oshirishdagi tajribasi haqida so'z boradi. Qaytish migratsiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy qonun hujjalariда o'rganiladi va mintaqada IQRY rivojlanishining dastlabki shartlari va salohiyati aniqlanadi.

III Bo'lim. Markaziy Osiyoda qaytish migratsiyasining dastlabki shart-sharoitlari va xususiyatlari

Uchinchi bo'limda darslik mualliflari Markaziy Osiyoda 2010-2018 yillardagi demografik rivojlanish va migratsiya holati, mintaqadagi qaytish migratsiyasining sabablari va tendensiyalari, qaytish migratsiyasining mintaqaviy rivojlanishga qo'shgan iqtisodiy va ijtimoiy-demografik hissasi va salohiyati, shuningdek Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaytib kelgan migrantlarning moslashish va reintegratsiyalashish muammolarini tavsiflaydi. Mavzu ushbu mintaqqa uchun dolzarblii sababli, mualliflar diasporalarni Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaytish migratsiyasi manbai va salohiyati sifatida o'rganmoqdalar. Muayyan migratsiya jarayonlarining natijasi sifatida e'tirof etilgan diaspora migrantlar va ularning vatanini, shuningdek, migrant-donor mamlakatni va qabul qiluvchi mamlakatni bog'laydigan qaytish migratsiyasi mexanizmlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon yaratadi.

IV Bo'lim. Markaziy osiyoda qaytish migratsiyasini boshqarish va iqryni rivojlantirish

Qo'llanmaning oxirgi qismida Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining milliy strategiyalari va ularda rivojlanish manbai sifatida migratsiya o'rni tavsiflangan. Shuningdek, mualliflar Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiyani, shu jumladan, qaytish migratsiyasini tartibga solish bo'yicha yondashuvlarini ham keltirganlar. Xulosa qismida Markaziy Osiyoda qaytish migratsiyasi, shuningdek IQRYni rivojlantirishda fuqarolik jamiyatni institutlarining roli bayon etilgan.

I BO'LIM.

ZAMONAVIY SHAROITLARDA QAYTISH MIGRATSIYASI

1.1. Migratsiyaning terminologiyasi va tasnifi. Migratsiyaning omillari va sabablari.

Mundarija. "Migratsiya" va "migrant" tushunchasi. BMT va XMgT yondashuvlari. Migratsiyaning tasnifi. Xalqaro va ichki migratsiya. Emigratsiya va immigratsiya. Doimiy va vaqtinchalik migratsiya. Uzoq muddatli va qisqa muddatli migratsiya. Siklik yoki doiraviy migratsiya. Tartibsiz va tashkillashtirilgan migratsiya. Ixtiyoriy, extiyoyiy va majburiy migratsiya. Tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan migratsiya. Hujjatlashtirilgan va hujjatlashtirilmagan migratsiya. Migratsiya maqsadlari: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik. Migratsiya omillari. Migratsiya sabablari. Migratsiyaning chiqarib yuboruvchi va jalb qiluvchi sabablari.

"Migratsiya" atamasi lotincha "migratio" va "migro" so'zlaridan kelib chiqqan ("ko'chib o'tyapman" va "ko'chib ketyapman"). Ushbu atamaning keng qo'llanilishiga qaramay, uning yagona talqini yo'q.

XMgT migratsiyani "*odamlarning odatiy yashash joyidan xalqaro chegara orqali yoki davlat chegaralari ichida ko'chib o'tishi*" deb ta'riflaydi¹.

Xalqaro miqyosda "migrant" atamasining umume'tirof etilgan ta'rifi mayjud emas. XMgT o'z maqsadlari uchun quyidagi ta'rifni ishlab chiqdi: "Migrant – bu xalqaro huquqda ta'riflanmaydigan umumiyl atama bo'lib, u mamlakat ichida yoki xalqaro chegara orqali vaqtinchalik yoki doimiy ravishda va turli sabablarga ko'ra odatiy yashash joyidan chiqib ketadigan shaxsning umumiyl nokasbiy izohini aks ettiradi". Ushbu atama mehnat qiluvchi migrantlar kabi yuridik jihatdan aniq ta'riflangan bir qator yuridik insonlar toifasini; noqonuniy olib kiriladigan migrantlar kabi, aniq harakatlanish turlari qonun bilan belgilangan shaxslarni; shuningdek maqomi yoki harakatlanish vositalari xalqaro huquqda aniq belgilangan shaxslar, masalan, chet elliq talabalarni nazarda tutadi².

Odatda "migrant" atamasini ta'riflash uchun ikki yondashuvdan foydalaniladi:

- XMK "migrant" atamasini ko'chishning barcha shakllarini qamrab oladigan umumiyl atama sifatida ko'rib chiqqan holda inklyuziv yondashuvga asoslanadi;
- rezidual yondashuv "migrant" atamasidan urush yoki ta'qiblardan qochadiganlarni (ya'ni qochqinlar va noiloj migrantlarning boshqa toifalarini) istisno qiladi.

Migratsiya ma'lumotlarini to'plash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Ishlar Departamenti "*odatdag'i yashash mamlakatini o'zgartirgan har qanday shaxs*"ni xalqaro migrant deb ta'riflaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'rifi "dam olish, do'stlar va qarindoshlarnikiga tashrif, biznes, tibbiy muolajalar va diniy ziyyarat" tufayli yuzaga kelgan migratsiyani istisno qiladi³.

Tasniflash asosiga qarab, migratsiyaning bir nechta turlarini ajratish mumkin.

¹ Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: www.iom.int/key-migration-terms#Migration].

² Shu yerga qarang.

³ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM) 2019. 130-131 b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

Birinchi mezon: bosib o'tilgan muayan chegaralarni hisobga olgan holda, aholining tashqi (xalqaro, mamlakatlararo) va ichki (davlat ichidagi) migratsiyasini farqlash mumkin.

XMgT xalqaro migratsiyani shaxslarning odatiy yashash joyidan va xalqaro chegaradan ular fuqaroligi bo'limgan mamlakatga ko'chib o'tishi deb ta'riflaydi⁴. Xalqaro migratsiya donor mamlakatlarning ham, qabul qiluvchi mamlakatlarning ham aholisi soniga ham ta'sir qilishi mumkin.

Mamlakatdan chiqib ketish emigratsiya deb ataladi va unga aloqador odamlar emigrantlar deb *ataladi*. Mamlakatga kelishni *immigratsiya* deb atash mumkin, va bunga aloqador odamlar – *immigrantlar*.

BMT va XMgT tomonidan ishlatalgan ta'riflar:

Ketish mamlakati nuqtai nazaridan, emmigratsiya – bu shaxsning o'z fuqaroligi bo'lgan mamlakatdan yoki odatiy yashash joyidan boshqa mamlakatga o'sha mamlakatni o'zining odatiy yashash joyiga aylantirish maqsadida ko'chib o'tish harakati⁵.

Chet elga yuboruvchi davlat nuqtai nazaridan, emigrant – bu o'z fuqaroligi bo'lgan mamlakati yoki odatiy yashash joyidan boshqa mamlakatga aslida o'sha mamlakatni uning odatiy yashash joyiga aylantirish maqsadida ko'chib o'tadigan shaxs⁶.

*Immigratsiya, ko'chib o'tilgan mamlakat nuqtai nazaridan, bu o'z fuqaroligi bo'lgan davlat yoki odatiy yashash joyidan boshqa mamlakatga ko'chib o'tadigan shaxsning harakati bo'lib, u boradigan mamlakat amalda yangi yashash joyiga aylanadi*⁷.

Kelish mamlakati nuqtai nazaridan, immigrant – bu o'z fuqaroligi bo'lgan mamlakatdan yoki odatiy yashash joyidan boshqa mamlakatga borish mamlakatini o'zinikiga yoki o'zining yangi odatiy yashash joyiga aylantirish maqsadida kirib borayotgan shaxs⁸.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar bo'yicha Departamenti xalqaro migrantlarning oqimini mamlakatga kelayotgan xalqaro migrantlar (immigrantlar) soni yoki aniq bir davrda mamlakatdan chiqib ketayotgan xalqaro migrantlar (emigrantlar) soni sifatida ta'riflaydi⁹. Shuningdek, "xalqaro migrantlarning kontingenti (to'plangan soni)" tushunchasi ham mavjud bu ma'lum vaqt ichida biron bir mamlakatda odatiy yashash joyini qachonlardir o'zgartirgan xalqaro migrantlarning umumiyligi soni (tushuncha statistik maqsadlarda ishlataladi)¹⁰.

XMgT ichki migratsiyani – bu yangi, vaqtincha yoki doimiy yashash joyini yaratishni niyat qiluvchi odamlarning davlat ichidagi joyini o'zgartirishi deb ta'riflaydi¹¹. Davlat ichidagi migratsiyada *ma'lum ma'muriy-hududiy birlik* (tuman, viloyat, respublika, okrug va boshqalar) amalga oshiriladigan mintaqalar

⁴ Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) (www.iom.int/key-migration-terms#Migration).

⁵ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM) 2019. 62-b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

⁶ Shu yerga qarang, 61-b.

⁷ Shu yerga qarang, 101-b.

⁸ Shu yerga qarang, 101-b.

⁹ Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: www.iom.int/key-migration-terms#Migration].

¹⁰ Shu yerga qarang.

¹¹ Shu yerga qarang.

ichidagi (tumanlr ichidagi) migratsiyalar va *mintaqalaaro* (tumanlararo) migratsiyalar ajratiladi. Ushbu ko'chishlar mamlakatning umumiy aholisiga ta'sir qilmaydi, balki mamlakat ichidagi aholining joylashuvini o'zgartiradi.

Ikkinchi mezon – *migrantning yashash yoki turish joyidagi vaqtiga, migratsyaning muntazamligi va davriyiligiga bog'liq*. Doimiy (qaytarib bo'lmaydigan) va vaqtinchalik migratsiyani (shu jumladan uzoq va qisqa muddatli) aytib o'tish mumkin.

Doimiy (qaytarib bo'lmaydigan) migratsiya doimiy yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq. Bunday migratsyaning klassik namunasi qishloqdan shaharga yoki chet elda doimiy yashash joyiga ko'chib o'tish deb hisoblangan (qaytarib bo'lmaydigan emigratsiya). Ammo zamonaviy sharoitda aholi ancha faol va tez-tez ko'chib boradi va "doimiy yashash" tobora xiralashmoqda va mujmal tushunchaga aylanmoqda. Masalan, ko'p odamlar shaharda kvartiraga va qishloq uya ega bo'lib, ularda taxminan bir xil va yetaricha uzoq vaqt o'tkazishadi. Shuning uchun ularning doimiy yashash joyi nima ekanligini aniq aytish qiyin. Ba'zilar hatto ikki mamlakatda yashaydilar.

XMgT "doimiy yashash joyi" atamasini "chet elliqga u ko'chib borgan davlat hokimiysi tomonidan o'sha davlatda doimiy (cheklanmagan yoki muddatsiz) asosda yashashga berilgan huquq deb ta'riflaydi. Shu bilan birga, doimiy aholi uchun yashash sharoitlari bir davlatdan boshqasiga farq qiladi¹². Shunga ko'ra, "doimiy yashovchi – bu belgilangan mamlakatda doimiy yashash huquqiga ega bo'lgan fuqaroligi bo'lмаган шахс"¹³.

Vaqtinchalik migratsiya uzoq muddatli va qisqa muddatliga bo'linadi.

BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar bo'yicha Departamenti quyidagi ta'rifni beradi: "Uzoq muddatli migrant – bu odatdagи yashash joyidan boshqa mamlakatga kamida bir yil muddatga ko'chib kelgan shaxs, u boradigan mamlakati aslida uning yangi odati yashash joyi bo'lgan mamlakatga aylanishini maqsad qiladi. Ko'chib ketgan mamlakati nuqtai nazaridan, bu shaxs uzoq muddatli emigrant, hamda ko'chib kelgan mamlakat nuqtai nazaridan uzoq muddatli immigrant bo'ladi". BMTning statistik maqsadlarda ishlatalidigan uzoq muddatli migrant ta'rifi faqat xalqaro migrantlarga taalluqlidir¹⁴.

Qisqa muddatli migrant. Uch oydan o'n ikki oygacha mamlakatdan uzoqda bo'lgan shaxs qisqa muddatli migrant hisoblanadi. BMTning tushunchasiga binoan, "qisqa muddatli migrant" ta'rifi ushbu mamlakatga hordiq chiqarish, do'stlar va qarindoshlarnikiga borish, biznes, tibbiy xizmat yoki diniy ziyyorat qilish uchun boradigan shaxslarni o'z ichiga olmaydi¹⁵.

"Barcha mehnat qiluvchi migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida" xalqaro konvensiyada (1990 yil 18 dekabrda qabul qilingan, 2003 yil 1 iyulda kuchga kirgan) "siklik yoki doiraviy migratsiya" tushunchasi qo'llaniladi. Bu ikki yoki undan ortiq mamlakat o'rtasida odamlar doimiy ravishda biror joyga va orqaga ko'chadigan migratsiya shaklidir.

¹² Shu yerga qarang.

¹³ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM) IOM. 2019. 153-154 b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

¹⁴ Shu yerga qarang, 123-b.

¹⁵ Shu yerga qarang, 61-b.

"Siklik migratsiya" atamasи bir nechta kontekstlarda qo'llaniladi. U o'z-o'zidan yuz beradigan migratsiyani tavsiflash uchun ishlataladi (masalan, chegara mintaqalarida, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining bir qismi sifatida, masalan, Yevropa Ittifoqiga, yoki shaxs birdan ortiq mamlakatda yashash uchun qonuniy huquqqa ega bo'lgan ikki yoki undan ko'p mamlakat o'rtaida). Bunday migratsiya mamlakatlar va rivojlanish jarayonining ishtirokchilari tomonidan migrantlarning chet elga chiqib ketishiga yordam berish uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturlar va sxemalar orqali rag'batlantiriladi, odatda vaqtincha, ish topish va keyin o'z mamlakatiga qaytish uchun. Shu bilan birga, siklik migratsiya dasturlarini ishlab chiqishda alohida e'tibor berilishi kerak, chunki migratsiyaning ushbu shakli har doim ham uzoq muddatli tarkibiy tanqisligi bo'lgan mehnat bozori sektorlari uchun maqbul yechim bo'lal olmaydi. Bu mehnat bozorlarida doimiy kirish shakllari va uzoq muddatli integratsiya ish beruvchilarning ham, mehnat qiluvchi migrantlarning ham ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Siklik migratsiyani iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning yomonlashishi ta'siriga qarshi kurashish uchun strategiya sifatida ham ishlatish mumkin. Shunday qilib, siklik migratsiya sxemalari mahalliy byudjetlarni to'ldirishning samarali usuli va iqlim o'zgarishi ta'siriga uchragan jamoalarning barqarorligini oshirish uchun bo'lishi mumkin¹⁶.

Qisqa muddatli migratsiya turlari orasida quyidagilarni aniqlash mumkin:

Tasodifiy migratsiya vaqt bo'yicha nomuntazam ravishda va turli yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ishbilarmonlik, hordiq chiqarish olish yoki boshqa safarlarni (xizmat safari, ta'til va hokazo) o'z ichiga oladi.

Mayatnikli migratsiya o'z aholi yashash joyidan tashqaridagi ish yoki o'qish joyiga doimiy tashriflar bilan bog'liq. Ularning soni zamonaviy sharoitda ham, shu jumladan transport infratuzilmasini rivojlantirish hisobiga o'smoqda.

Mavsumiy migratsiyalar *yilning ma'lum davrlarida* aholi ko'chib o'tishi bilan tavsiflanadi. Masalan, yozgi qishloq xo'jaligi ishlariga yoki dam olish joylariga dam olishga qilingan safarlar. BMT "mavsumiy mehnat migranti" *tushunchasini qo'llaydi* – bu tabiatan ishi yoki migratsiyasi mavsumiy sharoitga bog'liq va faqat yilning bir qismida migrant tomonidan amalga oshiriladi¹⁷.

Ba'zida vaqtinchalik migratsiya shakllari mamlakatlar chegaralarini kesib o'tish bilan bog'liq. Bu holda *vaqtinchalik chegara hududi migratsiyasi atamasidan* – boshqa mamlakatga ishlash uchun kunlik yoki mavsumiy safarlar va "mavsumiy chegara hududi ishchilar", "frontalyer ishchilar" tushunchalaridan foydalaniлади. BMT "Chegara hududi mehnat migranti" *tushunchasini qo'llaydi* – bu odatliy yashash joyini qo'shni davlatda saqlab turuvchi shaxs bo'lib, odatda har kuni yoki haftasiga kamida bir marta qaytib keladi¹⁸.

Uchinchi mezon – bu davlatning migrantlar oqimini shakllantirishdagi ishtiroki va boshqa joyga o'tkazish va boshqa joyga ko'chirish jarayonida ishtiroq etish. Bu holda, migrantlarning o'z kuchlari va vositalari orqali amalga oshiriladigan mustaqil migratsiya (tashkillashtirilmagan, tartibsiz) va tashkillashtirilgan migratsiya (ko'chib o'tish bo'yicha davlat dasturlari, tashkiliy ravishda ishga yollash, xizmatga chaqirish va hokazo) davlat organlari yoki ba'zi bir tashkilotlar (xalqaro, milliy, etnik-madaniy, iqtisodiy va boshqalar)

¹⁶ Shu yerga qarang, 27-28 b.

¹⁷ Shu yerga qarang, 79-b.

¹⁸ Shu yerga qarang, 190-b.

hisobidan to'liq yoki qisman amalga oshiriladi. Ko'chib o'tishning tashkillashtirilgan shakllari odatda qisqa muddatda davlat uchun qimmatroq bo'ladi, lekin uzoq muddatda ular xarajati qoplanadi, chunki odamlar oldindan tayyorlangan joylarga uyushqoqlik bilan ko'chishadi, qabul qiluvchi jamiyatga tezroq integratsiyalashadi.

To'rtinchi mezon ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan ko'chib o'tishga asoslanadi. Qachonki ko'chib o'tish migrantlarning xohishiga binoan sodir bo'lsa, *ixtiyoriy migratsiyava migratsiyaga majburlikni taqozo etadigan turli xil omillar sabab bo'lganda, majburiy migratsiya deb ajratish mumkin*¹⁹.

BMT yondashuvi bo'yicha:

- "majburiy ko'chishlar" – qurolli to'qnashuvlar, vaziyatlar, umumiy zo'ravonlik holatlari, inson huquqlarining buzilishlari yoki tabiiy yoki antropogen ofatlar natijasida yoki oqibatlarining oldini olish uchun uylarini yoki odatiy yashash joylarini tashlab ketish yoki tark etishga majbur qilingan yoki majbur bo'lgan shaxslarning harakatlari"²⁰;
- "Ichki ko'chishlar" – xususan qurolli to'qnashuv, umumiy zo'ravonlik holatlari, inson huquqlarining buzilishi yoki tabiiy yoki antropogen ofatlar oqibatlarining natijasida yoki oldini olish uchun uylarini yoki odatiy yashash joylarini tashlab ketish yoki tark etishga majbur qilingan yoki majbur bo'lgan va xalqaro miqyosda tan olingan davlat chegarasini kesib o'tmagan shaxslar yoki shaxslar guruhlarining harakatlari"²¹.

Qayd etish kerak bo'lgan yana bir toifa bu qochqinlar:

- "1951 yildagi Konventsiyaga binoan qochqinlar – irqi, dini, fuqaroligi, ma'lum bir ijtimoiy guruhga yoki siyosiy qarashga ko'ra ta'qibning qurboni bo'lishning asosli qo'rquvi tufayli, ular o'z mamlakatlari tashqarisida bo'lgan va ushbu mamlakat himoyasidan foydalana ololmadigan yoki bunday qo'rquvlar tufayli ushbu mamlakat himoyasidan foydalinishni xohlamaydigan; yoki muayyan fuqaroligi bo'lмаган va bunday voqealar natijasida oldingi odatiy yashash joyidan tashqarida bo'lgan holda, bunday qo'rquvlar tufayli unga qaytishni istamaydigan shaxslar"²².

Beshinchi mezon migrantning chegaradan o'tishi va mamlakatda bo'lishining qonuniyligi tamoyiliga asoslanadi.

XMgT terminologiyasida quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

- "doimiy migratsiya – istiqomat qiladigan mamlakat, tranzit va ko'chib borgan mamlakat qonun hujjatlari muvofiq amalga oshiriladigan migratsiya"²³,
- barcha mehnat qiluvchi migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro konventsiyaga muvofiq: "doimiy migrant – odatdagи vaziyatda ko'chadigan yoki xalqaro

¹⁹ Shu yerga qarang, 75-b.

²⁰ Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: www.iom.int/key-migration-terms#Migration].

²¹ Shu yerga qarang.

²² Shu yerga qarang.

²³ Shu yerga qarang.

chegarani kesib o'tadigan va ushbu davlat qonunlariga va o'sha davlat ishtirok etgan xalqaro shartnomalarga muvofiq davlatga kirish yoki qolish huquqiga ega bo'lgan shaxs"²⁴;

- "nomuntazam migratsiya" – kelib chiqish, tranzit yoki ketish davlatga kirish yoki undan chiqishni tartibga soluvchi qonunlar, qoidalar yoki xalqaro shartnomalardan holi bo'lgan shaxslar ko'chishi²⁵;
- barcha mehnat qiluvchi migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro konvensiyaga muvofiq:"Maqomi tartibga solinmagan migrant – bu xalqaro chegaradan o'tayotgan yoki uni kesib o'tgan va ushbu davlatning qonun hujjatlariga va o'sha davlat ishtirokchisi bo'lib hisoblanadigan xalqaro shartnomalarga muvofiq davlatga kirish unda yoki qolish huquqiga ega bo'limgan shaxs. Shuni ta'kidlash kerakki, hatto tartibga solinmagan vaziyatlarda ham migrantlar oldingiday o'zlarining inson huquqlarini amalga oshirish, hurmat va himoya qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, qochqinlarga xalqaro himoyadan foydalanish imkoniyati berilishi kerak va ular o'zlari xavf ostida bo'lgan joyni tark etganlarida ruxsatsiz kirish yoki qolish uchun jazolanmasliklari kerak"²⁶.

Hujjatlashtirilmagan migrant – bu tegishli hujjatsiz mamlakatga kirgan yoki u yerda qolgan fuqaroligi bo'limgan shaxs. Migrantlar ikkita sababga ko'ra ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lishi mumkin. Birinchidan, ularda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud, ammo ularning mamlakatga kirish va unda qolish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emas yoki bunday hujjatlar soxta yoki bekor qilingan. Ikkinchidan, ularda shaxsini tasdiqlovchi biron-bir hujjat, shuningdek, mamlakatga kirish va qolish huquqini tasdiqlovchi boshqa dalillar yo'q. Hech qanday shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bo'limgan hujjatlashtirilmagan migrantlar uchun odatda xizmatlardan foydalanishda, yashashga yoki ishlashga ruxsat olishda yoki o'z vataniga qaytishda quyinchiliklarga ko'proq duchor bo'lishiadi. Hujjatlashtirilmagan migrantlar, agar ular fuqaroligi to'g'risida biron bir dalil ololmasa, uzoq muddatli istiqbolda fuqaroligini yo'qotish xavfi ostida qolishlari ham mumkin²⁷.

Oltinchi mezon – bu maqsadi iqtisodiy (mehnat, tijorat faoliyati), ijtimoiy (o'qish, nikoh, oilani birlashtirish), siyosiy (boshpona), ekologik (iqlim sharoitining o'zgarishi, ekologik vaziyat) bo'lishi mumkin bo'lgan migratsiya.

Hozir iqtisodiy migratsiyaning eng ko'p tarqalgan ko'rinishi mehnat migratsiyasi bo'lib hisoblanadi. XMgT yondashuviga ko'ra "Mehnat migratsiyasi shaxslarning ishlash uchun bir davlatdan boshqa davlatga yoki o'zi yashaydigan davlat ichida bir joydan boshqa joyga ko'chishidir"²⁸. Migrantning o'ziga beriladigan ta'rifga muvofiq mehnat migratsiyasi ham mamlakat ichida bir joydan boshqa joyga ko'chayotgan migrantlarni, ham xalqaro chegaralar orqali bir davlatdan boshqa davlatga ko'chayotgan migrantlar sifatida ta'riflanadi. Ushbu tanlov, shuningdek, bir mamlakatning o'zida ish izlab bir joydan boshqa joyga ko'chayotgan, ba'zida xuddi xalqaro migrantlar kabi kamsitish va integratsiya qiyinchiliklari kabir

²⁴ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM) 2019. 132-b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

²⁵ Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: www.iom.int/key-migration-terms#Migration].

²⁶ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM) 2019. 131-132 b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

²⁷ Shu yerga qarang, 219-220 b.

²⁸ Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: www.iom.int/key-migration-terms#Migration].

xil to'siq yoki muammolarga duch keladigan ko'plab shaxslar tomonidan oqlanadi. Garchi bungay muammolar xalqaro chegaralar orqali ko'chayotgan migrantlar uchun jiddiyroq bo'lsa-da, ular ichki migrantlar uchun ham xosdir²⁹.

Mehnat qiluvchi migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Xalqaro konvensiyaga binoan (1990 yil 18-dekabrda qabul qilingan, 2003 yil 1-iyulda kuchga kirgan) "Mehnat qiluvchi migrantlari – bu o'zi fuqarosi bo'limgan davlatda pul to'lanaqidan faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'layotgan, shug'ullanayotgan yoki shug'ullanadigan shaxs hisoblanadi. Konvensiyada mehnat qiluvchi migrantlar bilan ularning oila a'zolari faqat migrantlar borgan davlatda ishlayotgan vaqtida emas, balki "mehnat qiluvchi migrantlari bilan ularning oila a'zolari butun migratsiya jarayoni davomida, ya'ni, borishga tayyorlanayotganda, mamlakatdan chiqqanda, bir davlatdan boshqa davlatga o'tayotganda, ishga yollangan davlatda turgan hamda pul to'lanaqidan faoliyati davrida, shuningdek, kelib chiqish yoki odatda yashaydigan davlatiga qaytib ketayotganda ham himoya qilinadi", deb bevosita ko'zda tutilgan. Mehnat qiluvchi migrantlar ba'zan hujjatlarda "chet ellik ishchilar yoki (vaqtinchasi) shartnomasi tuzub ishlovchilar" sifatida ham eslab o'tiladi³⁰.

Ekologik migrant (ekologik migratsiya) – asosan atrof-muhitning hayoti yoki yashash sharoitlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tarzda to'satdan yoki progressiv o'zgarishi sababli odatdagagi yashash joyini tark etishga majbur bo'lgan yoki vaqtinchasi yoki doimiy ravishda yashashni afzal ko'rgan, va o'z mamlakatini yoki odatdagagi yashab turgan joylari doirasida bir joydan boshqa joyga borgan yoki bir davlatdan boshqa davlatga ketgan shaxs yoki shaxslar guruh³¹.

Hozircha bir joydan boshqa joyga ketishi atrof muhitdagagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lgan shaxs yoki shaxslar guruhini tafsiflash uchun foydalananiladigan atama haqida hech qanday xalqaro kelishuv yo'q³².

Hozirgi zamon migratsiyasining sabablarini xilma xil va murakkab. Lekin ularning orasidan birlamchilarini – iqtisodiy va ijtimoiy sabablarni ajratib ko'rsatsak bo'ladi. Bu ikkala sabab bir-biri bilan shu darajada bog'lanib ketganidan ko'pincha ularni bir-biridan ajratish qiyin va shu bois ijtimoiy-iqtisodiy sabablar haqida gapirish o'rinni bo'ladi.

Migratsiya faktori – lotin tilidan olingan faktor (omil) so'zi "qiluvchi", "ishlab chiqaruvchi" degan ma'noni bildiradi. "Omil tushunchasi biron-bir jarayon yoki hodisani harakatga keltiradigan kuch ma'nosida ishlatiladi.

Hozirgi migratsiyaning asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

- *iqtisodiy omillar* – ish haqining darajasi, ish borligi;
- *ijtimoiy omillar* – sog'liq, hayotiy kuch, oilaviy munosabatlar, bolalar;
- *diniy va etnik omillar* – biror halqqa mansublik, diniy e'tiqod;
- *tabiiy omillar* – ob-havo, iqlim, ekologik sharoit;
- *ma'muriy omillar* – migratsiya siyosati, migratsiyani nazorat qilish.

²⁹ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM). 2019. 121-b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

³⁰ Shu yerga qarang, 134-135 b.

³¹ Shu yerga qarang, 63-b.

³² Shu yerga qarang, 62-b.

Faktorlar (omillar) – biror hodisaning darajasi yoki rivojlanishini belgilaydigan determinantlar hisoblanadi. Masalan, iqlim shar-sharoiti aholi migratsiyasi va o'limlar soni omili hisoblanadi, lekin tug'ilish va ajralishlar soni uchun tegishli omil bo'lolmaydi. Yo'nalishi har xil bo'lgani bilan bizning nazarimizda bir nechta omil migratsiyaga, shu jumladan, migrantlar oldingi yashaydigan joylariga qaytishiga ta'sir qiladi.

Omillardan farqli ravishda *migratsyaning sababi* oqibat bilan u keltirib chiqaradigan harakat, ya'ni, migratsiya demakdir. Sabab deganda ta'siri boshqa bir hodisani keltirib chiqaradigan, belgilaydigan, o'zgartiradigan, hosil qiladigan yoki shunga olib keladigan hodisa tushuniladi. Sabab harakatdan, ya'ni miratsiya aktidan oldin keladi³³.

Migratsyaning sabablari ham "qochiruvchi", ham "tortuvchi" bo'lishi mumkin. "Itaruvchi" sabablar donor mamlakatlarda amal qiladi:

- iqtisodiy sabablar – ishsiz qolish va ish topish imkoniyati yo'qligi, ish haqi darajasining pastligi;
- ijtimoiy sabablar – hayotda istiqbollar bo'lmasligi, ta'lif olish imkoniyati yo'qligi, kriminogen vaziyatning yomonlashishi, inson o'zini xavfsiz sezmasligi;
- etnik-diniy sabablar- etnik, irqiy yoki diniy mansubligi bo'yicha kamsitish, etnoslar orasidagi ixtiloflar, "etnik tozalashlar";
- ma'muriy-siyosiy sabablar – siyosiy qarashlar uchun ta'qib qilinishi, deportatsiya qilish;
- tabiiy sabablar – tabiiy ofatlar, ekologik vaziyat va iqlim sharoitining yomonlashuvi;

"Tortuvchi" sabablar qabul qiladigan mamlakatlarda bo'ladi:

- iqtisodiy sabablar – ish topish mumkinligi, ish haqi darajasi yuqoriligi, rivojlangan infratuzilmadan foydalanish imkoniyati borligi;
- ijtimoiy sabablar – o'qishga kirish imkoniyati borligi, oila a'zolari, qarindoshlari borligi;
- etnik-diniy sabablar – din erkinligi, etnik va diniy xilma-xillik siyosati;
- ma'muriy-siyosiy sabablar – migrantlarni jaib qilish dasturlari;
- tabiiy sabablar – iqlim qulayligi, ekologik sharoit yaxshiligi.

Ko'plab individual migratsiya aktlarining majmui ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimga obyektiv tavsiif beradi. Shuning uchun ham migratsiya "odamlarning oyog'i bilan ovoz berish usuli" deyilishi bejiz emas.

Nazorat savollari:

1. Quyidagi tushunchalarning ta'rifini bering: migrant, xalqaro migrant, ichki migrant, emigratsiya, emigrant, immigratsiya, immigrant.
2. Doimiy va vaqtinchalik migratsiya bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? Uzoq muddatli va qisqa muddatli migratsiya nima? Misollar keltiring.
3. Migratsiya omilining migratsiya sababidan farqi nima?
4. Hozirgi dunyodagi migratsyaning eng ko'p tarqalgan sabablarini ayting.

³³ Demografik tushunchalar lug'ati/L.L. Ribakovskiy tomonidan tahrirlangan. M.: SSP. 2003. 157-b. [Kirish rejimi: www.socioprognoz.ru/files/File/2012/Demograf%20ponyatini%20slovar.pdf].

Amaliy mashg'ulot:

Milliy (mintaqaviy) matbuotni tahlil qiling. Oxirgi vaqtida chop etilgan xabarlarda migratsiyaning qaysi turi ko'proq tilga olingan? Ushbu nashrlarda migratsiya va migrantlar haqigagi ma'lumotlar qanday shaklda va nuqtai nazardan taqdim etilgan?

Majburiy adabiyot:

1. Demografik tushunchalar lug'ati/L.L. Ribakovskiy tomonidan tahrirlangan. M.: SSP. 2003. 352-b. [Kirish rejimi: www.socioprognoz.ru/files/File/2012/Demograf%20ponyatini%20slovar.pdf].
2. Amaliy demografiya/ L.L. Ribakovskiy tomonidan tahrirlangan. M.: SSP. 2003. 352-b. [Kirish rejimi: www.isras.ru/publ.html?id=2094].
3. Ryazantsev S.V., Tkachenko M.F. Jahan mehnat bozori va xalqaro migratsiya. M.: Ekonomika. 2010. 303-b.
4. Mehnat migratsiyasini boshqarish masalasi bo'yicha o'quv modullari. Uslubchilar uchun qo'llanma. Jeneva: OBSE XMgT. 2011. 348-b. [Kirish rejimi: www.osce.org/ru/secretariat/115544?download=true].
5. Yudina T.N. Migratsiy: asosiy atamalar lug'ati. M.: RGSU nashriyoti 2007. 462 bet. [Kirish rejimi: <http://yanko.lib.ru/books/cultur/yudina-migraciya-slov-term-2007-a.htm>]
6. Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi (International Migration Law. Glossary on Migration). Jeneva XMgT. 2004. 78 bet. [Kirish rejimi: http://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_1_en.pdf]
7. Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM). 2019. 98 bet. [Kirish rejimi: [https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf](http://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf)]

Qo'shimcha adabiyot:

8. Yeliseeva I. I. Demografiya va aholi statistikasi. 3-chi nashr, tarjima qilingan va to'liqtirilgan. Akademik bakalavrlar uchun darslik. M.: Yurait. 2017. 405 bet.
9. Xalqaro gumanitar huquq/ Kapustin A. Y. tomonidan tahrirlangan. 2-chi nashr, tuzatilgan va to'dirilgan. M. Yurayt. 2011. 639-bet. [Kirish rejimi: <https://ozon-st.cdn.ngenix.net/multimedia/1002960198.pdf>]
10. Ko'p qirrali migratsiya/O. D. Vorobyova, A. V. Topilin tomonidan tahrirlangan. M. Iqt-axborot. 2014. 261-b. [Kirish rejimi: www.isras.ru/publ.html?id=3685].
11. Sobiq SSRI dan kechroq ko'chib kelganlarning (Spaetaussiedler) huquqiy maqomi. GERMANY. RU. 1999. [Kirish rejimi: <http://recht.germany.ru/aussiedler.db/items/18.html?op=>]
12. Ryazantsev S. V. Ruslarning Rossiyada joylashtirilishi va migratsiyasi. Rus xalqi masalasi/ G. V. Osipov, V. V. Lokosov, I. B. Orlova tomonidan tahrirlangan M.: Ekonomika. 2007. 237-b.

13. Ryazantsev S. V., Grebenyuk A. A. "Biznikilar" chet elda. Ruslar, rossiyaliklar, rus tilida gapiradiganlar, vatandoshlar: joylashtirish, integratsiyalashtirish va Rossiyaga qaytish migratsiyasi. M. RFA ISTI. 2014. 238-b. [Kirish rejimi: <https://istina.msu.ru/publications/book/6531743/>].
14. Xalqaro migratsiya statistikasi. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun amaliy qo'llanma. BMT YEIK. UNPFA. Jeneva. 2011 [Kirish rejimi: www.unece.org/fileadmin/DAM/stats/publications/RUS_International_Migration_Statistics_Practical_Guide.pdf].
15. Yakunin V.I., Sulakshin S.S., Bagdasaryan V.E. va boshqalar Rossiyanı demografik inqirozdan olib chiqish borasidagi davlat siyosati/S.S. Sulakshin umumiy tahrir. Ekonomika, Ilmiy ekspert. 2007. 920 bet.
16. Migratsiya sohasidagi asosiy atamalar (Key Migration Terms) [Kirish rejimi: <https://www.iom.int/key-migration-terms#Migration>]

Video lavha:

Migratsiyaning ijtimoiy o'rni O. Vendina [Kirish rejimi: www.youtube.com/watch?v=U6j28jT7NrQ].

1.2. Qaytish migratsiyaning ta'rifi, turlari va tendensiyalari

Mundarija. Migratsiyaning dunyo miqyosidagi tendensiyalari. Dunyodagi mehnat, ta'llim va majburiy migratsiya trendlari. Qaytish migratsiyaning o'ni va miqysi. Xalqaro va milliy huquqda qaytish va qaytish migratsiyaga oid atamalar. Remigratsiya va repatriatsiya. Qaytish migratsiyaning tasnifi. Qaytis turlari: ixtiyoriy va majburiy qaytish. XMgT tomonidan ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashishga yordam (IQRY) dasturini amalga oshirish: miqdoriy va mintaqaviy jihatlar. Bevosita va bilvosita rag'batlantrilgan qaytish migratsiyasi, tartibsiz ravishda sodir bo'ladijan qaytish migratsiyasi. Qonuniy (hujjatlashtirilgan) va tartibga solinmagan (hujjatlashtirilmagan) qaytish migrantlari. Dunyoning ba'zi mamlakatlari qaytish migratsiyasi salohiyati shakllanishining tarixiy o'ziga xos xususiyatlari

Hozirgi sharoitda migratsiya mamlakatlari, jamiyatlar va migrantlarning o'ziga juda ko'p imkoniyat beradi. Migratsiya integratsiya, aholining ko'chishi, xavfsizlik va chegarani qo'riqlash kabi sohalarda juda muhim siyosiy va iqtisodiy muammoga aylanib qoldi. XMgT baholashlari bo'yicha 2015 yili dunyodagi xalqaro migrantlar soni 244 mln. nafarga yetgan (dunyo aholisining 3,3 foizi) – va 2000 yildagi taxminan 155 mln. nafar (dunyo aholisining 2,8 foizi) bilan solishtirganda ko'paygan. Davlat ichidagi migratsiya esa bundan ham ko'proq miqyossa tarqalgan va dunyo miqyosida olingan oxirgi baholash 740 mln. dan ko'proq kishi o'zi tug'ilgan mamlakat ichida bir joydan boshqa joyga migratsiya qilganligidan dalolat beradi¹.

Hozirgi sharoitda yuz berayotgan eng muhim migratsiya oqimlari ichida bir nechta global trendlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Mehnat migratsiyasi. XMgT baholariga ko'ra dunyodagi mehnat migrantlarining soni 150,3 million nafarni yoki xalqaro migrantlar umumiy sonining salkam uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Mehnat qiluvchi migrantlarning ko'pi erkaklar, ular taxminan 17 mln.ga ko'p: migrantlarning 83,7 mln. nafari erkaklar (55,7 %), 66,6 mln. nafari esa ayollar (44,3 %). Mehnat qiluvchi migrantlarning ko'pi, taxminan 112,2 mln. nafari (75 %), daromad darajasi yuqori mamlakatlarda ishlagan, 34,4 mln. nafari (23 %) esa daromad darajasi o'rtacha mamlakatlarda mehnat qilgan. Mehnat migrantlarining atigi 2 % qasshoq mamlakatlarda ishlashgan. Daromadi past va o'rtacha daromadli mamlakatlardagi mehnat qiluvchi migrantlarning umumiy ishchilar sonidagi ulushi nisbatan kam (taxminan 1,4%) bo'lgan, daromadi baland mamlakatlardagi ulushi esa ancha ko'p, 16,3 % bo'lgan². Dunyoda migrantlarning quiyi malakali va malakali mehnatiga bo'lgan talab hamon kuchli bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, yuqori malakali va iqtidorli mutaxassislarni jalb qilish uchun raqobat oshmoqda chunki bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishda bunday mutaxassislarning o'rni juda katta bo'lib boraveradi. Mashinasozlik, axborot texnologiyalari, farmasevtika, sog'lioni saqlash va ta'llim sohalarida mutaxassislarni yetishmasligi mamlakatlarni yuqori malakali migrantlarni o'ziga tortadigan migratsiya siyosatini ishlab chiqishga

¹ Jahon migratsiyasi to'g'risida Ma'ruza, XMgT, Jeneva (World migration report 2018. Chapter 2 (2-bob). IOM: Geneva.) 2017. 62-b. [Kirish rejimi: www.iom.int/sites/default/files/country/docs/china/r5_world_migration_report_2018_en.pdf].

² Shu yerga qarang, 16-b.

majbur qilyapti. Mehnat migratsiyasi yil sayin aylanma mehnat migratsiyasiga aylanib bormoqda. Mehnat qiluvchi migrantlarga qaytish migratsiyasi ham xos, moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar sababli bunday migrantlar soni yana ham ko'payib boryapti.

Majburiy migratsiya. 2016 yilning oxirida butun dunyo bo'yicha umumiy 22,5 mln. nafar qochqin qayd etildi, shundan 17,2 mln. nafar inson BMT Qochqinlар bo'yicha oliy komissar boshqarmasining (QBOKB) mandatiga ko'ra shu maqomni olgan, 5,3 mln. inson esa Falastinlik qochqinlarga yordam berish va ish tashkil qilish uchun BMT Yaqin Sharq boshqarmasi agentligida ro'yxatga olingan. Garchi 2012 yildan so'ng qochqinlар sonining yillik o'sishi kamaygan bo'lsa-da bu miqdor tarixdagi eng baland ko'rsatkich bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, 2,8 million kishi xalqaro himoya so'ragan va qochqin maqomining aniqlanishini kutmoqdalar – ular boshpana so'rovchilar deb ataladi. Boshpana taqdim etish to'g'risida berilgan iltimosnomalarning umumiy soni 2016 yilda birinchi marta 2 mln. ni tashkil etdi. Qochqinlarni ko'proq Germaniya qabul qilgan (720 mingta ariza olingan), undan so'ng AQSH (262 ming nafar) va Italiya (123 ming nafar) keladi. Qochqinlар asosan quyidagi mamlakatlardan kelishgan: Suriya, Afg'oniston, Janubiy Sudan, Somali, Sudan, Kongo Demokratik Respublikasi, Markaziy Afrika Respublikasi, Myanma, Eriteriya va Burundi (13,5 mln. nafar inson yoki 79 %). BMT QBOKB baholashlari bo'yicha qochqinlarning taxminan 51 foizi 18 yoshga to'l'magan, 49 foizi esa ayollar. Qochqinlarning taxminan 60 foizi shaharlarga joylashtirilgan³.

Ta'llim migratsiyasi. Hozirgi zamon sharoitida oliy ma'lumot ancha baynalmilat tus oldi, yoshlar ta'llim olishda yanada mobil bo'lib qoldilar. Bu holat dunyoda ta'llim maqsadidagi xalqaro migratsiyaning o'sishiga sabab bo'ldi, bu, talabalarning o'qish uchun xorijiy mamlakatlarga borishini bildiradi⁴. UNESCO ma'lumotiga ko'ra 2017 yil yakunlari bo'yicha boshqa davlatga borib ta'llim olayotgan talabalar soni 5,1 mln. nafarni tashkil qilgan⁵. Aholining yosh bo'yicha tarkibida yoshlar ko'p bo'lgan ba'zi mintaqa va mamlakatlar xalqaro ta'llim migratsiyasiga tobora faol qo'shila boshladilar. Masalan, yosh xitoyliklarning yarmi chet elda o'qishni istaydi, 2017 yili chet ellarda o'qiyotgan xitoylik talabalar soni esa 442,8 ming nafarga yetgan⁶. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashaydigan taxminan 156 ming nafar talaba chet elda o'qigan. Xorijiy talabalarning atigi 25-30 % iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan o'zлari kelib chiqqan mamlakatlariga qaytmoqdalar. Yildan yilga chet elda oliy ma'lumot olishni istaydigan talablar soni ko'payib boryapti va ko'pincha chet elda o'qishni ushbu ta'llim olgan davlatda doimiy istiqomat qilish guvohnomasini olish yo'lidagi qadam sifatida qaralyapti⁷. Chet ellik talabalar qabul qiladigan davlat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissa, asosiy qabul qiladigan mamlakatlar chet ellik talabalarning kelishini va integratsiyasini yengillashtirish uchun tobora ko'proq choralar ko'rishyapti; bu yerda gap migratsiya qonun hujjatllaridagi tuzatishlar, viza olish siyosati va tartibining o'zgarishi haqida ketyapti⁸.

³ Shu yerga qarang, 20-21 b.

⁴ Ta'llimning globallashuvi: kirish (Spring J. Globalization of Education: An Introduction), Queens College & Graduate Centre. City University of New York. 2009.

⁵ YUNESKO ma'lumotlari. [Kirish rejimi: <http://data UIS.unesco.org>].

⁶ Atlas loyihasi, Stipendiyalar bo'yicha Xitoy kengashi (Project Atlas, China Scholarship Council).

⁷ Gribble C. Policy options for managing international student migration: the sending country's perspective. Journal of Higher Education Policy and Management. Vol. 30. No. 1. 2008. 25-39 b.

⁸ Vargese N.V. Oliy ta'llimning globallashishi va talabalarning chegara oldidagi mobilligi (Varghese N.V. Globalization of higher education and cross-border student mobility. International Institute for Educational Planning. Paris) UNESCO.2008. 33-b. [Kirish rejimi: <https://citesseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi=10.1.1.536.4194&rep=rep1&type=pdf>].

Turli sabablarga ko'ra ba'zan yoki vaqt vaqt bilan yurtiga qaytib kelayotgan migrantlar soni oshib borayapti. Garchi dunyo miqyosida qaytib ketayotgan migrantlar miqyosini baholashning iloji yo'q, milliy miqyosda esa bu ko'srakich har doim ham aniq bo'lmasa-da, mayjud ma'lumotlar umumiyl migratsiya oqimi ko'paygan sari qaytish migratsiyasi soni ham oshib borayotganidan dalolat bermoqda.

Qaytish – boshlang'ich joyiga qaytish akti yoki jarayoni. Bu mamlakatning hududiy chegaralari doirasida – ichkarida majburiy ko'chirilganlar va harbiy xizmatdan bo'shatilganlar qaytib kelganida; yoki borish (tranzit) mamlakati va kelib chiqish mamlakati o'rtasida – mehnat qiluvchi migrantlar, qochqinlar yoki boshpana izlovchilar holida yuz berishi mumkin. Qaytishning bir nechta usuli tavsiflanadi: ixtiyoriy qaytish, majburiy qaytish, yordam olib qaytish va o'z o'zidan qaytish; shuningdek migrantlarning qaytish turlari, masalan, repatriatsiya (yoki inqiroz sharoitiga tushib qolgan migrantlar) tavsiflanadi⁹.

XMgT yondashuviga ko'ra (2004 yil) "qaytish migratsiyasi" deganda boshqa davlatda odatda kamida bir yil yashagandan so'ng o'zining kelib chiqish mamlakatiga yoki doimo yashaydigan joyiga qaytayotgan shaxslarning harakatlanishi tushuniladi. Bunday qaytish ixtiyoriy yoki majburiy bo'lishi mumkin. Qaytish migratsiyasi ixtiyoriy repatriatsiya orqali ham amalga oshirilishi mumkin¹⁰.

Hozirgi paytda XMgT (2019 yil) qaytish migratsiyasini xalqaro migratsiya nuqtai nazaridan (yashagan joylaridan ketib, xalqaro chegaradan o'tganidan so'ng tug'ilgan mamlakatlariga qaytadigan migrantlarning harakatlanishi) va ichki migratsiya (ko'chib ketganidan keyin yana odatdagin yashash joylariga qaytadigan migrantlar) nuqtai nazaridan ta'riflaydi.

Statistika maqsadlarida BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti *qaytish migratsiyasini* boshqa mamlakatda (qisqa muddat yoki uzoq muddat mobaynida) chet ellik migrant bo'lganidan so'ng o'zi fuqarosi bo'lgan mamlakatga qaytadigan va mamlakatda kamida bir yil qolish niyatida bo'lgan shaxslar deb ta'riflaydi¹¹.

BMT va XMgT "qaytish migratsiyasi" tushunchasini sodda qilib izohlasa-da, uning har xil mamlakatlardagi talqini ancha farqlanadi. Turli mamlakatlarning moyoriy-huquqiy hujjatlari va dasturlarida ham qaytish migratsiyasi jarayonini tavsiflaydigan turli atama va tushunchalar ishlataladi.

Qaytish migratsiyasi ma'nosida yana "qayta emigratsiya qilish", ya'ni, migrantlarning o'zları tug'ilgan va avval emigratsiya qilgan mamlakatlariga qaytishini bildiradigan atama ham ishlataladi¹².

Xalqaro qonun hujjatlari va migratsiya siyosatida ikki xil talqin qilinadigan "repatriatsiya" tushunchasi ham qaytish migratsiyasi tushunchasi bilan bog'lanib keladi.

Yana ham tor talqin "repatriatsiyani" turli xil xalqaro hujjatlarning (1949 yildagi Jeneva konvensiyalari, 1977 yildagi Protokollar, 1907 yildagi Gaaga konvensiyasini to'diruvchin(IV) quruqlikdagi urush qonunlari va odatlar to'g'risidagi qoidalar; inson huquqlari bo'yicha hujjatlar, shuningdek huquqiy odatlar) qoidalariga asosan qochqin yoki harbiy asirning o'zi fuqarosi bo'lib hisoblanadigan mamlakatiga qaytish huquqi

⁹ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM). 2019. 15-b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/ml_34_glossary.pdf].

¹⁰ Xalqaro migratsiya huquqi. Migratsiyaga oid atamalar ro'yxati. Jeneva, XMgT (International Migration Law. Glossary on Migration. Jeneva. IOM) 2004. 15-b. [Kirish rejimi: http://publications.iom.int/system/files/pdf/ml_1_en.pdf].

¹¹ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM). 2019. 15-b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/ml_34_glossary.pdf].

¹² Shu yerga qarang, 168-b.

deb ta'riflaydi. Repatriatsiyani tanlash huquqi, uni ushlab turgan organlarga emas, balki insonning o'ziga tegishli. Repatriatsiya huquqi, shuningdek, bo'lish mamlakatining davlat organlariga bunday shaxslarni (askarlar va fuqaroyiv shaxslarni) qo'yib yuborish, shuningdek, kelib chiqish mamlakatiga esa- o'z fuqarolarini qabul qilish majburiyatini yuklaydi. "Repatriatsiya" atamasi xalqaro inqiroz vaqtida diplomatik vakillar va xalqaro mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llanadi¹³.

"Repatriatsiya" atamasi shuningdek xalqaro gumanitar qonun hujjatlarida ham ishlataladi va bu ma'noda xalqaro huquqning shu sohasiga aloqasi bor toifalarga ko'proq e'tibor beriladi. O'zining mamlakatiga qaytish huquqi ko'proq xalqaro inson huquqlari qonun hujjatlarida, shu jumladan, Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi kelishuv qoidalarida belgilab qo'yilgan (1966 yil 16-dekabrda qabul qilingan, 1976 yil 23-martda kuchga kirgan). Afrikadagi muayyan qochqinlar muammosini tartibga soladigan bitim doirasida (1969 yil 10-sentyabrda qabul qilingan, 1974 yil 20-iyunda kuchga kirgan) repatriatsiya albatta ixtiyoriy bo'lishi va birorta ham qochqin xohishiga qarshi repatriatsiya qilinmasligi belgilab qo'yilgan. Repatriatsiyaning bunday talqin qilinishi shuningdek boshpana bergan mamlakatning zimmasiga "repatriatsiya qilishlarini so'rab murojaat qilgan qochqinlarni xavfsiz qaytarish choralarini ko'rish" u tug'ilgan mamlakat zimmasiga esa "ularning ko'chib borishlarini yengillashtirish, ularga mamlakat fuqarosi huquqi, imtiyozlari va majburiyatini berish" majburiyatini yuklaydi. Bu atama ko'pincha xalqaro inqirozlar vaqtida diplomatik vakillar va xalqaro darajadagi mansabdor shaxslar, shuningdek, chet elda inqiroz yoki kulfatda qolgan fuqarolarni repatriatsiya qilinishga nisbatan qo'llanadi¹⁴.

Kengaytirilgan talqinga ko'ra, "*repatriant*" – *ijtimoiy-iqtisodiy yoki shaxsiy sabablarga ko'ra, doimiy ravishda yashash uchun o'zi fuqarosi bo'lub hisoblanadigan yoki kelib chiqishi mamlakatiga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tgan shaxs*¹⁵. Shu munosabat bilan, ba'zi mamlakatlarning hukumatlari va ularning davlat dasturlari repatriatsiyaga ko'pincha qaytish migratsiyasining turi, yani etnik vatanga qaytish jarayoni sifatida qaraydi. Etnik vatan deganda ko'pincha odamlar kelib chiqishini bog'laydigan mamlakat yoki mintaqaga tushuniladi (hattoki ilgari u yerdan ko'chib kelmagan bo'lsalar ham). Qoidaga ko'ra bunday bog'liqlik etnik va (yoki) diniy mansublik bilan belgilanadi. Bir qator davlatlarning hokimiyyat organlari (masalan, Isroi va Gretsiya) o'zlarining me'yoriy-huquqiy hujjatları, migratsiya siyosati va boshqa ko'chirish dasturlarida "repatriatsiya" va "repatriant" tushunchalarini to'g'ridan-to'g'ri ishlata dilar.

Qaytish migratsiyasini tasniflashning bir nechta yondashuvi.

Migrantlarning kelib chiqqan mamlakatga qaytishini talqin qilish bunday jarayonning ixtiyoriylik darajasiga bog'liq bo'ladi:

- "ixtiyoriy ravishda qaytadigan migrantlar" – o'zi mustaqil yoki kimningdir yordami bilan, o'zining ixtiyoriy qaroriga asosan tug'ilgan mamlakati, tranzit yoki boshqa mamlakatga qaytayotgan insonlar. Ixtiyoriy repatriatsiya tashkillashtirilgan (tegishli hukumatlar yoki QBOKB rahbarligida

¹³ Xalqaro migratsiya huquqi. Migratsiyaga oid atamalar ro'yxati. Jeneva, XMgT (International Migration Law. Glossary on Migration. Jeneva. IOM.) 2004. 78-b. [Kirish rejimi: http://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_1_en.pdf] 140-b.

¹⁴ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM). 2019. 180-181 b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

¹⁵ Xalqaro migratsiya huquqi. Migratsiyaga oid atamalar ro'yxati. Jeneva, XMgT (International Migration Law. Glossary on Migration. Jeneva. IOM) 2004. 78-b. [Kirish rejimi: http://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_1_en.pdf].

o'tkazilayotgan) yoki tashkillashtirilmagan (qochqinlar o'z yonlaridan xarajat qilib qaytadilar, bunda QBOKB va hukumatlar qaytish jarayonida deyarli ishtirok etishmaydi) bo'lishi mumkin¹⁶;

- “majburiy qaytarish” – insonni uning istagiga qarshi kelgan mamlakatiga, tranzit mamlakatga yoki uni qabul qilishga rozi bo'lgan boshqa mamlakatga qaytarib yuborish akti , odatda ma'muriy yoki sud hujjati yoki qaroriga asosan bajariladi.

1979 yildan boshlab XMgT ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashishga yordam berish dasturini (IQRD) bajarib kelayapti. XMgT IQRY tizimi orqali migrantlarni qo'llab-quvvatlashi bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi, qoidaga ko'ra bular: jo'nab ketishdan oldin maslahat berish, aviachiptalarni sotib olish, ma'muriy va sayyohlik yordami va iloji bo'lsa, reintegratsiyalashish bo'yicha yordam. 2005 yildan 2018 yilgacha XMgT har yili 48 ming nafar migrantlarga IQRY vositasida vatanga qaytish masalalarida yordam berib kelgan. 2018 yilda 128 ta qabul qiluvchi yoki tranzit mamlakatlardan 169 ta kelib chiqqan mamlakatlariga qaytib kelgan 63,3 ming migrantlarga (24% – ayollar, 22% – bolalar, 1,2% – odam savdosi qurbanlari) yordam ko'rsatildi¹⁷.

2018 yili IQRD ishtokchilarining ko'pi Yevropa iqtisodiy zonasidan, xususan, Germaniya, Gretsya, Avstriya, Belgiya va Niderlandiyadan qaytib kelishgan (1.2.1-jadval). “Janub-janub” yo'nalishida, shu jumladan, tranzit mamlakatlardan kelayotgan migrantlar oqimi ko'payib boryapti. Masalan, ko'p migrantlar Nigerdan Gvineya, Mali, Kamerun, Kot-d'Ivuar va Senegalga qaytib ketishgan va ularning soni umumiyligi qaytib ketgan migrantlar sonining 18 foizidan ko'pini tashkil qiladi. 2018 yil IQRD doirasida yordam olgan migrantlarning ko'pi G'arbiy va Markaziy Afrikadan (30,8 %), Janubiy Sharqiy Yevropadan, Sharqiy Yevropadan, Markaziy Osiyodan (27,6 %), Osiyo Tinch okean mintaqasidan (14 %) va Yaqin Sharq bilan Shimoliy Afrikadan (12,9 %) kelgan. Umuman olganda esa IQRDning 51 % yordami migrantlar keladigan 10 ta asosiy mamlakat fuqarolariga berilgan¹⁸.

1.2.1-jadval. 2018 yilda asosiy qabul qiladigan (yoki tranzit) va jonatadigan mamlakatlar bo'yicha VKQD dasturi ishtirokchilarining soni¹⁹.

Qabul qiladigan yoki tranzit mamlakatlar	Ishtirokchilar soni, inson	Kelib chiqish mamlakatlari	Ishtirokchilar soni, inson
Germaniya	15 942	Iroq	5 661
Niger	14 977	Gvineya	5 088
Gretsya	4 968	Efiopiya	4 792
Avstriya	3 469	Mali	4 041
Jibuti	3 392	Gruziya	2 681
Belgiya	2 795	Afg'oniston	2 232

¹⁶ Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM). 2019. 225-b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf].

¹⁷ Qaytish va reintegratsiyaning asosiy masalalari. XMgT, Jeneva (2018 Return and Reintegration Key Highlights. IOM. Jeneva). 2019. 15-b [www.iom.int/sites/default/files/our_work/DMM/AVRR/2018_return_and_reintegration_key_highlights.pdf].

¹⁸ Jahon migratsiyasi to'g'risida Ma'ruba, XMgT, Jeneva (World migration report 2018. Chapter 2 (2-bob). IOM: Geneva). 2017. 62-b. [Kirish rejimi: www.iom.int/sites/default/files/country/docs/china/r5_world_migration_report_2018_en.pdf].

¹⁹ Shu yerga qarang, 62-b.

Qabul qiladigan yoki tranzit mamlakatlari	Ishtirokchilar soni, inson	Kelib chiqish mamlakatlari	Ishtirokchilar soni, inson
Niderlandiya	2 149	Albaniya	2 167
Marokash	1 508	Rossiya Federatsiyasi	1 952
Turkiya	1 494	Ukraina	1 901
Italiya	958	Kot-d'Ivuar	1 834

Davlatlar va xalqaro tashkilotlarning migrantlarni qaytarish jarayonida ishtirok etish darajasiga qarab qaytish migratsiyasini uchta guruha ajratish mumkin:

- bevosita yoki faol rag'batlantiriladigan qaytish migratsiyasi qaytib keluvchi migrantlarni jalg etish va joylashtirishga doir davlat dasturlari, shuningdek ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashish dasturi (IQRD) mayjud bo'lganda va amalga oshirilganda (repatriantlar) kuzatiladi. Qaytish migratsiyasining eng keng ko'lamdag'i dasturlari hozirda Isroil, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Gretsya va Qozog'iston tomonidan amalga oshirilmoqda. Ushbu mamlakatlardagi davlat dasturlari bir necha yillardan buyon maqsadli ravishda amalga oshirilib kelinmoqda, aniq maqsad va vazifalarga ega, shuningdek, davlat byudjetidan moliyalashtirilmoqda.

1.2.1-misol. Etnik nemislarni qaytarish bo'yicha Germaniya davlat dasturi.

Tarixiy holatlar sababli nemis xalqi bir-biridan ajralib qolgan edi. 1990-yillarning boshlarida Germaniyadan tashqarida 2,5 million etnik nemis yashagan, ularning 2 millionga yaqinini sobiq SSRI hududida paydo bo'lgan davlatlarda yashagan²⁰. Germaniya hududiga boshqa davatlardan ko'chib keluvchi nemislarga nisbatan davlat siyosati konstitutsiya normalariga asoslanadi, ularga ko'ra etnik nemislarni bo'lib hisoblanadigan ko'chib keluvchilar barcha huquqlari bo'yicha nemis fuqarolari bilan tenglashtiriladilar. Ko'chib keluvchilar uchun keng imtiyozlarning qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilganligi ularning tez integratsiyalashuviga yordam beradi. 1949 yil 23 mayda qabul qilingan Germaniya Federativ Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan (116-modda), Germaniya fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs, qochqin yoki etnik nemislarni qatoridan bo'lib chiqarib yuborilgan shaxs, shuningdek ularning 31.12.1937 yilgacha Germaniya reyxi hududlari doirasida yashagan turmush o'rtoqlari va avlodlari nemis bo'lib hisoblanadi, 1953 yildagi "Chiqarib yuborilgan shaxslar va qochqinlar to'g'risida" Qonun (1-modda) Sharqiy Yevropadan ko'chib kelganlar hisobiga alohida nemis maqomiga ega bo'lgan shaxslar kontingentini kengaytirdi. To'rt yildan keyin bu ro'yxatga Xitoy ham qo'shildi. Ko'rsatilgan qonunga muvofiq, nemis millatiga mansub bo'limgan etnik nemislarning turmush o'rtoqlari ham nemis maqomiga ega bo'lischdi²¹.

Fuqarolik to'grisidagi masalalarni hal etishda GFR da "kelib chiqish" tamoyilining amal qilishi etnik nemislarga Germaniya fuqaroligini olishda migrantlarning boshqa toifalariga qaraganda ancha ko'p imtiyoza tadim etar edi. Ikkinci jahon urushidan oldin Germaniya fuqarosi bo'lgan yoki urush vaqtida fuqarolik olgan nemislarni va ularning avlodlari avtomatik ravishda Germaniya fuqaroligini olishardi. 1955 yili qabul qilingan "Fuqarolik masalasini tartibga solish to'g'risida" Qonuniga (b moddasiga) ko'ra oldin Germaniya fuqaroligi bo'limgan etnik nemislarning boshqa toifasidan esa tegishli iltimosnomani yozish va etnik nemis ekanligini isbotlashi talab etilar edi. 1953 yili qabul qilingan "Surgun qilingan shaxslar

²⁰ Yudina T.N. Migratsiya: asosiy atamalar lug'ati. M: RGSU nashriyoti. 2007 142-b. [Kirish rejimi: <http://yanko.lib.ru/books/cultur/yudina-migraciya-slov-term-2007-a.htm>].

²¹ Shu yerga qarang, 138-b.

va qochqinlar to'g'risida" Qonuniga (b moddasiga) ko'ra esa etnik nemis deganda nemis xalqini o'z xalqi deb hisoblaydigan va o'zining shu xalqqa mansubligini tilni va madaniyatni bilishi bilan tasdiqlay oladigan shaxs tushuniladi. Shaxs o'zining nemis etnosiga mansub ekanini aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari, shaxsiy hujjatlaridai ro'yxat yozuvlari bilan tasdiqlashi zarur. 1953 yilgi qonunga asosan ko'chib kelgan juda ko'p nemislar federal va mahalliy byudjetdan? shuningdek cherkov jamg'armalaridan moliyalanadigan keng dasturlar doirasida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga integratsiya qilindi.

Keyinchalik to'xtovsiz ko'chib kelayotgan nemislar soni ko'paygandan so'ng yuqoridagi qonun 1980 yil "Surgun qilingan shaxslar va qochqinlarni integratsiya qilish bo'yicha keyingi chora-tadbirlar to'g'risida" Qonun bilan to'ldirildi, bir qator maxsus qonunlar bilan aniqlashtirildi. Masalan, ko'chib kelganlarga bir martalik moddiy yordam beriladigan bo'ldi; davlat "ijtimoiy" (arzon) uy-joy quradigan mahalliy hokimiyatga moliyaviy yordam berib turdi (ijtimoiy uylar faqt daromadi kam, birinchi navbatda esa, ko'chib kelganlarga, yotoqxonada yashayotganlarga va ko'p bolali oilalarga berilardi); yotoqxonada yoki qarindoshlarinikida yashayotgan ko'chib kelganlarga uy olishga qarz berildi (qarz uzog'i bilan 10 yilga berildi, shundan dastlabki ikki yil qarzning foizi to'lanmaydi, shu bilan birga qarz to'liq qaytarilguncha uning foizini davlatning o'zi to'lab turardi). Kichik va o'rta biznesni tashkil etishni rag'batlantiruvchi "mustaqil hayot asoslari" ni yaratish bo'yicha dasturlar to'plami qabul qilindi: maslahatlar bilan bir qatorda davlat tomonidan moliyaviy yordam ham ko'rsatiar edi. "Bandlikni rag'batlantirish to'g'risida" Qonunda ko'chib kelgan inson kasbiy ta'lif tizimida o'qigan paytda uning daromadi to'liq kompensatsiya qilinishi nazarda tutilgan edi. Buning uchun daromadining bir qismi soliqdan ozod qilinardi, bundan tashqari, qaramog'idiagi farzandlarining soni va yoshiga qarab unga nafaqa ham to'lanardi. Umumiyligi ta'lif maktablari, kasb maktablari va bilim yurtlari ko'chib kelganlarni o'qitishga alohida yondoshishi nazarda tutilgan edi, ko'chib kelganlarning bolalarini bog'chaga, tayyorlov sinflariga joylashtirishlariga yordam berilar edi²².

- bilvosita yoki bavosita rag'batlantiriladigan qaytish migratsiyasi. Bu holda maxsus davlat dasturlari mavjud emas yoki vaqtincha amal qiladi, lekin qaytib kelgan migrantlarni, shu jumladan, alohida ijtimoiy madaniy yoki kasbiy guruhlarni rag'batlantirish choralarini ko'riladi. Bu usul Sharqiy va Shimoliy Yevropaning ba'zi mamlakatlarda (masalan, Vengriya, Polsha, Chexiya, Finlandiyada) qo'llanadi, bundan tashqari, Yaponiya, Peru va Braziliya hukumatlari ham shu usuldan foydalananadi.

1.2.2-misol. Chexiya Respublikasida qaytish migratsiyasi dasturi

Chexianing etnik chexlarni ko'chirib olib kelish siyosati 90-yillarning boshida boshlangan edi. Qaytib kelayotgan migrantlarning birinchi to'lqini 1991-1993 yillarga to'g'ri keldi va asosan Ukraina bilan Belarusning Chernobildagi falokat mintaqasida yashagan etnik chexlardan iborat bo'ldi. O'shanda Chexiya 1812 nafar ko'chib kelganlarni qabul qildi. Davlat ularning ish topishiga yordam berdi, uy bilan ta'minladi, bundan tashqari, doimiy yashashga ruxsatnomaga berar edi. Keyinroq esa bu toifadagi migrantlarning fuqarolik olish tartibi yanayam soddalashdi va buning uchun 1995 yil Fuqarolik to'g'risidagi Qonunga tuzatishlar kiritildi.

Ko'chib keluvchilarning ikkinchi to'lqini 1996-2001 yillarga to'g'ri keldi. O'sha davrdagi ko'chirish dasturi olis va notinch (Chexiya hukumatining fikriga ko'ra) hududlarda, asosan Qozog'istonda, shuningdek Rossiya Federatsiyasi, O'zbekiston, Qirg'iziston va Moldova Respublikalarida istiqomat qiluvchi vatandoshlar uchun mo'lljallangan edi. Natijada o'sha davrda 818 nafar vatandosh Chexiyaga ko'chib keldi, ularning ham uy olishiga, ish topishiga yordam berildi. 2001 yildan keyin esa etnik chexlarni tarixiy vatanlariga standart qoidalarga amal qilib, davlat dasturisiz qayta oladigan bo'lishdi.

²² Shu yerga qarang, 140-b.

Bir yilga mo'ljallangan oxirgi repatriatsiya dasturi Chexiyada 2007 yilda amalga oshirildi va unga ko'ra jami 157 nafar inson ko'chirib olib kelindi. Bu dastur doirasida davlat yordami etnik chexlarga shahar hokimiyatidan uy berish, til o'rganish kurslarida o'qitish va ijtimoiy yordam ko'satishdan iborat bo'ldi (chora-tadbirlar qochqinlar va boshpana so'raganlarga beriladigan yordamdan deyarli farq qilmas edi). Oldingi dasturlardagi kabi ko'chib kelganlarga doimiy yashash ruxsatnomasi berildi. Boshqa mamlakatlardan farqi, migrantlarni qaytarish masalasida Chexiya hukumati muddatsiz amal qiladigan qonunlar chiqarish yo'lidan bormadi, qisqa muddatli ko'chirib olib kelish dasturlaridan foydalandi²³.

- tashkillashtirilmagan yoki norasmiy qaytish migratsiyasi. Bunday holda, davlat bu jarayonda ishtirok etmaydi va odamlar mustaqil ravishda qaytadilar.

Qaytib kelayotgan migrantlarning maqomiga qarab, bo'lish mamlakatida migrantlarning quyidagi taifalarini ajratish mumkin.

- bo'lish mamlakatida maqomi to'liq qonuniy bo'lgan va qonun hujjatlariga to'liq muvofiqlikda rasmiylashtirilgan, bo'lish mamlakatida barcha zarur hujjatlarni olgan va ro'yxatdan o'tish tartibini amalga oshirgan qonuniy yoki hujjatlashtirilgan qaytuvchi migrantlar;
- turli sabablarga ko'ra borgan mamlakatlarida maqomi tartibga solinmagan, chegaradan o'tish qoidalarini buzib boshqa mamlakatga borganbo'lishlari mumkin, qoidalarga to'liq muvofiq holda ro'yxatdan o'tmagan yoki borgan mamlakatlarida ishlashga ruxsat beradigan hujjat olimagantartibga solinmagan yoki hujjat olmasdan yashab yoki ishlab qaytib kelayotgan migrantlar.

Qaytib keladigan migrantlar shakllanishining taroxoy o'ziga xosliklari asosida migratsyaning quyidagi turlarini ajratib ko'satish mumkin:

- ommaviy ko'chib ketish tufayli ilgari ommaviy diasporalar paydo bo'lgan davlatlardan qaytish migratsiyasi. Masalan, etnik nemislarning Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istondan Germaniyaga, yahudiylarning-Isroilga, Pontiya greklarining sobiq SSRIdan – Gretsiyaga, yaponlarning Braziliyadan va Perudan – Yaponiyaga qaytish migratsiyasi;
- Ilgari koloniyalar yoki bosib olingen hududlar bo'lib hisoblangan va metropoliyalardan ko'plab ko'chib keluvchilarini qabul gilgan davlatlardan qaytish migratsiyasi. Masalan, fransuzlar va ularning avlodlarining oldingi Fransiya koloniyalaridan, Lotin Amerikasidagi ispanlarning – Ispaniyaga, portugallarning portugal tilida so'zlashadigan davlatlardan – Portugaliyaga, Ikkinchiji Jahon urushidan keyin yapon va nemislarning – bosib olingen hududlardan qaytish migratsiyasi;
- tarqalib ketishidan oldin bitta mamlakatning qismi bo'lgan boshqa mamlakatlardan qaytish migratsiyasi. Masalan, sobiq SSSR tarkibidagi respublikalardan Rossiya Federatsiyasiga, sobiq Yugoslaviya tarkibidagi respublikalardan serblarning Serbiyaga qaytish migratsiyasi;
- axloqiy sabab bilan ochiladigan uchinchi mamlakatga shartli qaytish migratsiyasi. Masalan, Germaniya Xolokost uyuştirgani va german fashistlari rejimi qozg'atgan yahudiylarning to'lqinlari uchun o'zini oqlashga urinib maxsus yahudiylarni qaytarish dasturini ishga tushirdi.

²³ Drbohlav D. Nelegální ekonomické aktivity migrantů (Česko v evropském kontextu). Praha: Karolinum. 2008.

1.2.3-misol. Yaponlarning (“nikkeydzin” larning) Lotin Amerikasidan Yaponiyaga qaytish migratsiyasi

XX asr boshida yersizlik va qashshoqlikdan qutulmoqchi bo’lgan yaponlar mamlakatni tark etib Shimoliy va Janubiy Amerikaga ko’chib borishgan edi. Hozir u yerlarda o’shanda qo’chib borgan yaponlarning taxminan 1,4 mln. nafar avlodи (uchinchи avlodgacha) yashaydi shulardan 670 ming nafari AQSHda, 530 ming nafari Braziliyada va 50 ming nafari Peruda yashaydi. Chet elda yashaydigan yaponlarni Yaponiyaning o’zida “nikkeydzin” deb atashadi. Ularning ба’zilari (taxminan 200 ming Braziliya fuqarosi va 46 ming Peru fuqarosi) Yaponiyada mehnat migranti sifatida yashaydi. Ulardan asosan sanoatda malakasiz ishchi sifatida foydalanishadi. Holbuki, yuridik jihatndan ularning ko’pchiligi Yaponiyaga qarindoshlarini ziyorat qilish va o’z madaniyatini o’rganishga keladilar. Yaponiya hukumati ularga “qoidadan istisno” qilib, ma’lum imtiyozlarni beradi. Hukumat bu toifadagi immigrantlarning mamlakatga kirisihini yengillashtirib qo’yan, faoliyat turi cheklanmagan holda mehnat qilish huquqini taqdim etgan. “Nikkeydzin” yapon ekanini va yaqinligini tasdiqlaganidan so’ng “yaponning turmush o’rtog’i” yoki “uzoq vaqt yashovchi” maqomini oladi. Bu turdagи vizani doim uzaytirib turish kerak va u faoliyat turi cheklanmagan holda mehnat qilish imkoniyatini taqdim etadi. Yaponiya mamlakat xizmatlaridagi har qanday istalmagan chet elliklar “malakasiz ishchi” tofasiga kiritiladi, “nikkeydzin” haqiqiy malakasi qanday bo’lishidan qat’i nazar “malakalishchi” tofasiga kiritiladi. “Nikkeydzin” larni ishga qabul qilishni osonlashtirish uchun Yaponiya Mehnat Vazirligi Tokio va Nagoya “nikkeydzin”larni ishga qabul qilish bo'yicha maxsus markazlar ta'sis etdi²⁴.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy dunyoda asosiy migratsiya oqimlarining qanday ko'lamga ega? Qaytish migratsiyasining dunyodagi miqyosi qanday?
2. Qaytish va qaytish migratsiyasi nima degani?
3. Reemigratsiya va repatriatsiya bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
4. Ixtiyoriy va majburiy qaytish bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
5. Bevosita va bilvosita rag’batlantiriladigan qaytish migratsiyasining bir-biridan farqi nimada? Birorta mamlakatni misol qilib ko’rsating.
6. Qaytuvchi migrantlarining huquqiy maqomi tartibga solingan va tartibga solinmagan bo’lishi hollarida ularning farqi nimada va oqibatlari qanaqa bol’ladi?

Amaliy mashg’ulot:

1. Qaytish migratsiyasining ikki asosiy turi: ixtiyoriy va majburiy migratsiyani solishtiring. Shu jumladan, mamlakat ishtirokining: a) sababi; b) miqyosi; v) ishtirokchilarning ijtimoiy-demografik tuzilishi; g) darajasini ko’rib chiqing. Turli mamlakatlar tajribasidan misol keltiring. Taqdimot tayyorlang.

²⁴ Anisimtsev N.V. Yaponiyaning immigratsiya siyosati: milliy usul//Rossiya va ATR 2004 53-b. [Kirish rejimi: <https://cyberleninka.ru/article/v/immigratsionnaya-politika-yaponii-natsionalnyy-variant>].

- O'zingiz yashaydigan mintaqadagi yoki aholi yashaydigan joydagi qaytib kelgan migrantlarning bittasi bilan suhbatlashing. Migratsiya tajribasi qanday ekanligini aniqlang. Nega qaytgan? Migratsiyadagi tajribasi hayotda va shaxsiy o'sishida qanday yordam bergen?

Majburiy adabiyot:

- Demografik tushunchalar lug'ati/L.L. Ribakovskiy tomonidan tahrirlangan. M.: SSP. 2003. 352-b. [Kirish rejimi: www.socioprognоз.ru/files/File/2012/Demograf%20ponyatini%20slovar.pdf].
- Amaliy demografiya/ L.L. Ribakovskiy tomonidan tahrirlangan. M.: SSP. 2003. 352-b. [Kirish rejimi: www.isras.ru/publ.html?id=2094].
- Mehnat migratsiyasini boshqarish masalasi bo'yicha o'quv modullari. Uslubchilar uchun qo'llanma. Jeneva: OBSE XMgT. 2011. 348-b. [Kirish rejimi: www.osce.org/rus/secretariat/115544?download=true].
- Yudina T.N. Migratsiy: asosiy atamalar lug'ati. M.: RGSU nashriyoti 2007. 462 bet. [Kirish rejimi: <http://yanko.lib.ru/books/cultur/yudina-migraciya-slov-term-2007-a.htm>]
- Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. Jeneva XMgT (International Migration Law. Glossary on Migration. Jeneva. IOM.) 2004. 78 bet. [Kirish rejimi: http://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_1_en.pdf]
- Migratsiya sohasidagi atamalar lug'ati. Xalqaro migratsiya huquqi. XMgT (Glossary on Migration. International Migration Law. IOM). 2019. 98 bet. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_34_glossary.pdf]

Qo'shimcha adabiyot:

- Vorobyov V.P. Isroil davlati: shaxsning paydo bo'lishi va maqomining huquqiy asoslari. M.: Milliy sharh. 2001. 167-b.
- Yeliseeva I. I. Demografiya va aholi statistikasi. 3-chi nashr, tarjima qilingan va to'liqtirilgan. Akademik bakalavrular uchun darslik. M.: Yurait. 2017. 405-b.
- Xalqaro gumanitar huquq/ Kapustin A. Y. tomonidan tahrirlangan. 2-chi nashr, tuzatilgan va to'ldirilgan. M. Yurayt. 2011. 639-b. [Kirish rejimi: <https://ozon-st.cdn.ngenix.net/multimedia/1002960198.pdf>]
- Ko'p qirrali migratsiya/O. D. Vorobyova, A. V. Topilin tomonidan tahrirlangan. M. Iqt-axborot. 2014. 261-b. [Kirish rejimi: www.isras.ru/publ.html?id=3685].
- Sobiq SSRI dan kechroq ko'chib kelganlarning (Spaetaussiedler) huquqiy maqomi. GERMANY. RU. 1999. [Kirish rejimi: <http://recht.germany.ru/aussiedler.db/items/18.html?op=>]
- Ryazantsev S. V. Ruslarning Rossiyada joylashtirilishi va migratsiyasi. Rus xalqi masalasi/ G. V. Osipov, V. V. Lokosov, I. B. Orlova tomonidan tahrirlangan M.: Ekonomika. 2007. 237-b.

13. Ryazantsev S. V., Grebenyuk A. A. "Biznikilar" chet elda. Ruslar, rossiyaliklar, rus tilida gapiradiganlar, vatandoshlar: joylashtirish, integratsiyalashtirish va Rossiyaga qaytish migratsiyasi. M. RFA ISTI. 2014. 238-b. [Kirish rejimi: <https://istina.msu.ru/publications/book/6531743>].
14. Xalqaro migratsiya statistikasi. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun amaliy qo'llanma. BMT YEIK. UNPFA. Jeneva. 2011 [Kirish rejimi: www.unece.org/fileadmin/DAM/stats/publications/RUS_International_Migration_Statistics_Practical_Guide.pdf].
15. Jahon migratsiyasi to'g'risida Ma'ruza, XMgT, Jeneva (World migration report 2018. Chapter 2 (2-bob). IOM: Jeneva. 2017). 50-b. [Kirish rejimi: <https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2018-chapter-2-migration-and-migrants-global-overview>].

1.3. Qaytish migratsiyasining dasturlarini amalga oshirish bo'yicha mamlakatlarning maqsadlari va yondashuvlari

Mundarija. Qaytish migratsiyasining qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ijobiy roli. Qaytish migratsiyasi mamlakatlar rivojlanishi uchun mumkin manba sifatida. Qaytish migratsiyasining tajribasidan iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirish uchun foydalangan mamlakatlarning ijobiy tajribasi. Qaytish migratsiyasini rag'batlantiruvchi davlatlarning maqsadlari: gumanitar, demografik, iqtisodiy, mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirish. Qaytish migratsiyasini qo'llab-quvvatlaydigan davlatlar tomonidan qaytib kelgan migrantlarni qo'llab quvvatlash choralar.

Qaytish migratsiyasi davlat va jamiyat rivojlanishi resursi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, uning multiplikat samarasи juda baland bo'lishi mumkin, madaniy va mental jihatdan yaqin bo'lgan, deyarli o'z aholisi qaytishini hisobga olganda, integratsiya ancha kam xaratatni talab qiladi. Qaytib kelgan migrantlarr uchun ijtimoiy dasturlarqa qo'yilmalar esa, davlatning qaytarib bo'lmaydigan xaratatlaridan ko'ra mahalliy aholiga investitsiya sifatida qaralishi mumkin.

Qaytish migratsiyasini rag'batlantirish va hukumatlar tomonidan tegishli dasturlarni rivojlantirish hukumatlar oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi.

Gumanitar maqsad, ya'ni turli vaziyatlar tufayli davlatdan tashqarida bo'lib qolgan mamlakat aholisiga va ularning avlodlariga (vatandoshlariga) o'z vatanlariga qaytish shaklida yordam berish va himoya qilish. Masalan, Rossiya Federatsiyasi 2006 yildan boshlab vatandoshlar qaytishini rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturini amalga oshirib kelmoqda. Ba'zi mamlakatlar soddashtirilgan va tezlashtirilgan tartibda fuqarolik (pasportni) berish orqali qaytish migratsiyasini rag'batlantiradilar. Masalan, Ruminiyada qaytib kelgan migrantlarni o'z hududiga ko'chirish dasturlari yo'q, ammo Moldova va Ukraina fuqarolariga milliy pasportlarni taqdim etadigan kuchli kompaniyani avj oldirdi. Ruminiya hukumati bir necha bor 800 mingtagacha bunday pasportni berish niyatida ekanligini bildirgdi. Irlandiyada, bobosi yoki buvisi irlandiyalik bo'lgan har qanday shaxsga fuqarolik beriladi. Agar uning o'zi Irlandiya fuqarosi bo'lismeni istamasa ham, fuqaroligini farzandlariga topshirishi mumkin. Shunga o'xshash qonunchilik normalari Serbiya, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Norvegiya, Xorvatiya, Tayvan, Xitoy Xalq Respublikasi Provinsiyasi, Xitoy, Slovakiya, Sloveniya va Liberiyada mavjud.

Misol 1.3.1. Rossiya Federatsiyasida vatandoshlarning qaytishini rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturi

Rossiya Federatsiyasining migratsiya siyosatida "vatandosh" va "vatandoshlarning qaytish migratsiyasi" atamalari qo'llaniladi. "Vatandosh" tushunchasi birinchi marta 1999 yilda qonun hujjatlari darajasida tasdiqlangan¹. 2006 yilda chet elda yashayotgan vatandoshlarning Rossiya Federatsiyasiga qaytishini

¹ "Rossiya Federatsiyasining chet eldag'i vatandoshlarga nisbatan davlat siyosati to'g'risida" №99-FZ Federal qonuni [Kirish rejimi:www.kremlin.ru/acts/bank/13875].

rag'batlantirish maqsadida Davlat dasturi qabul qilindi. Dastlab, qaytib keladigan migrantlarni aniqlashtirish uchun etnik, tarixiy va hududiy tamoyillarning kombinatsiyasidan foydalanildi. Qonunlarda, vatandoshlar – bu Rossiya Federatsiyasi hududida istiqomat qiluvchi etnik guruhlarning vakillari va sobiq Sovet respublikalarining unvoniga ega bo'limgan millatlarining vakillari deb belgilangan. Qaytish migratsiyasi bo'yicha davlat dasturini amalga oshirishda "vatandosh" atamasi amalda anche keng talqin qilindi. Va uchinchi mamlakatlarda istiqomat qiluvchi xorijiy davlatlarning titul millat vakillari ham davlat dasturining ishtirokchilariga aylandilar. "Rus dunyosi" bilan til, madaniy va ma'naviy aloqalarini yo'qotmagan chet mamlakatlarning unvonli millatlari vakillarining holati yana bir muhim bo'lgan masalaga aylandi. Ularning ko'pi "vatandosh" maqomini olishga da'vo qilishgan va Rossiya Federatsiyasiga qaytish davlat dasturida ishtirok etishni istashgan.

Amaliyotda maxsus nazorat organlarining qarorlari ko'proq ahamiyatga ega. Bunday organlar asosan inson huquqlari bo'yicha xalqaro sharhnomalar asosida tuziladi. Bunga misol sifatida Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida Pakt asosida tuzilgan BMTning Inson huquqlari bo'yicha Qo'mitasi va inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi nomi bilan ham tanilgan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida konvensiya (1950) asosida tashkil etilgan inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudini aytib o'tish mumkin. Mazkur organlarga o'z huquqlari poymol qilingan va o'z davlatidagi

⁷ Qar.: <https://undocs.org/ru/A/RES/59/194>.

⁸ Parxomova Y.A. Xalqaro migratsiya huquqining manbalari Xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar jurnalni. 3-soni. 2008 yil 30-33 b.

barcha ichki himoya vositalari tugagan deb hisoblagan har qanday shaxs murojaat qilishi mumkin. Ushbu organlarning amaliyoti shuni ko'rsatadi-ki, odamlar ko'pincha noqonuniy va o'zboshimchalik bilan qaytish, shuningdek xalqaro himoya bilan bog'liq ishlar bo'yicha shikoyat qilishadi.

Xalqaro migratsiya huquqi doktrinasi. Xalqaro migratsiya huquqining yana bir yordamchi manbai taniqli xalqaro huquqshunoslarning ta'limiyy-nazariy ishlari bo'lib hisoblanadi. Buning sababi shundaki, xalqaro huquqning huquqiy normalari kodlansa-da, hozirgi paytda bir qator yo'nalishlar bo'yicha bu jarayon hali nihoyasiga yetmagan. Shuning uchun, yuridik fan vakillari to'plangan huquqiy bilimlarni tizimlashtirish va rivojlantirishda ham ishtirok etadilar. Xalqaro migratsiya huquqi doktrinasini o'rganish sohasida xalqaro migratsiya huquqining asosiy tushunchalarini ishlab chiqqan T. Aleynikoff, R. Appleyard, V. Cheteyl, K. Bretel, G. Gudvin-Gill, R. Perrushu, R. Chelovinskiy kabi taniqli olimlarni alohida ta'kidlash kerak⁹. Yordamchi manba sifatida xalqaro migratsiya huquqi doktrinasini xalqaro huquq normalalarini qo'llash va izohlashda xalqaro huquq sub'ektlari o'rinalining aniq mazmunini aniqlashga imkon beradi. Xalqaro migratsiya huquqi doktrinasining ahamiyati shundan iboratki, u alohida xalqaro-huquqiy qoidalarni tushunish va izohlashda yordam beradi.

MIGRATSIYA MASALALARINI VA INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO HUJJATLARDAGI MIGRANTLARNING HUQUQIY MAQOMINI TARTIBGA SOLISH

Migratsiya masalalari inson huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan chambarchas bog'liq. Inson huquqlari to'g'risida barcha hujjatlarda u yoki bu tarzda migratsiyaning asosini tashkil etuvchi harakat erkinligi masalalariga to'xtalib o'tiladi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "har kim har bir davlat ichida erkin harakatlanish va yashash joyini tanlash huquqiga ega" (13-modda 1 qism) deyilgan¹⁰. Ushbu huquqning qoidalari fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktning 12 va 13-bandlarida yanada batafsil berilgan. Harakatlanish va yashash joyini tanlash erkinligi – bu tug'ilganidan boshlab har bir insonga tegishli bo'lgan tabiiy va ajralmas imkoniyatdir. Keng ma'noda, *harakatlanish va yashash joyini tanlash erkinligini shaxsning qonuniy joylashgan mamlakati hududida qarshiliksiz harakatlanishi*, shuningdek uning o'zi belgilagan vaqtincha yoki doimiy yashash joyida erkin istiqomat qilish ko'rinishidagi ushbu ne'matdan tabiiy hosil bo'ladijan, daxlsiz, qonun bilan mustahkamlangan va kafolatlangan foydalanish imkoniyati deb ta'riflash mumkin¹¹.


Xalqaro shartnomalar me'yorlarining mazmuni, insonning erkin harakat qilish huquqi bir necha elementlardan iborat degan xulosaga kelishimizga imkon beradi (2.1.4-rasm).

⁹ Shu yerga qarang, 30-33 b.

¹⁰ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti [Kirish rejimi: www.ohchr.org/EN/UDHR/Documents/UDHR_Translations/eng.pdf].

¹¹ Rostovschikova O.V. Rossiya harakatlanish va yashash joyini tanlash erkinligi, hamda uni ta'minlash va himoyalash kafolatlari. 2001. 7-b. [<http://dspace.kpfu.ru/xmlui/bitstream/handle/net/116666/0-776739.pdf?sequence=1>].

2.1.4 rasm Insonning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi elementlarining tarkibi



Boshqa xalqaro hujjatlarda migrantlarning huquqlarini himoya qilish uchun asos bo'lgan boshqa huquqlar ham ko'zda tutilgan. Shunday qilib, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida Xalqaro pakt mehnat qilish huquqini mustahkamlaydi va, xususan, adolatli va qulay ish sharoitlarini, shu jumladan chet el fuqarolari uchun ham yaratishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ushbu Paktda qulay yashash sharoitlarini yaratishga qaratilgan huquqlar to'plami, jumladan ta'lim olish va sog'liqni saqlash huquqlari nazarda tutiladi. Ushbu huquqlar migrantlar uchun juda muhimdir, chunki ularni amalga oshirishda ular ish uchun teng haq to'laniшини, munosib yashash sharoitlari ta'minlamishini, davlat organlariga murojaat qilish imkoniyatini va boshqalarни talab qilish huquqiga egadirlar. Tenglik tamoyiliga rioya qilish va kamsitishni taqiqlash migrantlarning huquqlarini himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya va barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiya ushbu masalaga bag'ishlangan. Ushbu hujjatlarda turli sabablarga ko'r'a, shu jumladan milliy va etnik sabablarga ko'r'a ajratish, istisno qilish, cheklash yoki ustun ko'rish taqiqlanadi.

MDHNING MIGRATSIYA, TARTIBGA SOLINMAGAN MIGRATSIYA VA ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI FAOLIYATLAR TO'G'RISIDAGI HUQUQIY HUJJATLARI

Markaziy Osiyo davlatlari bir qator davlatlararo birlashmalarning ishtirokchilari bo'lib hisoblanadi va ular doirasida migratsiya jarayonlari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.

Ushbu davlatlararo birlashmalar ichida birinchisi bo'lib 1991 yilda tashkil etilgan MDH hisoblanishini aytish joiz. MDHni shakllantirishning asosiy maqsadlaridan biri sobiq Sovet respublikalari o'rtasida iqtisodiyot va xavfsizlik sohasida integratsiya aloqalarni ta'minlash uchun hamkorlikni tashkil etish edi.

Hozirgi vaqtida MDHga a'zo davlatlar: Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston (assotsiatsiyalangan a'zosi), O'zbekiston.

MDH faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar MDHni tuzish to'g'risida bitim; Olmaota deklaratsiyasi; MDH Ustavi; Iqtisodiy ittifoq tuzish to'g'risida shartnoma. Ushbu hujjatlarda MDHga a'zo davlatlar o'rtaсидаги hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

MDHning a'zo mamlakatlarida migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish masalasiga MDH doirasida alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, MDHning ta'sis hujjatlari (1991 yil 8 dekabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil etish to'g'risida bitim, 1991 yil 21 dekabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tashkil etish to'g'risida Sharhnomalar Bayonnomasiga, MDHning Ustavi (4-modda), 1991 yil 21 dekabrdagi Olmaota deklaratsiyasi) MDHga a'zo davlatlarning Hamdo'stlik doirasidagi ishtirokchi davlatlar tomonidan qabul qilingan majburiyatlariga muvofiq umumiy muvofiqlashtiruvchi institutlar orqali teng asosda amalga oshiriladigan qo'shma faoliyat doirasiga migratsiya siyosati masalalari ham kirishi haqida muhim qoida mavjud.

Bundan tashqari, MDH ustavida bozor munosabatlari va tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat harakati erkinligiga asoslangan umumiy iqtisodiy makonni shakllantirish ko'zda tutilgan (19-modda).

Shuningdek, ushbu tashkilot doirasida migratsiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator maxsus hujjatlar qabul qilindi (2.1.5-rasm).

2.1.5 rasm MDH doirasida qabul qilingan migratsiyani tartibga soluvchi asosiy hujjatlar

MDH doirasida migratsiya jarayonlarinin tartibga solishga yo'naltirilgan maxsus hujjatlar (Bitimlar)					
Mehnat migratsiyasi va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish sohasida hamkorlik to'g'risida Bitim (1994 yil)	MDHga a'zo davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hamkorligi to'g'risida Bitim (1998 yil)	MDH ga a'zo davlatlarning odam savdosiga, inson a'zolari va to'qimalarini sotishga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risida Bitim (2005 yil)	MDH ga a'zo davlatlarning odam savdosiga, inson a'zolari va to'qimalarini sotishga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risida Bitim (2005 yil)	MDH ga a'zo davlatlarning odam savdosiga, inson a'zolari va to'qimalarini sotishga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risida Bitim (2005 yil)	MDH ga a'zo davlatlarning odam savdosiga, inson a'zolari va to'qimalarini sotishga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risida Bitim (2011 yil)

MDH doirasida migratsiya jarayonlarinin tartibga solishga yo'naltirilgan maxsus hujjatlar (Konsepsiylar, strategiyalar, dasturlar, konvensiyalar, deklaratsiyalar)						
Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda MDHga a'zo davlatlarning hamkorlik konsepsiysi (2004 yil)	MDHga a'zo davlatlarning kelishilgan migratsiya siyosati to'g'risidagi Deklaratsiya (2007 yil)	A'zo davlatlarning mehnat qiluvchisi-migrantlari va ularning oilalarining huquqiy holati to'g'risida Konvensiya (2008 yil)	MDH davlatlari rahbarlari tomonidan 2008 yil 14 noyabrda tasdiqlangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 2020 yilgacha bo'lgan davrda iqtisodiy rivojlanish strategiyalari (2008 yil)	MDHga a'zo davlatlarning odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha 2014-2018 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi (2013 yil)	MDHga a'zo davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2015-2019 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi (2014 yil)	MDHga a'zo davlatlarning odam savdosiga qarshi kurashishdagi hamkorlik konsepsiysi (2014 yil)

Ushbu hujatlarda migratsiya sohasidagi hamkorlikning asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilangan, jumladan: kelishilgan migratsiya siyosatini yuritish uchun sharoit yaratish, qabul qiluvchi davlat qonunlarini hisobga oлган holda, migratsiya oqimlarining hajmi, yo'nalishi va tuzilishini migrantlarning manfaatlariga muvofiqlashtirishga erishish asosida mehnat migratsiyasini tartibga solish, immigrantlarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash va MDHga a'zo davlatlar fuqarolarida qabul qiluvchi mamlakatning qonun hujatlari, tili va madaniyatiga xurmat munosabatini shakllantirish, tartibsiz migratsiyaga qarshi kurashishni davom ettirish, readmissiya to'g'risida bitimlar tuzish va boshqalar.

YOIINING MIGRATSIYA SOHASIDAGI FAOLIYAT, NOQONUNIY MIGRATSIYA VA ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH TO'GRISIDAGI HUQUQIY HUJJATLARI

So'nggi yillarda Sobiq Ittifoq hududida bir qator mintaqaviy xalqaro birlashmalar tashkil etildi, ularning vazifasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy turdag'i muammolarni hal qilish, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'lidi. Ushbu birlashmalar orasida YOII va ShHTni ajratib ko'rsatish kerak.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi. YOII – bu xalqaro huquqiy subyekt huquqiga ega mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning xalqaro tashkiloti¹². YOIIda tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining harakat erkinligi, shuningdek, ishtirokchi davlatlar iqtisodiyoti tarmoqlarida muvofiqlashtirilgan, kelishilgan, yoki yagona siyosat o'tkazilishini ta'minlaydi.

YOII shartnomasida mehnat migratsiyasini tartibga solishga bag'ishlangan mustaqil bo'lim bor (Bitimning XXVI bo'limi "Mehnat migratsiyasi"). U ucta moddani o'z ichiga oladi (96-98). Shartnomaning 96-moddasida "A'zo davlatlar Ittifoq ichida mehnat migratsiyasini tartibga solish sohasida, shuningdek, a'zo davlatlarda ishslash uchun tashkillashtirilgan ishga chaqirish va a'zo davlatlarning ishchilarini jalb qilinishiga ko'maklashish bo'yicha hamkorlik qilish" masalalari belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, ushbu moddada mehnat migratsiyasi sohasidagi umumiyligini yondashuv va tamoyillarni uyg'unlashtirish, me'yoriy-huquqiy hujatlarni almashinuv, ma'lumot almashish, soxta ma'lumot tarqalishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, tajriba almashish, stajirovka, seminar va o'quv kurslari hamda konsultativ o'rganlar doirasidagi hamkorlikni o'z ichiga oлган davlatlar o'rtaSIDAGI hamkorlikning asosiy shakllari belgilanagan.

Ushbu shartnomaning 97-moddasi migrantlarning mehnat faoliyatini tartibga soladi. Xususan, a'zo davlatlar milliy mehnat bozorini himoya qilish cheklashlarini hisobga olmagan holda a'zo davlatlarning ishchilarini mehnat faoliyatiga jalb qilish huquqiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Bunda a'zo davlatlarning ishchilaridan ishga joylashgan mamlakatida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat olishlari talab etilmaydi. Bunda, a'zo davlatlar milliy mehnat bozorini himoya qilish uchun o'zlarining qonunlarida belgilangan cheklashlarni qo'llamaydilar. Biroq, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan o'z fuqarolarining mehnat faoliyati, mashg'ulot turi va turadigan hududiga nisbatan a'zo davlatlarning qonun hujatlari va ushbu shartnomasi bilan kiritilgan cheklashlar qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, a'zo davlat ishchisi va uning oilasining ishga joylashgan davlat hududida vaqtinchalik bo'lish (yashash) muddati a'zo davlat ishchisining ish beruvchi yoki ish (xizmat) buyurtmachisi bilan tuzgan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnomasining amal qilish muddati bilan aniqlanishi belgilangan.

¹² Voronina N.A. Yevroosiyo integratsiyasi sharoitida tashqi mehnat migratsiyasi: huquqiy jihatlar // Rossiya Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti materiallari. 1-son. 2017 yil. 94-113 b.

Boshqa a'zo davlat hududiga mehnat faoliyatini amalga oshirish yoki ishga joylashish uchun kelgan a'zo davlat fuqarolari va ularning oila a'zolari kirish kunidan boshlab 30 kun mobaynida ro'yxatdan o'tish (ro'yxatdan o'tish) majburiyatidan ozod qilinadi.

Shartnomada mehnat migrantlarining huquqlari va majburiyatları alohida ajratilgan. Xususan, ularga ma'lumoti to'g'risida hujjatlarda, ilmiy daraja va (yoki) ilmiy unvon berilgani to'g'risida hujjatlarda ko'rsatilgan mutaxassislik va malakaga muvofiq kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqi taqdim etiladi. Shuningdek, ular mulkka egalik qilish, foydalanish va uni tasarruf etish, mulkni himoya qilish va hech bir qarshiliksiz pul mablag'larini o'tkazish huquqiga egadirlar. Mehnat migrantlarining ijtimoiy huquqlari alohida ajratib ko'rsatiladi. Migrantlar va ularning oila a'zolariga ijtimoiy sug'urta, tibbiy yordam olish, ta'lim huquqi, kasaba uyushmalariga kirish va axborot olish huquqi taqdim etiladi¹³.

Shanghai hamkorlik tashkiloti. ShHT 2001 yil iyun oyida tashkil topgan doimiy amal qiluvchi mintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lib hisoblanadi. Dastlab unga Qozog'iston, Xitoy, Qирг'изистон, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va O'zbekiston kirgan. Ayni paytda to'rt davlat – Belarus, Eron, Mo'g'uliston va Afg'oniston tashkilotda kuzatuvchi maqomiga ega, oltiasi – Armaniston, Ozarbayjon, Kambodja, Nepal, Turkiya, Shri-Lanka – muzokaralar bo'yicha hamkorlar.

ShHTning vazifalari dastlab Markaziy Osiyoda terrorchilik harakatlari, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha mintaqalararo o'zaro birgalikdagi harakatlarni o'z ichiga oladi. 2002 yil iyun oyida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarning Sankt-Peterburg sammitida Shanxay hamkorlik tashkilotining Xartiyasi imzolandi (2003 yil 19 sentyabrda kuchga kirdi). Bu tashkilotning maqsadi va tamoyillarini, uning tuzilishi va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydigan asosiy ustav hujjati.

2003 yil sentyabr oyida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning hukumat rahbarlari 20 yilga mo'ljallangan ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini imzoladilar, natijada ShHT faoliyati keng iqtisodiy yo'nalishga ega bo'ldi. Uzoq muddatli maqsad sifatida ShHT makonida erkin savdo zonasini yaratish va qisqa muddatda savdo va investitsiya sohasida qulay shart-sharoitlarni yaratish jarayonini faollashtirish ko'zda tutilgan.

Ushbu tashkilot doirasidagi migratsiya masalalari separatizm, terrorizm, qurol-yarog', giyohvand moddalar va odam savdosiga bilan kurashish nuqtai nazari orqali ko'rib chiqiladi. Shu munosabat bilan ShHT doirasida migratsiya masalalarini tartibga soluvchi alohida hujjat qabul qilinmagan. Asosiy e'tibor odam savdosiga qarshi kurashishga qaratilgan.

Olmaota jarayoni. Olmaota jarayoni – qochqinlarni va Markaziy Osiyoga kelgan, undan ketgan va u bo'ylab amalga oshiriladigan migratsiyani himoyalash bo'yicha mintaqaviy konsultativ jarayondir. Ushbu jarayon 2010 yilda boshlangan. Bugungi kunda unda Ozarbayjon, Afg'oniston, Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiya qatnashmoqda. 2011 yil 14-16 mart kunlari Olmaotada qochqinlarni himoya qilish va Markaziy Osiyoda xalqaro migratsiya masalalari bo'yicha birinchi mintaqaviy konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiya ishtiroychilari aralash migratsiya bilan bog'liq odamlarni himoya qilish bo'yicha milliy siyosatni ishlab chiqishning ahamiyatini e'tirof etdilar, odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashish, ushbu jinoyatdan jabrlanganlarni samarali himoya qilish choralarini ko'rishga chaqirdilar, shuningdek aholining aralash harakati bo'yicha qarorlar

¹³ Shu yerga qarang, 94-113 b.

qabul qilish muhimligiga e'tibor qaratdilar. Konferensiya davomida eng dolzarb masalalar bo'yicha mintaqaviy muloqot va amaliy hamkorlikni rivojlantirish, konferensiya natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan Olmaota deklaratsiyasi qabul qilindi.

Ushbu jarayon migratsiyaning murakkab dinamikasidan kelib chiqadigan ko'plab muammolarni bartaraf etishga, shuningdek, aralash migratsiya bo'yicha mintaqaviy hamkorlik va muvofiqlashtirishni takomillashtirishga qaratilgan. Olmaota jarayonining maqsadlari: xalqaro migratsiya va qochqinlarni himoya qilish bo'yicha muloqotga ko'maklashish; tartibsiz migratsiya bilan bog'liq muammolarni monitoring qilish va hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish; ko'chish va migratsiyaning sabablari va oqibatlari to'g'risida umumiy tushunchaga erishishni rag'batlantirish; ko'chirilgan shaxslarga nisbatan keng qamrovli va tabaqalashtirilgan siyosatni ilgari surish; migratsiya masalalarida, shu jumladan qochqinlarni himoya qilishda davlatlarning imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar loyihibarini ishlab chiqish. Ushbu jarayonning faoliyat sohalari nazoratsiz migratsiya, chegaralarni boshqarish va xavfsizligi, odam savdosи va kontrabanda, migrantlar va qochqinlarning huquqlarini himoya qilish, mehnat migratsiyasi va boshqalarni o'z ichiga oladi.

2012 yilda ishtirokchi davlatlarda vazirlar o'rinosbosarlari darajasida milliy markazlar tayinlandi va Mintaqaviy hamkorlikning ramka dasturi va Mintaqaviy harakatlar rejasidagi ma'qullandi.

Mintaqaviy hamkorlikning ramka dasturi o'zaro manfaatli masalalar bo'yicha mintaqaviy muloqot va hamkorlikka ko'maklashishni, shuningdek, aralash migratsiya bilan bog'liq masalalarni zaruriy himoya darajasini ta'minlaydigan, yaxshiroq prognoz qilinadigan, samarali tarzda hal qilishda davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlarning salohiyatini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mintaqaviy harakatlar rejasida ushbu masalalarni hal qilish uchun aniq tadbirlar taklif qilinadi.

Olmaota jarayoni 2013 yil 5-iyunda Olmaotada qochqinlarni himoya qilish va xalqaro migratsiyaga bag'ishlangan vazirlar konferensiyasida kuchga kiritilgan. Konferensiya natijalariga ko'ra, davlatlarning MO mamlakatlarida aralash migratsiya harakatlari natijasida yuzaga keladigan ko'plab qiyinchiliklarga mintaqaviy muloqot, amaliy hamkorlik va migrantlarning inson huquqlarini ta'minlash uchun zarur milliy qonun hujjatlari asoslarini yaratish, muhtojlarni xalqaro himoya qilish va qochqinlar bo'yicha uzoq muddatli qarorlar qabul qilish orqali munosabat bildirishi to'g'risida kelishuvi e'lon qilingan bayonot qabul qilindi.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro migratsiya huquqining asosiy manbalari qanday?
2. Inson huquqlari va migrantlar huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy shartnomalar doirasida davlat yuridik jihatdan majbur bo'lib qoladigan jarayonni ta'riflab bering.
3. MDH, YOII, ShHT doirasida migratsiya qanday tartibga solinadi? Har bir holatda o'ziga xoslik nima?
4. Markaziy Osiyo mamlakatlari ishtirok etadigan migratsiyani tartibga solish sohasidagi ikki tomonlama shartnomalarning xususiyatlarini aytib bering.
5. Migrantlar huquqlarini himoya qilishning asosiy xalqaro huquqiy shartnomalarini sanab o'ting va tavsiflab bering.

Amaliy mashg'ulot:

Auditoriya to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruh hujjatlar ro'yxatini oladi. Hujjatlar matnini tahlil qilish va savollarga javob yozilgan plakat bilan 10 daqiqali taqdimotni tayyorlash kerak. Tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt -30 daqiqa.

1-guruhi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt va barcha mehnat qiluvchi migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida Xalqaro konvensiya ma'lumotlaridan foydalanib, migratsiya va migrantlarga oid quyidagi savollarga javob berish zarur:

- qanday inson huquqlari migratsiya bilan bog'liq;
- mehnat migrantlariga qanday huquq va erkinliklar berilgan;
- migratsiya bilan bog'liq huquqlarga nisbatan qanday cheklashlar nazarda tutilgan.

2-guruhi EOII shartnomasi ma'lumotlaridan foydalanib, migratsiya va migrantlar to'g'risida quyidagi savollarga javob berish kerak:

- migrantlarga qanday huquqlar berilgan;
- ushbu Sharhnomada migratsiya masalalari bo'yicha davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning qanday shakllari ko'zda tutilgan;
- ushbu hujjatda migrantlarga nisbatan qanday cheklashlar belgilangan.

3-guruhi Migratsiya bo'yicha MDH doirasida qabul qilingan hujjatlardagi ma'lumotlardan foydalanib, migrantlar va migratsiyaga oid quyidagi savollarga javob berish zarur:

- MDHning migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy hujjatlarini sanab bering;
- MDH hujjatlariga muvofiq migrantlarning huquqiy holati qanday;
- MDHga a'zo davlatlarning migratsiya masalalari bo'yicha qanday hamkorlik shakllari mavjud.

Majburiy adabiyot:

1. Dinorshoev A.M. Inson huquqlari. Oliy o'quv muassasalari uchun darslik. Dushanbe: "Gold-print" nashriyoti. 2017. 560-b.
2. Xalqaro gumanitar huquq: darslik / A.Ya. Kapustina tomonidan tahrirlangan. – 2-nashr, o'zgartirilgan va qo'shimcha kiritilgan varianti. – M.: Yurayt nashriyoti; Yurayt nashriyoti, 2011 yil. – 639-b.
3. Xalqaro ommaviy huquq / Bekyasheva. K.A. tomonidan tahrirlangan M. "Prospekt" nashriyoti, 2008. 1008-b.
4. Xalqaro migratsiya huquqi. Oliy o'quv muassasalari uchun darslik. S.N. Tagayeva tomonidan tahrirlangan. Dushanbe. "Er-graf" nashriyoti, 2016. 352-b.

Qo'shimcha adabiyot:

5. Abashin S. Markaziy Osiyodan migratsiya: amaliyotlar, mahalliy hamjamiyatlar, transmillatchilik // Rossiya siyosati va huquqi. 51-jild. 3-son, 2013 yil may-iyun. 6-20 b.
6. Y. Brounli Xalqaro huquq. M., "Progress" nashriyoti 1-kitob. 535-b.
7. Voronina N.A. Yevroosyo integratsiyasi sharoitida tashqi mehnat migratsiyasi: huquqiy jihatlar // Rossiya Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti materiallari. № 1. 2017 yil. 94-113 b.
8. Martens F.F. Madaniyatli xalqlarning zamonaviy xalqaro huquqi. M. Zersalo, 2008 yil. 1-jild, 251-b.
9. Parxomova Y.A. Xalqaro migratsiya huquqining manbalari // Xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. 3-son. 2008 yil. 30-33 b.
10. Poxlebayeva A.V. Migratsiya tushunchasi va uning tasnifi // Xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. 2005. 3-son. 3-6 b.
11. Tixomirov Y.A. Migrantlarning huquqiy holati // Xorijiy qonunlar va qiyosiy qonunlar jurnali. 3 (6) – soni. 2006 yil. 17-20 b.

2.2. IQRY (Ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyalashishga yordam) ning huquqiy asoslari

Mundarija. Migratsiyani boshqarish tizimining yaxlitligini saqlashda ixtiyoriy qaytishning muhim rolini tushunish; ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyaga ko'mak dasturi ta'sirining asosiy xususiyatlarini aniqlash; IQRY tuzilmasiga kirish, XMgT va uning IQRY o'tkazish tajribasi, IQRY dasturining ishlashi to'g'risida batafsil mal'umot.

KIRISH

Migratsiya muammolari shunday miqyosga va murakkablik darajasiga yetdi-ki, ularni faqat mamlakatlarning kelishilgan harakatlari yordamida hal qilish mumkin. Qaytish migratsiyasi butun dunyo bo'ylab migratsiya masalalari bilan shug'ullanadigan milliy va xalqaro siyosatchilarning kun tartibidagi asosiy masala bo'lib hisoblanadi, chunki u kelib chiqish, tranzit va ko'chib boriladigan mamlakatlarga, boshpana izlovlchilar ichida rad etilganlarga va noqonuniy vaziyatda bo'lgan migrantlarga ta'sir qiladi hamda boshpanalar va immigratsiya tizimining butunligi masalasiga ham daxl qiladi. Qaytish migratsiyasi sikllik migratsiya sxemalarining tabiyi qismi bo'lsa-da, ko'chib borilgan mamlakatda qolish uchun ruxsatga ega bo'limgagan migrantlar o'z mamlakatlariga qaytishga yoki ixtiyoriy ravishda qaytish dasturlaridan foydalanishga majbur bo'lganda, bu juda nozik muammoga aylanishi mumkin.

XMgT VA QAYTISH JARAYONI

Qaytish migratsiyasi alohida hodisa sifatida emas, balki alohida migrantlarning xalqaro migratsiyasi siklining va hukumatlar tomonidan qo'llanadigan migratsiyani boshqarish vositalarining keng ma'nosida ko'rilishi kerak. Migratsiya sikli, shu jumladan kelib chiqish, tranzit va ko'chib borilgan mamlakatlar o'rtasidagi mintaqaviy va global oqimlar, qabul qiluvchi mamlakatda migrantlarning integratsiyasiga, ularning keyingi migratsiyasiga yoki ixtiyoriy ravishda yoki kelib chiqish mamlakatiga majburiy ravishda qaytishga olib keladi. Migratsiya yanada murakkablashgani va sirkulyar bo'lib qolganligi sababli, qaytish uchun yanada keng qamrovli yondashuv, shuningdek, boradigan davlat, tranzit davlat va kelib chiqqan davlatlari o'rtasida migrantlarni qaytarish bo'yicha qo'shma dasturni amalga oshirish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar va hamkorlikka zarurat tug'ildi.

Shunday qilib, migratsiya oqimlarini boshqarish va migrantlarni himoya qilish ehtiyojlarini qanoatlantirish muammolari migrantlar, shu jumladan odam savdosи, ekspluatatsiya qurboni bo'lgan yoki bunday suiste'mol hollari oldida nochor bo'lgan, hech kim tomonidan hamrohlik qilinmagan migrant bolalar uchun muammoligicha qolmoqda. Bu tranzit mamlakatlarning kuchsiz salohiyati va ko'p sonli hujjatsiz migrantlarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, turli xil migrant guruuhlarining ehtiyojlarini qanoatlantirish zarurati va ommaviy ravishda kelgan migrantlarning muayyan ehtiyojlariga, shu jumladan himoyalanish ehtiyojini shoshilinch ravishda aniqlash va munosabat bildirish bilan bog'liq qiyinchiliklar bilan o'zaro bog'liqdir.

Haqiqatan ham, migrantlarning kelib chiqqan, tranzit va ko'chib borgan mamlakatlari qaytish masalalari bo'yicha har xil faoliyat ko'rsatishadi va shuning uchun ularning nuqtai nazari hamda ustuvorliklari farq qiladi. Masalan, ko'chib boriladigan va tranzit mamlakatlarning ko'pchiligi uchun asosiy muammo bu migratsiya boshqarushi milliy tizimlarining yaxlitligidir, qonuniy migratsiya sxemalari va boshpana instituti ham shularga kiradi. Ko'pgina migrantlarning kelib chiqqan mamlakatlari va tranzit mamlakatlari uchun qaytganchi qabul qilish, ularning reintegratsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi bo'yicha imkoniyatlarning cheklanganligi tufayli qaytib kelayotgan migrantlarning katta oqimi muammoga aylanishi mumkin. Shunday qilib, vaziyatga qarab, milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilish qaytish jarayoni va samarali qaytish siyosati to'g'risida kengroq va to'liqroq tushunchaga erishish uchun muhimdir. Qaytish bo'yicha eng muvaffaqiyatli chora tadbirlar mumkin qadar keng qamrovli bo'ladi va migrantlarning kelib chiqqan mamlakati, tranzit mamlakatlari va boradigan mamlakatlari, shuningdek migrantlarning o'zlarining ham ehtiyojlari va muammolarini hisobga oladi. Shunday qilib, muloqotni rivojlanadirish migrantlarning kelib chiqishi, borishi va tranziti mamlakatlariha hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishga, birgalikda migratsiya bo'yicha samarali siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga yordam berishi mumkin.

Ushbu kichik bo'limga qaytish bilan bog'liq mexanizmlar batafsил ko'rib chiqilmaydi – ushbu Qo'llanmaning boshqa bo'limga bunga bag'ishlangan, ammo boshqa narsalar qatorida ixtiyoriy qaytish va reintegratsiyaga yordam Dasturining (IQRY) mohiyati olib beriladi.

IQRY – XMgTning asosiy faoliyati turi bo'llib, uning doirasida har yili uylariga qaytayotgan o'n minglab migrantlarga o'ta muhim yordam ko'rsatiladi. Faoliyatning ushbu yo'nalishi tobora kengayib bormoqda, chunki ham migrantlarni qabul qiluvchi, ham ular kelib chiqqan ko'plab davlatlar migratsiya boshqaruvining samarali va insonparvar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida IQRYning ahamiyatini tan olishmoqda. Hozirgi vaqtida XMgT barcha qit'alarda va shimoliy-janub va janubiy-janub kabi turli xil yo'nalishlarda IQRY dasturlarini amalga oshirmoqda.

So'nggi qirq yil ichida XMgTning IQRY dasturida ishtiroki migratsiyaning o'zgaruvchan voqeqliklarini aks ettirib keldi. XMgTning ongli ravishda va ixtiyoriy ravishda qaror qabul qilish natijasida ko'rigan dastlabki ixtiyoriy ravishda qaytish tamoyili ma'lum bir qaytish faoliyatida ishtirok etishning har qanday shakli uchun zarur shart bo'lib, barqaror qaytishning asosiy elementi sifatida qaytishga tayyorlik haqidagi eslatib o'tilgan bezovtaliklarni aks ettiradi. XMgT, shuningdek, migrantning davlatga kelganidan keyingi muammolarni hal qilish va qaytish jarayonining to'laqonli elementlari sifatida reintegratsiyalashga yordam beradigan mexanizmlarni yaratishda ilg'ordir. Asosiy e'tibor qaytish va reintegratsiyaning erta bosqichda prognoz qilish, shuningdek, migrantlarni qaytib kelishdan oldin yoki o'z mamlakatiga joylashgandan keyin qc'shimcha resurslarni ishga solish va ulardan foydalanishda yordam berishga qaratilgan tadbirlarni ilgari surishga qaratilgan.

Qirq yil oldin boshlangan XMgT IQRY dasturlarining aksariyati qaytarib yuborishni tashkillashtirishda asosiy yordamni taklif qildi. O'shandan beri ular daromadlarni barqarorlashtirish bo'yicha integratsiyalashgan xizmatlari mavjud, yanada keng qamrovli dasturlarga aylandilar. Ko'plab tashabbuslar qaytib kelganlarning qayta reintegratsiyasini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki qaytayotganlarning samarali va barqaror qaytishini ta'minlash bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Voqealarning ushbu yo'nalishi ko'plab davlatlar siyosatni shakllantirishning xalqaro jarayonida tobora muhim o'rinn egallab turgan migratsiyani boshqarish strategiyasiga qaytish migratsiyasini tobora ko'

kiritayotganligini aks ettiradi. IQRY ko'pgina mamlakatlarda yoki Yevropa Ittifoqi kabi ko'p tomonlama muassasalarda migratsiya va boshpana berish siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi va afzal ko'rilgan variant hisoblanadi. IQRY jabrlangan mamlakatlarga, shuningdek, og'ir ahvolda qo'lgan va ko'pincha yashash uchun zarur mablag'lardan mahrum bo'lgan migrantlarga zarur yordam ko'rsatgan holda, jabrlangan davlatlar orasida noqonuniy tranzit migratsiyasi muammosiga qo'shma javob sifatida amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlarning bir qismiga aylanmoqda.

IQRY TARKIBIGA NIMALAR KIRADI?

IQRY chegaralarni samarali boshqarish, boshpanalarning samarali ishlashi va o'ta og'ir hollarda, qabul qiluvchi mamlakatda qolish uchun qonuniy asosga ega bo'lmaganlarni majburan qaytarishni o'z ichiga oladigan migratsiyani boshqarishga integratsiyalashgan yondashuvning ajralmas qismi. IQRY doirasida qabul qiluvchi / tranzit mamlakatda qolishga iloji yo'q yoki qolishni istamaydigan va o'z mamlakatiga qaytishga qaror qilgan migrantlarga ma'muriy, moddiy-texnik va moliyaviy yordam, shu jumladan reintegratsiyalashishga yordam beriladi.

IQRY dasturlari dastlab Yevropada paydo bo'ldi, u yerda XMgT qo'llab-quvvatlagan ixtiyoriy qaytish dasturlarining aksariyati hozirgacha amalga oshirilmoqda, ammo so'nggi 40 yil ichida ularning ta'sir doirasasi sezilarli darajada kengaydi. Qabul qiluvchi mamlakatlarning jug'rofiyasi allaqachon Yevropa chegaralarini oshib o'tib, Afrika, Osiyo, Amerika va Okeaniyada joylashgan mamlakatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, IQRY tranzit migratsiya sharoitida qiyin ahvolda yoki qashshoqlikda bo'lgan, maqomi tartibga solingan yoki tartibga solinmaganidan qat'i nazar, ko'chib o'tishga imkonli bo'lmagan migrantlarga yordam berishning samarali vositasi ekanligini isbotladi.

Shu bilan birga, reintegratsiya yordami qaytishga ko'rsatilan ixtiyoriy yordamga qo'shimcha bo'ldi, chunki qaytib kelayotganlarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, ayniqsa qaltis vaziyatlarda va ularning o'z vatanida joylashishini qo'llab-quvvatlash reintegratsiya jarayonining barqarorligi uchun muhimdir.

XMgT IQRYni migrantlarning insonparvar va tartibli harakatining asosiy strategiyasi deb biladi. Shunday qilib, bu migrantlarning o'zi, hukumatlar va migratsiya ta'siriga uchragan jamiyatning boshqa qatlamlari uchun o'zaro foydali bo'lgan migratsiyani boshqarishga yondashuvning ajralmas qismi hisoblanadi.

Asosiy siyosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- amaldagi xalqaro tamoyil va standartlarga rioxal qilgan holda, qaytish jarayonida migrantlarning qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilish;
- migrantlarga qochqin maqomini berish va himoya qilish mexanizmlaridan foydalanish huquqi bilan ta'minlash;
- doimiy migratsiya tuzilmalari va boshpana berish tartiblarining yaxlitligini saqlash;
- qaytish jarayonida migrantning kelib chiqqan mamlakati, tranzit va qabul qiluvchi mamlakati o'rta sidagi hamkorlikni kuchaytirish va kelib chiqqan mamlakatlarning o'z fuqarolariga nisbatan javobgarligini kuchaytirish;
- tartibsiz migratsiyaning tub sabablarini bartaraf qilish;

- ixtiyoriori ravishda qaytishga kompleks yondashuvlar qabul qilinishini qo'llab quvvatlash, shu jumladan tartibsiz migratsiya muammosini hal qilishga yordam beruvchi yanada samarali, barqaror va o'zaro manfaatli variant sifatida imkon qadar reintegratsiyalashda yordam berish.

IQRYNING UCHTA BOSQICHI

IQRY quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- jo'nab ketishdan oldin yordam berish va safarga tayyorgarlik;
- uyga jo'natishda amaliy yordam berish;
- repatriantlar yetib kelgach ijtimoiy-iqtisodiy qaytadan joylashishi va reintegratsiyalashishi uchun yordam berish.

Dastlabki bosqich:

Axborot-tushuntirish ishlarini olib borish

Axborot-tushuntirish ishlari IQRY xabardorligini nafaqat qaytib kelish va reintegratsiyalashda yordamga muhetoj bo'lgan migrantlar orasida, balki boshqa jamoalar, diasporalar, konsullik vakolatxonalarini va boshqa manfaatdor tomonlar kabi boshqa guruuhlar orasida ham oshiradi. Migrantlarga beriladigan ma'lumotlar obyektiv bo'lishi va dolzarb dalillarga asoslanishi kerak. Xabardorlikni oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda migrantlar jamoalari va tegishli diplomatik vakolatxonalar bilan xaritalash va o'zaro aloqa qilish ularning qamrovini kengaytirishga va bunday tadbirlarda to'g'ri xabarlarni olishga imkon beradi.

Migrantlarga qaytish va reintegratsiya masalalarida yordam berish

Individual maslahat berish qaytib kelish ehtimoli mavjud bo'lgan migrantlarga qabul qiluvchi yoki tranzit mamlakatda, shuningdek, ularning kelib chiqqan mamlakatida ularga beriladigan yordam to'g'risida, ixtiyoriori qaytish va reintegratsiyadagi yordam to'g'risida malumot olish va natijada, qaytish ular uchun eng yaxshi alternativami yoki yo'qmi, shu haqda puxta o'ylangan qaror qabul qilish imkonini beradi.

Maslahatlar migrant tushunadigan tilda va migrantlarga savollar berish va o'z fikrlarini erkin bildirish, shu jumladan ularning muammolari haqida gaplashish imkonini beradigan sharoitlarda berilishi kerak. Bu eng yaxshi ehtimol bilan ixtiyoriori qaytish to'g'risida qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin, ammo migrantlar ketishidan oldin istalgan bosqichda fikrlarini o'zgartirishi mumkin.

Qaytish bosqichi:

XMgT ushbu bosqichda aviakompaniyaga tegishli reysni bron qilish va migrant o'z mamlakatiga qaytib kelganidan keyin boshqa transport xizmatini taqdim etish orqali migrantning haqiqiy harakatini osonlashtiradi. IQRY harakatlarining bir qismi sifatida, XMgT ko'magi bilan, migrant har doim boshqa yo'lovchilar singari tijorat reysida qaytadi. Dasturning ixtiyoriorigini inobatga olgan holda, migrantlar istagan paytda, aeroportda bo'lishganda ham qaytish fikrlarini o'zgartirishi mumkin.

O'z mamlakatida qolganidan keyingi bosqich:

IQRY dasturlarining aksariyatida reintegratsiya bo'yicha yordam (keyinchalik ushbu bobda muhokama qilingan) migrantlarning kelib chiqqan mamlakatiga reintegratsiyasini osonlashtirish uchun taqdim etiladi. Bu pul yoki natural shaklidagi yordamni o'z ichiga olishi mumkin. Ko'pgina hollarda yordam yetib kelgandan keyin ko'rsatiladi. Turli omillar insonning kelib chiqqan mamlakatida reintegratsiyalashish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Bu uzoq vaqt davom etadigan jarayon, chunki qaytib kelganlarning shaxsiy imkoniyatlari va zaifliklari, jamiyatning ularni qabul qilish va idrok etish qobiliyati, shuningdek tashqi muhit barqaror reintegratsiyaga yordam berishi yoki aksincha, to'sqinlik qilishi mumkin.

Reintegratsiya jarayoniga va uning barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar migratsiya to'g'risida qaror qabul qilishga olib kelgan omillarga o'xshash bo'lishi mumkin. Ular iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik-ijtimoiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin, alohida qaytuvchilar, ular qaytadigan jamoalar va tarkibiy muhit bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Reintegratsianing murakkabligini hisobga olgan holda, jarayonning barqarorligini ta'minlash uchun, alohida qaytayotgan, hamda jamoa bo'lib qaytayotgan qaytuvchilarning ehtiyojlarini o'zaro manfaatli asosda hisobga oladigan, shuningdek mavjud tuzilmaviy omillarni hisobga oladigan kompleks yondashuv zarur (masalan, mahalliy va milliy darajadagi turli davlat organlari o'rtasidagi hamkorlik, qaytib keluvchilarga yoki ishga joylashish va asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga yo'naltirilgan siyosat va huquqiy vositalar).

Shunga ko'ra, reintegratsiya choralar qaytib kelganlarga migratsiya omillarini yengishga imkon beradigan iqtisodiy mustaqillik darajasiga, ularning jamoalaridagi ijtimoiy barqarorlikka va psixologik-ijtimoiy farovonlikka qaytarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shuni oydinlashtirish muhim-ki, har qanday IQRY dasturi, migratsiya va siyosiy dinamikadan qat'i nazar, har doim uch bosqichni o'z ichiga oladi.

IQRY BENEFITSIARLARI

Uyiga qaytishda yordamga muhtoj bo'lgan har qanday migrant IQRY doirasida yordam so'rashi mumkin. Bunday migrantlarga quyidagilar kiradi:

- maqomi tartibga solinmagan migrantlar (deportatsiya, chiqarib yuborish yoki qaytarib yuborish to'g'risida buyruq olmaganlar);
- boshpana berilishi to'g'risidagi iltimosnomasi rad etilgan shaxs (deportatsiya, chiqarib yuborish yoki qaytarib yuborish to'g'risida farmoyish olinmagan);
- keyinchalik o'z iltimosnomasining qanoatlantirilishiga erishmaslikka qaror qilgan boshpana izlovchilar;
- uyga qaytishga qaror qilgan qochqin yoki vaqtincha himoyalangan maqomga ega bo'lgan shaxslar;
- odam savdosi qurbanlari;
- qabul qiluvchi mamlakatda qonuniy maqomga ega bo'lgan, ammo uyga qaytish uchun mablag'i bo'lмаган har qanday shaxs (shu jumladan, mushkul ahvolda qolgan odamlar va talabalar);
- shartnomalarining muddati tugayotgan mehnat migrantlari.

IQRYNING QIYOSIY AFZALLIKLARI

IQRЫ majburiy qaytishdan ko'ra migrant va hukumatlar uchun ko'proq foydali, chunki:

- reintegratsiya istiqbolini yaxshilagan holda o'z mamlakatiga qaytib kelishda insonparvar va munosib yondashuvni namoyon etadi;
- qabul qiluvchi mamlakatda qonuniy maqomga ega bo'lgan, ammo uya qaytish uchun mablag'i bo'limgan har qanday shaxs (shu jumladan, mushkul ahvolda qolgan odamlar va talabalar);
- doimiy migratsiya dasturlari va adolatli boshpana berish tartib-qoidalarining yaxlitligini mustahkamlaydi;
- qaytish jarayonining to'g'ri boshqarilishini ta'minlash, maslahat berish, qaytishning ixtiyoriligini baholash va himoya qilish masalalarini ko'rib chiqish, qaytarish jarayonida inson huquqlarining buzilmasligini tekshirish, xalqaro tamoyillar va standartlarni hurmat qilishni targ'ib qilishga yordam beradi;
- manfaatdor migrantlarni qaytishga tayyorlanishiga imkon beradi va ularni kelib chiqish jamoalariga ijtimoiy-iqtisodiy reintegratsiyasi uchun potentsial imkoniyatlarni aniqlashga da'vat etadi va shu bilan ularning qaytishining barqarorligiga hissa qo'shadi;
- vataniga qaytishda yordamga muhtoj nochor migrantlarning ehtiyojlariga mos tegishli javoblarni taqdim etishi mumkin;
- qaytib kelgan migrantlarning kelajakda doimiy migrantsiyada ishtirok etish imkoniyatini saqlab qoladi;
- qabul qiluvchi mamlakatlar, tranzit mamlakatlar va migrantlarning kelib chiqqan mamlakatlaridagi tegishli davlat organlari o'rtaida qaytishga bo'lgan yondashuvni osonlashtiradi va kuchaytiradi;
- migrantlarning kelib chiqqan mamlakatlari IQRЫ doirasida majburan qaytish holatlariga qaraganda o'z fuqarolari uchun ko'proq javobgarlikni o'z bo'yniga olishiga olib kelishi mumkin;
- tartibga solinmagan migrantsianing tub sabablarini bartaraf etishga yordam berishi va qaytayotgan shaxslar, shuningdek qaytayotgan shaxslar hamjamiyatining reintegratsiyasini qo'llab quvvatlash va maqsadli qaytarish yo'li orqali migrantlarning kelib chiqqan mamlakatlari/mintaqalaridagi iqtisodiy va institutsional revojlanishdagi sa'y-harakatlarni qo'llab quvvatlashga yordam berishi mumkin (bunday qo'llab-quvvatlash malakali fuqarolarni qaytarish yoki chet eldan ishchi kuchini boshqarish kabi choralar bilan birgalikda samaraliroq);
- mehnat migrantsiyasini tartibga solish va kelishuvlarni qo'llab-quvvatlash va qaytayotgan ishchilarining ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishiga yordam berishi mumkin;
- vataniga qaytganlarning shoshilinch ehtiyojlarini hisobga olgan holda reintegratsiyaga yanada samarali yordam ko'rsatishi va ularning o'zlarini ta'minlashlariga hissa qo'shishi mumkin.

HAMJAMIYATLARNING ROLI

Hamjamiyatlar migrantlarning qaytishi va reintegratsiyasida turli xil rol o'ynaydi. Hamjamiyatlar ijtimoiy himoya tarmoqlari, kuchli ijtimoiy tarmoqlar, psixologik-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va moliyaviy manbalarni taqdim etish orqali qaytish va reintegratsiya uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Hamjamiyatlar qaytishni ijobjiy qabul qilganda, bu qaytib kelgan migrantlarga ijtimoiy stigmatizatsiyadan qochish, ijtimoiy aloqlarni tiklash va tezroq reintegratsiya qilinishiga imkon

beradi. Shunga o'xshab, reintegratsiya jarayoni migrantlarning hissasi, ko'nikmalari va tajribasi orqali jamiyatlarga foyda keltirishi (yoki hech bo'limganda zarar etkazmasligi) kerak. Shu bilan birga, qabul qiluvchi jamoalar reintegratsiyani osonlashtiradigan imkoniyatlarga, tuzilmalarga yoki manbalarga ega bo'lmasligi mumkin. Qaytib kelganlarning katta bo'lsa, mayjud manbalar uchun raqobat kuchayishi va reintegratsiya bilan bog'liq qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Qaytish muvaffaqiyatsizlikka uchrash deb, migratsiya qilish qarori birinchi navbatda odamning mamlakatdan chiqib ketish istagi sifatida qaralganida, qaytib keluvchining jamoaga qayta qo'shilish qobiliyati pasayishi mumkin. Qaytish, shuningdek, migrant jamoalarga yoki oilalariga, masalan, migratsiya bilan bog'liq qarzlar tufayli, iqtisodiy tazyqlarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, jamoatchilik asosidagi tashabbuslar mahalliy aholining qaytib kelganlarni qabul qilish qobiliyatini kuchaytirish va qaytayotgan migrant duch kelishi mumkin bo'lgan har qanday xafagarchilik yoki adovatni yumshatish uchun juda muhimdir, masalan, yordam olayotganda yoki migratsiya unga kutilgan daromad keltirmasa.

BARQAROR REINTEGRATSIYA BO'YICHA SIYOSAT VA AMALIYOTNI TAYYORLASH

Qaytish qarori tegishli reintegratsiya yordami bilan qo'llab-quvvatlansa, natija yanada barqaror bo'ladi. Agar odamlarning ko'chib ketishga majbur qilgan tuzilma omillar muhim deb hisoblanmasa, qaytib kelganlarning ko'p qismi noqonuniy migrantlik uchun imkoniyatlarni izlashni davom ettirishi mumkin.

So'nggi yillarda, bunday qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lganlarga qaytish va yanada samarali yordam siyosati doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Shunday qilib, migrantlarga ko'rsatilayotgan yordam va davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi barqaror qaytishni ta'minlashdir. Shunday qilib, reintegratsiyalashishga yordami barcha tomonlar uchun barqaror qaytishga ko'maklashishda hal qiluvchi rol o'ynaydi: migrantlar, qabul qiluvchi mamlakatlar va kelib chiqish mamlakatlari uchun, – va ixtiyoriy ravishda qaytib kelayotganlar, yoki yuboruvchi hukumat homiyligida qaytib kelayotgan shaxslar uchun moslashtirilishi kerak.

Yordam nafaqat migrantlarning jamiyatga qayta integratsiyasiga, balki jamiyatning qaytayotgan migrantlarni qabul qilishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu yondashuv reintegratsiya yanada muvozanatli,adolatli, o'lchanadigan, barqaror va innovatsion bo'lishini kafolatlaydi. Qaytib kelgan jamoalarning ehtiyojlari va muammolarini hal qilish orqali bunday yordam tartibsiz migratsiyani rag'batlantiruvchi omillarni, shuningdek, qaytganlarga taqdim etilayotgan yordam orqali yuzaga kelgan mahalliy aholi (migrant bo'limgan) uchun noqulay sharoitlarni bartaraf etishga yordam beradi. Qayta integratsiya qilishning samarali sxemalari va barcha darajadagi qaytib keladigan jamoalarning rivojlanish potentsiallari o'rtaSIDAGI munosabat rag'batlantirilishi va uzoq muddatli, tarkibiy va rivojlanish yordamini o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, migrantning boradigan va kelib chiqqan mamlakatlarda reintegratsiya yordami bir-birini to'diruvchi va o'zaro qo'llab-quvvatlaydigan bo'lishi kerak. Qaytib kelganlarning ehtiyojlarini baholash va reintegratsiya choralarini ishlab chiqish barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro hamkorligini talab qiladi. Shu sababli, reintegratsiya yordamining minimal standartlarini ta'minlash, shuningdek, mintaqaviy innovatsion yondashuvlarni e'tirof etish doimiy ravishda rag'batlantirilishi kerak.

Reintegratsiya barqaror bo'lishi uchun, individual, jamoaviy va tuzilmaviy darajalarda reintegratsiyaga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik-ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda ehtiyojlarga asoslangan yaxlit siyosat zarur.

XMgTning fikriga ko'ra, qaytganlar migratsiya omillariga dosh berishga imkon beradigan iqtisodiy mustaqillik, o'z jamoalaridagi ijtimoiy barqarorlik va psixologik-ijtimoiy farovonlik darajasiga erishganlarida, reintegratsiyani barqaror deb hisoblash mumkin. Barqaror reintegratsiyaga erishgandan so'ng, qaytib kelganlar keyingi migratsiya to'g'risida qarorni zarurat bo'lganda emas, balki o'z xohishlariga ko'ra qabul qilishlari mumkin.

Reintegratsiya siyosati iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik-ijtimoiy yo'nalishda integratsiyaning *ma'lum bir darajasi mayjud bo'lgandagina muvaffaqiyatli bo'llishi mumkin*:

- (a) Iqtisodiy o'lchov iqtisodiy mustaqillikka yordam beradigan reintegratsiya jihatlarini qamrab oladi. Bunga daromad manbalarining mavjudligi, ish yoki daromad keltiradigan faoliyatning ishonchiligi va maqbulligi, qarzning xarajatlarga nisbati, oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy vaziyatdan qoniqish kiradi.
- (b) Ijtimoiy o'chov, qaytib kelganlarning uy-joy, ta'llim, adliya organlari, sog'lioni saqlash va boshqalar kabi asosiy xizmatlardan va infratuzilmadan foydalanish imkoniyatining darajasini aks ettiradi.
- (c) Psixosotsial o'lchov reintegratsiyaning psixologik, shaxslararo va ijtimoiy-madaniy elementlarni qamrab oladi. Bunga shaxsiy qo'llab-quvvatlash dorasini tiklash (do'stlar, qarindoshlar, qo'shnilar) va fuqarolik jamiyati tuzilmalari (assotsiatsiyalar, o'z-o'ziga yordam guruhlari va boshqa tashkilotlar) kiradi. Bu, shuningdek, tug'ilib o'sgan mamlakatdagi qadriyatlar, turmush tarzi, til, axloqiy tamoyillar, mafkuralar va an'analarni qayta ko'rib chiqishga ham tegishlidir.

Reintegratsiya nafaqat qaytib kelganlar, balki migrantlarning qaytib keladigan jamoalariga, shuningdek, qaytish muhitining tarkibiy sharoitlariga ham aloqadordir. Shu sababli samarali reintegratsiya siyosati shunday ishlab chiqilishi kerak-ki, bunda u turli darajadagi intervensiyalarni qamrab olishi lozim:

- (a) Individual daraja. Benefitsiarlarning aniq ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun. Bu, ayniqsa, zo'ravonlik yoki ekspluatatsiyaga uchragan, masalan, odam savdosи qurbanlari singari qaytib kelganlar yoki boshqa qaltis vaziyatlarda bo'lganlar uchun juda muhimdir – bular ota-onalaridan ajralgan bolalar yoki hamrohsiz bolalar va tibbiy yordamga muhtoj migrantlar bo'llishi mumkin.
- (b) Hamjamiyat darajasi. Noqonuniy migratsiya sabablarini bartaraf etishga yordam berish, ijtimoiy aloqalarni yaxshilash va yuqori daromadli hududlardagi hamjamiyatlarga reintegratsiya jarayonini muvaffaqiyatli qo'llab-quvvatlash orqali migrantlarning qaytadigan jamoalarining ehtiyojlari va muammolariga munosabat bildirish.
- (c) Tuzilmaviy daraja. Migratsiyaning tegishli boshqaruviga ko'maklashish va yaxshi faoliyat yuritadigan mahalliy davlat xizmatlari orqali doimiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, reintegratsiyaga kompleks yondashuvni ilgari surish uchun qo'shimcha harakatlar talab etiladi. Hozirgi migratsiya manzarasi reintegratsiya siyosati va amaliyotini tartibsiz migratsiyaga nisbatan ko'rildigan chorallardan ustun turadigan tartibda o'zgartirishga imkon beradi. Reintegratsiya barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yordam beradigan vosita sifatida ko'rib chiqilishi zarur.

HUQUQIY ASOSLAR

IQRYning asoslari xalqaro huquqda mustahkamlangan va ikkita asosiy tamoyilga tayanadi:

Qaytib kelish va reintegratsiya jarayonida migrantlarning huquqlarini himoya qilish

Migrantlarning inson huquqlari va davlatlarning majburiyatları Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (1948), shuningdek, barcha insonlarga, shu jumladan migrantlarga hamda barcha kontekstlar, shu jumladan migratsiyaga nisbatan qo'llaniladigan to'qqizta asosiy xalqaro shartnomalarda ko'rsatilgan. Bundan tashqari, xavfsiz va munosib ravishda qaytish tamoyili migrantlarni quruqlik, dengiz va havo yo'llari orqali noqonuniy olib kirishga qarshi Bayonnomada (2000 yil) hamda odam savdosi, asosan ayollar va bolalar savdosining oldini olish, unga qarshi kurashish va buning uchun jazolash to'g'risida Bayonnomada (2000 yil) belgilangan, u shuningdek, odam savdosi qurbanlarining ixtiyoriy ravishda qaytishini afzal deb biladi. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi (1950), Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi (1969) hamda Insonlar va xalqlar huquqlari to'g'risida Afrika Xartiyasi (1981) singari qo'shimcha mintaqaviy hijyatlar ham qo'llanilishi mumkin, ular davlat yurisdiktsiyasidagi barcha shaxslarga, shu jumladan migrantlarga inson huquqlarini taqdim etadi.

Davlat hududidagi yoki boshqacha tarzda davlat yurisdiktsiyasida bo'lgan migrantlarning huquqlari ularning fuqaroligi yoki migratsion maqomidan qat'i nazar, kamsitilmasdan hurmat qilinishi va himoya qilinishi lozim, bu ularning xavfsizligi, jismoniy daxlsizligi, farovonligi va qadr-qimmatini saqlash uchun ham zarurdir. Quyidagilar hech bir cheklashsiz migrantlarning huquqlari jumlasiga kiradi:

- o'z mamlakatiga qaytish huquqi;
- har qanday mamlakatni tark etish huquqi;
- boshpana izlash huquqi;
- irqi, dini, millati, ma'lum bir ijtimoiy guruhga a'zoligi yoki siyosiy qarashga egaligi sababli inson hayoti yoki erkinligi xavf ostida bo'lgan mamlakatga yoki inson qiyonoqqa solinishi yoki boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy va qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish yoxud boshqa tuzatib bo'lmaydigan ziyon yetkazish xavfi mayjud bo'lgan mamlakatga qaytarilmaslik huquqi;
- shaxsiy va oilaviy hayotining hurmat qilinishi huquqi;
- salomatlik va ijtimoiy hamda tibbiy xizmatlardan foydalananish huquqi;
- hamda bolalar huquqlari, shu jumladan, bolalar manfaatlarining a'llo darajada ta'minlanishi tamoyiliga, ayniqsa, barcha migrant bolalarning, xususan, hamrohsiz migrant bolalarning qaytishiga nisbatan to'lла hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Davlat suvereniteti

Davlatlar xalqaro huquqning tegishli qoidalariga ziyon yetkazmagan holda, shu jumladan, yoppasiga chiqarib yuborish va migrantlarni qaytarish ta'qiqiga rioya qilgan holda, o'lim, qyinoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsituvchi muomala, jazo yoki boshqa tuzatib bo'lmaydigan ziyon yetkazishning real yoki ehtimoliy xavfi mavjud bo'lganda, o'z hududlariga kimlar kirishi va qolishini belgilashda suveren huquqqa egadirlar.

Xalqaro qonunlarga ko'ra, davlatlar, shuningdek, o'z mamlakatiga qaytayotgan fuqarolarni, ayniqsa o'z ixtiyori bilan qaytish huquqidan foydalanuvchi fuqarolarni qabul qilishi shart.

IQRYNING TUZILISHI

Tuzilmanin asosiga XMgTning yetakchi rolini va IQRY sohasidagi ko'p yillik tajribasini izchil, prinsipial va keng qamrovli tarzda tasdiqlash zaruriati qo'yilgan. IQRYning nima ekanligi, u qanday va nima uchun amalga oshirilayotgani tasvirlab berilishi lozim, shuningdek XMgTning IQRYga institutsional yondashuvi haqida umumiylar tushunchasi berilishi zarur, bu IQRY ni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun qo'llanmaga aylanishi mumkin. Markaziy Osiyo kontekstida tuzilmada IQRY tushunchasi migratsiyani boshqarishning muhim elementi va migrantlarning ixtiyoriy, insoniy va qadr-qimmat bilan qaytishining afzal varianti sifatida ta'kidlanadi. IQRY tamoyillari tuzilmada IQRY va XMgT global siyosatidagi so'nggi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi.

IQRYNING YETTITA TAMOYILI

IQRY bilan bog'liq faoliyatda ishtirok etishning umumiylar asosini tashkil etuvchi yettita tamoyil:

1-tamoyil. Ixtiyoriylik

IQRY kontekstida, agar ikkita shart bajarilsa, ixtiyoriylik mavjud bo'lishi mumkin: (a) IQRY dasturida ro'yxatdan o'tishda jismoniy yoki psixologik bosimning yo'qligi sifatida belgilanadigan erkinlik; va (b) o'z vaqtida, ob'ektiv va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishni talab qiladigan asosli qaror. Ayrim hollarda, malakali mutaxassislar tomonidan insonning bunday ixtiyoriy va ongli tarzda qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlash uchun baholash o'tkazilishi va agar inson bunday imkoniyatga ega bo'lmasa, uning nomidan qaysi shaxs qonuniy ravishda qaror qabul qilishini aniqlash zarur bo'ladi.

2-tamoyil. Muayyan migrantga moslashgan holda ish tutish

IQRYning asoslaridan biri – bu muayyan migrantning huquqlari va ehtiyojlarini hisobga olish. Har bir migrantga qaytish va reintegratsiya qilishning butun jarayoni davomida ularning jinsi va yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda individual tarzda yordam ko'rsatish uchun individual baholash o'tkazilishi zarur. Bu, ayniqsa, qaltis vaziyatlardagi migrantlar uchun juda muhimdir, ularga aniq maqsadli yordam ko'rsatish bilan bir qatorda, vaziyatni chuqur tahlil qilish talab qilinadi.

3-tamoyil. Xavfsizlik

IQRY dasturlarida umumiyligi xavfsizlik darajasi, masalan, xavfsizlikning umumiyligi darajasi hamda qaytish va reintegratsiya qilish bo'yicha yordam ko'rsatishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan operativ faoliyat muammolari singari xavfsizlik masalalari hisobga olinishi lozim. Ehtimol, ushbu omillardan biri yoki ularning kombinatsiyasi qaytayotgan migrantlarning va (yoki) IQRY doirasida yordam ko'rsatayotgan xodimlarning xavfsizligiga tahdid soladigan vaziyatni yuzaga keltiradigan bo'lsa, ma'lum bir mintaqalarga yoki mamlakatlarga qaytish jarayoni cheklanishi yoki to'xtatilishi mumkin.

4-tamoyil. Reintegratsiya barqarorligi

Qaytib kelgan shaxslar (re)migratsiya omillariga dosh berishga imkon beradigan iqtisodiy mustaqillik, o'z jamoalarida ijtimoiy barqarorlik va psixologik-ijtimoiy farovonlik darajasiga erishgan taqdirdagina, reintegratsiyani barqaror deb hisoblash mumkin. Barqaror reintegratsiyaga erishgandan so'ng, qaytib kelganlar keyingi migratsiya to'g'risida qarorni zarurat bo'lganda emas, balki o'z xohishlariga ko'ra qabul qilishlari mumkin.

5-tamoyil. Maxfiylik

IQRY benefitsiarlarining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish uchun qat'iy choralar belgilab, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va alohida shaxslarning nomi yashirinligini saqlash uchun barcha oqilona va zarur choralarни ko'rish orqali migrantlarning maxfiyligini hurmat qilinish zarur. Barcha shaxsiy ma'lumotlar xalqaro ma'lumotlarni himoya qilish standartlariga muvofiq ishonchli tarzda to'planishi, foydalanimishi, uzatilishi va saqlanishi zarur.

6-tamoyil. Muloqot va hamkorlik munosabatlari

Institusional muloqot IQRY jarayonining turli bosqichlarida manfaatdor tomonlar o'rtasida konstruktiv va muvozanatli almashinuvga yordam beradi. U qaytish va reintegratsiya bilan bog'liq muammolarning umumiyligi tushunilishiga ko'maklashadi, ayni paytda siyosatni ishlab chiqish jarayoniga ta'sir qiladi. Xalqaro, mintaqaviy, milliy va submilliy darajadagi turli subyektlar – hukumat va nohukumat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi migrantlarga qaytib kelishda ko'rsatiladigan yordamning ko'lami va sifatini kengaytirish, harakatlar takrorlanishining oldini olish va barqaror reintegratsiya jarayonini ta'minlash uchun zarurdir.

7-tamoyil. Dalillarga asoslangan dasturlash


IQRY aralashuvlarining ta'sir darajasini aniqlash va dasturning joriy va kelgusidagi tuzilmasi uchun ma'lumot to'plash maqsadida ma'lumotlarni tizimli va uzluksiz ravishda to'plash, monitoring qilish va baholash butun IQRY jarayoni davomida amalga oshirilishi zarur. Migrantlarga olingan yordam to'g'risida o'z fikrlarini ochiq va maxfiy tarzda bildirish imkonini beradigan qayta aloqa qilish mexanizmlari ham mayjud bo'lishi lozim.

Ushbu yettila tamoyilning barchasi IQRY dasturining elementlari va mohiyati to'g'risida umumiyligi tasavvurga ega bo'llishga imkon beradi, ya'ni yordamga muhtoj migrantlarga xavfsiz va munosib ravishda o'z ixtiyori bilan qaytishlariga ko'maklashadi, ularning maqomidan qat'i nazar inson huquqlariga to'la amal qilgan holda barqaror reintegratsiyaga erishishlarida yordam ko'rsatadi.

IQRY tamoyillari umumiyligi konseptual rejani taqdim etadi, ular amalga oshirilgan taqdirda, IQRYning barcha dasturlarida insonparvarlik, munosib qaytish va barqaror reintegratsiyani kafolatlaydi.

Quyidagi bo'limgan oltita strategik maqsadlarni hisobga olgan holda tuzilgan bo'lib, ular ixtiyoriy ravishda qaytish va reintegratsiyalash jarayonida siyosatni shakllantirish, dasturlarni ishlab chiqish va chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun IQRY tamoyillarini qanday qo'llashni tizimlashtiradi. Bundan tashqari har bir maqsad IQRYning barcha potensial yoki haqiqiy foydalanuvchilari uchun qo'llaniladigan bir qator to'liq bo'limgan harakatlar bilan tasvirlangan. Oxirgi maqsad – mufassal bo'lub, qaltis vaziyatlarda migrantlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatga taalluqlidir.

IQRYNING TUZILISH MODELI



Piramida ko'rinishidagi yuqoridaqdi diagramma IQRY tuzilmasi qanday ishlashini ko'rsatadi. Bu IQRY dasturining yuqorida bayon qilingan 7 tamoyil va 6 maqsadga asoslangan umumiyligi ko'rinishidir.

Nazorat savollari

1. IQRY dasturi sizning mintaqangizda qaytish migratsiyasining ayrim muammolarini qanday hal qiladi?
2. Qaytib kelish mamlakatlari, migrantlar va kelib chiqish mamlakatlarining umumiy manfaatlari va muammolarini tavsiflab bering.
3. Qaytish migratsiyasi sharoitida milliy reintegratsiya strategiyasini kiritish muhimligini tavsiflab bering.
4. Majburiy qaytish siyosatini ishlab chiqishda qanday siyosiy muammolar va rivojlanish masalalari e'tiborga olinishi kerak?
5. IQRY dasturlarini ishlab chiqishda qo'llanilishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillarni va milliy qaytish sharoitida har bir tamoyilni qanday tushunish mumkinligini aytib bering.

2.3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy qonun hujjatlaridagi qaytish migratsiyasi

Mundarija. Markaziy Osiyo mamlakatlarining qaytish migratsiyasi sohasidagi milliy qonunlari. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ixtiyoriy ravishda qaytish va qaytish migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining shakllanishi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya qonun hujjatlarini qaytish migratsiyasi to'g'risida qonun hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos sifatida takomillashtirish. Qaytish migratsiyasini tartibga solish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtaqidagi migratsiya sohasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar.

SSRI parchalanib, Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlar tashkil etilganidan so'ng, migratsiya jarayonlari faollashdi, aholining turli ijtimoiy va demografik guruhlari migratsiyaga jalb qilindi, migratsiya siyosatining liberallashuvi boshlandi. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo mamlakatlarida migratsiya jarayoni mahalliy sotsium hayotining turli jihatlariga ta'sir ko'rsatadigan keng tarqalgan hodisadir. Markaziy Osiyo davlatlari migratsiyaning ijobji tomonlari va xavflarini hisobga olgan holda turlicha qarashlarga ega.

Aksariyat davlatlar milliy manfaatlari va xavfsizlikka riosa qilish uchun migrantlarning harakatini nazorat qilishga harakat qilishadi. Shuningdek, davlatlar ishga joylashtirish, uy-joy, tibbiy va ijtimoiy yordam, iqtisodiy va madaniy sohalarda moslashuv dasturlarida ishtiroy etishlari kerak. Migratsiya jarayonlari va tegishli ijtimoiy munosabatlar monitoring va takomillashtirilgan huquqiy tartibga muhtoj¹.

Zamonaviy ilm-fanda huquqiy ta'minlash keng va tor ma'noda ko'rib chiqiladi. Keng ma'noda, ushu tushuncha ijtimoiy-huquqiy elementlarning yig'indisini va huquqiy vositalar, usullar va texnikalarni ishlab chiqish jarayonini, shuningdek, ulardan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish jarayoniga ta'sir qiluvchi huquqiy munosabatlar sub'ektlarining amaliy faoliyatida foydalanishni qamrab oladi. Tor ma'noda huquqiy qo'llab-quvvatlash deganda ijtimoiy munosabatlarining muayyan aspektlarida yuridik subyektlarning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi tushuniladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya jarayonlariga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi aynan shu nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Migratsiyani boshqarishning huquqiy jihatlari integratsiya birlashmalarining turli darajalari va modellari nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Bunday mexanizmni ishlab chiqishning ahamiyati migratsiya jarayonlarini global miqyosda zamonaviy tarzda faollashtirish, migratsiya muammolari bilan bog'liq siyosi to'qnashuvlarning ko'payishi, ixtiyoriy qaytib kelishning huquqiy mexanizmlari orqali tartibga solinmagan maqomga ega bo'lgan migrantlarga qarshi keskinlikni bartaraf etish bo'yicha qarorlarni ishlab chiqish, shuningdek, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish maqsadida davlatlar o'rtaqidagi hamkorlikni, shu jumladan, BMTning 21-soni "Xavfsiz va munosib qaytish va qayta qabul qilish va rejali reintegratsiyani ta'minlash bo'yicha hamkorlik" maqsadini nazarda tutuvchi xavfsiz, tartibli va tartibga solinadigan migratsiya bo'yicha global shartnomasi doirasida kuchaytirish zaruriyati bilan bog'liq².

¹ Alayeva G.T. Migratsiya qonun hujjatlari asoslari. "Zamonaviylarning global jarayonlari sharoitida Markaziy Osiyodagi integratsiya" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2014 yil 24 oktyabr. "Turon" universiteti. Olmaota, Qozog'iston). Olmaota: Interconsult Info. 2014. 112-b.

² Xavfsiz, tartibli va tartibga solinadigan migratsiya bo'yicha BMT Global shartnomasi. Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha global shartnomani qabul qilish uchun hukumatlararo konferensiyada qabul qilingan (2018 yil 11-12 dekabr). Marrakesh, Marokash). BMT hujjati A / RES / 73/195 [Kirish rejimi: <https://refugeesmigrants.un.org/ru/migration-compact>].

Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumining Samarqand deklaratsiyasi "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining yigirma yilligi natijalari: zamonaviy tahdidlar va real voqelik" ning 10-bandida ta'kidlanganidek, "davlatlar Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq migrant maqomidan qat'li nazar, barcha migrantlarning huquqlarini hurmat qilishlari, himoya qilishlari va ta'minlashlari shart"³.

Zamonaviy voqelik qaytish migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish sohasida davlatlararo, mintaqaviy va xalqaro hamkorlik zarurligini ko'rsatmoqda. Qaytish migratsiyasi sohasidagi hamkorlik, shuningdek, XMgT migratsiyas bo'yicha Xalqaro muloqot, Migratsiya va rivojlanish bo'yicha global forum singari global platformalar doirasida ham, mintaqaviy maydonlar doirasida ham migratsiya sohasidagi mintaqalararo va mintaqaviy konsultativ jarayonlar doirasida istiqbolga ega.

Aksariyat hollarda migratsiya qo'shni davlatlar o'tasida ro'y beradi, ammo global ma'lumotlarga kirishning yaxshilanishi va transport xarajatlarining pasayishi masofaning endi harakatlanishga jiddiy to'siq bo'lolmasligini ta'minlaydi. Bugungi kunda, tobora ko'proq mamlakatlar migratsiya jarayonida, kelib chiqish, yetib borish yoki tranzit mamlakatlari sifatida yoki ushbu barcha sifatlarda ishtirok etmoqda⁴.

Qaytish migratsiyasini tartibga solishda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'tasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, 1992 yil 9 oktyabrdan Bishkekda MDHning o'nta davlati (shu jumladan Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) "Deport qilinganlar, mayda millatlar va xalqlarning huquqlarini tiklash bilan bog'liq bitim" ni imzoladilar.

MDH doirasida migrantlarni qaytarish to'g'risida bir qator bitimlar qabul qilindi, masalan, MDH ga a'zo davlatlar o'tasida voyaga yetmaganlarni o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytarish masalalari bo'yicha 2002 yil 7 oktyabrdagi kelishuv voyaga yetmaganlarni, qarovsiz qolganlarni doimiy yashaydigan davlatlariga qaytarish masalalaridagi hamkorlikka qaratilgan⁵.

Migratsiya sohasidagi hamkorlikning asoslari, "MDH ga a'zo davlatlarning migratsiya sohasidagi kelishilgan siyosati to'g'risida deklaratsiya" sida (2007 yil) belgilab qo'yilgan, u shuningdek, migratsiya sohasidagi hamkorlikning asosini belgilaydi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'tasidagi readmissiya bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlar qaytish migratsiyasini tartibga solishning asosiy mexanizmidir. Ikki tomonlama shartnomalarning imzolanishi IQRY ni ishlab chiqish va rivojlantirishdagi muvaffaqiyatli amaliyot bo'lib, uni samarali amalga oshirish, mahalliy, milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada targ'ib qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qaytish migratsiyasini tartibga solishda suveren davlatlarning milliy qonun hujjatlari, ularning xalqaro huquqiy me'yorlar va xalqaro majburiyatlarga muvofiq rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Tegishli xalqaro va mintaqaviy qonunlar davatlarga qaytish migratsiyasi jarayonida migrant huquqlariga rioya qilish bo'yicha qo'shimcha yo'nalishlar taqdim etishi mumkin.

Qaytish migratsiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim hodisa, ammo kam o'rganilgan fenomen bo'lib qolmoqda. Xususan, kelib chiqish va yetib borish mamlakatlarida migratsiya

³ Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumining Samarqand deklaratsiyasi "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining yigirma yilligi natijalari: zamonaviy tahdidlar va real voqelik". Osiyo inson huquqlari forumida qabul qilingan (2018 yil 22 va 23 noyabr). Samarqand, O'zbekiston). BMT hujjati A / 73/730.

⁴ Bekyashev D.K., Ivanov D.V. Majburiy va mehnat migratsiyasini xalqaro-huquqiy tartibga solish. M.: Prospekt, 2013 yil. 76-b.

⁵ MDH ga a'zo davlatlar o'tasida voyaga yetmaganlarni o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytarish masalalari bo'yicha 2002 yil 7 oktyabrdagi bitim (Kishinyov, Moldova) [Kirish rejimi: www.conventions.ru/view_base.php?id=1434].

siyosatining samaradorligi, uni yanada rivojlantirish yo'nalishlari, migrantlarning nochorlik manbalari va mintaqadagi umumiy xavf va imkoniyatlar o'rtasidagi munosabatlar kam o'rganilgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy qonunlari, ko'p tomonlama va ikki tomonlama kelishuvlari va strategik rejalar ushbu sohalarda ish olib borilayotganiga qaramay, qaytish migratsiyasini alohida yo'nalish sifatida ajratmaydi. Yaqin kelajakda Markaziy Osiyo mamlakatlariga ixtiyoriy qaytish to'g'risida qonun hujjatlari faol rivojlanishi aniq.

Markaziy Osiyodagi har bir mamlakatning qaytish migratsiyasi sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazasini o'rganish ularning xalqaro-huquqiy makonga tizimli kirib borishi, ko'plab xalqaro shartnomalar, bitimlarning imzolanishi, qaytish migratsiyasi bo'yicha o'zlarining, milliy qonun hujjatlarining xalqaro hujjatlar bilan muvofiqlashish tendensiyasini aniqlashga imkon berdi.

Jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonida mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo mamlakatlari erkin, yosh, mustaqil davlatlar sifatida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi asosiy hujjatlar bo'lgan qator xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni imzoladilar. Shaxsning huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy hujjatlar, o'zlar uchun begona bo'lgan qabul qiluvchi mamlakat hududidagi migrantlarning ham, o'z mamlakatiga qaytib kelgan migrantlarning ham huquqlariga yoki bilvosita ta'sir qiladi va himoya qiladi.

Hozirgi bosqichda Markaziy Osyoning barcha mamlakatlariga qaytish migratsiyasi sohasidagi qonun hujjatlarini shartli ravishda uchta blokka bo'lish mumkin.

Birinchi blok migratsiyaga oid *huquqiy munosabatlarni butun dunyo miqyosida tartibga* soluvchi xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni o'z ichiga oladi va ushbu hujjatlarni imzolagan boshqa davlatlar qatorida Markaziy Osiyo mamlakatlari ham ularning to'laqonli a'zolari hisoblanadi.

Ikkinci blok mintaqaviy *miqyosdagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar – mintaqada ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasidagi kelishuvda qatnashayotgan mamlakatlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatadigan muammolarni hal qilish uchun tuzilgan xalqaro shartnomalarni o'z ichiga oladi.*

Uchinchi blok milliy qonunlarni *o'z ichiga oladi* – Markaziy Osyoning yagona davlatining me'yoriy hujjatlar bazasi, shu jumladan mahalliy miqyosda migratsiyaning huquqiy masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar. (2.3.1-jadvali).

2.3.1-jadvali. Qaytish migratsiyasi sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi

Blok raqami	Me'yoriy-huquqiy xujjatlarning turlari	Me'yoriy-huquqiy xujjatlarning namunasi
I blok	Xalqaro shartnomalar va konvensiyalar	BMTning 2018 yil 12 dekabrdagi xavfsiz, tartibli va boshqariladigan migratsiyaga to'g'risida global shartnomasi.
II blok	Xalqaro bitimlar	YOllning 2014 yil 29 maydagi shartnomasi.
III blok	Milliy qonunlar va qonunga oid normativ-huquqiy hujjatlar	Turkmanistonning 2009 yil 21 noyabrdagi "Migratsiya xizmati to'g'risida" qonuni; Olmaota shahri Maslihati VI chaqiriq XXI sessiyasining 2017 yil 15 sentabrdagi 152-soni "Olmaota shahrida migratsiya jarayonlarini tartibga solish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" qarori.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining qaytish migratsiyasi bo'yicha milliy qonun hujjatlari nuqtai nazaridan har bir blokini batafsil ko'rib chiqamiz.

Xalqaro huquqda inson huquqlari va erkinliklarini belgilovchi, ularni e'lon qilish va himoya qilish mexanizmlarini belgilovchi ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilingan va amal qilmoqda. Bunday hujjatlarning aksariyati migrantlarga, shu jumladan mehnat migrantlariga nisbatan ham amal qiladi⁶.

Markaziy Osiyo mamlakatlari 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishtirokchilari bo'lib, unda har bir insonning "har bir davlat ichida erkin ko'chib yurish va yashash joyini tanlash", "har qanday mamlakatni, shu jumladan, o'z mamlakatini tark etish va o'z mamlakatiga qaytish" huquqi mustahkamlab qo'yilgan⁷.

Mintaqa mamlakatlaridagi qaytish migratsiyasini tartibga solishda 1990 yil 18 dekabrda Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining barcha huquqlarini himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiyaning imzolanishi muhim rol o'ynaydi. Ushbu hujjatga ko'ra, "ishtirok etuvchi davlatlar, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarga muvofiq, o'z hududida yoki ularning yurisdiktsiyasida bo'lgan barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini hurmat qilishga va ta'minlashga majburdirlar" (7-modda), shuningdek "mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari har qanday davlatni, shu jumladan o'zlarining kelib chiqish davlatini tark etish huquqiga egadirlar. Bu huquqqa hech qanday chekashlar qo'yilmasligi lozim, qonunda ko'zda tutiladigan, milliy xavfsizlik, jamoat tartibini (ordre public), aholi salomatligini yoki axloqini himoya qilish uchun zarur bo'lganlar bundan mustasno. Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari istalgan vaqtida o'z mamlakatlariga kelish, qolish huquqiga egadirlar" (8-modda)⁸.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tomonidan inson huquqlarini himoya qiluvchi asosiy xalqaro hujjatlar imzolangan: Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt (Nyu-York, 1966 yil 16 dekabr), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt, Bolalar huquqlari to'g'risida konvensiya (Nyu-York, 1989 yil 20 noyabr); Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya (Nyu-York, 1979 yil 18 dekabr), BMTning qochqirnlarning maqomi to'g'risida konvensiyasi (Jeneva, 1951 yil 28 iyul) va boshqalar.

Markaziy Osyoning barcha davlatlari ishtirok etadigan asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shimcha ravishda, ulardan ba'zilari tomonidan imzolangan ayrim xalqaro hujjatlarni ham ta'kidlab o'tish lozim.

Qozog'iston Marokash Marakkoda 2018 yil 12 dekabrda BMTning Hukumatlararo konferensiyasida tasdiqlangan xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha Global shartnomani imzolagan mamlakatlar qatoriga kirdi.

Qozog'iston, Tojikiston va Turkmaniston tomonidan 1926 yil 25 sentyabrda Jenevada imzolangan, 1953 yil 7-dekabrdagi Bayonnomaga bilan o'zgartirishlar kiritilgan Qullik to'g'risida konvensiyani ratifikatsiya qilindi, unga ko'ra "Tomonlar ... qul savdosining oldini olish va unga chek qo'yishlari shart; bosqichma-bosqich va iloji boricha qisqa vaqt ichida qullikning barcha ko'rinishlariga to'liq barham

⁶ Migratsiya huquqi o'quv qo'llanmasi/ A.N. Chashina tomonidan tahrirlangan, M.: Biznes va Servis, 2013. 76 b., 19 b.

⁷ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan (13-modda) [Kirish rejimi: www.un.org/ru/universal-declaration-human-rights].

⁸ Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining barcha huquqlarini himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1990 yil 18 dekabrdagi 45/178 sonli rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan (8 modda) [Kirish rejimi: www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/migrant.shtml].

berishga erishishda davom⁹ etishlari lozim" (2-modda), "qullarni bir mamlakatdan boshqasiga tashish yoki har qanday transport vositasida olib borish yoki shunga urinish ushbu konvensiyada ishtirok etayotgan davlatlarning qonunlariga muvofiq, jinoyat deb hisoblanadi va ushbu jinoyatlarda aybdor deb topilgan shaxslar qattiq jazoga tortiladi" (3-modda)¹⁰.

Qирғизистон томонидан БМТning 2000-yil 15-ноябрда қабул қилинган Transmilliy uyushган жинойatchilikka qарши Конвенсијаси ратификатсиya qилindi, О'збекистон томонидан 2006-yil 20-dekabrda қабул қилинган Barcha shaxslarni zo'rlik bilan yo'qolib qolishdan himoya qilish Конвенсијаси ратификатсиya qилindi.

Turkmaniston томонидан XMhT конвенсијалари имзоланди: 29-sonli "Majburiy yoki shartli mehnat to'g'risida" (Jeneva, 1930 yil 28 iyun); 105-sonli "Majburiy mehnatni ta'qiqlash to'g'risida" (Jeneva, 1957 yil 25 iyun); 182-sonli "Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini ta'qiqlash va tezkor choralar ko'rish to'g'risida" (Jeneva, 1999 yil 1 iyun); 138-sonli "Ishga қабул qilish uchun minimal yosh to'g'risida" (Jeneva, 1973 yil 26 iyun).

Qaytish migratsiyasini huquqiy tartibga solishda mintaqqa davlatlari manfaatlariga taaluqli ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar IQRY ni yanada rivojlantiruvchi asos sifatida muhim rol o'yaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalar to'plami boshqa mazmunga ega, ammo umuman olganda davlatlarning migratsiya jarayonlari bilan bog'liq muhim siyosiy va huquqiy muammolarni hal etish istagini aks ettiradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining qaytish migratsiyasiga oid siyosatini belgilaydigan asosiy, muhim kelishuvlar sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim.

Birinchidan, 2014 yil 29 maydag'i YEOII to'g'risida shartnoma (Belorussiya, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Armaniston, Qирғизистон), bu shartnoma doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining harakati erkinligi va iqtisodiyot sohalarida muvofiqlashtirilgan, kelishilgan yoki yagona siyosatni amalga oshirish ta'minlanadi. Ittifoq xalqaro huquqiy subyektga ega xalqaro mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tashkiloti hisoblanadi. YEOII Shartnomasining 4-moddasida «Ittifoqning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat ekanligi ko'rsatilgan: a'zo davlatlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun ularning aholi turmush darajasini oshirish maqsadida shart-sharoitlar yaratish; ittifoq doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resurslarining yagona bozorini shakllantirishga intilish; jahon iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotni har tomonlama modernizatsiya qilish, kooperatsiya va raqobatbardoshligini oshirish»¹¹.

Ittifoq doirasida migrantlarning mehnat faoliyati uchun qulay sharoitlar, yagona iqtisodiy makonda harakatlanish imkoniyati yaratilgan. Masalan, Qирғизистон YEOII ga a'zo bo'lganidan so'ng, ishchilar Rossiya Federatsiyasida mehnat faoliyatini amalga oshirishda bir qator imtiyozlarga ega bo'lildilar, masalan:

- ishchilar va ularning oila a'zolari 30 kungacha ro'yxatdan o'tmasdan RF hududida bo'lishlari mumkin;

⁹ Qullik to'g'risida konvensiya. 1926 yil 25 sentyabrda Jenevada imzolandi, 1953 yil 7-dekabrdagi Bayonnomaga bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan [Kirish rejimi: www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/convention_slavery.shtml]

¹⁰ Qullik, qul savdosi va qullikkha o'xshash muassasalar va urf-odatlarni bekor qilish to'g'risida qo'shimcha konvensiya. 1956 yil 7 sentyabrda Jenevada imzolangan [Kirish rejimi: www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/supplementconvention_slavery.shtml]

¹¹ Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risida shartnoma (Ostona shahri, Qozog'iston, 2014 yil 29 may) (2018 yil 15 martda kiritilgan o'zgartirishlar bilan) [Kirish rejimi: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31565247].

- ro'yxatga olish mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma muddati davomida amalga oshiriladi;
- ishslash uchun ruxsatnama (patent) va imtihondan o'tish talab qilinmaydi;
- ishga qabul qilishda ishchilar bilan mehnat shartnomasi yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma tuziladi;
- ishga qabul qilishda Sovet Ittifoqi davlatlarida berilgan ma'lumot va malaka to'g'risidagi hujjatlar tan olinadi va boshqalar.

Ikkinchidan, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning 2007 yil 16 avgustdagi uzoq muddatli qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi bitimi (Qozog'iston, KXR, Qирг'изистон, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, O'zbekiston). Tashkilotning asosiy vazifalari barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlik, energetik hamkorlik, ilmiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, separatizm, ekstremizm va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish hisoblanadi.

Uchinchidan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini ta'sis etish to'g'risida bitim (Minsk shahri, 1991 yil 8 dekabr), boshqa ishtirokchilar qatorida butun Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z ichiga oladi. MDH doirasida migratsiyani tartibga solish bo'yicha quyidagi hujjatlar ishlab chiqilgan va amal qilmoqda: 1992 yil 9 oktyabrdagi Deport qilingan shaxslar, mayda millatlar va xalqlarning huquqlarini tiklash bilan bog'liq masalalar bo'yicha kelishuv; 2002 yil 7 oktyabrdagi Voyaga yetmaganlarni o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytarish masalasida MDHga a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlik qilish to'g'risida Bitim; MDHga a'zo davlatlarning kelishilgan migratsiya siyosati to'g'risida deklaratsiya (2007 yil); 2003 yil 1 avgustdagi MDH ga a'zo davlatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash to'g'risida kelishushi.

MDH darajasida majburiy migratsiya hamda qochqinlar va majburiy migrantlarning maqomini tartibga solish, mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solishni optimallashtirish va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash muammolari hal qilinishi kerak bo'lgan eng dolzarb masalalar hisoblanadi.

MDHning assotsiatsiyalangan a'zosi sifatida, Turkmaniston migratsiya sohasida alohida bitimlar va shartnomalarda ishtirok etadi, shu jumladan: Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar fuqarolarining pensiya ta'minoti sohasidagi huquqlarining kafolatlari to'g'risida Bitim (Moskva, 1992 yil 13 mart); qochqinlarga va mamlakat ichida ko'chirilishi kerak bo'lganodamlarga yordam berish to'g'risida shartnoma (Moskva, 1993 yil 24 sentyabr); Mehnat migratsiyasi sohasida hamkorlik va mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida Kelishuv (Moskva, 1994 yil 15 aprel).

Qozog'iston, Qирг'изистон, Tojikiston va Turkmaniston migratsiya va qochqinlarni himoya qilish sohasidagi muloqotlar va hamkorlik uchun mintaqaviy maslahat platformasi bo'lgan Olma-Ota jarayonida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston ushbu davlatlardan mehnat migrantlarini qabul qiladigan davlatlar bilan hamkorlik qilish choralarini ko'rmoqda. 2017 yilning dekabr oyida Rossiya Federatsiyasi bilan tashqi migratsiya sohasidagi hamkorlik to'g'risida – "O'zbekiston fuqarolarini Rossiyada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun tashkillashtirilgan tartibda yollash va jalb qilish to'g'risida" Bitim qabul qilindi. Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda mehnat migratsiyasi sohasida rejali ishlarni amalga oshirish uchun bat afsil yo'l xaritasi tasdiqlandi. Bugungi kunda Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi Rossiya Federatsiyasi, ba'zi Yevropa mamlakatlari, Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan shartnomalar tuzdi.

O'zbekiston turli xil tofadagi holatlarda yuridik yordam ko'rsatishda hamkorlikni tartibga soluvchi bir qator ikki tomonlama xalqaro shartnomalarni imzoladi: Turkiya Respublikasi bilan (1994 yil 23 iyun); Latviya Respublikasi bilan (1996 yil 23 may); Litva Respublikasi bilan (1997 yil 20 fevral); Xitoy Xalq Respublikasi bilan (1997 yil 11 dekabr); Hindiston Respublikasi bilan (2000 yil 2 may); Chexiya

Respublikasi bilan (2002 yil 18 yanvar); Koreya Respublikasi bilan (2004 yil 25 aprel); Bolgariya Respublikasi bilan (2004 yil 30 aprel); O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi Bosh prokuraturalari o'rtaida (2006 yil 3 oktyabr) va boshqalar.

Qirg'iziston tomonidan tuzilgan migratsiya sohasidagi xalqaro shartnomalar orasida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- Qirg'iziston Respublikasining 2015 yil 27 iyuldagı 197-sonli "Qirg'iziston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtaida Qirg'iziston Respublikasi Mehnat, migratsiya va yoshlardan vazirligining Rossiya Federatsiyasidagi vakolatxonasining huquqiy holati to'g'risida 2015 yil 15 aprelda Moskva shahrida imzolangan Shartnomani ratifikatsiya qilish to'g'risida" Qonuni.
- Qirg'iziston Respublikasining 2004 yil 11 maydagı 65-sonli "Qirg'iziston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtaida mehnat migrantlarining mehnat faoliyati va ijtimoiy himoyasi to'g'risidagi 1996 yil 28 martdagı qabul qilingan, 2003 yil 22 sentyabrdan Moskva shahrida imzolangan Bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Bayonnomasini ratifikatsiya qilish to'g'risida" Qonuni.
- Qirg'iziston Respublikasining 2003 yil 1 avgustdagı 186-sonli "Qirg'iziston Respublikasi Hukumati bilan Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rtaida chegara hududlarida qishloq xo'jaligida band mehnat migrantlarining mehnat faoliyati va ijtimoiy himoyasi to'g'risida 2002 yil 9 iyulda Bishkek shahrida imzolangan Bitimni ratifikatsiya qilish to'g'risida" Qonuni.
- Qirg'iziston Respublikasining 2004 yil 19 martdagı 30-sonli "Qochqinlarga va majburiy ko'chirilgan shaxslarga yordam berish to'g'risida 1995 yil 10 fevralda Olmaota shahrida imzolangan Bitimning 1993 yil 24 sentyabrdagi Bayonnomasini ratifikatsiya qilish to'g'risida" Qonuni.

Tojikiston migratsiyani tartibga solish sohasida bir qator davlatlararo shartnomalarni imzoladi, xususan, 2012 yil 8 maydagı "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar migratsiya organlari rahbarlari kengashini tuzish to'g'risida" bitim; Tojikiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtaida 2013 yil 8 fevralda imzolangan "Tojikiston Respublikasi fuqarolarining Rossiya Federatsiyasi hududida bo'lish tartibi to'g'risida" Bitimlar shular jumlasidandir.

Turkmanistonning migratsiya sohasidagi xalqaro huquqiy bazasi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar va bitimlardan, shu jumladan ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdan iborat. Turkmanistonning boshqa davlatlar bilan tuzgan ikki tomonlama shartnomalari va bitimlari qatorida quyidagilarni ta'kidlash lozim: Turkmaniston va Rossiya Federatsiyasi o'rtaida ikki fuqarolik masalalarini hal qilish to'g'risida Bitim (Ashxobod, 1993 yil 23 dekabr); Turkmaniston va Rossiya Federatsiyasi o'rtaida ikki fuqarolik masalalarini hal qilish to'g'risida Bitimni bekor qilish to'g'risida Bayonnomma (Moskva, 2003 yil 10 aprel); Turkmaniston va Rossiya Federatsiyasi o'rtaida ikki fuqarolik masalalarini hal qilish to'g'risida Bitim (Moskva, 1995 yil 18 may).

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish masalalari bo'yicha, Turkmaniston hukumati va BMTning ochiq qo'chqinlari ishlari bo'yicha Oliy komissari Boshqarmasi o'rtaida hamkorlik to'g'risida Bitim (Ashxobod, 1998 yil 4 mart) va Turkmaniston hukumati va Xalqaro hamkorlik bo'yicha migratsiya tashkiloti o'rtaida Bitim (Ashxobod, 1998 yil 10 iyun) imzolandi. Ko'rsatilgan shartnomalarga muvofiq Turkmanistonda ushbu xalqaro tashkilotlarning tegishli vakolatxonalari ochilgan.

Qaytish migratsiyasi Markaziy Osiyo davlatlarining milliy qonun hujjatlari manbalarida bir qator qonunlar bilan ta'minlangan, ular ichki migratsiya jarayonlarini davlat darajasida tartibga soluvchi huquqiy normalarni o'z ichiga oladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining barcha qonunlari bitta roman-german huquqiy oilasiga tegishli bo'lganligi sababli qonunlarning nomlari va ularning mazmunida o'xshashlik tendensiyasi mavjud.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo mamlakatlarida migratsiyani tartibga soluvchi yetarlicha rivojlangan milliy me'yoriy-huquqiy baza mayjud bo'lib, ular migrantlarning magomini, davlat strategiyalarini va faoliyati migratsiya masalalariga daxldor bo'lgan turli idoralarning davlat organlari vakolatlarini belgilaydi. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo davlatlarining milliy qonun hujjatlariga immigrantlar va emigrantlarning huquqiy munosabatlari, mamlakatga kirish, chiqish va mamlakat ichida bo'lish jarayonlari tartibga solinadigan me'yoriy-huquqiy va qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlar kiradi.

Asosiy hujjatlar sifatida Markaziy Osyoning har bir mamlakati quydagi larni e'lon qiladi: Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi, Ma'muriy huquqburzaliklar to'g'risida kodeks, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining qaytish migratsiyasiga oid soha qonunlari va qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatlarini o'z ichiga olgan asosiy milliy manbalar yaqqol namoyon bo'llishi uchun 2.3.2-jadvalda birlashtirildi.

2.3.2-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarining qaytish migratsiyasiga oid asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar

Mamlakat	Sohani tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatning nomi	Qonunosti me'yoriy-huquqiy hujjatning nomi
Qozog'iston	<p>Qozog'iston Respublikasining 2011 yil 22 iyuldag'i "Aholi migratsiyasi to'g'risida" qonuni;</p> <p>Qozog'iston Respublikasining 1995 yil 19 iyunda qabul qilingan "Chet elliqlarning huquqiy maqomi to'g'risida" qonuni;</p> <p>Qozog'iston Respublikasining 2009 yil 4 dekabrda qabul qilingan "Qochqinlar to'g'risida" qonuni;</p> <p>Qozog'iston Respublikasining 2011 yil 22 iyuldag'i 477-IV sonli "Aholi migratsiyasi to'g'risida" qonuni.</p>	<p>Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 29 sentyabrdagi "2017-2021 yillarda Qozog'iston Respublikasi migratsiya siyosati Konsepsiyasini va 2017-2021 yillarda Qozog'iston Respublikasi migratsiya siyosati Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to'g'risida" qarori;</p> <p>Olmaota shahri Maslihati VI chaqiriq XXI sessiyasining 2017 yil 15 sentabrdagi 152-soni "Olmaota shahrida migratsiya jarayonlarini tartibga solish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" qarori.</p>
Qирғизистон	<p>Qирғизистон Respublikasining 2002 yil 30 iyulda qabul qilingan "Ichki migratsiya to'g'risida" qonuni;</p> <p>Qирғизистон Respublikasining 2000 yil 17 iyuldag'i 61-soni "Tashqi migratsiya to'g'risida" Qonuni;</p> <p>Qирғизистон Respublikasining 2006 yil 13 yanvarda qabul qilingan "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida" qonuni;</p>	<p>Qирғизистон Respublikasi Hukumatining 2015 yil 29 apreldagi 266-soni "Qирғизистон Respublikasi Hukumi huzuridagi Xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalar bo'yicha Kengash Nizomini tasdiqlash to'g'risida" qarori;</p> <p>Qирғизистон Respublikasi Hukumatining 2017 yil 15 noyabrdagi 743-soni 2017-2020 yillarga mo'ljallangan odam savdosiga qarshi kurashish dasturi;</p>

	<p>Qirg'iziston Respublikasining 2002 yil 25 martda qabul qilingan "Qochqinlar to'g'risida" qonuni;</p> <p>Qirg'iziston Respublikasining 1993 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Qirg'iziston Respublikasidagi chet el fuqarolarining huquqiy maqomi to'g'risida" qonuni;</p> <p>Qirg'iziston Respublikasining 2007 yil 26 noyabrda qabul qilingan "Qirg'izistonda yashaydigan etnik qirg'izlarning davlat kafolatlari to'g'risida" qonuni;</p> <p>Qirg'iziston Respublikasining 2005 yil 17 martdagи 55-sonli "Odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurash to'g'risida" Qonuni;</p> <p>Qirgiziston Respublikasining 2013 yil 3 avgustda qabul qilingan "Xorijdagи vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati to'g'risida" qonuni.</p>	<p>Qirg'iziston Respublikasi Hukamatining 2018 yil 30-avgustdagи 413-sonli "Qirg'iziston Respublikasi hukumatining "Birlik. Ishonch. Yaratuvchanlik" Dasturini amalga oshirish bo'yicha 2018 yilga mo'ljallangan Qirg'iziston Respublikasi hukamatining chora-tadbirlar Rejasini tasdiqlash to'g'risida" Qarori;</p> <p>Qirg'iziston Respublikasi Hukamatining 2018 yil 31 yanvardagi 74-sonli "Qirg'iziston Respublikasi Hukamatining "Jani doorgo kirk kadam" (Yangi davrga qirq qadam") dasturini amalga oshirish bo'yicha 2018 yilga mo'ljallangan Qirg'iziston Respublikasi Hukamatining chora-tadbirlar Rejasini tasdiqlash to'g'risida" qarori.</p>
Tojikiston	<p>Tojikiston Respublikasining 1999 yil 11 dekabrdagi "Migratsiya to'g'risida" Qonuni;</p> <p>Tojikiston Respublikasining 2002 yil 10 mayda qabul qilingan "Qochqinlar to'g'risida" qonuni;</p> <p>Tojikiston Respublikasining 2003 yil 1 avgustda qabul qilingan "Bandlikka ko'maklashish to'g'risida" qonuni.</p>	<p>1998 yil 8 oktyabrdagi 411-sonli Tojikiston Respublikasining davlat migratsiya siyosati Konsepsiysi;</p> <p>2001 yil 9 iyundagi 242-sonli Tojikiston Respublikasi fuqarolarining chet elga mehnat migratsiyasi Konsepsiysi;</p> <p>Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 2 apreldagi "Tojikiston Respublikasidagi noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida" Farmoni;</p> <p>Tojikiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 yanvardagi "2018 yil uchun immigratsiya kvotasini belgilash va Tojikiston Respublikasiga chet el ishchilarini jalg qilish to'g'risida" farmoni;</p> <p>Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2008 yil 1 oktyabrdagi "Tojikiston Respublikasidagi ichki migratsiya tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" qarori.</p>
Turkmaniston	<p>Turkmanistonning 2009 yil 21 noyabrdagi "Migratsiya xizmati to'g'risida" Qonuni;</p> <p>Turkmanistonning 2012 yil 31 martda qabul qilingan "Migratsiya to'g'risida" qonuni;</p>	<p>Turkmaniston Prezidentining 2016 yil 18 martdagи qarori bilan tasdiqlangan Turkmanistonning 2016-2018 yillarga mo'ljallangan odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha Milliy harakatlar rejasи;</p>

	<p>Turkmanistonning 2016 yil 15 oktyabrdagi qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" qonuni;</p> <p>Turkmanistonning 2017 yil 3 iyunda qabul qilingan "Qochqinlar to'g'risida" qonuni;</p> <p>Turkmanistonning 2013 yil 22 iyunda qabul qilingan "Turkmaniston fuqaroligi to'g'risida" qonuni;</p> <p>Turkmanistonning 2011 yil 26 martda qabul qilingan "Turkmanistondagi chet el fuqarolarining huquqiy holati to'g'risida" qonuni;</p> <p>Turkmanistonning 2016 yil 18 iyunda qabul qilingan "Aholining bandligi to'g'risida" qonuni.</p>	<p>Turkmaniston Prezidentining 1999 yil 8 iyunda qabul qilingan "MDH davlatlari bilan viza tartibini joriy etish to'g'risida" qarori;</p> <p>Turkmaniston Prezidentining 2005 yil 13 iyunda qabul qilingan "Turkmaniston Davlat Migratsiya Xizmati faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" qarori.</p>
O'zbekiston	O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 17 aprelda qabul qilingan "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" qonuni.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 noyabrdagi "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lislari va tranzit o'tishlari tartibi to'g'risida" qarori.

Qaytish migrantsiyasiga oid Markaziy Osiyo davlatlarining amaldagi qonun hujjatlarini o'rganish shuni ko'rsatdi-ki, qaytish migrantsiyasi ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi: etnik repatriatsiya va qabul qiluvchi mamlakat hududida migrantsiya qonunlarini buzgan shaxslarga nisbatan majburiy ravishda qaytish.

Qozog'istondagi etnik repatriatsiya "Aholi migrantsiyasi to'g'risida" Qozog'iston Respublikasi qonunida mustahkamlab qo'yilgan, bunda birinchi immigratsiya turlaridan biri "o'z tarixiy vataniga qaytish uchun immigratsiya" deb nomlanadi. Etnik repatriatsiya Qozog'iston Respublikasi suverenitetini qolga kiritish davrida doimiy ravishda chegaradan tashqarida yashab kelgan etnik qozoqlar va ularning Qozog'iston Respublikasi o'z mustaqilligini qolga kirtgandan keyin tug'ilgan va doimiy ravishda chegaradan tashqarida yashab kelgan qozoq millatiga mansub farzandlari, Qozog'iston Respublikasiga o'zlarining tarixiy vatanlarida doimiy yashash uchun kelgan va tegishlicha oralman maqomini olgan farzandlarini qaytarish bo'yicha davlat dasturini o'z ichiga oladi ("Aholi migrantsiyasi to'g'risida" Qozog'iston Respublikasi Qonunining 17-moddasi).

Ushbu qonunda oralmanlar, etnik qozoqlar va ularning oila a'zolariga davlat tomonidan ko'rsatiladigan qol'lab-quvvatlash choralarini belgilab qo'yilgan: ularning orasida Qozog'iston Respublikasida doimiy yashash uchun ruxsatnomalar olish; to'lov qobiliyatini tasdiqlashdan ozod qilish; oralmanlarning moslashuvi va integratsiyasi markazlarida, tibbiy yordam markazlarida, maktablarda va muktabgacha ta'llim muassasalarida. Qozog'iston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda bepul moslashuv va integratsiya xizmatlarini taqdim etish; Qozog'iston Respublikasi ta'llim muassasalarida qabul kvotasiga muvofiq ta'llim olish imkoniyatlari; Qozog'iston Respublikasi qonunlariga muvofiq ish bilan ta'minlashga

ko'maklashishni (Qozog'iston Respublikasi "Aholi migratsiyasi to'g'risida" qonunining 23-moddasi) ko'rsatish mumkin¹².

Qирг'изистон Respublikasining 2007 yil 26 noyabrdagi qabul qilingan 175-sonli "Qирг'изистонда istiqomat qiluvchi qирг'излarning davlat kafolatlari to'g'risida" qonuni Qирг'изистondagi etnik qирг'излarning immigratsiyasi sohasidagi davlat siyosatini belgilaydi, immigratsiya jarayonlarining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini belgilab beradi, shuningdek, qayrilmanlar, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar, ixtiyoriy ravishda Qирг'изистон Respublikasiga ko'chib o'tayotgan va qayrilman maqomini olgan etnik qирг'излар uchun yangi joyda yashash uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratadi (1-modda). Davlat qayrilmanlar uchun quyidagi ijtimoiy kafolatlari va imtiyozlarni o'rnatadi: Qирг'изистон Respublikasi o'quv yurtlariga qabul uchun kvotalar ajratish; muhtojlarga umumtalim va mакtabgacha ta'llim muassasalaridan joy ajratish; davlat va rasmiy tillarni o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish; ish bilan ta'minlashga, pensiya va nafaqalarni to'lashga yordam berish; Qирг'изистон Respublikasi fuqarolariga tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha yillik davlat kafolati dasturiga muvofiq zarur tibbiy yordam olish va hk. Qayrilmanlar mehnat faoliyatini ruxsatnomaga olmasdan amalga oshirish huquqiga ega (Qирг'изистон Respublikasining "Qирг'изистон Respublikasida istiqomat qiluvchi etnik qирг'излarning davlat kafolatlari to'g'risida" qonuni 15-moddasi)¹³.

Majburiy qaytish ikkita asosiy shaklda amalga oshiriladi – mamlakatdan ma'muriy chiqarib yuborish va ekstraditsiya. Ma'muriy chiqarib yuborish tartibi Markaziy Osiyo davlatlarining kodlangan protsessual qonunlarida belgilab qo'yilgan va sud jarayoni orqali migrantlarni huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan majburan qaytarilishini ko'zda tutadi. Demak, Qozog'iston Respublikasining fuqarolik protsessual qonun hujjatlariga muvofiq chiqarib yuborish tartibi chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'limgan shaxsning yashash va (yoki) ro'yxatdan o'tgan joyidagi sudga ichki ishlar organlari tomonidan Qozog'iston Respublikasidan chiqarib yuborish to'g'risida ariza topshirishni o'z ichiga oladi (Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 382-moddasi), Qozog'iston Respublikasi qonun hujjatlari buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlari ilova qilinadi. Qozog'iston Respublikasidan chiqarib yuborish to'g'risidagi arizani sud 10 kun ichida ko'rib chiqadi (Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 384-moddasi). Chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi, ichki ishlar organlari tomonidan chiqarib yuborish uchun qonuniy asos hisoblanadi (Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 385-moddasi)¹⁴.

Chiqarib yuborish jarayoni belgilangan muddat ichida ma'muriy chiqarib yuborish to'g'risida sud qarori qabul qilingandan keyin amalga oshiriladi. Chiqib ketish huquqni muhofaza qilish organlari nazorati ostida mustaqil ravishda yoki majburan amalga oshiriladi. Qozog'iston Respublikasi qonunlariga muvofiq chet el fuqarosini chiqarib yuborish uchun quyidagilar asos bo'ladi: "agar uning hatti-harakatlari davlat xavfsizligini ta'minlash yoki jamoat tartibini saqlash manfaatlariga zid bo'lsa; agar bu aholining salomatligi va axloqini himoya qilish, Qozog'iston Respublikasi fuqarolaring va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lsa, agar u Qozog'iston Respublikasi qonunlarini buzgan bo'lsa, nikoh qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, agar nikoh tuzilganligi uni doimiy yashash joyida qoldirish uchun

¹² Qozog'iston Respublikasining 2011 yil 22 iyulda qabul qilingan 477-IV-sonli "Aholi migratsiyasi to'g'risida" qonuni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1100000477>]

¹³ Qирг'изистон Respublikasining 2007 yil 26 noyabrdagi 175-sonli "Qирг'изистонда yashaydigan etnik qирг'излarning davlat kafolatlari to'g'risida" qonuni [Kirish rejimi: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/202209?cl=ru-ru>]

¹⁴ Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi Qozog'iston Respublikasining 2015 yil 31 oktyabrdagi 377-V sonli qonuni. Qozog'iston haqiqati. 03.11.2015. № 210 (28086) [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000377>]

asos bo'ladigan bo'lsa (Qozog'iston Respublikasi "Chet el fuqarolarining huquqiy maqomi to'g'risida" qonunining 27-moddasi)¹⁵.

Chiqarib yuborishning moliyaviy xarajatlari, chiqarib yuborilgan noqonuniy migrantlarning o'zlari tomonidan yoki immigrantni taklif qilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan qoplanadi. Davlat byudjetidan chiqarib yuborishni moliyalashtirish, deportatsiya qilinganlarning o'zlarida mablag' mavjud bo'limganida yoki yetishmayotganida amalga oshiriladi (Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida kodeksning 916-moddasi)¹⁶.

Ekstraditsiya qilish jarayoni jinoyat-protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. *Ekstraditsiya – bu jinoi javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun qidiruvga berilgan shaxsni davlatga topshirishdir.* Ekstraditsiya Markazi Osiyo davlatlari xalqaro shartnomaga tuzgan xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga huquqiy yordam ko'rsatish doirasida amalga oshiriladi. Qozog'istonda qidiruvda bo'lgan shaxsni chet davlatga topshirishni (ekstraditsiya qilishni) ta'minlash uchun sud ekstraditsion hibsga olish – shaxsni qamoqqa olish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin (Qozog'iston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 7-moddasi), ekstraditsion hibsga olish uchun sanksiya berish tergov sudyasi tomonidan jinoi protsesda amalga oshiriladi (Qozog'iston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 55-moddasi)¹⁷.

O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etgan jinoyati uchun sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etganidan yoki o'taganidan keyin yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda jinoi javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan holda keyinchalik O'zbekistonga kirish huquqini quyidagicha cheklab qo'yish orqali mamlakatdan chiqarib yuboriladi: katta ijtimoiy xavf solmaydigan va og'ir bo'limgan jinoyatlar sodir etganlik uchun – 5 yil muddatga; og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun – o'n yil muddatga; o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun – bir umrga.

Markazi Osiyo mamlakatlari, agar odamlar u yerda qynoqqa solinishi mumkinligiga jiddiy asoslar bo'lsa, ularni boshqa davlatga chiqarib yuborish, qaytarish yoki topshirishga yo'l qo'ymaslik siyosatiga amal qiladi.

Ixtiyoriy ravishda qaytish va reintegratsiyani qo'llash nuqtai nazaridan Markazi Osiyo mamlakatlarining amaldagi milliy qonun hujjatlarini o'rganish shuni ko'rsatadi-ki, mamlakatlarning qonunlarida qaytish migratsiyasi va reintegratsiya masalalari faqat umumiy nuqtai nazaridan (umumiyl jihatlari), fuqarolarning mamlakatdan chiqishi va kirishi bilan bog'liq huquqlarini belgilovchi qonunlarda ko'rib chiqiladi.

Qaytish migratsiyasi va reintegratsiya elementlari Turkmanistonning Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha Milliy harakat rejasida (2016 yil) ham o'z aksini topgan. Ushbu hujjat "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" Turkmaniston qonunida nazarda tutilgan qonun hujjatlarini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Taqdim etilgan milliy me'yoriy-huquqiy baza va Turkmanistonning migratsiya sohasidagi xalqaro shartnomalarida qaytish migratsiyasi va reintegratsiya masalalarini faqat qisman ko'rildi. Ushbu jarayonning huquqiy asoslari Turkmanistonda endigina shakllana boshladi. Shunday qilib, hozirgi kunga qadar qonun hujjatlarida "qaytish migratsiyasi", "qaytish", "ixtiyoriy

¹⁵ Qozog'iston Respublikasining 1995 yil 19 iyundagi qilingan "Chet elliklarning huquqiy maqomi to'g'risida" qonuni [Kirish rejimi: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=1003764#pos=142,-47].

¹⁶ Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksi, Qozog'iston Respublikasining 2014 yil 5 iyuldagi 235-V sonli qonuni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000235>].

¹⁷ Qozog'iston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Qozog'iston Respublikasining 2014 yil 4-iyuldagi 231-V sonli qonuni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231>].

ravishda qaytish", "majburiy qaytish", "boriladigan mamlakat", "kelib chiqish mamlakati", "readmissiya" va boshqa huquqiy toifalar qo'llanilmaydi.

Qaytish migratsiyasi masalalari O'zbekistonning strategik rivojlanish rejalarida o'z aksini topgan. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi aholi bandligini oshirish, ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, shuningdek migratsiya to'g'risida qonun hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi (to'rtinchi yo'nalish – "Ijtimoiy sohani rivojlantirish")¹⁸. Shu bilan birga, hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida tashqi va ichki mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar mavjud emas, ya'ni migratsiya jarayonlarini umumiy tamoyillar va qoidalar asosida tartibga soluvchi va yagona migratsiya siyosatini amalga oshiruvchi migratsiya to'g'risida qonun hujjatlari mavjud emas – haligacha O'zbekiston Respublikasining "Migratsiya to'g'risida" qonuni qabul qilinmagan.

Markaziy Osiyoda qaytish migratsiyasi sohasidagi milliy qonun hujjatlarining rivojlanmaganligi mamlakat tashqarisidagi aholining, ayniqsa ishchi kuchining qaytish migratsiyasi o'tkir muammo bo'limgaganligi va shunga mos ravishda milliy qonun hujjatlarini huquqiy tartibga solishni talab qilmaganligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, migratsiya sohasida shakllantirilgan va amaldagi milliy va xalqaro huquqiy baza migrantlarning ixtiyoriy ravishda qaytishi va ularning fuqarolik jamiyatiga qo'shilishi dasturlari doirasida qaytish migratsiyasi institutini rivojlantirish uchun asos bol'lishi mumkin.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari qonun hujjatlarida qaytish migratsiyasi masalalari xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada ko'rib chiqiladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari qonun hujjatlaridagi qaytish migratsiyasi ikkita asosiy shaklga ega: etnik repatriatsiya va majburiy tarzda qaytish. Markaziy Osiyo mamlakatlari qonun hujjatlaridagi ixtiyoriy ravishda qaytish vatanga repatriatsiya davlat dasturlarida ("oralmanlar", "qayrilmanlar") o'z aksini topgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari qonun hujjatlarida majburiy tarzda qaytish ma'muriy chiqarib yuborish va ekstraditsiya qilish tartibida aks etadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining zamonaviy qonun hujjatlari bazasi mintaqada IQRY dasturlarini ishlab chiqishni faol ravishda ilgari surish salohiyatiga ega. Yuboruvchi tomon ham, qabul qiluvchi tomon ham IQRY dasturlarida faol ishtirok etishlari lozim, shuning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida xalqaro aloqalarni o'rnatish va qaytish migratsiyasi bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish muhimdir.

Nazorat savollari:

1. Mamlakatingizdagagi qaytish migratsiyasini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar nomini aytинг.
2. Markaziy Osiyo mamlakatlarda mintaqaviy darajada qaytish migratsiyasining muammolari qanday xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinadi?
3. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida qaytish migratsiyasi sohasidagi xalqaro hamkorlikning zarurligini asoslab bering.
4. Chiqarib yuborish va ekstraditsiyani huquqiy, gumanitar va iqtisodiy nuqtai nazardan majburiy tarzda qaytishning asosiy zamonaviy turlari sifatida taqqoslang.

¹⁸ 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4849-soni farmoni bilan tasdiqlangan [Kirish rejimi: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=39674168].

5. Markaziy Osiyo mamlakatlari (sizning mamlakatingiz) qonun hujjatlarida qaytish migratsiyasini takomillashtirishning qanday usullarini taklif qilishingiz mumkin?

Amaliy mashg'ulot:

1. Mamlakatingizdagi xorijiy fuqarolarni mamlakatdan chiqarib yuborilishining sud amaliyotiga misollar keltiring va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining protsessual harakatlarini tasvirlab bering. Ma'lumotlar bazalaridan yoki matbuot materiallaridan foydalaning. Bunday vaziyatlarda IQRY yordamida majburiy chiqarib yuborishning muqobil varianti qo'llanishi mumkinmi?
2. Qozog'iston Respublikasi sud amaliyotidan 2020 yilning yanvar oyidagi Yangi qoidalar kuchga kirgunga qadar bo'lgan va ro'yxatga olish uchun javobgarlik qabul qiluvchi tomonga topshirilishidan oldingi ikkita hayotiy misolni tahlil qiling. Ushbu misollar chet el fuqarosi tomonidan aholi migratsiyasi sohasidagi qonunlarni buzishi bilan bog'liq edi, xususan: Qozog'iston Respublikasi qonun hujjatlarida ro'yxatga olish uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin uch kungacha ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tmasdan mamlakatda qolish. Nima uchun aynan shu mazmundagi jinoyat uchun sud tomonidan turli xil yakuniy qarorlar chiqarilganligini tushuntiring.

2.3.1-misol

Fuqaro Yu., Tojikiston Respublikasi fuqarosi bo'lib, 2015 yil 21 martda Qozog'iston Respublikasi chegarasini kesib o'tgan va Qozog'iston Respublikasi hududida shu paytgacha ro'yxatdan o'tmasdan, Qozog'iston Respublikasining aholi migratsiyasi sohasidagi qonun hujjatlarini buzgan. Ushbu qoidabuzarlik, Qozog'iston Respublikasi hududida ushbu moddaning 1-qismida nazarda tutilgan muddatdan ortiq vaqt davomida, ya'ni besh kun davomida ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tmasdan bo'lish ko'rinishida aks etadi. Shunday qilib, fuqaro Yu. Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksining 517-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan.

Yu.ning sudda ko'rsatuv berishicha, u 2015 yilning mart oyida Qozog'iston Respublikasi chegarasini kesib o'tgan va organlarda ro'yxatdan o'tmagan.

Sudya ish materiallarini o'rganib chiqib, shuningdek prokurorning ma'muriy jarima tarzida jarima solish to'g'risida xulosasini tinglab, Yu. ning Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksining 517-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbazarlik sodir etishdag'i aybini to'liq tasdiqlangan deb hisoblaydi, bu ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida Bayonnomma, huquqbuzarning ko'rsatuvlari va ish bo'yicha to'plangan boshqa materiallar bilan tasdiqlangan.

Yu. ning hatti-harakati Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksining 517-moddasi 2-qismi bilan to'g'ri malakalangan. Yu. ga nisbatan jazo tayinlashda, uning besh nafer farzandi borligi va o'z qilmishi uchun chin dildan pushaymon ekanligi inobatga olinadi. Yuqoridagilarga asoslanib, Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksining 818, 819, 821-823-moddalariga amal qilib, Olmaota viloyatining Alakol tumanidagi 2-tuman sudining sudyasi Yu. ni Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksining 517-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbazarlikni sodir etganlikda aybdor deb topish uni eng kam hisob-kitob ko'rsatkichlarining o'n besh baravari miqdorida 29 730 tenge (yigirma to'qqiz ming yetti yuz o'ttiz) miqdorida ma'muriy jarimaga tortish to'g'risida qaror chiqaradi. Jarima qaror kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun ichida ixtiyoriy ravishda to'lanishi lozim¹⁹.

¹⁹ Qozog'iston Respublikasi Oliy sudi sud mahkamasi [Kirish rejimi: <http://office.sud.kz/forumTaldau/> forum.xhtml?content=banks&category=48&article=3517&view=article].

2.3.2-misol

2015 yilning 27-noyabr kuni Pavlodar viloyati Ichki ishlar departamenti Noqonuniy migrantsiyaga qarshi kurash bo'yicha Pavlodar shahri maxsus bo'linmasi xodimlari tomonidan chet el fuqarosi hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi To'xtayev A.M. Qozog'iston Respublikasiga 2015 yilning 8-sentyabr kuni "Qozog'iston" nazorat-patrul shoxobchasi orqali o'tib, 2015 yilning 20 oktyabriga qadar vaqtinchalik ro'yxatdan o'tganligini, biroq, migrantsiya kartasida ro'yxatdan o'tish davrida ko'rsatilgan muddat tugagach, ushbu muddat tugaganidan keyin uch kundan ortiq vaqt davomida chiqib ketishdan bo'yin tovlaganligi aniqlangan.

Ushbu ishni ko'rib chiqish jarayonida To'xtayev A.M. ma'muriy huquqbazarlik sodir etishdagi aybini to'liq tan olgan va migrantsiya kartasini yo'qotib qo'yanligi sababli Qozog'iston hududidan o'z vaqtida chiqib keta olmaganligi haqida tushuntirish bergen. Qozog'iston Respublikasida tanishlari va qarindoshlari yo'q.

To'xtayev A.M. ning Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksning 517-moddasi 4-qismida ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbazarlikni sodir etishdagi aybi uning ish ko'riliши paytida bergen tan oluvchi ko'rsatuvlari, 2015 yil 27-noyabrdagi 0114375-sonli ma'muriy huquqbazarlik to'g'risida Bayonnomma, Pavlodar viloyati Ichki ishlar Departamenti migrantsion politsiya boshqarmasining ma'lumotlari va yetarli hamda maqbul dalillar hisoblanuvchi sudda ko'rib chiqilgan ish materiallari bilan tasdiqlangan.

To'xtayev A.M. ning tushuntirishini eshitib, prokurorning To'xtayev A.M. ni ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida va unga nisbatan Qozog'iston Respublikasi chegarasidan ma'muriy chiqarib yuborish tarzidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llash to'g'risida xulosasini ko'rib chiqib, ish materiallarini o'rganib chiqib, sudyu To'xtayev A.M. ni Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksning 517-moddasi 4-qismiga ko'ra, migrantsiya kartasida ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin uch kundan ortiq muddat ichida mamlakatdan chiqib ketishdan bo'yin tovlaganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak deb hisoblaydi.

Ma'muriy jazo tayinlashda ma'muriy huquqbazarlikning xususiyati, uni sodir etish holatlari, aybdorning shaxsi, uning mulkiy holati, ma'muriy huquqbazarlik uchun javobgarlikni yengillashtiradigan (og'irlashtiradigan) holatlarning yo'qligi inobatga olinadi.

Bundan tashqari, sud tomonidan To'xtayev A.M. ning Qozog'istonda yaqin qarindoshlik aloqalari, shuningdek, boshqa aloqalari yo'qligi, shu munosabat bilan doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyining yo'qligi, shuning uchun unga nisbatan jarima yoki ma'muriy qamoq tarzidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llash uchun asos yo'qligi inobatga olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonuniy talablarga rioya qilish va qonun ustuvorligini hurmat qilish, shuningdek, yangi huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida sudyu To'xtayev A.M. ga nisbatan Qozog'iston Respublikasidan ma'muriy chiqarib yuborish shaklida ma'muriy jazo qo'llash zarur deb hisoblaydi.

Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida Kodeksning 821-moddasi 1-qismi, 822 va 823-moddalariga amal qilib, Pavlodar shahar ixtisoslashtirilgan ma'muriy sudining sudyasi Tasmagambetov S.K. To'xtayev Axmadjon Matjonovich Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida Kodeksning 517-moddasi 4-qismida ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbazarlikni sodir etganlikda aybdor deb topilsin va uni Qozog'iston Respublikasidan ma'muriy chiqarib yuborish shaklida ma'muriy jazoga tortilsin deb qaror qiladi. To'xtayev A.M. sud qarori kuchga kirgan paytdan boshlab 10 (o'n) kun ichida Qozog'iston Respublikasi hududidan chiqib ketishi kerakligi belgilansin²⁰.

²⁰ Qozog'iston Respublikasi Oliy sudi sud mahkamasi [Kirish rejimi: <http://office.sud.kz/forumTaldau/forum.xhtml?content=banks&category=48&article=3517&view=article>].

Majburiy adabiyot:

1. Bekyashev D.K., Ivanov D.V. Majburiy va mehnat migratsiyasini xalqaro-huquqiy tartibga solish. M.: Prospekt, 2013 yil, 392-b.
2. Migratsiya huquqi: o'quv qo'llanmasi/ A.N. Chashina tomonidan tahrirlangan. M.: Delo i Servis, 2013. 176-b.
3. Vorobyova O.D., Topilin A.V., Grebenyuk A.A. va boshq. Aholi migratsiyasi: nazariya, siyosat: o'quv-uslubiy qo'llanma. M.: Ekonomicheskoye obrazovaniye. 2012. 364-b.

Qo'shimcha adabiyot:

1. Alayeva G.T. Migratsiya qonun hujjatlari asoslari. "Zamonaviylikning global jarayonlari sharoitida Markaziy Osiyodagi integratsiya" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2014 yil 2014 oktyabr. "Turon" universiteti. Olmaota, Qozog'iston). Olmaota: Interconsult Info. 2014. 112-b.
2. Xavfsiz, tartibli va tartibga solinadigan migratsiya bo'yicha BMT Global shartnomasi. Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiya bo'yicha global shartnomani qabul qilish uchun hukumatlararo konferensiyada qabul qilingan (2018 yil 11-12 dekabr). Marrakesh, Marokash). BMT hujjati A / RES / 73/195 [Kirish rejimi: <https://refugeesmigrants.un.org/ru/migration-compact>].
3. Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumining Samarcand deklaratsiyasi "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining yigirma yilligi natijalari: zamonaviy tahdidlar va real voqelik". Osiyo inson huquqlari forumida qabul qilingan (2018 yil 22 va 23 noyabr). Samarcand, O'zbekiston). BMT hujjati A / 73/730.
4. MDH ga a'zo davlatlar o'rtasida voyaga yetmaganlarni o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytarish masalalari bo'yicha 2002 yil 7 oktyabrdagi bitim (Kishinyov, Moldova) [Kirish rejimi: www.conventions.ru/view_base.php?id=1434].
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh assambleyasining 1948 yil 10 dekabrdagi 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan [Kirish rejimi: <https://www.un.org/en/universal-declaration-human-rights/>].
6. Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining barcha huquqlarini himoya qilish to'g'risida xalqaro konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1990 yil 18 dekabrdagi 45/178 sonli rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan (8 modda) [Kirish rejimi: www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/migrant.shtml].
7. Qullik to'g'risida konvensiya. 1926 yil 25 sentyabrda Jenevada imzolangan, 1953 yil 7-dekabrdagi Bayonnomalar bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan [Kirish rejimi: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/convention_slavery.shtml].
8. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risida shartnoma (Ostona shahri, Qozog'iston, 2014 yil 29 may) (2018 yil 15 martda kiritilgan o'zgartirishlar bilan) [Kirish rejimi: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31565247].
9. Qozog'iston Respublikasining 2011 yil 22 iyuldagji 477-IV-tonli "Aholi migratsiyasi to'g'risida" qonuni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1100000477>].

10. Qozog'iston Respublikasining 2007 yil 26 noyabrdagi 175-sonli "Qirg'izistonda yashaydigan etnik qirg'izlarning davlat kafolatlari to'g'risida" Qonuni. [Kirish rejimi: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/202209?cl=ru-ru>].
11. Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi Qozog'iston Respublikasining 2015 yil 31 oktyabrdagi 377-V sonli qonuni. Qozog'iston haqiqati. 03.11.2015 y. 210-soni (28086) [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000377>].
12. Qozog'iston Respublikasining 1995 yil 19 iyundagi "Chet elliqlarning huquqiy maqomi to'g'risida" qonuni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/U950002337>].
13. Qozog'iston Respublikasi Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risida kodeksi, Qozog'iston Respublikasining 2014 yil 5 iyuldaggi 235-V sonli qonuni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000235>].
14. Qozog'iston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, Qozog'iston Respublikasining 2014 yil 4-iyuldaggi 231-V sonli qonuni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231>].
15. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagii PF-4849-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan [Kirish rejimi: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=39674168].
16. Qozog'iston Respublikasi Oliy sudi sud mahkamasи [Kirish rejimi: <http://office.sud.kz/forumTaldau/forum.xhtml?content=banks&category=48&article=3517&view=article>].

XMgT mashinasi Tojikistonning olis tumanlaridagi zaif hamjamiyatlarga yordam yetkazib bermoqda.

Fotosurat: XMgT Tojikiston



Fotosurat: XMgT Tojikiston

Bolalar XMgT tomonidan qo'llangan odam savdosi mavzusidagi teatr tomoshasini tomosha qilishmoqda Boxtar, Tojikiston

Fotosurat: XMgT Tojikiston, 2016



III BO'LIM.

MARKAZIY OSIYODA QAYTISH MIGRATSİYASINING DASTLABKI SHART- SHAROITLARI VA XUSUSİYATLARI

3.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarida demografik rivojlanishi va migratsiya holati

Markaziy Osiyo mamlakatlarining demografik rivojlanishi. Aholining o'sish dinamikasi va tuzilishi. Migratsion trendlar. Markaziy Osiyodagi migratsiya turlari. 2010-2018 yillarda mintaqadagi umumiy migratsiya holati (emigratsiya va immigratsiya kollami, migratsiya saldosi). Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya ko'sratsatkichlari bo'yicha turlari: jo'natuvchilar va qabul qiluvchilar. Rossiya Federatsiyasining Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya almashinuvidagi o'rni. Markaziy Osiyo mamlakatlarida zamonaviy sharoitlarda migratsiyaning asosiy shakli sifatida mehnat migratsiyasi . Markaziy Osiyo mamlakatlarida migratsion vaziyatning rivojlanish istiqbollari.

So'nggi yillarda Yevroosiyo va Markaziy Osiyoda migratsiya jarayonlari sezilarli ko'lamga yetdi: xalqaro migratsiya bo'yicha sobiq Sovet Ittifoqi hududi (Rossiyadagi migrantlarni jaib qilish markazi bilan) 2005 yilgacha AQSh dan keyin dunyoda ikkinchi o'rinni egallab kelgan edi¹. Keyin esa Rossiya ikkinchi o'rinni Germaniyaga bo'shatib berdi. 2015 yilda Rossiyadagi² migrantlarning umumiy soni 11 million kishini tashkil etdi.Sekin-asta mintaqada migrantlarni jaib qilishning ikkinchi markazi shakllandi – Qozog'iston: turli baholashlarga ko'ra, bu yerda 2,5 milliondan 3,5 milliongacha mehnat migrantlari, qochqinlar, majburiy, tartibga solinmagan va tranzit migrantlar mavjud³. MDH hududidagi transchegaraviy migratsiyaning yarmi Markaziy Osiyo mintaqasidan Rossiyaga va qisman Qozog'istonga ishslash uchun ketmoqda. Bundan tashqari, Rossiya va Qozog'iston Osiyo va Yevropani bog'laydigan yirik tranzit yo'laklaridir.

Markaziy Osiyoda migratsiya bo'yicha mintaqaviy quyi tizim shakllandi, unda Qozog'iston mehnat migrantlarini qabul qiluvchi mamlakat bo'lib, mintaqadagi qolgan barcha mamlakatlar jo'natuvchi mamlakatlardir. Rossiya MDHning barcha mamlakatlari uchun asosiy jaib qiluvchi mamlakat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolmoqda⁴. Bunday migratsiya kichik tizimining shakllanishi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar bilan bog'liq edi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida bir tomonidan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida boshqa tomonidan, aholining ko'chishi va pul o'tkazmalari jihatidan dunyoda eng yiriklaridan biri bo'lgan barqaror migratsiya yo'lagi shakllangan. Qирғизистон, Тоҷикистон ва Ӯзбекистон mintaqadagi migratsion jarayonlarning faol ishtiroychilari bo'lib, ular chet elga juda ko'p sonli mehnat migrantlarini jo'natmoqdalar. Markaziy Osiyo mamlakatlari va qabul qiluvchi hamkorlar (Rossiya va Qozog'iston) o'rtasidagi mehnat migratsiyasida 3,8 millionga yaqin kishi ishtiroy etadi, bu Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy faol aholisining qariyb 14% ini tashkil etadi. Mintaqadagi keng ko'lamli

¹ International Migration. UN. Nyu York. 2013 [Kirish rejimi: <http://esa.un.org/unmigration/documents/WallChart2013.pdf>].

² Jahon migratsiyasi to'g'risida Ma'ruba, XMgT, Jeneva (World migration report 2018. IOM. Jeneva. 2019) [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/wmr_2018_en.pdf].

³ Shu yerga qarang.

⁴ Sadovskaya Ye.Yu. Xalqaro mehnat migratsiyasi va Markaziy Osiyo respublikalaridagi pul o'tkazmalari: omon qolish strategiyasi-mi yoki rivojlanish strategiyasi? [Kirish rejimi: <http://demoscope.ru/weekly/2008/0315/analit03.php>].

migratsiya jarayonlari jo'natuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va siyosiy oqibatlarga olib keladi.

3.3.1-jadval 2016 yilda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan o'z mamlakatlaridan tashqarida ishlayotgan mehnat migrantlarning sonini baholash⁵

Migrantlarning chiqish mamlakati	Chet elda ishlayotgan mehnat migrantlarining hisobini baholash, ming kishi	Mehnat migrantlari ishlayotgan asosiy mamlakatlar	2016 yildagi iqtisodiy faol aholining soni, ming kishi	Mamlakatning iqtisodiy faol aholisi orasidagi mehnat migrantlarining ulushi, %
Qozog'iston	350-500	RF, Germaniya, AQSh, Kanada, Isroil, Yevropa mamlakatlari	8 998,8	3,9-5,6
Qirg'iziston	620-700	RF, QzR, Turkiya, BAA, Qatar, Koreya Respublikasi, AQSh, Yevropa mamlakatlari	2 547,4	24,3-27,5
Tojikiston	700-850	Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Isroil, AQSh, Kanada, Yevropa mamlakatlari	2 439,3	28,7-34,9
Turkmaniston	200-300	RF, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya, Eron	2 426,6	8,2-12,4
O'zbekiston	1 200-1 500	RF, QzR, Koreya Respublikasi, AQSh, Yaqin Sharq mamlakatlari, Yevropa mamlakatlari	14 022,0	8,6-10,7
Jami	3 070-3 850		26 872	11,4-14,3

Markaziy Osiyo mintaqasidan mehnat migratsiyasi oqimlarining asosiy yo'nalishi – Rossiya hisoblanadi. Tojikistondan 85% gacha mehnat migrantlari, Qirg'izistondan 85% gacha mehnat migrantlari va⁶ O'zbekistondan qariyb 70% gacha mehnat migrantlari⁷ Rossiyaga yo'l oladilar⁸. Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston, boshqa tomonidan, kambag'al Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa davlatlar o'ttasida mehnat migrantlari va pul o'tkazmalarining oqim ko'lami sezilarli darajada ortib bormoqda. Rasmiy

⁵ Ryazansev S. Iqtisodiy inqiroz sharoitida Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat migratsiyasi. Valday qaydlari. 55-son. Avgust 2016. 7-b. [Kirish rejimi: <http://ru.valdaclub.com/files/22140>]; 2013-2016 yillarda MDH mamlakatlari milliy mehnat bozorlari ahvolining monitoringi. M.: Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining davlatlararo statistika qo'mitasi, 2017 yil. 36-37 b. [Kirish rejimi: www.cisstat.com/rus/Monitoring_labour2013-2016.pdf].

⁶ Olimova S., Bosk I. Tojikiston mehnat migratsiyasi. Dushanbe, 2003 yil. 21-b.

⁷ QrR Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari [Kirish rejimi: www.stat.kg].


⁸ Markaziy Osiyo, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston va Pokistonda mehnat migratsiyasi. Tahvilii sharh. – Olmaota, 2005 yil. 64-b.

va norasmiy tarkibiy qismlar bilan ajralib turadigan ushbu oqimlar madaniy, lingvistik, gender va institutsional hamjamiyatni hamda Rossiya va Qozog'istondagi Markaziy Osiyo migrantlari diasporalarining kengayishini aks ettiradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarda agrar aholi haddan tashqari ko'payib borishi kuzatilayotgan bir paytda, demografik inqiroz natijasida Rossiyadagi aholi soni kamayib ketmoqda. 2006 yildan beri Rossiyada har yili mehnatga layoqatli aholining 1 million kishiga kamayishi kuzatilmoqda⁹.

Prognozlar Rossiyada o'rta muddatli istiqbolda mehnat resurslari tanqisligi kuchayishini ko'rsatmoqda. Bunga qarama-qarshi tarzda, Markaziy Osiyo mamlakatlarda aholi soni ko'payadi (3.1.1-rasm).

3.1.1-rasm Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossiyada umumiy aholi sonining o'sish dinamikasi, ming kishi¹⁰



BMTning prognozigaa ko'ra, 2050 yilga kelib Rossiya aholisi qisqarishi mumkin. Bundan tashqari, Rossiyada aholining qarib borishi yuz beradi: pensiya yoshidagi odamlar ulushining ortishi, shuningdek, yoshlar va mehnatga layoqatli aholi ulushining qisqarishi davom etadi. Bu davlatning nafaqa to'lowlari, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xarajatlarga sarflaydigan xarajatlari o'sishini keltirib chiqaradi.

Rossiya va Qozog'iston aholisining depopulyatsiyasi va qarishi fonida Markaziy Osiyo mamlakatlardagi demografik vaziyat butunlay qarama-qarshi ko'rinishga ega. Bu yerda mehnatga layoqatli aholi soni 2050 yilga kelib quyidagicha o'sadi: O'zbekistonda – 6,4 million, Tojikistonda – 2,8 million, Turkmanistonda – 900 ming, Qirg'izistonda – 600 ming kishiga.

Markaziy Osiyo mamlakatlari aholi sonining ko'payishi bilan ajralib turadi – tug'ish koeffitsienti 1 ayloga 2,4 dan 3,2 bolaga, Rossiya Federatsiyasida esa – 1,7 bolaga to'g'ri keladi. Markaziy Osiyo davlatlarida iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida ham mehnatga layoqatli aholining barchasi ish topa olmaydi.


⁹ Topilin A.V. Noqonuniy migratsiya: miqyosi va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Vostok. 2006. 5- nashri (41). 10-b.

¹⁰ Jahon demografik istiqbollari (World Population Prospects: The 2017 Revision, custom data acquired via website. UN Department of Economic and Social Affairs.) 2017 [Kirish rejimi: <https://population.un.org/wpp/DataQuery>].

Katta ehtimol bilan o'rta muddatli istiqbolda Markaziy Osiyo mamlakatlari Rossiya va Qozog'iston uchun asosiy migratsiya donorlari bo'lib qolishlari mumkin.

Migratsiya saldosi ijobjiy bo 'igan Rossiya Federatsiyasidan farqli ravishda, Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya saldosи salbiy bo'lib qolmoqda (3.1.2-rasm). 2017 yilda Rossiyada migratsiya saldosи 212 ming kishini tashkil qilgan edi. Donor mamlakatlar orasida Tojikiston birinchi marta yangi yetakchiga aylandi: Tojikistondan Rossiya Federatsiyasiga migratsiya oqimi 31 ming kishidan oshdi. 2018 yilda Rossiyadagi har to'rtinchi migrant Tojikistondan kelgan edi. Ikkinci o'rinda – Qozog'iston (+26,5 ming kishi). Uchinchi o'rinda – Ukraina (+14,8 ming). U yerdan keladigan oqim 2017 yilga nisbatan uch baravarga qisqardi (47,7 mingdan). Ammo Ukraina 2014 yildan boshlab to'rt yil davomida Rossiyaga kelgan migrantlar soni bo'yicha yetakchi edi. Federal davlat statistika xizmati ma'lumotlariga ko'ra 2018 yilda boshqa mamlakatlardan Rossiyaga migratsiya oqimi 2005 yildan beri minimal darajaga tushdi – 124,9 ming kishi. 2017 yil bilan solishtirganda, migratsyaning o'sishi 41% ga yoki 87 ming kishiga kamaydi. Natijada, so'nngi o'n yil ichida birinchi marta migratsiya oqimi tabiiy pasayishni qoplay olmadi va Rossiya aholisi 93,5 ming kishiga kamaydi.

3.1.2-rasm 2010-2017 yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha migratsiya saldosи, ming kishi¹¹



Rasmiy ravishda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan mehnat migrantlarining aksariyati Rossiyaga mehnat qilish maqsadida kelishadi. Biroq, keyinchalik ularning ko'pchiligi vaqtinchalik yashash huquqini, doimiy yashash guvohnomasi va fuqaroligini olgan holda Rossiyaning doimiy aholisini to'ldiradilar. Mehnat migrantlarining aksariyatini Moskva qabul qiladi. 2017 yilda Rossiya Federatsiyasi poytaxtida 1250 ming mehnat migranti ro'yxatga olingan. Undan keyingi o'rinnlarda Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati – 719 ming, Moskva viloyati – 344 ming, Sverdlovsk viloyati – 101 ming kishi. Boshqa hududlar qatorida mehnat migrantlari orasida Krasnodar o'lkasi, Samara viloyati, Novosibirsk viloyati, Xanti-Mansi avtonom okrugi, Krasnoyarsk o'lkasi, Irkutsk viloyati va Tatariston ham juda mashhurdir.

¹¹ MDH davlatlararo statistika qo'mitasi veb-saytidagi "Migratsiya" bo'limi [Kirish rejimi: www.cisstat.com].

Yuqori maosh tufayli Moskvaga intiladigan mehnat migrantlari uy-joy narxining pastligi sababli Moskva viloyatiga joylashishni afzal ko'rishadi, shuning uchun ekspertlar shahar byudjetidan ijtimoiy xarajatlarni sezilarli darajada oshirishni talab etmaydi, faqat moliyaviy ahvolni yaxshilashadi hamda unga yuqori kredit reytingi va ijobjiy prognozni taqdim etadi, deb hisoblashadi.

Qozog'iston asta-sekin o'z migratsion maqomini jo'natuvchi davlatdan qabul qiluvchi mamlakatga o'zgartirdi, shu bilan birga har doimgidek faol tranzit zonasini bo'lib qoldi. Ayni paytda Qozog'iston turli xil migratsiya trendlari sharoitida yirik qabul qiluvchi mamlakat maqomini saqlab qolgan holda takroran migrantlarning faol donoriga aylanmoqda. Rossiya Federatsiyasining immigratsion qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar va cheklar (ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan xorijiklarning mamlakatga qayta kirishiga taqiq joriy etilishi) sharoitida Markaziy Osiyodan kelgan ko'plab mehnat migrantlari tomonidan Qozog'iston migratsiya va bandlik sohasida Rossiyaga alternativa sifatida qaraladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari (Turkmanistondan tashqari) va Rossiya bilan vizasiz rejimni, shuningdek, YOLLning faoliyati va chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tizimidagi doimiy xatoliklarni hisobga olgan holda, Qozog'istondagi migratsiyaning haqiqiy ko'lamini baholash juda qiyin. 2016-2018 yillarda Qozog'istondagi migrantlarning umumiyligi soni 1,3 milliondan 3 milliongacha deb baholangan edi (yiliga o'rtacha). 2016 yildagi tadqiqotlarga ko'ra, Qozog'istonda vaqtincha ro'yxatdan o'tgan Qирг'изистон, Тоҷикистон ва О'збекистонлик migrantlar soni 1265 ming kishini tashkil qilgan edi¹². 2018 yilda MDH davlatlaridan Qozog'iston Respublikasida vaqtinchalik bo'lganlar soni 1812 ming kishini tashkil qilgan edi, ularning 85% idan ortig'i¹³ – ishlash va shaxsiy masalalar uchun kelgan Qирг'изистон, Тоҷикистон ва О'збекистон fuqarolari. Ushbu uch mamlakat vakillari orasida O'zbekiston fuqarolari ustunlik qilgan (qariyb 90%).

Butun eng yangi tarix davomida Qирг'изистон jo'natuvchi mamlakat bo'lgani holda salbiy migratsiya saldosiga ega edi. Migratsiya bo'yicha ijobjiy saldo faqat uchta mamlakatda kuzatilmoqda: O'zbekiston, Tojikiston va Xitoy¹⁴. Qирг'izistondan emigratsiya dinamikasiga ham respublikaning o'zidagi, ham migratsiya bo'yicha asosiy hamkor mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar (masalan, iqtisodiy vaziyat va Rossiyaning migratsiya qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar) ta'sir ko'rsatmoqda¹⁵.

Qирг'изистон Respublikasining 700 mingdan ortiq fuqarosi mehnat migranti sifatida mamlakatdan tashqarida, shu jumladan Rossiya 640 ming, Qozog'istonda 35 ming, Turkiyada 30 ming, AQShda 15 ming, Italiyada 5,5 ming, Koreya Respublikasi va Germaniyada 5 mingdan ortiq kishi yashamoqda 2018 yilda Rossiya 640 ming Qирг'изистон fuqarosi migratsion ro'yxatdan o'tkazilgan, bu xorijdagi Qирг'изистонлик migrantlarning qariyb 90 foizini tashkil etadi¹⁶.

2018 yilning boshidan beri Rossiya kelgan Qирг'изистонлик mehnat migrantlari soni 2017 yildagiga nisbatan deyarli ikki baravarga kamaydi. Qabul qilingan mehnat migrantlarining umumiyligi soni bo'yicha u 247,6 ming kishilik ko'rsatkich bilan to'rtinchi o'rinni egalladi, ammo 2017 yilda Rossiya Federatsiyasiga

¹² Markaziy Osiyodagi migrantlarning nochorligi va integratsiyaga bo'lgan ehtiyoji: migrantlar va guruhlarning ehtiyojlarini baholash va xavf-xatarlarni boshqarish. Ostona, 2017 [Kirish rejimi: www.iom.kz/images/books/2017-DAR-executive-summary-rus.pdf].

¹³ Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlari.

¹⁴ Qирг'изистон Respublikasining yillik statistik to'plami. A. Sultanova tomonidan tahrirlangan Qирг'изистон Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Bishkek. 2019. 63-b.

¹⁵ XMgT, Qирг'изистон – kengaytirilgan migratsiya profili. Bishkek. 2016. 33-37 b [Kirish rejimi: <https://iom.kg/wp-content/uploads/2011/07/Migration-Profile-2018-in-Russian.pdf>].

¹⁶ Qирг'изистон Respublikasi Hukumatи huzuridagi Davlat Migratsiya Xizmatining ma'lumotlari [www.ssm.gov.kg].

Qирг'изистондан фақат 472 минг киши, О'збекистондан – 1,5 million ва Тоҷикистондан – 780 минг киши келган.

Rossiyada "qora ro'yxatlar" ning жоријати етилиши, оммавија deportatsiyalar ва Markaziy Osiyodan келган меҳнат migrantlari учун kirish ta'qiqlari Qирг'изистон Respublikasidan emigratsiyaning qisqarishiga va Qирг'изистон Respublikasiga qaytish migratsiyasining ortishiga оlib кeldi. Vaziyat iqtisodiy inqirozning yangi bosqichi va RFning migratsiya qонун hujjatlarining talabchanligi oshgani tufayli 2014 yilda yanada keskinlashdi. Agar 2013 yilda "qora ro'yxat" ga 7 ming Qирг'изистон fuqarosi kirgan bo'lsa, bu raqamlar 2014 yil o'rtalariga kelib 60 ming, 2015 yil boshiga kelib deyarli 200 ming киши ва 2018 yil boshida 77 ming kishini tashkil etdi¹⁷. Qaytish migratsiyasi давлат oldiga yangi vazifalar qo'yadi: qo'shimcha ish о'rинларини юратиш, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatish, oila daromadlarining bir oz pasayishi va boshqalar.

Tojikistondan меҳнат emigratsiyasining o'sishi 1998 yildan boshlangan. Respublikadagi ayni paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni Tojikiston Respublikasi suvereniteti davrida eng katta ijtimoiy hodisaga aylangan va bugungi kunda aholining ulkan qismi hayotini ta'minlash tizimiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatayotgan меҳнат emigratsiyasisiz tasavvur etib boilmaydi. Hozirgi vaqtida меҳнат emigratsiyasi ishsizlarning katta qismini o'z ichiga oladi va turli manbalarga ko'ra, mamlakat aholisi iqtisodiy faol qismining qariyb 40% ini qamrab oladi. Ushbu jarayon, ko'p jihatdan, aholining ko'payishi yuqori bo'lgan hududlarga ta'sir ko'rsatdi.

Tojikistonda aholi sonining o'sishi, umuman, меҳнатга layoqatli yoshdagи aholi sonining yuqori darajasi kuzatilmoqda. Tojikistonda aholining bunday keskin o'sishiga asosiy sabab – bu tug'ilishning yuqori darajasidir. Tojikistondagi меҳнат bozori bir qator omillarga bog'liq bo'lgan nomutanosiblik va keskinlik bilan ajralib turadi.

2015 yil boshida меҳнат resurslari soni 4983 ming kishiga yetdi. Bunda ish bilan band bo'lganlar sonining ko'payishi (92 ming) меҳнат resurslari o'sishidan (453 ming) sezilarli darajada (deyarli besh baravar) ortda qolmoqda, bu esa меҳнат bozoridagi noqulay vaziyatni murakkablashtirmoqda¹⁸. So'nggi 20 yil ichida Tojikiston aholisi 31%, ishchilar soni esa 67% ko'paydi. Shu bilan birga, bandlik darajasi atiqj 9% o'sdi, ya'ni, bandlikning o'sishi меҳнат resurslarining o'sishidan 58% ga orqada qoldi. Tojikiston меҳнат bozori barcha меҳнатга layoqatli aholini ish bilan ta'minlashga qodir emas, shu sababli tojiklarning chet elda ishslash uchun faol меҳнат emigratsiyasi kuzatilmoqda.

Yaqin vaqtgacha Rossiya Federatsiyasi MDH hududida Tojikistondan ish kuchini jalb qiliш bo'yicha yagona mamlakat bo'lib keldi. Bugungi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan Qozog'iston iqtisodiyoti ham Tojikistondan меҳнат resurslarini jalb qilmoqda va Sovet Ittifoqidan keyingi hududda xorijiy ishchilar учун jiddiy raqibga aylanmoqda. Shu bilan bir qatorda, Tojikiston меҳнат migrantlari oqimining boshqa mamlakatlarga yo'nalishini ko'rib chiqmoqda.

Umuman olganda, меҳнат migratsiyasi mavsumiy va qaytuvchi xususiyatga ega, chunki Tojikistonda oilaviy rishtalar an'anaviy ravishda mustahkamdir. Aksariyat меҳнат migrantlari chet elda ishslashga oiladagi moliyaviy muammolarni hal qilishning vaqtinchalik chorasi sifatida qaraydilar. Biroq, so'nggi

¹⁷ Rossiya Federatsiyasidagi iqtisodiy vaziyat va uning Qирг'изистон Respublikasidagi migratsiya jarayonlariga ta'siri. Milliy strategik tadqiqotlar instituti hisoboti. Bishkek. 2015. 27-b [Kirish rejimi: www.nisi.kg].

¹⁸ Azimova M., Maxmadbekov M., Raimddodov U va boshqalar. Tojikiston Respublikasidagi ijtimoiy va меҳнат munosabatlari tarkibidagi меҳнат migratsiyasi. Dushanbe. 2016. 8-b.

5-7 yil ichida pul topish uchun chet elda qolish davomiyligining ortishi va kasbiy xususiyatlar bo'yicha tabaqlashish darajasining o'sishi kuzatilmoxqda.

Turkmanistonning migratsiya modeli shakllanish bosqichida turibdi. Sobiq Sovet Ittifoqining ko'plab mamlakatlari singari Turkmaniston ham emigratsiya mamlakati hisoblanadi. Shu bilan birga, aholining mamlakat tashqarisiga chiqishi juda kam bo'lib, bu asosan aholining mehnat va ta'lif migratsiyasi bilan bog'liq. Migratsiya jarayonlari mamlakat uchun hech qanday katta va jiddiy muammolarni keltirib chiqarmaydi.

Markaziy Osiyon boshqa mamlakatlari bilan qiyoslaganda, o'zining mustaqil rivojlanishi davomida Turkmanistondan migrantlarning eng kam chiqib ketishi kuzatilgan. Jahon banki bergen ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yilda Turkmaniston fuqarolarining 261 ming nafari yoki aholisining 5% qismi mamlakatdan tashqarida edi¹⁹. Turkmanistonlik migrantlarni qabul qiluvchi asosiy davlatlar Rossiya Federatsiyasi va Turkiya Respublikasi hisoblanadi. 2000-2011 yillarda Rossiyada ishlagan Turkmaniston fuqarolarining o'rtacha soni 3 ming nafar mehnat migrantidan oshmagan. Rossiya FMX ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatga mehnat migratsiyasining avjiga chiqish nuqtasi 2002 yilga, Turkmaniston fuqarolarining 7000 ming nafariga Rossiyada ishlash uchun ruxsatnomalar berilgan paytga to'g'ri keladi. 2008 yilda Rossiyada 3,1 ming nafar, 2010 yilda esa atigi 500 nafar Turkmaniston fuqarosi ishlagan²⁰. Turkmaniston mehnat migratsiyasining o'ziga xos xususiyati shundaki, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari emigratsiyasidan farqli ravishda, uning ulkan geografik diversifikasiyasidir. Turkmaniston fuqarolari, shuningdek, Eron, BAA, MDH davlatlari va Yevropaga ham emigratsiya qilishadi. Jadal rivojlanayotgan Qatar mehnat migratsiyasining yangi yo'naliishiga aylanmoqda.

Turkmanistonda emigratsiya ustidan davlatning qat'iy nazorati mayjud, u qattiq cheklov larga duchor bo'ladi, degan fikrlar haqiqatga to'g'ri kelmaydi²¹. Migratsiya to'g'risidagi qonunga muvofiq, Turkmaniston fuqarolari ta'lif olish va mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida qonuniy asoslarda mamlakatdan chiqib ketishlari mumkin (32-modda). Turkmaniston hukumatining asosiy yondoshuvi bu migrantlarning kirishi va chiqishini aniq tartibga solish, noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashishdir. Turkmaniston noqonuniy migratsiyani davlat uchun birinchi navbatda odam savdosи bilan bog'liq muammo deb biladi.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati bu aholining yuqori o'sish sur'ati hisoblanadi. Ishchi kuchining yillik o'sishi 350-370 ming kishini tashkil qiladi. Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi tebranma migratsiya bilan, ya'ni aholining kun davomida qishloqlardan shaharlarga harakatlanishi bilan ajralib turadi. Bu birinchi navbatda ko'plab qishloq aholisining shaharlarda ishlashi yoki o'qishi bilan bog'liq. Bu borada Toshkent va Andijon aglomeratsiyalari alohida ajralib turadi. Masalan, Andijon aglomeratsiyasida aholi soni 624,4 ming kishini tashkil etadi, ammo kunduz kuni aholi soni 1 million kishiga ko'payadi. Farg'ona viloyati shaharlarida turli sanoat sohalari rivojlanmoqda. Migratsyaning tebranma shakli qishloq aholisini ish bilan ta'minlash darajasini, madaniyatini oshirishga, qishloq va shahar jamoalari o'rtaсидаги munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning ichki va tashqi migrantlarning nisbati asta-sekin o'zgarib bormoqda. Agar 2010 yilda migrantlarning 15 foizga yaqini O'zbekistondan tashqariga

¹⁹ Migratsiya va pul o'tkazmalari, Jahon banki (Migration and Remittances. Fact book – 2011. World Bank.) 2012. 247-b.

²⁰ Ryazantsev S.V., Pismennaya Ye.Ye., Tkachenko M.F. Yevroosiy migratsiya quiy tizimi Markaziy Osiyo segmentiniň shakllanishi. Xalqaro jarayonlar. 11-jild. 3-4-sonlar (34-35). 2013 yil sentyabr-dekabr.

²¹ Shu yerga qarang.

chiqishni istagan bo'lsa, 2016 yilda ko'pchilik O'zbekiston ichida ko'chishni xohlagan²². Olti yil ichida mamlakatning ayrim hududlarining iqtisodiy ahvoli o'zgardi, endi potentsial migrantlar ishga joylashish uchun O'zbekiston mintaqalarini tanlamoqda.

Turli maqsadlar uchun xorijga chiqib ketayotgan O'zbekiston fuqarolarining umumiyligi soni 2017 yilda 6,8 million kishini, 2018 yilda esa 13,8 million kishini tashkil etgan. Mamlakatdan chiqib ketgan O'zbekiston fuqarolari – erkaklar 58% (8 mln. kishi), ayollar – 42% (5,8 mln. kishi) ni tashkil etdi. 13,3 million kishi (96%) MDH mamlakatlariiga, 531 ming kishi (4%) xorijiy mamlakatlarga chiqib ketishgan. O'zbekiston fuqarolarining eng ko'pi Qozog'istonga – 7,1 million (52%), Qirg'izistonga – 3,1 million (23%), Rossiya – 1,1 million (9%), shuningdek Koreya Respublikasi, Turkiya, Xitoy va AQShga va Germaniyaga ketishgan. Mamlakat tashqarisiga chiqishning eng mashhur maqsadi qarindoshlarini ko'rishga borish bo'lgan (58%)²³. 2017 yilda O'zbekistonidan chet elga doimiy yashash uchun ketganlar soni 19 ming kishidan oshdi, shu jumladan ularning 47% Rossiya va Qozog'istonga, AQSh va Isroilning har biriga 1%. O'zbekistonlik migrantlar ishslash maqsadlarida asosan Rossiya va Qozog'istonga chiqib ketishgan. Jahan bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yilda tegishinchal O'zbekistonlik erkak mehnat migrantlarining 81% va ayollarning 67% Rossiyada, 12% va 10%, Qozog'istonda, 3% va 18% Turkiyada ishslashgan²⁴. 2018 yilda Rossiya Federatsiyasida 4,5 million nafar O'zbekiston fuqarosi migratsion ro'yxatga olingan, shundan 1,574 ming kishi ishslash maqsadida kelganlardir.

Mehnat migrantlarining Markaziy Osiyodan Rossiyaga va qisman Qozog'istonga barqaror joylashishining asosiy sabablari u yerdag mehnat bozorlarining raqobatbardosh ustunliklari, asosan boshqa mamlakatlar raqobatlasha olmaydigan jug'rofiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlaridir.

Hatto Yaqin Sharq mamlakatlari, Turkiya, Koreya Respublikasidagi ish haqining yuqori darajasi ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarni qoplay olmaydi: bajariladigan ishlarning sifatiga qo'yiladigan qat'iy talablar, ishslash vizasini olishning qiyinligi, til bilish zarurligi va uni o'rganishning qiyinligi, ish beruvchilarning qo'pol munosabati. Ammo, agar "yangi migratsiya" mamlakatlarining Markaziy Osiyodan mehnat migrantlarini jalb qilish borasidagi siyosati faollahsa va Rossiyada ularga nisbatan munosabat yomonlashsa va iqtisodiy inqiroz cho'ziladigan bo'lsa, vaziyatning rivojlanish vektorlari o'zgarishi mumkin. Markaziy Osiyo davlatlaridan mehnat migrantlari oqimi nazariy jihatdan Yaqin Sharq mamlakatlari (Turkiya va Eron), Fors ko'rfazi (Qatar, Ummon, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabiston) va Sharqiy Osiyo (Koreya Respublikasi) ga yo'naltirilishi mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Rossiyaga emigratsiyani asosiy emigratsiya yo'nalishiga aylantirgan quyidagi muhim omillarni ajratish mumkin.

Birinchidan, *iqtisodiy omil*. Bu ikki tomonlama namoyon bo'ladi. Bir tomonidan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan "itaruvchi omil" sifatida: kam ish haqi; ishsizlikning , ayniqsa qishloq joylarda yuqori darajasi; kambag'allikning, ayniqsa mintaqalarda yuqori darajasi. Boshqa tomonidan, Rossiyadagi "jalb

²² O'tish davridagi hayot, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (Life in Transition Surveys I, II, III. 2010-2016. Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish banki.) [Kirish rejimi: www.ebrd.com/what-we-do/economic-research-and-data/data/lits.html].

²³ O'zR Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari [Kirish rejimi: <https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata-novosti-goskomstata-2018/2623-5097-kolichestvo-lits-v-ekhavshikh-i-vyekhavshikh-iz-respubliki-uzbekistan-v-yanvare-sentyabre-2018-goda>].

²⁴ Markaziy Osiyo mehnat va ko'nikmalarining qisqacha bayoni, Jahon Banki (Central Asia's Labor and Skills Survey (CALISS) Survey. World Bank) 2017. [Kirish rejimi: <http://documents.worldbank.org/curated/en/304791468184434621/pdf/106454-REVISED-PUBLIC-SecM2016-0167-1.pdf>].

qiluvchi" omil sifatida: mehnat bozori hajmining kattaligi; ish haqining nusbatan yuqoriligi, mintaqalar va tarmoqlarda ishchilarga bo'lgan ehtiyoj.

3.1.2-jadval **Markaziy Osiyo mamlakatlari va Rossianing 2017 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari²⁵**

Mamlakat	O'rtacha ish haqi, AQSh Dollarri	Ihsizlik darajasi, %	Kambag'allik darajasi, %
Qozog'iston	463	4,9	2,6
Qirg'iziston	228	6,9	25,6
Rossiya Federatsiyasi	672	5,2	13,2
Tojikiston	134	6,9	30,3
Turkmaniston	320	3,7	ma'lumot mayjud emas
O'zbekiston	185	5,8	14,1 (2013)

Ikkinchidan, *ijtimoiy-demografik omil*. Bir tomonidan, Rossiyada mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarishi va aholining qarishi kuzatilmoqda, bu esa mehnat resurslarining tanqisligini keltirib chiqaradi. Boshqa tomonidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarda nisbatan qulay demografik vaziyat va mehnat resurslarining haddan tashqari ko'pligi.

Uchinchidan, *madaniy-tarixiy omil*. Bu umumiy tarixiy o'tmishda, migrantlarning rus tilini bilishi (masalan, rus tilining Qirg'iziston Respublikasida rasmiy til sifatidagi maqomi), umumiy mentalitetda namoyon bo'ladi. Bularning barchasi ishga joylashish imkoniyatini oshiradi. Rossiyada ijtimoiy tarmoqlar va qarindoshlik aloqalarining bo'lishi ham muhimdir. Bu mehnat bozoriga moslashuv va Rossiya jamiyatiga qo'shilishni osonlashtiradi.

To'rtinchidan, *infratuzilma va jug'rofiy omil* mamlakatlarning bir-biriga nisbatan yaqin joylashganligini, transport qantovining mavjudligi – Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida havo transporti rivojlanganligini nazarda tutadi.

Beshinchidan, *siyosiy omil*, u "itaruvchii" omillar (1990 yillarda Tojikistondagi, 2005 va 2010 yillarda Qirg'izistondagi etnosiyosiy vaziyatning beqarorligi) va YOll doirasidagi mamlakatlar siyosiy va iqtisodiy integratsiyasining "jalb qiluvchi" omilni o'z ichiga oladi²⁶.

²⁵ Quyidagi ma'lumotlar asosida tuzilgan: MDH davlatlararo statistika qo'mitasi, [Kirish rejimi: www.cisstat.com]; Jahon ma'lumotlar atlasi [Kirish rejimi: <https://knoema.ru/atlas/Туркменистан/Уровень-безработицы>]; Газета.uz [Kirish rejimi: www.gazeta.uz/ru/2018/01/16/wage].

²⁶ Ryazantsev S. V. Iqtisodiy inqiroz sharoitida Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat migratsiyasi. Rossiya global siyosatda. 31.08.2016 [Kirish rejimi: <https://globalaffairs.ru/valday/Trudovaya-migraciya-iz-Tcentralnoi-Azii-v-Rossiyu-v-kontekste-ekonomicheskogo-krizisa-18333>].

Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Rossiya Federatsiyasiga migratsiya oqimining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ko'rib chiqamiz. Rossiyalik mutaxassislar xorijliklarning Rossiya Federatsiyasiga daromad olishga kelishining bir qator ijobiy oqibatlarini, masalan, ish kuchi tanqisligini bartaraf etish, iqtisodiyotning ko'plab sohalarida ko'satkichlarning oshishi va byudjetga soliq tushumlarining ko'payishi kabi natijalarni qayd etadilar. Ammo ko'plab ekspertlarning fikriga ko'ra Rossiya Federatsiyasi uchun migratsiya oqimining oqibatlari juda salbiy.

Rossiya Federatsiyasi uchun xalqaro mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

1. Migrantlar har doim ham yuqori malakaga ega bo'lavermaydi. Mehnat migrantlarining oqimi tartibsiz ravishda sodir bo'ladi, ishchi kuchiga real talabni taklif bilan muvofiqlashtirish mavjud emas. Ishchi kuchlarining mehnat migratsiyasi Rossiyadagi ishsizlik sharoitida yuz beradi
2. Mehnat migrantlarining katta qismi iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lib, soliq to'lamataydi, bu esa mahalliy byudjetdagi yo'qotishlarga olib keladi.
3. Migratsiya oqimi Rossiya iqtisodiyoti va jamiyatining asosiy muammolarini – qishloq xo'jaligining tanazzulga uchrashi, qishloqlarning bo'shab qolishi, mamlakatning shariq qismidagi aholining kamayishini bartaraf etishga yordam bermaydi. Rossiyaga migrantlar oqimining asosiy qismi qishloq xo'jaligiga va qishloq joylariga emas, asosan mamlakatning Yevropa qismidagi yirik shaharlarga va Rossiyaning janubiga yo'nalgan. Holbuki Rossiyaning iqtisodiy rivojlanishi Sibir va Uzoq Sharq mintaqalariga aholining kirib kelishini talab qiladi.
4. Iqtisodiy faoliyatning ayrim sohalarida migrantlarning haddan tashqari konsentratsiyasi shakllanmoqda: chakana savdo, qurilish va ta'mirlash, umumiyoq ovqatlanish va boshqalar²⁷.

Rossiyaga aholi oqimining ijobiy oqibatlari sifatida tadqiqotchilar, avvalambor, mamlakatdagi demografik inqirozni yumshatish kerakligini ta'kidlamoqdalar. Aynan Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan migratsiya oqimi depopulyatsiya natijasida RFaholisining qisqarishini sezilarli darajada qoplaydi. Rossiya iqtisodiyotining ba'zi tarmoqlarida, ayniqsa yuqori malakani talab qilmaydigan va kam maoshli ishlarda ishchi kuchining yetishmasligi kuzatilmoqda. Mehnat migrantlari ushbu yetishmovchilikni qisman qoplaydilar. "Xorijlik ishchilar ko'pincha Rossiya fuqarolari uchun obro'ga ega bo'limgan va shu sababli mahalliy aholi talab qilmaydigan bo'sh ish o'rinlarini to'ldiradilar." Xorijlik ishchilarning mehnat unumдорлиги va ish sifati ancha yuqori va "shu tomonlama raqobat mahalliy aholini yaxshi rag'batlantiradi va yo'naltiradi"²⁸. Markaziy Osiyolik mehnat migrantlari mehnat bozorida mahalliy rus aholisi uchun jozibador bo'limgan ish o'rinlarini egallaydilar. Umuman olganda, bu xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga yordam beradi va butun aholining hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan migrantlar Rossiya byudjeti uchun unchalik ham mushkullik tug'dirmaydi, chunki Rossiya Federatsiyasi migrantlarning ijtimoiy manfaatlari uchun ularning mehnat faoliyati natijasida olinganidan ko'ra kamroq pul sarflaydi.

Markaziy Osiyolik migrantlar geosiyosiy nuqtai nazardan ham afzaldir, chunki mintaqalari Rossiya Federatsiyasi bilan umumiyoq chegaraga ega emaslar. Markaziy Osiyolik migrantlar Rossiyaning

²⁷ Xodov L.G. Tashabbuskor aholining xalqaro migratsiyasi iqtisodiyoti (jahon miqyosidagi va Rossiyaga doir jihatlar). O'quv qo'llanmasi M. 2001. 46-b.

²⁸ Rossiyada migratsiya va xavfsizlik. M. 2000. 104-b.

etnik-madaniy muhitiga nisbatan oson moslasha oladilar. Ularda moslashuv bilan bog'liq katta muammolar bo'lmaydi, chunki ularning ko'pchiligi rus tilini juda yaxshi bilishadi yoki tez o'zlashtirishadi.

Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Rossiya Federatsiyasiga tashrif buyuruvchi migrantlar soni bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa (AQShdan keyin) chiqdi. Yaqin kelajakda xorijlik ishchi kuchi oqimi yanada ko'payadi. Jahon banki mutaxassislarning fikriga ko'ra, Rossiya, qabul qiluvchi mamlakat sifatida, migrantlarning ommaviy va arzon mehnatidan allaqachon katta foyda oldi. Migrantlar tufayli Rossiyada korxonalarning bankrotligi kamaydi, biznesning yangi turlari rivojlandi va qurilishga investitsiyalarning o'sishi rag'batlantirildi.

Shu bilan birga, migratsiya muayyan muammolarni ham keltirib chiqaradi. Tartibga solinmagan migratsiya jinoyatçilikning kuchayishiga olib keladi va korrupsiya uchun "zamin yaratadi". Hokimiyat organlari uchun haqiqiy muammo – hujjatlashtirilmagan migrantlar tomonidan soliqlarning to'lanmasligi va migrantlarning hisobga olinmagan pul o'tkazmalaridir. Shunga qaramay, Jahon banki mutaxassislarning fikriga ko'ra, Rossiya uchun mehnat migrantlari oqimining salbiy tomonlariga qaraganda ijobiy tomonlari ko'proq²⁹.

Markaziy Osiyodan Rossiya Federatsiyasiga mehnat migratsiyasi oqimining o'sish istiqbollarini hisobga olgan holda, ko'plab rossiyalik mutaxassislар mumkin bo'lgan demografik va vaqtincha cheklashlarga ishora qilmoqdalar. Ularning fikriga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda Markaziy Osiyo mintaqasidan mehnat migratsiyasining hajmi "5 million kishini tashkil qilishi dargumon. Rossiya Federatsiyasi uchun bu miqdor bandlik, tovarlar va xizmatlar bozorlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun esa bu aholi sonining ortib ketishi va ish bilan ta'minlanishning sezilarli darajada kamayishini anglatadi"³⁰.

Markaziy Osiyo davlatlari to'lov balansining muhim qismi Rossiyadagi mehnat migrantlarning pul o'tkazmalariga to'g'ri keladi. "Ammo bu transferlarga boshqa jihatdan ham qarash mumkin. Ular Rossiya chegaralarida nisbatan barqaror vaziyatni saqlashga salmoqli hissa qo'shmoqdalar"³¹.

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun tub aholining chet elga chiqib ketishining salbiy tomoni quyidagi jihatlar bilan ifodalanadi:

1. Jo'nab ketgan fuqarolar yalpi ichki mahsulotni o'zları qabul qilingan davlatda ishlab chiqaradilar va qabul qiluvchi mamlakatning milliy boyligini oshiradilar. Chet elda pul ishlab topish bilan bir qatorda, migrantlar ushbu mablag'larning katta qismini o'sha joyda sarflaydilar ham.
2. Mintaqalardan aholining eng yaxshi, raqobatbardosh va ishbilarmon qismi chiqib ketmoqda, va shu bilan milliy iqtisodiyotlar zaiflashmoqda, mehnatga layoqatli aholi kamaymoqda.
3. Yoshlarning ommaviy ravishda o'z mamlakatlarini tark etishlari Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi demografik vaziyatga, oilaviy munosabatlarga va milliy an'analarning davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

²⁹ Migratsiya va chet elda ishlayotgan fuqarolardan pul tushumlari. Sharqiy Yevropa va sobiq Sovet Ittifoqi. Vashington: Jahon banki. 2007. 19-b.

³⁰ Borishpolets K., Babadjanov A. Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya xavfi. Rossiya TIV MGIMO (Moskva Davlat Xalqaro aloqalar instituti) ning Tahliliy qaydlari. M.: Rossiya TIV MGIMO. 2007. 2-nashri (22). 7-b.

³¹ Zayonchkovskaya J.A. Rossiyaga mehnat migratsiyasi // Mamlakat qaydnomalari. 2003. 3-soni. 186-b.

4. Migrantlarning pul o'tkazmalari va kapitali hajmini aniqlash va prognoz qilish juda qiyin. Migrantlar chet elda qanchalik uzoq muddat yashasalar, ularning pul o'tkazmalari ham shunchalik kamayib boradi va vatan bilan aloqalari asta-sekin zaiflashadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tub aholisining zamonaviy mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari orasida quydigilarni ajratish mumkin:

1. Mehnat migrantlarining chiqib ketishi Markaziy Osiyo respublikalaridagi ortiqcha ishchi kuchi muammosini hal qilishga yordam beradi. Mehnat migratsiyasi ishsizlikning qisqarishiga olib keladi, ijtimoiy nafaqalar, ishsizlarni qayta tayyorlash, ular uchun jamoat ishlarini tashkil etish va ularning oilalariga yordam berish xarajatlari kamayadi.
2. Chet elda ishslash orqali mehnat migrantlari o'z malakalarini oshiradilar, yangi ishlab chiqarish va tashkiliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Eng ilg'or texnologiyalar, talablar, mehnat standartlari yuqori bo'lgan mamlakatda bo'llish orqali Markaziy Osiyolik migrantlar umumiy ta'limga oid va madaniy saviyasini oshiradilar. Migrantlar boshqa davlatlardagi hamkorlari bilan shaxsiy aloqalarni kengaytiradilar. Migrantlar Vatanlarida foydasi tegishi mumkin bo'lgan qimmatli tajriba va bilimlarga ega bo'ladilar.
3. Chet elda ishlayotgan migrantlar qaytib kelganlaridan keyin kichik va o'rta bizneslarini yaratish uchun boshlang'ich kapital to'playdilar. Shunday qilib, o'rta sinfnинг shakllanishiga yordam beriladi.

Xulosa qilamiz. Rossiya Federatsiyasi demografik inqirozni boshdan kechirmoqda, uning aholisi kamaymoqda. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasida juda katta, tabiiy boyliklarga ega juda kam aholi yashaydigan hududlar mavjud. Ularning rivojlanishi uchun aholi oqimi talab qilinadi. Rossiya Federatsiyasi uchun MDH mamlakatlaridan keladigan migrantlar ma'qul, ularning asosiy qismi Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashaydilar. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan keluvchi mehnat migrantlari oqimi Rossiya Federatsiyasining manfaatlariga zid kelmaydi, chunki mamlakat iqtisodiyotiga arzon ish kuchi oqib kelmoqda. Markaziy Osiyolik migrantlar geosiyosiy nuq'tai nazardan ham afzaldir, chunki mintaqaga mamlakatlari Rossiya Federatsiyasi bilan umumiy chegaraga ega emaslar. Markaziy Osiyolik migrantlar Rossianing etnik-madaniy muhitiga nisbatan oson moslasha oladilar. Migrantlar hisobiga demografik muammolar ham hal bo'lmoqda. Shu bilan birga, tartibga solinmagan mehnat migratsiyasi jinoyatchilik va korrupsiyaning o'sishiga olib keladi. Maqomi tartibga solinmagan migrantlar tomonidan soliqlarning muntazam to'lmasligi va mehnat qiluvchi migrantlarning hisobga olinmagan pul o'tkazmalari katta muammodir.

Nazorat savollari:

1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya jarayonlarining ishtirokchilari sifatidagi turlarini aniqlang. Ularning asosiy xususiyatlari qanaqa?
2. Mamlakatingiz demografik rivojlanishining hozirgi bosqichdag'i asosiy tendensiyalarini tahlil qiling.
3. Mamlakatingizning yangi tarixidagi migratsiya jarayonlarining dinamikasi nima bilan tavsiflanadi? Ijtimoiy-siyosiy va demografik omillar migratsiyaga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan mehnat migratsiyasiga keltirib chiqaradigan "itaruvchi" omillar qanaqa?

Amaliy mashg'ulot:

1. Demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hisobga olgan holda, mamlakatingizdagи (mintaqangiz, aholi punktingiz) hozirgi zamon migratsiya holati to'g'risida taqdimot tayyorlang.
Namunaviy reja:
 - a) migratsiya jarayonlarini keltirib chiqaradigan omillar;
 - b) migratsiya tendensiyalari va miqyosi;
 - c) migratsiya oqimlarining turlari;
 - d) mamlakat uchun oqibatlari.
2. Ravenshteynning migratsiya qonunlarini tahlil qiling va mamlakatingizdagи voqeliklar sharoitida ularning tasdig'ini toping (Qarang: Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatidagi 4-manba).
3. Sizning mamlakatingizdan mehnat migrantlarini jaib qilish bo'yicha Koreya Respublikasi, Yaponiya, Turkiya va boshqa mamlakatlarning faoliyati to'g'risida ma'lumot to'plang. Zamonaviy sharoitlarda mamlakatlar migrantlarni jaib qilishning qanday usullaridan foydalanmoqdalar?

Majburiy adabiyot:

1. Azimova M., Maxmadbekov M., Raimdodov U va boshqalar. Tojikiston Respublikasidagi ijtimoiy va mehnat munosabatlari tarkibidagi mehnat migratsiyasi. Dushanbe: 2016. 163-b. [Kirish tartibi: www.rtsu.tj/upload/files/data3/Монография_ТРУДОВАЯ%20МИГРАЦИЯ.pdf].
2. Vorobyova O.D., Topilin A.V., Mukomel V.I. va boshqalar. Aholi migratsiyasi: nazariya, siyosat: o'quv qo'llanmasi. M.: Iqtisodiy ta'lim, 2012. 364-b. [Kirish tartibi: <https://www.isras.ru/publ.html?id=2971&printmode>].
3. Toshov A.R. Iqtisodiy o'zgarish sharoitida Tojikiston Respublikasi aholisining bandligi va mehnat migratsiyasi: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: 08.00.14. M. 2015. 158-b.
4. Qирғизистон ва Тоҷикистонда меҳнат мигрантларининг тармоқлари: Марказий Осиёда инсон ривожланishi имкониятлари. Санкт-Петербург: Европейский Тараққиёт Банкинг Интегрэйшн тадқиқотлар макази. 2015. 127-б. [Kirish rejimi: https://eabr.org/upload/iblock/0b9/report_ca_labour_migration_and_labour_intensive_sectors_full_rus.pdf].
5. Rossiya Federatsiyasidagi iqtisodiy vaziyat va uning Qirg'iziston Respublikasidagi migratsiya jarayonlariga ta'siri. Milliy strategik tadqiqotlar instituti hisoboti. Bishkek. 2015. 59-b. [Kirish rejimi: www.nisi.kg/141-infografika-nisi/400-ekonomicheskaya-situatsiya-v-rf-i-ejo-vliyanie-na-protsessy-migratsii-v-kr.html].

Qo'shimcha adabiyot:

1. Abashin S. Markaziy Osiyodan migratsiya: amaliyotlar, mahalliy hamjamiyatlar, transmilliyilik. Rossiya siyosati va huquqi. 51 jild. № 3. May-iyun 2013. 6-20 b.
2. Qozog'iston Respublikasining demografik prognozi: asosiy trendlar, tahdidlar, amaliy tavsiyalar. Tahvilii ma'ruba. Ostona: 2014. 66-b. [Kirish rejimi: www.akorda.kz/upload/nac_komissiya_po_delen_zhenshin/Демографическая%20политика/4.2%20пук.pdf].
3. Varshavskaya Ye.Ya., Denisenko M.B. Rossiya mehnat bozorida xorijiy ishchilarning harakatlanshi // Sotsiologik tadqiqotlar. 2014. 4-soni. 63-73 b.
4. Vasilenko P.V. Aholi migratsiyasining xorijiy nazariyalari. 2013. [Kirish rejimi: [https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnye-teorii-migratsii-naseleniya](http://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnye-teorii-migratsii-naseleniya)].
5. Ikromov D.Z. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan xalqaro mehnat migratsiyasining Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: 08.00.14. Sankt-Peterburg, 207 yil. 207-b.
6. Qirg'iziston raqamlarda – 2018 yil. Bishkek: 2019. 344-b. [Kirish rejimi: <http://stat.kg/ru/publications/sbornik-kyrgyzstan-v-cifrah/>].
7. Qirg'iziston – kengaytirilgan migrantsion profil. Bishkek: 2016. 234-b. [Kirish rejimi: <https://iom.kg/wp-content/uploads/2011/07/Migration-Profile-2018-in-Russian.pdf>].
8. Malaxov V.S., Demintseva Ye.B., Elebaeva A.B., Musabaeva A.D. Qirg'iziston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kirishi: migratsiya jarayonlariga ta'siri/I.S. Ivanova tomonidan tahrirlangan; Xalqaro ishlar bo'yicha Rossiya kengashi. 2015. 26-soni. M.: Maxsus kitob, 2015 yil. 57-b. [Kirish rejimi: [https://russiancouncil.ru/common/upload/WP-Kyrgyzstan-26-Rus.pdf](http://russiancouncil.ru/common/upload/WP-Kyrgyzstan-26-Rus.pdf)].
9. Migrantlarning munosib vasamaraliish bilanta'minlanishini monitoring qilish. USAIDma'ruzasi, XMgT. Ostona: 2018. 44-b. [Kirish rejimi: <https://redcrescent.kz/wp-content/uploads/2018/10/Doklad-po-dostupu-migrantov-k-dostojnomu-effekтирному-trudoustrostvu-Krasnyj-Polumesyats-RK.pdf> или <https://kkassiyet.files.wordpress.com/2019/02/reportaccesstolabour2018redcrescent.pdf>].
10. Tojikiston Respublikasining mehnat bozori. Dushanbe: Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2015. 128-b.
11. Ryazantsev S. V. Iqtisodiy inqiroz sharoitida Markaziy Osiyodan Rossiya mehnat migratsiyasi// Rossiya global siyosatda. 31.08.2016. [Kirish rejimi: <https://globalaffairs.ru/articles/trudovaya-migraciya-iz-czentalnoj-azii-v-rossiyu-v-kontekste-ekonomicheskogo-krizisa/>].
12. Stanchin I.M., Israfilov N.T. Turkmaniston aholisining migrantsion harakatchanligi// Синергия. 2018. 4-soni. 49-57 b. [Kirish rejimi: [https://cyberleninka.ru/article/v/migrationsnaya-podvizhnost-naseleniya-turkmenistana](http://cyberleninka.ru/article/v/migrationsnaya-podvizhnost-naseleniya-turkmenistana)].
13. Qirg'iziston Respublikasining statistika yillik to'plami/ Sultanov A. tomonidan tahrirlangan Bishkek: Qirg'iziston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 2019. 468-b. [Kirish rejimi: <http://www.stat.kg/media/publicationarchive/dde27f81-3272-44bc-ad5b-cc7647fea167.pdf>].

14. Tojikiston: uy xo'jaliklari sotib olish qobiliyatining keskin pasayishi sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'rtacha darajada sekinlashishi. Tojikistonning iqtisodiy rivojlanishi to'g'risida ma'ruza. Dushanbe: 2015. 2-soni. 30-b. [Kirish rejimi: <http://documents.vsemirnyjbank.org/curated/ru/859581468185963151/pdf/101278-REVISED-Box394821B-PUBLIC-TJK-RUSSIAN-FOR-WEB-REV.pdf>].
15. Chernov A.S. Mehnat migratsiyasining mintaqaviy mehnat bozoriga ta'siri// MDTU axborotnomasi. 2012. 15-jild, 1-son 245-249 b.
16. Jahon demografik istiqbollari (World Population Prospects: The 2017 Revision, Key Findings and Advance Tables. Working Paper No. ESA/P/WP/248. Nyu York. BMT Population Division. Department of Economic and Social Affairs. 2017.) [Kirish rejimi: <https://population.un.org/wpp/DataQuery>].

Dushanbe aholisi Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuniga bag'ishlangan axborot-tushuntirish kampaniyasining o'tish jarayonida olingan axborotni muhokama qilishmoqda.

Surat: XMgT Tojikiston, 2017



3.2. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytish migratsiyasining sabablari va tendensiyalari

Mundarija. Zamonaviy sharoitlarda Markaziy Osiyodagi qaytish migratsiyasining omillari va turlari. 2010-2018 yillardagi qaytish migratsiyasi oqimlarining miqyosi va dinamikasini baholash Mintaqadagi qaytish migratsiyasining asosiy yo'nalishlari. Markaziy Osiyodagi qaytish migratsiyasi oqimlarining ijtimoiy-demografik va etnik tuzilishi. Markaziy Osiyoning alohida mamlakatlari darajasida qaytish migratsiyasi turlari. Qaytish mehnat migratsiyasi. Yuqori malakali mutaxassislarning qaytish migratsiyasi. Qaytish ta'llim migratsiyasi. Qochqinlarning qaytishi. Etnik qaytish migratsiyasi. Markaziy Osiyo mamlakatlariga migrantlarni qaytarish strategiyasi va tajribasi. Markaziy Osiyo mamlakatlari va individual migrantlar uchun qaytish migratsiyasining tahdidlari. Qaytish migratsiyasining prognoz qilingan tendensiyalari (yangi yo'nalishlar, ijtimoiy-demografik guruhlar, yangi holatlar).

Qaytish migratsiyasi Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi va muhim trend bo'lib hisoblanadi. Qaytish migratsiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, u hali yetarli darajada o'rganilmagan favqulorra hodisa sifatida qolmoqda. Migratsiya siyosatining kelib chiqish va borish mamlakatlaridagi samaradorligi, uni yanada rivojlantirish yo'nalishlari, migrantlarning nochorlik manbalari va mintaqadagi umumiy xavf-xatarlar hamda imkoniyatlar o'rtasidagi munosabatlar singari jihatlari juda kam o'rganilgan. Shuningdek Markaziy Osiyo mamlakatlarida ixtiyoriy qaytish migratsiyasi to'g'risidagi qonun hujjatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Shuni ta'kidlash zarur, ushbu masalani tartibga solish uchun mintaqaviy shartnomalar qabul qilindi, 1993 yil 24 sentyabrda qochqinlarga va majburiy ko'chgan shaxslarga yordam to'g'risidagi Bitim, 1993 yil 24 sentyabrda qochqinlarga va majburiy ko'chgan shaxslarga ko'mak to'g'risidagi Bitimga Bayonнома, qochqinlarga va majburiy ko'chgan shaxslarga yordam berish bo'yicha davlatlararo jamg'arma to'g'risida Nizom, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davatlarning noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasida hamkorligi to'g'risida Sharhnomma, SHXHT Ustavi va migratsiyaga taalluqli hujjatlar hamda boshqalar shular jumlasidandir.

Migratsiya masalasi bo'yicha muhim jihat bu Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining XMgT, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tuzilmalar, birinchi navbatda ixtisoslashgan muassasalar va BMT tashkilotlari bilan hamkorligidir.

Hamkorlikning mayjud shakllari Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya sohasidagi o'zaro hamkorligini rivojlantirish uchun, shu jumladan ixtiyoriy ravishda qaytish uchun qonun hujjatlari bazasini shakllantirishda yaxshi asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu masalada ko'rsatilgan mamlakatlarning migratsiya to'g'risidagi qonun hujjatlarini, Konsepsiyalarini va strategik rejalarini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda, bu qaytish migratsiya to'g'risidagi qonun hujjatlarini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

XIX asr boshlariga kelib, migratsiya oqimi migrantlarning "teskari oqimi" paydo bo'lishiga olib kelishi mumkinligi to'g'risida ko'plab dalillar mavjud edi. Bunda gap asosan o'z vataniga qaytayotgan

migrantlar haqida edi. Migrantlarning qaytishi aynan sirkulyar (aylanma) migratsiyaga xos deb hisoblaniladi. Ammo, qaytish migratsiyasi jarayonining murakkab, ko'p bosqichli ziddiyatlararida hali migratsiya tadqiqotchilarini tomonidan deyarli qo'l tekkizilmagan katta tarixi bor. Bu qisman, o'tmishda migrantlarning o'z tashabbusi bilan o'z vatanlariga qaytishi kuzatilmaganligi bilan bog'liq, chunki ularning ko'chib o'tish va integratsiyalashish jarayonlaridan farqli ravishda, bunga zarurat yo'q deb hisoblangan.

Migratsiyani boshqarish nuqtai nazaridan, qaytib keluvchi migrantlar uch asosiy turga bo'linadi, ularning boradigan mamlakatidagi biror migrantning muayyan holati bilan hech bir aloqasi yo'q, ya'ni:

- majburlanmasdan ixtiyoriy ravishda qaytish – chet elda bo'lishning ma'lum bir paytida migrantlar o'z ixtiyorilari bilan va o'z mablag'lari hisobiga vataniga qaytishga qaror qilishadi;
- ixtiyoriy-majburiy qaytish – migrantlarning mamlakatda bo'lish muddati oxiriga yetadi, ularning boshpana so'rab qilgan murojaatlari rad javobi berilgan yoki boshqa sabablarga ko'ra mamlakatda qololmaydilar, shu sababli o'z vatanlariga o'z xohishlari bilan qaytish to'grisida qaror qabul qilinadi;
- majburiy ravishda qaytish, ya'ni qabul qiluvchi mamlakat hokimiyat organining buyrug'i bilan deportatsiya bo'lish¹.

Markaziy Osiyo mintaqasiga qaytish migratsiyasining boshqa turi – etnik qirg'izlar – "qayrilmanlar", etnik qozoqlar – "oralmanlar"ni davlat qaytarish dasturi bilan amalga oshiriladigan rag'batlantiruvchi migratsiya xos.

Biroq qaytarish har doim ham migrantning kelgusida kelib chiqish mamlakatida yashashini bildirmaydi va qaytganidan so'ng turli ijtimoiy-iqtisodiy samara keltituvchi har xil holatlari vujudga kelishi mumkin. Qaytishvaqtinchalik yoki butunlay bo'lishi mumkin, yoki ortidan uchinchi mamlakatga emigratsiya keltirib chiqarishi yoki u, ayniqsa, Markaziy Osiyo migrantlari orasida keng tarqalgan sirkulyar (aylanma) yoki mavsumiy migratsiya bosqichlaridan biri bo'lib qolishi mumkin.

Ko`pincha qaytish migratsiyasi ko'lmini o'lchash juda muskul, chunki ko'pchilik mamlakatlar o'z fuqarolarining chiqishi va qaytishi hisobini har doim ham yuritmaydilar, natijada qaytish migratsiyasi bo'yicha statistik ma'lumotlarning yo'qligi ushbu hodisani o'rganishda asosiy to'siqqa aylandi. Hatto davlat idoralari migrantlarning kelishi va chiqishi haqida ma'lumot to'playdigan Rossiyada ham keltirilgan raqamlar – qaytayotgan migrantlarning faqat tahminiy bahosidir, negaki ular majburiya tarzda ayni odamlarni hisobga olismaydi. Qaytish oqibatlarini migrantlar tomonidan o'z vataniga qaytguniga qadar va qaytgan vaqtida jo'natadigan moddiy va nomoddiy resurslar summasi bilan belgilash mumkin. Bunday o'tkazmalar iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy bo'lishi mumkin. Iqtisodiy o'tkazmalarning bevosita samarasiga siyosiy doiralarda ancha ko'p e'tibor qaratilayotgan va ularning rivojlanishga bo'lgan ta'siri keng o'rjanilgan bolsa-da, ijtimoiy o'tkazmalar, ya'ni malakalar, intilishlar va g'oyalarning berilishi va migartsiya vositasida mafkurani yetkazish va tarqatish shaklidagi siyosiya o'tkazmalar ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi hamda jiddiy foyda keltirgani kabi, samarali migratsiya siyosati yordamida nazorat qilishga to'g'ri keladigan tahdidlarga ham olib kelishi mumkin².

¹ Migratsiyani boshqarish asoslari. Boshqaruvchi mansabdar shaxs va amaliyotchilar uchun qo'llanma. III-jild Migratsiyani boshqarish. 3.9-bo'lim "Qaytish migratsiyasi". XMgT. 2006 yil.

² Migrantlarning himoyasi bo'shligi va Markaziy Oziyoga migratsiyaga bo'lgan ehtiyoji Qaytish migratsiyasining asosiy sababları va ijtimoiy-iqtisodiy natijalari. Markaziy Osiyoda mintaqaviy tabiiy sharoitda baholash. XMgT ma'ruzasi Ostona, 2016. 4-6 b. [Kirish rejimi: <https://kazakhstan.iom.int/publications>].

O'z fuqarolarining qaytishidan ijobjiy samara olishlari uchun, birinchi navbatda, ishsiz va himoyasi bo'sh migrantlarga, borgan mamlakatlarida iqtisodiy istiqbol man qilinganligi yoki yo'qligi sababli o'z rejalarini amalga oshira olmagan migrantlarga ko'maklashishga ustunlik berish lozim. Ularning ko'pchiligi xorijda orttirgan yaxshilangan yoki yangi ko'nikmakar bilan qaytadilar; ushbu salohiyatdan foydalanish uchun jahon amaliyotida kasbiy tayyorgarlik va sertifikatsiya tizimi ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatlari amal qilmoqda. Tayland va Bangladeshda kasbiy ta'lif va attestatsiyani nazorat qiluvchi maxsus davlat idoralari tuzilgan; ularning faoliyati aynan qaytib kelgan migrantlarga yo`naltirgan bo'lib, ularni oldin olgan bilim va ko 'nikmalari bilan mahalliy bozorga chiqishlariga ko'maklashish maqsadini nazarda tutadi³. Pul jo'natmalari va omonatlarning katta qismi uy xo'jaliklarining joriy ehtiyojlariga sarflanayotgani, korxona keltirayotgan daromadga investitsiya esa juda kam kuzatilayotgani sharoitida qaytib kelgan migrantlar ko'nikmalarining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilishi bo'yicha yanda oqilona chora-tadbirlar samarali bo'lishi mumkin, lekin bunday choralar MO mamlakatlari tomonidan jiddiy siyosiy harakatlarni talab qiliadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy reintegratsiya – qaytish migratsiyasidan ijobjiy natijalar olishning asosiy omilidir, chunki qaytgan migrantlarning mozikligi ularni Rossiyaga tartibga solinmagan maqomda noqonuniy yo'l orqali odamlarni olib kirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar ko'magida ketishiga yoki u yerda noqonuniy ish topishga majbur qilishi mumkin. Tartibga solinmagan migratsiyaning oldini olish usuli sifatida reintegratsiya dasturlarini migrantlarning Rossiyadan boshqa mamlakatlarda, masalan, Qozog'istonda ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashish choralar bilan birga qo'shib amalga oshirish zarur.

Rossya Federatsiyasining hududidan tashqarida rivojlangan migrantlar ijtimoiy tizimining yo'qligi bois MO mamlakatlaridan migrantlarni tashkillashtirilgan yollash dasturlarini ishlab chiqishlari talab etiladi; xususan, YOllga a'zo-davlatlar tomonidan ushbu yo`nalishda ittifoqchilar shartnomasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan ishchi kuchining harakatlanish erkinligidan to'liq foydalanish uchun birlgilikda ish olib borilishi lozim⁴.

MOga qaytish migratsiyasida dunyodagi global transformatsiyalar bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Suriya, Ukrainadagi yirik harbiy mojarolar, Pokiston va bir qator boshqa mamlakatlarda vaziyatning keskinlashishi, Rossiya Federatsiyasiga qarshi G'arb iqtisodiy sanksiyalari migratsiya ko'chishlariga, jumladan, MOdag'i qaytish migratsiyasiga jiddiy ta'sir ko'rtasdi.

Sezilarli omil sifatida 2015-yilda joriy etilgan alohida toifa xorijliklar uchun Rossiya Federatsiyasiga qayta kirishga taqiqni qayd etish lozim (3.2.1 jadv.).

³ Skilling the workforce: Labour migration and skills recognition and certification in Bangladesh. ILO Country Office for Bangladesh. Dhaka. 2014 [Kirish rejimi: www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-/---ro-bangkok/-/ilo-dhaka/documents/publication/wcms_304402.pdf]; Harnessing the Skills of Migrants and Diasporas to Foster Development: Policy Options. OECD Ministry of Internal Affairs of France. Paris. 2012 [Kirish rejimi: www.oecd.org/migration/Policy_Brief_Migrants_En_BD%20DEFINITIF.pdf]; Stella P. The Philippines and Return Migration: Rapid appraisal of the return and reintegration on policies and service delivery. ILO. 2012 [Kirish rejimi: www.ilo.org/manila/publications/WCMS_177081/lang--en/index.htm].

⁴ Markaziy Osiyoda migrantlarning zaif tomonlari va integratsiyaga ehtiyoji: Qaytish migratsiyasining asosiy sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Markaziy Osiyoda mintaqaviy tabiiy sharoitda baholash. XMgT ma'ruzasi Astana, 2016. [Kirish rejimi: <https://kazakhstan.iom.int/publications>].

Ushbu taqiq ostiga, asosan, Markaziy Osiyodan chiqqan 2 milliondan ortiq kishi tushdi, shu bilan birga taqiq uch yildan o'n yilgacha bo'lgan muddatni tashkil qiladi⁵.

3.2.1-jadval 2015-2018- yillarda Rossiya Federatsiyasida ma'muriy javobgarlikka tortilgan xorijlik fuqarolar – kishilar soni⁶

	2015 yil	2016 yil	2017 yil	2018 y. (birinchi yarmi)
RF ga kirish taqiqlangan	490 893	229 013	210 708	145 397
Chiqarib yuborilgan va deportatsiya qilingan xorijlik fuqarolar	117 493	60 042	68 998	13 600
Ma'muriy javobgarlikka tortilganlar	369 287	271 014	334 145	125 180

Rossiyaga qayta kirishga ta'qiq joriy etilshi mehnat migrantlarining ko'chish yo'nalishi va tarkibini jiddiy tarzda o'zgartirib yubordi, ular chiqqan mamlakatlariga borishlarini mushkullashtruvchi moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldilar, negaki bir vaqtning o'zida bir oilaning bir necha a'zosi rad javobini oldi.

Ushbu omil oilaning qolgan a'zolari, asosan, bolalar, qariyalar uchun pul jo'natmalari manbaining yo'qotilishiga sabab bo'ldi; uyga qatygandan so'ng ishga joylashish bilan bog'liq qiyinchiliklар vujudga keldi; qarindoshlar tomonidan kutilmagan qaytish va Rossiyaga pul topish uchun qaytish mumkin emasligini ma'qullamaslik orqasida oilada taranglik yuzaga kelardi. Qaytayotgan migrantlar, o'z huquqlarini bilmay va iqtisodiy ahvolini o'zgartirish, ijtimoiy yo'naltirigan ko'mak olishning muqobil imkoniyatidan mahrum bo'lib, o'ta mushkul va mavhum vaziyatga tushib qoldilar.

Shunday qayta kirish taqiqlangan nozik migrantlar guruhi turli terrorchilik va jinoiy guruhlarga jalb etilishi mumkin, bu haqida JMT o'zining MOga mintaqaviy tabiiy sharoitda bergan bahosida ma'lum qiladi. Migrantlar begonalik hissini tuyib va ish joyida o'z huquqlarining buzilganini ko'rib, davlat tomonidan himoyaga olinish imkoniyatiga ishonchlarini yo'qotadilar va oxir-oqibatda ekstremistik va (yoki) jinoiy taskikotlarga yordam so'rab murojaat qilishlari mumkin. MO hukumatlari tomonidan sanab o'tilgan muammolarni hal etish uchun qabul qilinayotgan siyosiy chora-tadbirlarning tahlili shuni ko'rsatadi-ki, qayta kirishga taqiqlar masalasi avvalgidek, birinchi navbatda, xavfsizlikka tahdid sifatida qaralmoqda, holbuki "taqiqlangan"-migrantlar ularning integratsiyasiga ko'maklashadigan ancha keng ko'lamlı chorallarga muhtojdirlar⁷.

⁵ 2016-yilda XMgTning Markaziy Osiyodagi vakilligi va QzR birinchi Prezidenti kutubxonasi ("Nazaboyev Markazi") tomonidan USAIDning "Qadr-qimmat va huquqlar" dasturi doirasida o'tkazilgan Mintaqqa doirasida tabiiy sharoitda baholashning I bosqichi to'g'risida hisobot.

⁶ Rossiya IIV Migratsiya masalalari bo'yicha bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

⁷ Markaziy Osiyoda migrantlarning zaif tomonlari va integratsiyaga ehtiyoji: Qaytish migratsiyasining asosiy sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. XMgTning Markaziy Osiyoda mintaqaviy tabiiy sharoitdag'i bahosi Ostona. 2017. 68 b. [Kirish rejimi: <https://kazakhstan.iom.int/publications>].

Qaytgan migrantlar sonining o'sishi quyidagi ko'rsatkichlarga ham bog'liq bo'lishi mumkin:

Birinchidan, Rossiya 2014-2015-yillarda yuz bergan iqtisodiy inqiroz MOdan migratsiya uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Ishlab chiqarish qisqargani uchun mehnat migrantlarining bandligi pasaydi, chunki, birinchi navbatda, ular ishdan bo'shatilar edi. Rubl qadrining tushib ketishi sababli vataniga pul jo'natmalari hajmi jiddiy qisqardi, taxminiy baholarga ko'ra pasayish ko'lami 30%dan 50% gachani tashkil qildi. RFda ishini yo'qotgan mehnat migrantlari bir qismining MO mamlakatlariga qochishi kuzatildi.

Ikkinch ancha ahamiyatli *omil qabul qiluvchi davlatning migratsiya siyosatidir*. Masalan, 2014-yildan boshlab RF hukumati noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirdi, qonun hujjatlarini buzgan xorijliklarning kirishini taqiqlab qo'ydi. FMX ma'lumotlariga ko'ra 2015-2016-yillar davomida 1,6 millondan ortiq xorijliklar taqiq ostiga tushdi.

Va uchunchi omil – *patentlarni rasmiylashtirishga xarajatlarning ortishi*. Masalan, 2015-yildan Rossiya Federatsiyasida mablag' tejash maqsadida uni rasmiylashtirmay qo'yuvchi mehnat migrantlarining soni ortdi. Shu sababli ularning bir qismi iqtisodiyotning norasmiy sektoriga o'tdi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar, shuningdek, mintaqadagi ikkinchi tortish markazi bo'lgan Qozog'istonning Markaziy Osiyodan Rossiya Federatsiyasiga kirishi taqiqlangan va tegishli muqobil borih mamlakatini izlayotgan, shuningdek, Rossiya Federatsiyasida ishchi kuchiga nisbatan talabning qisqarishi tufayli uya qaytayotgan o'zining minglab fuqarolarining qaytishi uchun tayyor bo'lishi kerakligini ham bildirishi mumkin.

Qaytish mehnat migratsiyasi. Odatda, migrant vataniga qaytish haqidagi qarorni afzalliklar va yo'qotishlarni oqilona baholash asosida qabul qiladi. Ko'pincha vaqtinchalik migratsiya doimiy bo'lib qoladi. Migratsiyada yashab, o'rganib qolgacj, barqaror daromad topa boshlagan boshqa davlat fuqarolari Rossiya yoki o'zga fuqarolikni ola boshlaydilar. OIM ITI tomonidan 2017-yil fevral-mart oylarida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, so'rov o'tkazilganlarning chorak qismi RFda qolishni istaydi, hatto RFda fuqarolik olishni xohlovchi respondentlarning orasida o'z vatanida shunday fuqarolik bilan yashashni xohlaydiganlar soni 20% dan ko'p (3.2.2-jadval) Rossiya nafaqasi, bola tug'ilganida beriladigan nafaqa puli, ona kapitali – bularning barchasi rossiyaliklar uchun arzimas yoki kam bo'lib tuyulgan bir paytda, sobiq SSRI respublikalari fuqarolari uchun qadrlidir.

3.2.2-jadval MO mamlakatlaridan migrantlarning Rossiya yashash rejalari, %⁸

Kelib chiqish mamlakati	Rossiya Federatsiyasida bir umrga qolish	Doim Rossiya Federatsiyasi bilan kelgan mamlakati o'rtaida qatnash	Bir-ikki yil ishlab, kelgan mamlakatiga qaytish	Pul ishlab olish va bir necha oydan keyin kelgan mamlakatiga qaytish	Rossiyada biroz yashab, boshqa mamlakatga ko'chish	Boshqa yoki javob yo'q
Qozog'iston	65,5	8,6	7,8	3,5	3,9	10,5
Tojikiston	35,2	24,7	21	11,1	1,1	6,9
Qirg'iziston	24,8	28,2	25,8	13,3	0,8	7,2
O'zbekiston	19,9	27,6	27,2	18,5	0,9	6

⁸ Migrantning tabiatni Endi kim Rossiyaga ishlashga boryapti. Kommersant. 12.08.2017. [Kirish rejimi: www.kommersant.ru/doc/3380376].

Tadqiqotlarga ko'ra, migrantlarning yarmidan ko'pi Rossiyadan o'z mamlakatlariga qaytishni xohlashadi. Mavjud kambag'allik va ishsizlik darajasini hisobga olgan holda, qaytayotgan migrantlar mehnat bozoriga qo'shimcha yuk bo'lib, 2014-2015 yillardan keyin ayniqsa sezilarli bo'lib qoldi. Migrantlarni reintegratsiya qilish, qaytib kelayotgan migrantlarni moslashtirish dasturlarning va shu bois mahalliy mehnat bozorlarini rivojlantirish chora-tadbirlarining yo'qligi- haqiqatdan ham jiddiy kamchilikdir. Bunday sharoitda migrantlarning qaytishi kambag'allikda va ishsiz kun kechirishning davom etishini anglatadi.

Markazi Osiyo mamlakatlariga qaytayotgan mehnat migrantlari duch keladigan asosiy muammolar:

1. *Ishga joylashish.* Migrantlarning ta'kidlashicha, ish izlash uzog vaqt- 4-5 oygacha vaqt kerak bo'ladi, migratsiyada esa bu 3 kundan 1 haftagacha vaqtini oladi. Yana bir qiyinchilik – kutilayotgan ish haqi darajasi Mintaqqa mamlakatlarida yaxshi haq to'lanadigan ishni topish qiyin, va migrantlarning o'zları qayd qilganidek, bu yerda bajaradigan ishlari uchun ular migratsiyada ancha ko'p haq olganlar. Bundan tashqari, qaytib kelgan migrantlar jismoniy mehnat bilan bog'liq bo'lмаган mutaxassislik bo'yicha ish topishga umid qilishadi.
2. *Moddiy ahvol.* Migratsiyada ishslash yashash sharoitini va umuman ijtimoiy maqomni yaxshilashga imkon beradi. Ko'pincha migrant qaytib kelganidan keyin oilaning moddiy ahvoli yomonlashadi. Barqaror maoshli ishning yo'qligi salbiy psixologik muhitni yaratadi, moddiy sharoitning yomonlashishi esa migrantlarni qaytadan migratsiyani rejalashtirishga undaydi.
3. *Madaniy jihatdan moslashishdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy ahvol.*
4. *Oilada er-xotinlar, qarindoshlar orasidagi munosabatlarning yomonlashishi, bolalarga yetarlichcha e'tibor bermaslik va boshqalar⁹.*

Tieme S. tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Rossiya va Qirg'izistonidan kelgan mehnat migrantlari o'z vatanlariga emas, balki katta shaharlarga qaytishga moyildirlar, bu esa ichki migratsiya oqimlarida o'z aksini topadi. Albatta, bu mintaqaladagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi, jumladan, o`qituvchilik va shifokorlik kabi sohalarda kasb yo'qotilishiga, "sudraluvchi" migratsiya va h.k.ga sabab bo'ladi. Turli yosh guruhidagi insonlar har xil mintaqalarga qaytishni afzal biladilar. Keksa odamlar o'z uylariga, tug'ilgan qishloqlariga qaytishni afzal ko'rishadi, yoshlar esa o'z istiqbollarini shahar bilan bog'laydilar. Ko'pincha migrantlarning qaytishi migratsiyaning yangi bosqichiga yoki mavjud siklni davom etishiga olib keladi.

Qaytayotgan migrantlarning aksariyati ish joylari yo'qligi, ish haqining pastligi, iqtisodiy sharoitning yomonligi, yashash sharoitining yomonligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi va boshqalar tufayli qishloqlarga qaytib borishni istamaydi. Qishloqqa qaytayotgan migrantlarning oz qismi bu chovchilikka sarmoya solish uchun yetarli mablag'larga ega bo'lganlardir. Qaytib kelayotgan migrantlarning yana bir guruh, vatanida iqtisodiyotning rivojlanishiga o'z hissasini juda kam darajada qo'shadi, chunki ushbu

⁹ Qirg'iziston Respublikasi mehnatchi fuqaro-migrantlarining o'z vatanlariga qaytganlaridan keyingi ijtimoiy rehabilitatsiya shartlari va holati. Tahviliy ma'ruza: AMOU Ijtimoiy tadqiqotlar markazi. 2007 [Kirish rejimi: [https://auca.kg/uploads/](https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Social%20rehabilitation%20of%20migrants%20after%20return,%20rus.pdf) [Migration_Database/Social%20rehabilitation%20of%20migrants%20after%20return,%20rus.pdf](https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Social%20rehabilitation%20of%20migrants%20after%20return,%20rus.pdf)].

qaytish sog'liq, qonun, oilada muammolar paydo bo'lishi va ehtimol deportatsiya tufayli majburiy ravishda qaytish bilan bog'liqdir¹⁰.

3.2.1-misol. **Qaytib kelish ehtimoli baland bo'lgan migrantning vataniga reintegratsiyasida uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar**

Azamat 29 yoshda AQShning Chikagoda shahrida yashaydi. U 2011 yilda Bishkek universitetining uchinchi bosqich talabasi ekanligida Work and Travel dasturi bo'yicha AQShga jo'nab ketgan. Uning maqomi to'liq tartibga solinmagan, u uzoqqa qatnaydigan yuk mashinasi haydovchisi bo'lib ishlaydi. 2011 yilda dastur oxirida qolishga qaror qilib, Azamat "ikki yil AQShda ishlash, pul yig'ish va Qirg'izistonga qaytib kelishni" rejalshtirgan. Ammo har yili u yanada ko'proq pul yig'ishga umid qilib, qaytib kelishni orqaga suravergan. 8 yil o'tgach, u endi o'z vataniga qaytishga intilmaydi va buning sabablaridan biri jamiyatga reintegratsiyalashishda kutilayotgan qiyinchiliklar: "Qaytaman ham deylik. Kim bo'lib ishlayman? Oliy o'quv yurtini tugatmaganman, diplom olmaganman, nima men 30 yoshimda borib 18 yoshlilar bilan birga o'qiyman-mi? Unda qanday qilib pul topaman? Diplom olsam ham, mehnat faoliyatimni boshidan boshlashim kerak. Mening tengdoshlarim allaqachon kassir, mutaxassis bosqichlaridan o'tishdi, men esa o'zimdan yoshroq odamlar bilan ishlayman, mening xo'jayinlarim ham menden yoshroq odamlar bo'lishadi, chunki ular faoliyatini ancha oldin boshlashgan. Men qaytish imkoniyatimni endi qo'llidan chiqardim".

Tojikiston uchunhozirgi vaqtida migrantsyaning asosiy turi mavsumiy mehnat migrantsiyasidir. Mehnat migrantsiyasi va so'nggi yillarda – qaytish migrantsiyasi va qaytayotgan mehnat migrantlarining reintegratsiyasi masalalari Hukumatlararo komissiyalar va Tojikiston Respublikasi hamda hamkor davlatlar – Qozog'iston va Rossiya o'rtaqidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha ishchi guruhlarning yig'ilishlarida muntazam ravishda muhokama qilinmoqda, shunga qaramay imzolangan, rasmiy hujjatlar mehnat migrantsiyasi dolzarb muammolarining tezkor yechim topishiga har doim ham yordam bermayapti.

Qaytish migrantsiyasi masalalari bo'yicha Innovatsion rivojlanish markazining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mehnat migrantsiyasidan qaytishning asosiy sababları bu majburiy ravishda mamlakatdan ketishga olib keladigan ba'zi qonunbuzarliklарdir – 42%. Respondentlarning 23% ga Rossiya Federatsiyasidagi iqtisodiy inqiroz hodisalari salbiy ta'sir ko'rsatgan, bu daromadlarning keskin pasayishiga olib kelgan va ishlash iqtisodiy jihatdan foydasiz bo'lib qolgan. Shu bilan birga, taxminan 15% shaxsiy sabablarga ko'ra (ta'til, to'y, oilaviy sharoitlar) qaytgan. Xatlon viloyatida 51% i iqtisodiy sabablarga ko'ra, Dushanbe va Sog'd viloyatida – 37% i – kirish taqiqlangani sababli. Xuddi shu sabab Tog'li-Badaxshon muxtor viloyatidagi javob beruvchilarning 68% uchun asosiy sabab bo'ldi¹¹.

Mehnat migrantlarining zafligiga yana bir sabab – huquqiy bilimlarning yetishmasligi. Ko'pgina hollarda, bu huquqbazarliklarga olib keladi va natijada ular deportatsiya qilinadi. Chiqarib yuborilganlarning faqat 60% deportatsiya sababini bilishadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Xatlon viloyatining so'rovga

¹⁰ Tieme S. Qayerga qaytish lozim? Ichki va tashqi mehnat migrantsiyasi sharoitida qishloq va shaharning o'zaro aloqlari. Tahliliy qaydlar. AMOU Ijtimoiy tadqiqotlar markazi. [Kirish rejimi: https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Susan_rus.pdf].

¹¹ Tojikiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining tahlili. «Innovatsion rivojlanish markazi» jamoat tashkiloti tadqiqotlarining natijalari. Dushanbe, 2018 12-b. [Kirish rejimi: <http://mehnat.tj/nii/ru/2018/12/23/2018г-анализ-социально-экономических-проблем>].

jalb etilgan respondentlarning (92%) ularning chiqarib yuborilish sabablarini yaxshiroq bilishadi va ularning 73% sud qarorining nusxasini olishgan. So'rov natijalariga ko'ra, migrantlarning faqat 42% sud qarorining nusxasini olgan. Kirishni taqiqlash sabablarini biladiganlarning 44% – ro'yxatdan o'tmaganligi sababli va 52% – patentsiz ishslash tufayli taqiq olgan¹².

Endilikda Tojikiston qaytish migratsiyasini nazorat qilish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish tajribasiga ega. So'nggi yillarda Tojikiston Respublikasida qaytish migratsiyasi sohasidagi asosiy muammolardan biri bu ma'lum muddat Rossiya Federatsiyasiga kirish taqiqlangan odamlarni ish bilan ta'minlash bo'lib hisoblanadi. 2015 yil boshida Tojikiston Respublikasi Mehnat, migratsiya va bandlik vazirligining qarori bilan Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlar hududiga kirish taqiqlangan mehnat migrantlarini ishga joylashtirish dasturi qabul qilindi va tasdiqlandi.

Iqtisodiy inqiroz sharoitida, ichki va tashqi mehnat bozorlaridagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional xususiyatga ega bo'lgan tegishli choralarini ko'rish zarurati tug'ilди. Tojikiston Respublikasi Hukumati 2020 yilgacha bo'lgan davrda Tojikiston Respublikasida mehnat¹³ bozorini rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasini qabul qildi, unda qaytish migratsiyasi oqimlarini tartibga solish qoidalari va tartiblari bayon qilingan. Davlat dasturi ish o'rinnari tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish, samarali bandlikni va aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirishga yordam beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qaytib kelgan mehnat migrantlarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasidan kelgan mehnat migrantlari (98%). Ularning aksariyati Rossiya Federatsiyasining Yevropa qismida mehnat qilgan. Ohirgi paytda Qozog'istondan kelgan migrantlarni uchratish mumkin – taxminan 2%. So'rovda qatnashganlar orasida migratsiyadan qaytganlarning aksariyati 35-45 yoshdagi odamlar – 46%, 18-29 yoshdagи odamlar – 42% ni tashkil etadi. Ya'ni, so'rovda qatnashganlarning katta qismi (88%) yosh va o'rta yoshdagи odamlardir. 46 yoshdan katta bo'lganlar – 12%¹⁴.

O'zbekiston mehnat migrantlari, shu jumladan Rossiyadan deportatsiya qilinganlar bilan bog'liq muammolarning keng ko'lalimi e'tiborga oladi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligi Rossiya Federatsiyasidagi O'zbekistonning konsullikkлari shtatlar jadvaliga migrantlar attashesi lavozimini kiritdi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Rossiyada o'z filiallarini ochishni boshladi.

Turkmanistonda qaytib kelgan migrantlar to'g'risida statistik ma'lumotlar yo'q. Asosan Turkmanistonda o'z vataniga ixtiyoriy ravishda qaytish haqida ma'lumot keltiriglan. Qaytib kelgan migrantlarning asosiy guruhini quyidagi toifalar tashkil qiladi: mehnat migrantlari, shu jumladan yuqori malakali mutaxassislar; chet elda ta'llim olgan odamlar (ta'llim qaytish migratsiyasi); shuningdek, chet eldagи oilalar bilan birlashish imkoniga ega bo'limgan shaxslar (qaytish oila migratsiyasi). Ixtiyoriy ravishda qaytish jarayoni shaxsiy sabablarga ko'ra amalga oshiriladi: mehnat shartnomalari tugashi, o'quv

¹² Shu yerga qarang, 13-b.

¹³ Tojikiston Respublikasi mehnat bozorini 2020 yilgacha rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasi (Tojikiston Respublikasi hukumatining 27.04.2015 yildagi 238-sonli qarori tahririda).

¹⁴ Tojikiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining tahlili. "Innovatsion rivojlanish markazi" jamoat tashkiloti tadqiqotlarining natijalari. Dushanbe, 2018 16-b. [Kirish rejimi: <http://mehnat.tj/nii/ru/2018/12/23/2018-г-анализ-социально-экономических-проблем>].

muassasalarini tugatish va diplom olish, sog'liqning yomonlashishi, ajrashish, bolalar yoki qarindoshlar bilan bog'liq muammolar va oilani birlashtirish zaruriyat.

Rossiya va Turkiyada qolish rejimini buzgan ba'zi mehnat migrantlari hujatsiz migrantlarga aylanib, o'z vatanlariga, Turkmanistonga deportatsiya qilinmoqda. Biroq, bu hodisa keng tarqalmagan. Turli xil sabablarga ko'ra chet elda qullikka tushib qolgan odam savdosi qurbanlarining qaytib kelishi qayd etilgan.

Etnik qaytish migratsiyasi. Ushbu jarayonda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari mayjud, ammo umuman olganda, repatriatsiya muammolari ma'nnaviy va moddiy ko'lami va ahamiyati jihatidan uchta global blokdan iborat:

1. repatriantlarni o'z tarixiy vatanlariga olib kelishni tashkil etish;
2. uy-joy, ish va o'qish joyi bilan ta'minlash bilan joylarda joylahstirish va moslashtirish;
3. fuqarolik huquqini berish yoki qayta tiklash.

Shu nuqtai nazardan, so'nggi yillarda va istiqbolda, masalan, Qozog'iston uchun qaytish migratsiyasining eng muhim yo'nalishlari quyidagilardir:

- Birinchidan, Qozog'istondan migrantlar etnik guruhlarining o'z mamlakatlariga qaytishi: ruslar Rossiya, tojiklar Tojikistonga ketmoqadilar, ilgari – yahudiylarning Isroilga va nemislarning Germaniyaga etnik emigratsiyasi. Ushbu jarayonlar Qozog'iston uchun muhim demografik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keldi;
- Ikkinchidan, etnik qozoqlarning ("oralmonlar") qaytib kelishini, keyinchalik Qozog'iston jamiatiga qo'shilish va moslashuvini davlat darajasida rag'batlantirish. 1991 yildan boshlab kelgan etnik repatriantlar soni 1 milliondan oshdi. Mustaqillik yillarida mamlakatga kelgan oralmanlarning demografik hissasi tufayli salbiy migratsiya balansi darajasini 28% ga kamaytirishga erishildi¹⁵. Oralmanlarning taxminan 74% MDH mamlakatlaridan kelib chiqqan: O'zbekiston, Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi. Yana 26% uzoq xorijiy davlatlar, asosan Mongoliya va Xitoydan kelgan¹⁶. Qaytish migratsiyasi deb ham ta'riflangan etnik migratsiyasi Qozog'istoning migratsiya siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, u umumi migratsiya holatini va mamlakatning demografik rivojlanishini belgilaydi;
- Uchinchidan, xalqaro donorlar va XMgTning Qozog'istondagi missiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qaytish migratsiyasi. Ushbu yo'nalish XMgT missiyalari tomonidan amalga oshiriladigan Belgiya, Kanada, Finlyandiya, Niderlandlar, Norvegiya, Portugaliya, Shvetsiya, Shveytsariya, Turkiya va Buyuk Britaniyadan maxsus qaytib kelish dasturlari orqali Qozog'istonga qaytish va reintegratsiyada yordam ko'rsatish faoliyatini o'z ichiga oladi. Qaytishning ushbu shakli XMgT va hamkor davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan va Qozog'iston vogeligidagi qaytishning boshqa modellarini rivojlantirish uchun yaxshi zamin bo'lishi mumkin;

¹⁵ Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 29 sentyabrdagi "2017-2021 yillarda Qozog'iston Respublikasi migratsiya siyosati Konsepsiyasini va 2017-2021 yillarda Qozog'iston Respublikasi migratsiya siyosati Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash to'g'risida" qarori.

¹⁶ Qozog'iston Respublikasi aholisi. 2009 yildagi Qozog'iston Respublikasi aholisini milliy ro'yxatga olish natijalari. 1-jild Statistik to'plam. Smailov A.A. tomonidan tahrirlangan Ostona 2011. 242-b.

- To'rtinchidan, Qozog'istonda rivojlantirish mumkin bo'lgan eng muvofiq qaytish yo'nalishi bu Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari fuqarolarinining o'zlarining mamlakatlariga (Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston) qaytish mehnat migratsiyasidir;
- Beshinchidan, qaytish migratsiyasining hali yetarlicha rivojlanmagan yana bir turi -Qozog'istonda vaqtincha yashayotgan tranzit migrantlarning vataniga qaytishi. Biroq, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ushbu migrantlar guruhi ancha nozik va aniqlanishi qiyin guruh. Tranzit davlat sifatida Qozog'iston davlatiga bunday holatlarda zarur yordam ko'rsatish juda qiyin, ammo ushbu toifadagi migrantlar bilan shug'ullanish kerak.

Qirg'izistonda qaytayotgan etnik qirg'izlar, kayrilmanlar uchun o'z vatanlariga qaytish va fuqarolik olish uchun osonlashtirilgan tartiblar amal qiladi. Etnik qirg'izlarning immigratsiyasi sohasidagi davlat siyosati "Tarixiy vataniga qaytayotgan etnik qirg'izlarning davlat kafolatlari to'g'risida" Qirg'iziston respublikasi Qonuni bilani tartibga solinadi. Garchi qonunda qayrilmanlar uchun zarur bo'lgan yashash sharoitlarini yaratish uchun huquqiy, ijtimoiy va boshqa asoslar nazarda tutilgan bo'lsa-da, amalda bu yetarli emasligi ma'lum bo'ldi va 2016 yilda Qirg'iziston Hukumatining 2017-2022 yillarga mo'ljallangan "Qayrilman" dasturi qabul qilindi.

Qayrilmanlarning aksariyati O'zbekiston, Tojikiston va Xitoydan kelishadi, qaytib kelgan migrantlar asosan Chuy viloyati, Bishkek va mamlakatning janubiy viloyatlariga joylashtirildi. Qayrilmanlar orasida mehnatga layoqatli yoshdag'i odamlar ko'pchilikni tashkul etmoqda, bolalar va qariyalar soni uncha ko'p emas. Ayollar ustun bo'lgan Gender nomutanosiblik ham kuzatiladi¹⁷. 1995 yildan boshlab 50 mingdan ortiq kishi Qirg'iziston Respublikasi fuqaroligini va "qayrilman" maqomini oldi.

Etnik o'zbeklarning tarixiy vatanlariga qaytarish jarayoni bir tekis kechmadi. 1990-yillarning boshlarida o'zbeklar faol ravishda O'zbekistonga qaytdilar – ular jami immigrantlarning 40% ini tashkil etdi; 2000-yillarning boshlarida jarayon sekinlashdi – etnik o'zbeklarning ulushi bor-yo'g'i 17-19% ni tashkil etdi. 2010 yilda ushbu ko'rsatkich yana ko'tarilib, ba'zi yillarda 35-40% ni tashkil etdi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari qaytish migratsiyasining bir nechta shakllari rivojlandi: ixtiyoriy-majburiy qaytish – migrantlarning mamlakatda bo'lish muddati oxiriga yetadi, ularning boshpana so'rab qilgan murojaatlariga rad javobi berilgan yoki boshqa sabablarga ko'ra mamlakatda qololmaydilar, shu sababli o'z vatanlariga o'z xohishlari bilan qaytish to'g'risida qaror qabul qilinadi; ixtiyoriy bo'limgan qaytish, y'ani qabul qiluvchi mamlakat hukumatining qarori bilan deportatsiya qilish. Qozog'iston va Qirg'izistonda qaytish migratsiyasi etnik qirg'izlar – "qayrilman", etnik qozoqlar – "oralman" larni qaytarish bo'yicha davlat dasturi tufayli amalga oshirilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Qaytish migratsiyasi deganda nima tushuniladi? Qaytish migratsiyasining qanday turlarini bilasiz?
2. Ixtiyoriy qaytishni istisno qiluvchi holatlarni tavsiflab bering;
3. Mamlakatingizda qaytib kelayotgan ko'p sonli migrantlarni qabul qilish ejtijoji mavjud-mi?
4. Mamlakatingizda qaytish migratsiyasining oqibatlari qanday?

¹⁷ XMgT, "Qirg'iziston – kengaytirilgan migratsiya profili". Bishkek. 2018. 51-53 b.

5. Qaytish migratsiyasini tartibga solish doirasida mamlakatingiz hukumati kimlar bilan hamkorlik qiladi?
6. Migrantlarning qaytishini amalga oshiradigan mamlakatlarning, shuningdek, muigrantlarning o'zları va ularning kelib chiqqan mamlakatlari qanday umumiylar manfaatlarga ega?
7. Migrantlarni qaytarish jarayonining ishonchliligi va samaradorligini oshirish uchun qanday choralar ko'riliishi kerak?
8. Majburiy qaytish migratsiyasining qanday turlarini bilasiz? Ularni qisqacha ta'riflang va mamlakatingiz amaliyotidan misollar keltiring.

Amaliy mashg'ulot:

Rol o'yini "Siz – sobiq migrantsiz"

O'yinning maqsadi: tinglovchilar tajribasidan foydalangan holda, migratsiya, qaytib kelish sabablari, migrantlarning mumkin bo'lgan muammolari va migratsiya hamda qaytish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha zarur choralarini tahlil qilish.

O'qituvchi auditoriyada oldin mehnat migrantlari bo'lgan talabalar bor-mi, deb so'raydi. Agar siz Markaziy Osiyoda bo'lsangiz, u holda, odatda, migratsiya tajribasiga ega odamlar tinglovchilar orasida topiladi, agar bo'lmasa, u holda ko'ngillilardan migrantlar "rolini o'ynashini" iltimos qiling. Keyin o'qituvchi ketma-ket savollar beradi. Savollarning ifoda qilinishi o'qituvchi va tinglovchilarga bog'liq. Mana ba'zi umumiylar savollar uchun misollar:

- Mehnat migratsiyasida qancha vaqt bo'ldingiz?
- Ish topishga qancha vaqt talab etildi? Ushbu ish kasbingiz bilan bog'liqmidi?
- Uyga qaytganingizdan keyin ish topishga qancha vaqt ketdi?
- Mehnat migratsiyasi orqali qanday ijobji tajribaga ega bo'ldingiz? Ushbu tajribadan foydalanasiz-mi?
- Mehnat migratsiyasi paytida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
- Qaytib kelganingizda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz? (E'tibor bering, qisqa vaqt ichida migratsiyada bo'lganlar bilan uzoq vaqt migratsiyada bo'lganlarning javoblari farq qiladi)

Majburiy adabiyot:

1. Tojikiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining tahlili. «Innovatsion rivojlanish markazi» jamoat tashkiloti tadqiqotlarining natijalari. Dushanbe: 2018. 69 b. [Kirish rejimi: <http://mehnat.tj/nii/ru/2018/12/23/2018-г-анализ-социально-экономических-проблем>].
2. Qaytish migratsiyasi va Markaziyo Osiyodagi tahididlar: 2017-yil xatarlar tahlili. Olmaota: XMgT-Qozog'iston. 2017. 68 bet.
3. Migratsiyani boshqarish asoslari. Boshqaruvchi mansabdar shaxs va amaliyotchilar uchun qo'llanma. XMgT. 2006 yil.

4. Tieme S. Qayerga qaytish lozim? Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida qishloq va shaharning o'zaro aloqlari. Tahliliy qaydlar. AMOU Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi. Bishkek. [Kirish rejimi: https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Susan_rus.pdf].
5. Markaziy Osiyodagi migrantlarning nochorligi va integratsiyaga bo'lgan ehtiyoji: migrantlar va guruhlarning ehtiyojarini baholash va xavf-xatarlarni boshqarish. Ostona: XMgT. 2017. 48 b. [Kirish rejimi: <https://bit.ly/3c4OsoA>].

Qo'shimcha adabiyot:

1. Abashin S. Markaziy Osiyodan migratsiya: amaliyotlar, mahalliy hamjamiyatlar, transmilliylik. Rossiya siyosati va huquqi. 51 jild. № 3. May-iyun 2013. 6-20 b.
2. Azimova M., Maxmadbekov M., Raimdodov U va boshqalar. Tojikiston Respublikasidagi ijtimoiy va mehnat munosabatlari tarkibidagi mehnat migratsiyasi. Dushanbe: 2016. 163 b. [Kirish tartibi: www.rtsu.tj/upload/files/data3/Монография_ТРУДОВАЯ%20МИГРАЦИЯ.pdf].
3. Britvina I.B. Migrantlar ijtimoiy faoliyat ob'ekti sifatida: darslik. Qo'rg'on: Qo'rg'on davlat universiteti nashriyoti. 2012. 248-b.
4. Ikromov D.Z. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan xalqaro mehnat migratsiyasining Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: 08.00.14. Sankt-Peterburg. 207-b.
5. XMgT, "Qirg'iziston – kengaytirilgan migratsiya profili". Bishkek, 2018. 152 bet. [Kirish rejimi: <https://iom.kg/wp-content/uploads/2011/07/Migratsiya-Profile-2018-in-Russ.pdf>].
6. Migrantning tabiatni Endi kim Rossiyaga ishlashga boryapti. Kommersant. 12.08.2017. [Kirish rejimi: <https://www.kommersant.ru/doc/3380376>].
7. Mukomel V.I. Diaspora – Tojikistonning rivojlanishi bo'yicha hamkordir. Dushanbe. 2014. 147 b. [Kirish rejimi: http://www.iom.tj/files/ru_Diaspora_research_tajikistan.pdf].
8. Tojikiston Respublikasining mehnat bozori. Dushanbe: Tojikiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. 2015. 128-b.
9. Migratsiya sohasidagi atamalar majmui bo'yicha qo'llanma. 2-nashr. XMgT. 2011. 98 b. [Kirish rejimi: https://publications.iom.int/system/files/pdf/iml_2_rus.pdf].
10. Tojikiston: uy xo'jaliklari sotib olish qobiliyatining keskin pasayishi sharoitida iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'rtacha darajada sekinlashishi. Tojikistonning iqtisodiy rivojlanishi to'g'risida ma'ruza. Dushanbe: 2018.2-soni. 30-b. [Kirish rejimi: www.vsemirnyjbank.org/ru/country/tajikistan/publication/economic-update-fall-2015.print].
11. Toshov A.R. Iqtisodiy o'zgarish sharoitida Tojikiston Respublikasi aholisining bandligi va mehnat migratsiyasi: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: 08.00.14. M. 2015. 158-b.
12. Chernov A.S. Mehnat migratsiyasining mintaqaviy mehnat bozoriga ta'siri. Moskva davlat texnika universiteti axborotnomasi. 15-jild, 1-soni, 2012 yil. 245-249 b.

13. Chobanyan A Qaytish migratsiyasi va reintegratsiya masalalari: Armaniston. CARIM-East RR 2013/04. Florence: European University Institute. Robert Schuman Centre for Advanced Studies. 2013. 26-b. [Kirish rejimi: https://cadmus.eui.eu/bitstream/handle/1814/27864/CARIM-East_RR-2013-04.pdf?sequence=1&isAllowed=y].
14. Cassarino J.-P. Theorising Return Migration: The Conceptual Approach to Return Migrants Revisited. International Journal on Multicultural Societies, UNESCO. 2004. 6-soni (2). 253-279 b.
15. Return Migration: Theory and Empirical Evidence from the UK. Christian Dustmann and Yoram Weiss. British Journal of Industrial Relations. 2 June 2007. 236-256 b.



Tojikiston fuqarolari menhat migratsiyasiga jo'hab ketishdan oldin Dushanbe aeroportida XMgT tomonidan tashkil etilgan mobil laboratoriyada tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Aksiya Xalqaro migrant kuniga bag'ishlangan.

Surat: XMgT Tojikiston, 2017

3.3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy rivojlanishiga qaytish migratsiyasining iqtisodiy va ijtimoiy-demografik hissasi va salohiyati

Mundarija. Markaziy Osiyo va qabul qiluvchi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga migrantlarning hissasi. Qaytib kelgan migrantlarning aholi, mehnat resurslari va aholining ba'zi ijtimoiy-demografik guruhalr sonini oshirishdagi hissasi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytib kelgan migrantlarning mahalliy va mintaqaviy darajada salohiyatidan foydalanish. Markaziy Osiyoda qaytib kelgan migrantlarning bandlik sohalari. Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaytib kelgan migrantlarning tadbirkorlik salohiyatini amalga oshirish shakllari. Qaytib kelgan migrantlar tomonidan ochilgan biznes va korxonalarning turlari. Qaytib kelgan migrantlar tomonidan olib kelingan yangi texnologiyalar. Qaytib kelgan migrantlar tomonidan yoki qaytib kelgan migrantlar uchun yaratilgan infratuzilma ob'ektlari. Pul omonatlari va ularning Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytib kelgan migrantlarning reintegratsiyasida tutgan orni.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi va YeOTBning tahliliy qaydnomalarida ta'kidlanganidek, "bugungi kunda mehnat migratsiyasining eng katta xalqaro oqimlaridan biri va ularga hamroh pul o'tkazmalari MDH hududlari doirasida, Rossiya Federatsiyasi va Markaziy Osioning kambag'al davlatlari o'rtaida amalga oshirilmoqda"¹. Qulay tashqi sharoit tufayli Rossiya iqtisodiyoti 2000-yillarda tez sur'atlar bilan o'sdi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun arzon ishchi kuchi talab etilar edi. Rossiyaning ish beruvchilari jiddiy byurokratik va korrupsiya omillari bilan yuzma-yuz kelgan holda mahalliy ishchilarga yuqori maosh to'lay olmasdilar. Og'ir mehnat sharoiti va maoshning pastligi mahalliy aholini iqtisodiyotning ayrim tarmoqlaridan chiqarib qo'ydi. Bu, o'z navbatida, Rossiya iqtisodiyotini xorijlik ishchilariga, birinchi navbatda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan keladigan migrantlariga qaram qilib qo'ydi. Bu, ayniqsa, qurilishda yaqqol ko'rindi².

Rossiya uchun mehnat migrantlarini asosiy yetkazib beruvchilar Markaziy Osioning uchta mamlakati bo'lgan: O'zbekiston, Tojikiston va Qирг'изистон. Ulardan mehnat migratsiyasi asosan iqtisodiyotning nufuzli bo'limgan sohalarida kam haq to'lanadigan lavozimlarda ishlashga tayyor bo'lgan past malakali ishchilar yoki malakali ishchilardan tashkil topgan. Rossiya Federatsiyasi uchun Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan mehnat migrantlari barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga va yaqin iqtisodiy bir-biriga bog'liqlikning zaminiga aylandi. 2017 yilda Rossiya byudjeti migrantlardan 160 milliard rubldan oshiqroq (deyarli 2,8 milliard AQSh dollar) daromad oldi. 2017 yilda migrantlar Moskva byudjetini 15,7 milliard rubl (277 million AQSh dollar) ga to'ldirdi. 2018 yil oktyabr oyida Moskva meri S. Sobyanin shaharning hujjatlashtirilgan mehnat migrantlaridan kelgan daromadlari ko'payganini va yil oxiriga kelib 16 milliard rubldan (245,2 million dollar) oshishini aytib o'tdi.

¹ Markaziy Osiyo mamlakatlarida mehnat migratsiyasi, pul o'tkazmalari va inson rivojlanishi. Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun inson tarraqqiyotiga oid bir qator tahliliy qaydlar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMT TD) va Yevroosiy Taraqqiyot Banki (YeOTB). Istanbul: BMTTDning Yevropa va MDH bo'yicha mintaqaviy ofisi. 2015 yil. 12-b. [Kirish rejimi: [www.undp.org/content/dam/rbec/docs/CAM&RHDpaper\(rus\)FINAL.pdf](http://www.undp.org/content/dam/rbec/docs/CAM&RHDpaper(rus)FINAL.pdf)].

² Ikromov D.Z. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan bo'lgan xalqaro mehnat migratsiyasining RF ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri: iqtisodiyot fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya: 08.00.14.– Sankt-Peterburg, 2017. 5-b.

2014-2016 yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz Rossiya migratsiya siyosatining keskinlashishiga olib keldi Rossiyadagi milliy mehnat bozorini himoya qilish maqsadida hatto kichik ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan xorijiliklar uchun ham kirishga taqiq joriy etildi. Natjada yangi tendensiya paydo bo'ldi – mehnat migrantlarining kelib chiqqan mamlakatlari, ya'ni Markaziy Osiyo mamlakatlari qaytish migratsiyasi.

Rossiyadan qaytish migratsiyasi boshlanishidan oldin Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ommaviy mehnat migratsiyasi ko'plab ijobiy jihatlarga ega edi, shu jumladan mehnat bozoriga tushadigan yuk olib tashlangan edi, ishsizlik darajasi va shunga mos ravishda ijtimoiy nafaqalar uchun davlat xarajatlari kamaygan edi, ishsizlar qayta tayyorlashdan o'tardi, ular uchun jamoat ishlari va ularning oilalariga yordam berish tashkillashtirilar edi; pul o'tkazmalari milliy iqtisodiyotga kirib borar, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirar va kambag'allikni kamaytirardi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari fuqarolarining uzoq vaqt davomida Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlarda bo'lislari natijasida mintaqalarning mamlakatlari va ushbu davlatlar o'rutasida savdo-iqtisodiy aloqalarning chuqurlashishi, kengayishi kuzatilmogda, ishbilarmonlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda, turli xil qo'shma korxonalar paydo bo'lmoqda va tovar aylanmasining hajmi ortmoqda. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun aynan ishchi kuchining eksporti yuz minglab odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash, byudjetlarni to'ldirish va ko'plab ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun haqiqiy imkoniyat yaratadi.

Jahon bankining xalqaro taqqoslashlariga ko'ra, Tojikiston va Qirg'iziston dunyo miqyosida pul o'tkazmalarining yalpi ichki mahsulotdagagi ulushi bo'yicha mos ravishda 47% va 29% bilan birinchi va uchinchi o'rinni egalladi. Chet eldan Markaziy Osiyo mamlakatlari pul o'tkazmalari hajmi 2013 yilda o'zining eng yuqori ko'rsatkichiga- 12,9 mlrd dollarga ga yetdi. So'ngra, Rossiya Federatsiyasida rublning devalvatsiyasi va mehnat migrantlarining o'z vatanlariga chiqib ketishi bilan birgalikda ro'y bergen moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tufayli Markaziy Osiyo mamlakatlari pul o'tkazmalarining tushishi qisqara boshladi. Buning natijasida, pul o'tkazmalarining minimal hajmi – 6,6 milliard dollar 2016 yilda qayd etildi. Rossiya Federatsiyadan mehnat migrantlarining eng katta pul o'tkazmalari O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonga jo'natiladi (3.3.1-jadval). 2017 yilda inqirozdan keyin pul o'tkazmalari miqdori yana oshdi. Masalan, Qirg'izistonda pul o'tkazmalarining o'sishi 2016 yildayoq qayd etilgan, 2017 yilda esa 2,5 milliard dollarni tashkil etib inqirozgacha bo'lgan 2013 yildagi ko'rsatkichdan oshgan. 2017 yilda pul o'tkazmalari hajmining – 7,9 milliard dollargacha yangidan o'sishi kuzatildi.


3.3.1-jadval 2010-2017 yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari jo'natilgan pul o'tkazmalari, million AQSh dollarida³

Mamlakatlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil
Qozog'iston	226	180	178	207	229	194	275	355
Qirg'iziston	1 266	1 709	2 031	2 278	2 243	1 688	1 995	2 486
Tojikiston	2 021	2 722	3 222	3 698	3 384	2 259	1 867	2 220
Turkmaniston	35	35	37	40	30	16	9	10
O'zbekiston	2 858	4 276	5 693	6 689	5 828	3 062	2 479	2 839
Jami	6 406	8 922	11 161	12 912	11 714	7 219	6 625	7 910

³ Migratsiya va pul o'tkazmalari, Jahon banki (Migration and Remittances Fact book 2018, 3hd Edition, Washington DC, The World Bank), 2018, 149-238 b.

Mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari xorijiy valyutaning muhim manbai hisoblanadi. Mehnat migrantlarining daromadlari aholining turmush darajasini oshiradi, Markaziy Osiyo mamlakatlarning to'lov balanslarini yaxshilaydi. Mehnat migrantlari o'z vataniga qaytganda o'zlari bilan pul omonatlarini olib kelishadi. Ushbu mablag'lar miqdori ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatning milliy daromadiga haqiqiy daromadni hisoblashda o'tkazmalar miqdonini ikki baravar oshirishga imkon beradi⁴. Migrantlarning pul o'tkazmalari vatandagi ichki talabni oshiradi va shu bilan ishlab chiqarish va bandlikni o'sishini rag'batlantiradi. Pul o'tkazmalari tufayli butun jamiyatda bo'lmasa ham hech bo'lmaga uning bir qismida turmush darajasi sezilarli darajada o'sadi.

3.3.1-rasm 2010-2017 yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlariiga jo'natilgan pul o'tkazmalari, million AQSh dollarida⁵



Ammo mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari hozircha, afsuski, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining o'rta muddatli rivojlanishida muhim rol o'ynamaydi. Pul o'tkazmalarining "ijtimoiy yordamining ta'siri" ko'pincha mehnat migrantsiyasi tufayli ishsizlik kamayganda va davlat byudjeti pul o'tkazmalari hisobiga moliyalashtiriladigan iste'mol soliqlari hisobiga to'ldirilganda namoyon bo'ladi. Bu yerda "qisqa muddatli pullar" deb ataluvchi ta'sir eng kolp darajada namoyon bo'ladi. Ixtiyoriy ravishda qaytayotgan migrantlarning aksariyati xorijiy mamlakatni tark etayotganda vataniga qaytgandan keyin o'zlarini, qarindoshlari va yaqinlarini moliyaviy qo'llash uchun ishlab topib, tejab borilgan kapitalga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, tegishli sharoitlarda chet elda toplangan mablag'lar vatanda kichik va o'rta korxonalarini tashkil etish uchun boshlang'ich kapitali sifatida ishlatalishi mumkin.

Ixtiyoriy qaytish dasturlarining faollashtirilishi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun juda muhim ahamiyatga ega, chunki qaytuvchi migrantlarning kelishi bilan mintaqaviy rivojlanish differensiatsiyasini, aholining notekis taqsimlanishini to'g'rilash, aholi sonini va ayrim aholi yashash joylarida mehnat resurslarini to'ldirish uchun ob'ektiv imkoniyat paydo bo'ladi. Davlat dasturlari va mahalliy ijro

⁴ Aholinin xalqaro migrantsiyasi: Rossiya va zamonaviy dunyo. M., 1999 69-b.

⁵ Migrantsiya va pul o'tkazmalar, Jahon banki (Migration and Remittances Fact book 2018, 3rd Edition. Washington DC. The World Bank.) 2018. 149-238 b.

organlarining dasturlari qaytib kelgan migrantlarni aynan shu mintaqalarga rag'batlantirish vositalarini o'z ichiga olishi kerak, shu bilan birga mintaqani obodonlashtirish uchun byudjetdan mablag'lar bilan ta'minlashni aholi sonini hisobga olgan holda bog'lashi kerak, chunki qaytib kelgan migrantlar o'z shahrini, qishlog'ini, ovulini tiklashga, maktab sinflarini to'ldirishga yordam berishi mumkin, shuningdek, ularning xorijiy tajribasi va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan o'z biznesida qo'llash istagini ham hisobga olish kerak.

Migratsiya, yoshlar va gender tenglik muammolarini hal qilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha jihatlari uchun zarurdir va ularni Markaziy Osiyo mintaqasida hal etish zarur, chunki bu Markaziy Osiyo davlatlari qo'shilgan BRMga erishish uchun asosiy shartlardan biridir. Xususan, qishloq yoshlari ishtirokidagi tubdan o'zgarish bo'yicha "Yigirma guruhi"ning Tashabbusida ta'kidlanganidek, qishloq yoshlari barqaror taraqqiyot uchun imkoniyat yaratadigan qishloqlarni o'zgartirishning yetakchi omiliga aylanishi mumkin⁶.

Qozog'istonda bepul kasb-hunar va texnik ta'lif olish uchun sharoit yaratish va birinchi ishchi mutaxassisligini o'rGANISH 2017-2021 yillarga mo'ljallangan, kadrlarni tayyorlash va qisqa muddatli kasbiy ta'llimi nazarda tutadigan, samarali bandlik va ommaviy tadbirkorlikni rivojlantirish Dasturi loyihibaridan o'rIN olgan. Ushbu loyihsada o'qishga kira olmagan, ish izlayotgan, og'ir hayot sharoitida bo'lgan shaxslar va kam ta'minlangan oilalarning a'zolari, shuningdek, qaytish migrantlari ishtirok etishlari mumkin⁷.

Qaytish migratsiyasi kapitallarning Markaziy Osiyoga olib kelinishiga ko'maklashadi. Masalan, Ranking portalining ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda Qozog'istonda chet eldan pul o'tkazmalari soni va miqdori ko'paygan. Shunday qilib, 2017 yilning birinchi choragidagi tranzaksiyalar soni 311,6 mingtani tashkil etdi, 2016 yilning shu davriga nisbatan o'sish – 20% yoki 51,6 mingta operatsiyaga ko'proq. Pul o'tkazmalarining milliy pul ekvivalenti 56,2 milliard tengeni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2016 yilga nisbatan 27% ga ko'proq. Har bir o'tkazmaning o'rtacha miqdori 6% ga oshib, 180,5 ming tengega yetdi⁸.

Qaytish migratsiyasi haqida gap ketar ekan Qирг'изистонда 2018 yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 40% tashkil etgan pul o'tkazmalarining ahamiyatini ta'kidlash lozim. Qирг'изистон Республикаси Milliy banking ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yildagi mehnat migrantlarning pul o'tkazmalari 1991,3 million dollarga, 2017 yilda esa 2083,7 million dollarga tenglashdi. Ushbu mablag'lar uy xo'jaliklari tomonidan kundalik hayotga, oila tadbirlariga, bolalarni o'qitishga, ko'chmas mulk, qoramol sotib olishiga sarflanadi (o'z vataniga qaytish kafolati sifatida). Ko'chmas mulk va uy-joy odatda shaharlarda sotib olinadi. Bu yangi ijtimoiy hodisani – migrantlarning "ko'p joyga ega bo'lish" holatini shakllantiradi⁹. Mehnat migratsiyasining ijjobiy jihatni Qирг'изистон Республиkasining ishsiz fuqarolari chet elda ishga joylashish imkoniyatiga ega bo'lganidir.

⁶ Gender tengligi, Markaziy Osiyoda yoshlar va migratsiya: ehtiyojdan harakatlarga. FAOning Yevropa uchun mintaqaviy konferentsiyasi. 31-sessiya (2018 yil 16-18-may, Voronej, Rossiya Federatsiyasi).

⁷ "Hamma uchun bepul Professional texnik ta'lif" loyihsasi haqida ma'lumot [Kirish rejimi:<https://camonitor.kz/33298-ob-izmeneniyah-v-programme-besplatnoe-tipo-dlya-vseh-rasskazal-ministr-obrazovaniya.html>].

⁸ Qozog'iston: tashqi iqtisodiy aloqlar va siyosat // Migratsiya. 255-256сон. 29.03.2018 [Kirish rejimi: <http://ranking.kz/ru/a/infopovody/kazahstancy-stali-chashe-poluchat-dengi-iz-za-rubezha-v-1-kvartale-2017-kolichestvo-tranzakcij-vyroslo-pochti-na-20-obem-denezhnyh-perevodov-v-rk-uvelichilsya-na-27>].

⁹ Tieme S. Qayerga qaytish lozim? Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida qishloq va shaharning o'zaro aloqlari. Tahliiy qaydlar. AMOU Ijtimoiy tadqiqotlar markazi. [Kirish rejimi:https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Susan_rus.pdf].

3.3.1 misol Qирғизистонning Batken viloyatining Leylek tumanidagi pul o'tkazmalari bilan bog'liq vaziyat.

24 yoshli Altinay, agar ota-onasi Rossiyadan pul jo'natishni to'xtatsa, nima qilishini bilmaydi. Axir mana shu oyiga 20 ming som uning tirikchilgiga yordam beradi. Uch yildan beri Altinay buvisi bilan birga yashaydi, uning nafaqasi hech narsaga yetmaydi. Qizning so'zlariga ko'ra, Batken viloyatining Leylek tumanidagi uning qishlog'i aholisi doimiy ravishda chet elga ishlashga ketmoqdalar: bu yerda ish joylari yetishmaydi, yangi korxonalar ochilmayapti, ko'pchilik mamlakat idoralarida kam maoshga ishlaamoqda. Leylekdagi ko'plab oilalar nafaqat migrantlarning pullari orqasidan kun ko'rishadi, balki pul o'tkazmalari hisobiga to'lanadigan kreditlarni ham olishmoqda: "Har bir oila 2-3 tadan mikrokredit olgan. Odatta ular to'ylar (mahalliy tantanalar), uyni ta'mirlash, mashina sotib olish uchun kredit olishadi, ba'zan esa chipta sotib olish uchun kredit olishadi, keyin bu yerda qarindoshlari uni to'lاب berishadi"¹⁰.

Agar Qozog'istonga pul o'tkazmalari to'g'risidagi mal'lumotlarni ko'rib chiqadigan bolsak, yuqori darajadagi malakali kadrlar (masalan, muhandislar, iqtisodchilar va boshhqalar) chet elga chiqib vataniga pul o'tkazayotganligini tahmin qilishimiz mumkin. Bu Qozog'iston Respublikasi mehnat migrantlari tarkibining boshqa MO davlatlari bilan taqqoslaganda ancha malakaliroq ekanini tavslifaydi.

Tojikistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mehnat migrantlari pul o'tkazmalarining o'rni juda katta. 2010 yilda mamlakatga mehnat migrantlaridan 2,1 milliard dollar kelib tushdi. 2013 yilda – qariyb 4 milliard dollar kelib tushdi, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining 52%ini tashkil etadi. Migrantlarning pul o'tkazmalari hozirgi vaqtida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti bo'lib qolmoqda¹¹. Biroq, so'nggi yillarda pul o'tkazmalari qisqardi, masalan, Xatlon viloyatida – 62%, Dushanbe shahrida – 47% respondentga kamaydi¹².

Turkmanistondagi migrantlarning pul omonatlari va pul o'tkazmalarini baholash qiyin, chunki bu ma'lumotlar birorta milliy institut yoki Jahon banki tomonidan e'lon qilinmaydi. Rossiya Markaziy bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yilda Rossiya Federatsiyasidan Turkmanistonga jismoniy shaxslarning transchegaraviy operatsiyalari 40 million AQSh dollarni, shu jumladan rezident bo'limgan jismoniy shaxslar foydasiga 19 million AQSh dollarini tashkil etgan. Markaziy Osiyoning boshqa barcha davlatlariga nisbatan Turkmanistonga pul o'tkazmalaridagi vaziyatning tub farqi shundaki, tranzaksiyalarning juda kam soni kuzatiladi¹³.

2013 yilda mehnat migrantlarning O'zbekistonga shaxsiy pul o'tkazmalari 6,7 milliard AQSh dollarini yoki mamlakat yalpi ichki mahsulotining 12% ini tashkil etdi. 2014 yildan boshlab pul o'tkazmalari darjasasi Rossiya iqtisodiyotining zaiflashishi tufayli pasaya boshladi. 2015 yilda pul o'tkazmalari hajmi 3,1 milliard (YIMning 4,7%) darajasida edi, 2016 yilda esa 2,7 milliard AQSh dollarigacha kamaydi¹⁴.

¹⁰ Qaramoqdagi mamlakat Qирғизистон respublikasi migrantlarning puliga kun ko'radi [Kirish rejimi: <https://kloop.kg/blog/2018/08/23/strana-na-izhdivenii-kyrgyzstan-vyzhivaet-na-dengi-migrantov-no-ne-umeet-ih-tratit/>].

¹¹ Tojikiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining tahlili. Dushanbe shahrida, Tojikistonning respublika bo'y sunuvidagi tumanlari va Xatlon viloyatida qaytib kelgan mehnat migrantlarning muammolarini tadqiq qilish. "Innovatsion rivojlanish markazi" jamoat tashkilotining tadqiqot natijalari. Dushanbe shahrida. 2018 yil. 36-b.

¹² Shu yerga qarang, 10-b.

¹³ Ryazantsev S. Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotini rivojlantrishda mehnat migratsiyasining roli. – M., 2016 yil. 41-42 b.

¹⁴ Sedix I. A Xalqaro pul o'tkazmalari bozori. M.: Milliy tadqiqot universiteti Oliy iqtisodiyot maktabi. 2016. [Kirish rejimi: <https://dcenter.hse.ru/data/2017/01/31/1114338513/Рынок%20 международных%20денежных%20переводов%202016.pdf>].

Aslida, O'zbekiston Respublikasiga mehnat migrantlaridan keladigan valyuta mablag'lari miqdori rasmiy manbalarda qayd etilganidan ancha katta, chunki xalqaro va milliy moliyaviy tizimlarga parallel ravishda, mehnat migrantlari o'zlar bilan ham pul olib kelishadi.

Migrantlarning pul o'tkazmalari hajmini aniqlash va prognoz qilish juda qiyin. Migrantlar chet elda qancha uzoq qolishsa, ularning pul o'tkazmalari shuncha kamayadi va ularning vatanlari bilan aloqalari asta-sekin susayadi. *Pul o'tkazmalarining asosiy qismi pul amaliyotlari operatorlari orqali amalga oshiriladi. Bu mablag'lar iqtisodiy rivojlanish uchun katta imkoniyat yaratuvchi omonat shaklida pulni ushlab turish ehtimoli mavjud bo'lgan bank sohasi orqali jo'natilgan pulga qaraganda osonroq sarflanishini bildiradi.* Umuman olganda, mehnat migratsiyasida yashovchi odamlarning hayot darajasi va sifati ko'satkichlari eng yuqori bo'ldi, ularning turmush darajasi ko'satkichlari ularning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ancha moslashuv darajasini aks ettiradi.

Keng ko'lamli bo'llishiga qaramay, Markaziy Osiyo mamlakatlarining mehnat migratsiyasi barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qila olmaydi. *Ommalashgan mehnat migratsiyasi hozircha mintaqada ijtimoiy va inson kapitalini yaxshilashda muhim yutuqlarga olib kelmadи.*

Masalan, Tojikistonda olingen pul asosan oziq-ovqat va eng zarur narsalarni sotib olishga sarflandi: bolalar ta'llimi uchun – 20%; qolgani uy-joy qurish, ta'mirlash va sotib olish uchun sarflanadi (23%). Pul o'tkazmalarini sarflash biznes va tadbirdorlikni rivojlantirishga emas, balki kundalik xarajatlari uchun (oziq-ovqat, uy-joy sotib olish va ta'mirlash, keng iste'mol mollari, to'y va dafn marosimlari) yo'naltirilgan. Afsuski, o'z biznesini tashkil etish va rivojlantirish uchun juda kam mablag' qoladi (atigi 0,4%). Nima sababdan pul o'tkazmalari biznesni rivojlantirish uchun sarmoya qilinmayotganini ushbu ma'lumotlar tushuntirib beradi – ular yetarli emas¹⁵. Tojikiston Respublikasida ijtimoiy loyihalar amaliyoti mavjud – ayrim aholi yashash joylarining mahalliy infratuzilmasini rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan sarmoyalari (suv quvurlari, gaz quvurlari, yo'llar, jamoat joylari va boshqalar).

O'zbekistonga kelgan pul o'tkazmalari asosan qishloq joylarda istiqomat quluvchi oilalarining xarajatlari va farovonligini oshirish uchun sarflanadi. 2017 yili Jahon banki tomonidan o'tkazilgan so'rov shuni ko'satdiki, o'zbekistonlik migrantlarining 39% pul o'tkazmalarini o'z oila va yaqinlarini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun, 30% uy qurish va uyni ta'mirlash uchun, 7% to'y uchun, 25% boshqa maqsadlarga va bundan tashqari, bolalar ta'llimi va inson kapitalini rivojlantirish uchun sarmoya kiritishga sarflashgan. *Boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgani kabi, ishchi -migrantlar O'zbekistonda mablag'larini o'zlarining yashash sharoitlarini yaxshilashga sarflaydilar, bu oilaning ijtimoiy mavqeい o'sishini belgilaydi, ammo biznesni rivojlantirishga kamroq sarflaydilar; pul o'tkazmalarining kata qismi "samarasiz" xarajatlarga sarflanadi; an'anaviy marosimlarga (to'y va dafn marosimlari) xarajatlar muhimligi jihatidan, oziq-ovqat va uy xo'jaligi xarajatlaridan keyin uchinchi (yettitadan) toifani tashkil etadi; kiyim-kechak, ta'llim, sog'liq va qarz majburiyatlarini o'z ichiga oladigan boshqa muhim xarajatlar toifalari ham mavjud.*

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mehnat migratsiyasining ijobjiy jihatlaridan biri shundan iboratki, qaytish migratsiyasi urbanizatsiyani rag'batlantiradi, bu ish joylarini yaratishga imkon tug'dirib munosib ish haqi to'lanadigan ish topish imkoniyatini kafolatlaydi, biroq bu shaharni

¹⁵ Tojikiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining tahlili. Dushanbe shahrida, Tojikistonning respublika bo'y sunuvi dagi tumanlari va Xatlon viloyatida qaytib kelgan mehnat migrantlarining muammolarini tadqiq qilish. "Innovatsion rivojlanish markazi" jamoat tashkilotining tadqiqot natijalari. Dushanbe. 2018 yil. 38-b. [Kirish rejimi: <http://mehnat.tj/nii/ru/2018/12/23/2018г-анализ-социально-экономических-проблем>].

tashkil etuvchi korxona va tashkilotlarga ega shaharlarga xosdir. Masalan, 2018 yilda Qozog'iston Respublikasida respublika ahamiyatiga ega yana bitta shahar – Chimkent – paydo bo'ldi¹⁶. O'z navbatida shaharlarrivojanishi mahalliy aholiga va qaytib kelgan migrantlarga ish va biznesni rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyatlarni topishga imkon beradi. Vatanida ishlay olmaydigan yoki kam maoshli sohalarda ishlaydigan fuqarolar chet elga borib o'z mamlakatlariga nisbatan ko'proq pul ishlashadi. Shunday qilib, mehnat migratsiyasi tufayli uy xo'jaliklarining daromadlari oshadi va migrantlarni jo'naturvchi mamlakatlarda kambag'allik kamayadi. Ushbu sharoitlarda Markaziy Osiyo mamlakatlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va xalqaro vaziyatning rivojlanish xususiyatlari, inson huquqlariga rioya qilish talablari, odamlar, jamiyat, davlat va jahon hamjamiatining xavfsizligini ta'minlashni hisobga olgan holda aholi demografiyasi va migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatini tuzatishga majbur. Masalan, Qozog'iston Respublikasida davlat strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri noqonuniy migratsiyadan himoya qilish va immigrantlarning huquq va erkinliklарини та'minlashhdир. Shu sababli xalqaro huquqiy doktrina va amaliyotni, shuningdek, milliy huquqiy tizimni hisobga olgan holda, aholi migratsiyasini xalqaro huquqiy tartibga solish muammolari va u bilan bog'liq jarayonlarni har tomonlama o'rganish va har tomonlama tahlil qilish alohida ahamiyatga ega¹⁷.

Migrantlarning kelib chiqqan mamlakatlariga ixtiyoriy ravishda qaytishini monitoring qilish bunday qaytishning turli sabablarini aniqlashtiradi, quyidagilarni buning asosiy sababları jumlasiga kiritish mumkin: xorijiy mamlakatda mehnat shartnomalarining tugashi, ularning ma'lum yosha yetishi, o'z tarixiy vatanlariga qaytish istagi, oila bilan qayta birlashish va oilaga qaytish – Markaziy Osiyo mamlakatlariga xos qarindosh-urug'lar bilan bir jamaa bo'lib yashash, ko'p farzandli oilalarning mavjudligi, qarindoshlar bilan doimiy yaqin aloqada bo'lish.

Migrantlar o'z vataniga majburan yoki ixtiyoriy ravishda qaytgan taqdirda, qabul qiluvchi mamlakatlarning davlat tuzilmalari xorijda yashash va mehnat faoliyati tajribasiga ega shaxsning ana shu o'sishi va o'zgarish omilini hisobga olishi kerak. Shuningdek, ularning kasbiy salohiyatidan o'z mintaqasini rivojlantirishiga iqtisodiy va ijtimoiy-demografik hissa qo'shish uchun maksimal darajada foydalanish tavsiya etiladi. Qaytib kelgan migrantlarning resurs salohiyatidan foydalanish bo'yicha yetakchi xorijiy mamlakatlarning tajribasini Markaziy Osiyo mamlakatlari ham o'rganib olishlari kerak.

3.3.2 misol **Qaytish va reintegratsiyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa tarmog'i.**

Qaytish va reintegratsiyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa tarmog'i (ERRIN) qaytish va reintegratsiya bo'yicha umumiyl dastur sifatida faol ishlamoqda. U Niderlandiya boshchiligidagi va YI moliyaviy ko'magi bilan bir qator Yevropa hamkor davlatlari tomonidan ta'sis etilgan. ERRIN (Qaytish va reintegratsiyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa tarmog'i) doirasida ko'ngilli migrantlarga bir necha yordam turlari taqdim etiladi, shu jumladan yetib kelganida qo'llab-quvvatlash, kasbiy o'qitish, ishga joylashish o'z biznesni yo'lga qo'yish uchun beriladigan yordam¹⁸.

¹⁶ Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 iyundagi "Turkiston viloyatini tashkil etish to'grisida" Farmoni [Kirish rejimi: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=38448242]

¹⁷ Alayeva G.T. Migratsiya qonunining shakllanishi va rivojlanishi. Xalqaro siyosiy-amaliy konferensiya materiallari "Globalashuv sharoitda siyosiy va huquqiy tartibga solishning dolzarb muammolari" (28.02.2014). – Olmaota. "Turon" universiteti. 243-247 b.

¹⁸ Yevropa reintegratsiya tarmog'i (ERRIN) axboroti [Kirish rejimi: www.returningfromgermany.de/ru/programmes/erin].

Migrantlarni o'z vatanlariga, Markaziy Osiyo mamlakatlariga ixtiyoriy qaytish bo'yicha dasturlarini rivojlantirishda ushbu ijobiy tajribadan foydalanish va uni mintaqani rivojlantirishga integratsiyalashning noyob imkoniyat mavjud. Masalan, YOII integratsiyasi doirasida Markaziy Osiyoda migratsiya jarayonlari faollahdi. Bunda, migrantlarning asosiy donorlari sifatida Tojikiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi, qabul qiluvchi sifatida esa Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonni ikkita asosiy omil osonlashtiradi: iqtisodiy va ijtimoiy-demografik.

Qaytib keladigan migrantlar uuga tajriba, yangi bilimlar va ko'nikmalar bilan qaytadi. Odatda mehnat migrantlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan ham rivojlangan farovon mamlakatlarga boradilar. Rivojlangan infratuzilmaga ega xorijiy muhitda bo'lgan migrantlar ular uchun yangi yashash muhiti bilan tanishadilar, kuchli raqobatga dosh berishga intilish, ularning kasbiy mahoratini yoki malakasini ancha oshirish, yangi mahoratlarga ega bo'lishga harakat qilishlariga imkon beradi. Migrantlar o'zlarining chet tillari bo'yicha bilimini yaxshilash, sanoatning ilg'or sohalari, shu jumladan IT-teknologiyalari, tibbiyat, qurilish, restoran yoki mehmonxonalar biznesi sohasidagi xizmatlar, umumiyligi ovqatlanish, parvarishlash bo'yicha hamshiralik xizmatlari, xo'jalikni yuritish uslublari va boshqalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ularning yangi ko'nikmalar va bilimlar bilan qaytishi, yangi texnologiyalardan xabardorligi Markaziy Osiyoning donor mamlakatlari iqtisodiyotining rivoji uchun ulkan salohiyatni ifoda qildi.

Tojikiston respublikasi uchun muhim ijtimoiy foyda shundaki, eng faol mamlakat fuqarolarining katta qismi mehnat migratsiyasi va tashqi mehnat bozorlarida tajriba orttiradi. Bu ularga yangi ish tajribasini orttirish, malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, qaytgandan keyin mehnat sharoitlariga o'zgacha munosabatda bo'lish, yuqori ish haqiga da've qilish va o'ziga ancha yuqori bahoga asoslangan mansab bo'yicha ko'tarilish haqida reja tuzish imkonini beradi. Umuman olganda, ushbu holat Tojikiston Respublikasi mehnat bozoridagi vaziyatning o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-demografik omil qabul qiluvchi mamlakatlar tomonidan inson resurslariga bo'lgan talabda namoyon bo'ladi. Hech kimga sir emas, so'nggi o'n yilliklarda Rossiya Federatsiyasida mehnatga layoqatli fuqarolar soni sezilarli darajada qisqargan, aholi qarimoqda, Qozog'istonda migratsiya manfiy saldosi sezilarli darajada kuzatilmoxda va rus tilida so'zlashuvchi aholining mamlakatdan chiqib ketishi kuchaymoqda. Donor mamlakatlarda, aksincha, an'anaviy ravishda yuqori tug'ilish miqdori kuzatilmoxda, ko'plab serfarzandli oilalar va mehnat zaxiralarining ortiqchaligi kuzatilmoxda. Masalan, qaytish migratsiyasi Qozog'iston Respublikasi uchun demografik va mehnat resurslarini to'ldiradi. Tug'ilish miqdorining pasayishi, o'lim va emigratsiyaning o'sishi 90-yillarda Qozog'istondagi demografik vaziyatni yomonlashtirdi. Qozog'iston Respublikasi yer maydoni bo'yicha dunyoda to'qqizinchiligi o'rinni egallaydi. Mamlakatda ko'plab aholi yashamaydigan va o'zlashtirilmagan yerlar bor, shuningdek, aholi va mehnat resurslarining juda notekis taqsimlanishi qayd etildi. Ushbu vaziyatda, oralmanlarning tarixiy vatanlariga qaytishlari Qozog'iston Respublikasidagi demografik muammolarni hal qilishga qisman yordam berdi¹⁹. Mustaqillik yillarda 1 milliondan ortiq etnik qozoqlar mamlakatga mustaqil ravishda va davlatning ko'chirish dasturi doirasida qaytdilar²⁰. Ko'chib o'tganlar nafaqat aholi sonini ko'paytiradi,

¹⁹ Xorijdagi qozoqlar [Kirish rejimi: <https://e-history.kz/ru/scorm/course/414>].

²⁰ Chet elda yashaydigan qozoq diasporasi madaniyat sohasida qo'llab quvvatlashga muhtoj [Kirish rejimi: www.inform.kz/ru/kazahskoy-diaspore-za-rubezhom-nuzhna-podderzhka-v-sfere-kul-tury-talgat-mamashev_a3038836].

balki mamlakatning mehnat salohiyatiga ham katta hissa qo'shamdi. Ko'chib kelganlar orasida madaniyat, biznes va ilm-fan vakillari ko'p²¹.

Mehnat migratsiyasining salbiy tomonlaridan biri bu Markaziy Osiyo mamlakatlari demografiyasining nomutanosibligidir. Masalan, Tojikiston Respublikasidan bo'lgan o'rtacha statistik migrant 24-27 yosh, uylangan, o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumotli, jismoniy, har doim ham malakali bo'l'magan mehnat bilan shug'ullanadigan, yoki ishsiz, ma'lum qoniqarli uy sharoitiga ega, nisbatan past daromadli, ko'pincha kichik bir oilada yashaydigan, qarindoshlari, do'stлari, qo'shnilar va hamjamiyat bilan o'rtacha munosabatda bo'lgan, uzoq vaqt davomida Rossiya Federatsiyasida doimiy yashash imkoniyati bilan ishlaydigan erkak. Ushbu holat Tojikiston Respublikasidagi demografik vaziyatga, ya'ni tashlab ketilgan bolalar va xotinlarga, oilalarning parchalanishiga, tug'ilishning pasayishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mehnatga layoqatli aholining 1 milliondan oshig'i va birinchi navbatda erkaklar Rossiya Federatsiyasiga pul ishlash uchun emigratsiya qilishgan va shuning uchun mehnat migratsiyasi ko'llami demografik vaziyatni murakkablashtirmoqda, shunday qilib Tojikiston Respublikasida davom etayotgan mehnat migratsiyasi an'anaviy tojik oilasi institutining saqlab qolinishiga tahdid solmoqda.

Migrantlarning o'zлари ta'kidlaganidek, migratsianing salbiy tomoni, oilaviy munosabatlarning buzilishi, bolalar va qariyalarga g'amxo'rlik qilishning imkonи yo'qligi. Hozirgi paytda aholining katta qismi migratsiya tufayli alohida yashashadi, bu katta ijtimoiy xarajatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ko'plab mustahkam bo'l'magan nikohlar, oilaviy munosabatlarning buzilishi va migrantlar oilalaridagi ajralishlar Tojikiston Respublikasida xavotirli tendensiya bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, Tojikiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari ota-onalari chet elga ishlashga ketganligi sababli nazoratsiz qolgan o'smirlar va yoshlar orasida jinoyatchilik ko'payishini qayd etmoqda. Shunday qilib, Tojikiston Respublikasida mehnat emigratsiyasi mamlakat iqtisodiyoti, demografik vaziyat va ijtimoiy rivojlanish uchun bir xil bo'l'magan oqibatlarga ega²².

Migratsiya O'zbekiston Respublikasida bir qator salbiy ijtimoiy-demografik oqibatlarga olib keldi. Birinchi navbatda- bu ishchi kuchini yo'qotish, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida mehnatga qobiliyatli jami aholining 10% dan ortig'i mehnat migratsiyasiga jalb etilgan, ularning 60-65% Rossiya Federatsiyasida mehnat qilmoqdalar²³. Odatta ishlab pul topish uchun oilaning yosh a'zolari- erkaklar ketmoqda. O'zbekistonlik mehnat migrantlari faoliyatining asosiy yo'naliishlari: qurilish (23%), chakana savdo (18%), xizmat ko'rsatish va umumiyoq ovqatlanish (19%), qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalarli, transport²⁴. An'anaviy jamoa va oilaviy rishtalar mustahkamligi tufayli, O'zbekiston Respublikasidan borgan mehnat migrantlari asosan qisqa va mavsumiy sayohatlar strategiyasidan foydalananadilar. An'anaviy jamoa hayotiga odatlangan o'zbeklar mehnatsevarligi, spirtli ichimliklarni iste'mol qilmasliklari

²¹ Qancha qozog'istonliklar chet elda yashaydi? [Kirish rejimi: <https://diapazon.kz/news/16473-skolko-kazakhstancov-zhivet-za-rubezhom>].

²² Akramov Sh.Yu. Vazirov Z.K., Raxmonov A.X. Rossiya Federatsiyasiga Tojikiston Respublikasidan kelgan migrantlar: aholi soni va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini baholash // Nauchnoye obozreniye. 1 qism. Iqtisodiyot va huquq. 2018. 3-4 sonlari. 12-b.

²³ Denisenko M.B., Chudinovskix O.S. MDH mamlakatlari o'rtaidagi migratsiya. Demoskop Weekly. 533-534 soni (26.11.2012 – 9.12.2012) [Kirish rejimi: www.demoscope.ru/weekly/2012/0533/analit04.php].

²⁴ Maksakova L. O'zbekiston Respublikasi xalqaro migratsiyalar tizimida // Sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyingi o'zgarishlar: migratsiyaga ta'siri / J.A. Zayonchkovskaya va G.S. Vitkovskaya tomonidan tahrirlangan. – M.: Adamant. 2009 yil. 323-349 b.

bilan ajralib turadi, ammo ularning ishonuvchanligi, aqlga muvofiq va ehtiyotkorona harakat qilishning yetishmasligi ularni ko'pincha firibgarlik ob'ektiga aylantiradi.

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ichki, ayniqsa qishloqdan shaharga va tashqi- mamlakatlар орасидаги кatta migratsiya oqimi davrini boshdan kechirmoqda. Bu asosan Qozog'iston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va mintaqaning boshqa davlatlari va undan tashqaridagi mavsumiy mehnat migrantsiyasidir. Markaziy Osiyoga migrantsiya oqimining manba mamlakatlari Qирғизистон, Тоҷикистон ва О'збекистон Respublikasi bo'lib, ular aholining tez o'sishi va qishloq joylarda ishsizlik kabi rivojlanish muammolariga to'qnash kelmoqdalar. Qishloq xo'jaligi bandlik uchun yetaricha imkoniyatlarni ta'minlashga qobiliyatli emas, bu qishloq ayollari va erkaklarini, ayniqsa yoshlarni migrantsiyaga majbur qiladi. Shu bilan birga, yoshlar muayyan muammolar va xavf omillari bilan to'qnashmoqdalar, ularning ketishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan demografik vakuumni keltirib chiqarmoqda.

Chet elda ishlayotgan migrantlar o'zlarining oilalariga va qarindoshlariga pul o'tkazish va pul jo'natish imkoniyatiga ega bo'ladi, natijada ularning daromadi oshadi, turmush darajasi ko'tariladi va mahalliy iqtisodga chet el valyutasi kirib keladi. Pul mablag'lari, ehtimol tovar resurslari jo'natilishi hisobiga, migrantlarning oilalari o'z biznesini yo'llga qo'yish uchun boshlang'ich kapitalni yig'ishni boshlashi mumkin. Migrantsiya siyosatini davlat tomonidan tartibga solish, vatandoshlarning migrantsiyasini ikki tomonlama kelishuvlar darajasida tizimli va rejali tashkil etish ham mamlakat iqtisodiyotlarini valyuta bilan ta'minlashni rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu jarayonda Markaziy Osiyo mamlakatlarida kreditlash va migrantsiyani boshqarish sohasidagi tashabbuslarni mintaqaviy dasturlar shaklida amalga oshiradigan Jahon banki tashkilotlari Guruhi muhim tartibga soluvchi rolini bajaradi. Ular orasida maqsadi MDH mamlakatlarida migrantsiya va pul o'tkazmalari sohasidagi mutaxassislar va amaliyotchilar jamoasining faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan MiRPAL; asosiy maqsadi "mehnat migrantsiyasini tartibga solishni takomillashtirish orqali migrantlar uchun tirikchilik vositalari manbalarini kengaytirish va mehnat resurslarini nafaqat chet elga jo'natuvchi, balki qabul qiluvchi davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini oshirish orqali Markaziy Osiyoda kambag'allkni kamaytirishga yordam berishga yo'naltirilgan CARMP (keng qamrovi, zararlarni kamaytirish dasturi)" ham bor²⁵.

Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchi tadbirkorlik va kichik biznes bo'lib hisoblanadi. Mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari aholining bir qismida ushu salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun boshlanishga aylanmoqda. Qaytish migrantsiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlarining tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy strategiyalariga juda yaxshi mos tushmoqda. Shunday qilib, Qozog'iston Respublikasida ustuvorligi kichik tadbirkorlik hisoblangan mamlakat innovations tadbirkorligini rivojlantirish yo'lli tutilmoxda. Qozog'iston Respublikasining "Aholi migrantsiyasi to'g'risida"gi qonuni biznes immigratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi, bunda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun kelgan migrantlar biznes immigrantlar sifatida qaraladi va qonunning alohida me'yorlari ishbilarmon immigrantlarning kirishi uchun kirish va chiqish vizalarini berish shartlarini, biznes- immigrantlarning Qozog'iston Respublikasi hududida bo'lishva tadbirkorlik faoliyatini yuritish shartlarini tartibga soladi, shu bilan birga Qozog'iston Respublikasiga kirish vizalari Qozog'iston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va chet el muassasalari tomonidan beriladi.

²⁵ Migrantsiya va pul o'tkazmalari [Kirish rejimi: www.vsemirnybank.org/ru/region/eca/brief/migration-and-remittances].

Qozog'iston Respublikasining birinchi Prezidenti N.Nazarboyevning "Prezidentning beshta ijtimoiy tashabbusi" nomli nutqida tadbirkorlik tashabbuslarini malga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish vazifalari qo'yilgan. Ishlayotgan qozog'istonliklar uchun: soliq yukini 10 baravarga – 1% gacha kamaytirish, imtiyozli mikrokreditlar berish orqali o'zini o'zi band qilgan va ishsiz aholi orasida ommaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlar doirasida mikrokreditlar berishni kengaytirish. 2017 yilda 32 milliard tenge summasida 7200 ta mikrokredit berildi²⁶.

Samarali bandlik uchun shart-sharoitlar yaratish orqali o'zini o'zi band qilganlar va ishsizlarning daromadlarini ko'paytirish maqsadida 2017-2025 yillarga mo'ljallangan "Samarali bandlik va ommaviy tadbirkorlik" davlat dasturini amalga oshirish bu sohadagi yana bir muhim qadam bo'lib hisoblanadi²⁷.

O'zini tadbirkorlikda ko'rsatishga intilayotgan, xavf-xatarlardan qo'rqlmaydigan va o'zi hamda o'z oilasining farovon kelajagini ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olgan inson uchun Qozog'iston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar va qulay biznes muhitni shakllantirish, shubhasiz, qaytib kelish ehtimoli bo'lgan migrantlar uchun migrations jozibadorlikni oshirishga, ularning aynan Qozog'istonga qaytishiga imkon beradi. Qozog'iston Respublikasining davlat ichki siyosati mehnatga layoqatlari aholining o'zini o'zi band qilishi, o'z ishini rivojlantirish, "startap", fermer xo'jaliklari, xizmat ko'rsatish sohasidagi turli ustaxonalar, til mакtablari, yangi kasblarni o'zlashtirish yoki malaka oshirish bo'yicha o'quv kurslari va boshqalar uchun soliq imtiyozlari va boshlang'ich sarmoya olishni nazarda tutadigan kichik va o'rta biznesning tadbirkorlik faolligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Qozog'iston Respublikasida mehnat migrantlari bilan ishslash samaradorligini oshirish maqsadida migratsiya masalalari bo'yicha Vakolatlari organning yurisdiksiyasi sohasiga xorijlik ishchilarining markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasini shakllantirish; mehnat migrantlarining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish majburiyati kiritilgan²⁸.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, qaytish migratsiyasi Qиргизистон Respublikasida bandlikning yangi shakllarini rag'batlantiradi va qaytib kelayotgan migrantlar, hech qachon migratsiya qilmagan mahalliy aholidan farqli ravishda, ko'pincha o'zini o'zi band qiluvchiga aylanadi, ammo qaytgan migrantlar tomonidan o'zini o'zi band qilish vaqtinchalik holat ("vaqtincha to'xtab turish") deb qaraladi. Agar qaytib kelgan migrant migratsiyadan oldin o'zini o'zi band qilgan bo'lsa, u holda qaytib kelganidan keyin u oldin "o'ziga ishslash" ishini tanlash ehtimoli kam. Ushbu hodisaniнg ijobiy tomoni shundaki, bu olingan bilim va ko'nikmalarini eng maqbul tarzda qo'llash imkoniyatini izlash, shuningdek, ishbilarmonlik muhitida past qobiliyatli o'zini o'zi band qiluvchilar sonining kamayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin²⁹.

²⁶ Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N. Nazarboyevning xalqqa murojati "Prezidentning beshta ijtimoiy tashabbusi" [Kirish rejimi: https://strategy2050.kz/ru/news/51108/?phrase_id=13061223]

²⁷ Samarali bandlik va ommaviy tadbirkorlik. 2017-2025 yillarga mo'ljallangan dastur konsepsiysi [Kirish rejimi: <https://primeminister.kz/ru/documents/gosprograms/gosudarstvennaya-programma-razvitiya-produktivnoy-zanyatosti-i-massovogo-predprinimatelstva-na-2017-2021-gody-en-bek>].

²⁸ Qozog'iston Respublikasining "Aholi migratsiyasi to'g'risida" qonuni (2018 yil 26 dekabrda kiritilgan o'zgartirishlar va to'ldirishlar bilan) [Kirish rejimi: <https://online.zakon.kz/document/>].

²⁹ Bruk va boshq. Qaytish migratsiyasi va o'zini o'zi band qilish: Qиргизистон ma'lumotlari (Bruk T., Mahe S, Naude W.) Return Migration and Self-employment: Evidence from Kyrgyzstan. IZA Institute of Labor Economics. Bonn.) 2018. [Kirish rejimi: <http://ftp.iza.org/dp11332.pdf>].

3.3.3-misol Qирг'изистонning Batken viloyatida mehnat migratsiyasi va shaxsiy biznes tajribasi

5 yildan beri Batken viloyatidan Meder hamkorlari bilan birligida Isfanada qurilish mollarini sotish bilan shug'ullanadi. RFda 3 yil yuk tashuvchi va quruvchi bo'lib ishlaganidan ko'proq pul topadi. "Men Moskvaga chorasisz ahvolim sababli bordim: bu yerda ish yo'q edi, onam og'ir kasal edi, akam birinchi guruh nogironi edi", deb eslaydi Meder. Rossiya Federatsiyasida o'zining shaxsiy biznesi haqida orzu qilardi ("gastarbayter bo'lmaslik uchun"), shu sababli ota-onasi u jo'natgan pullarni yig'a boshladi. Ushbu tejalgan omonat yordamida Meder biznes ochishga muvaffaq bo'ldi. U o'z biznesini rivojlantirarkan, tobora ko'proq yurtdoshlari chet elga ishlashga ketayotganini ko'radi. "Mamlakatimizda vaziyat yaxshilanmagani uchun ko'p odamlar u yerda qolishadi", deb qo'shimcha qiladi Meder³⁰.

Qaytish migratsiyasi Turkmaniston iqtisodiyotiga investitsiyalarni jaib qilish va shunga mos ravishda migrantlarning o'z bizneslarini ochish, shuningdek mamlakat iqtisodiyotiga malakali mutaxassislarini jaib qilish nuqtai nazaridan muhim hissa bo'llib hisoblanadi. Chet elda o'qish va ishslash davomida, migrantlar mamlakatga qaytgandan keyin qo'llashlari mumkin bo'lgan mutaxassislik, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishadi. Asosan, qaytib kelganlardan keyin ular kichik biznes bilan shug'ullanadilar, o'z bizneslarini ochishni, xususiy tijorat sohalariga ishga joylashishni afzal ko'rishadi. Mamlakatda bir qator rag'batlantiruvchi omillar, shu jumladan ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartibi, patent olish va soliqqa tortish imtiyozlari; qishloq xo'jaligida imtiyozli kreditlar berish va boshqalarni nazarda tutadigan kichik biznes to'g'risida qonun³¹ hujjatlari mavjud. Qaytgan migrantlarning salohiyatidan joylarda qishloq xo'jaligida faol foydalanilmoqda³², masalan, qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligidan tashqari maqsadlarda (xizmatlar va qishloq xo'jaligi sohasi) yer uchastkalari tadbirkorlarga o'z bizneslarini amalga oshirish uchun 99 yilgacha muddatga foydalanishga taqdim etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi amaliyotida ish bilan bog'liq muammolarga duch kelgan odamlardan tashqari, mehnat migratsiyasida tadbirkorlar ham qatnashadi. Tadbirkorlik faoliyat turlariga jaib qilinib, ular o'z bizneslari uchun boshlang'ich sarmoyalarni ishlab topishga intilishadi. Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi tadbirkorligida ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyat tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va bu investitsiya sarmoyasining o'sishi hamda iqtisodiyot sohasiga qo'shimcha ishchi kuchini jaib qilish bilan birga yuz bermoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, chet elda ishlagan ko'plab migrantlar tadbirkorlik faoliyatiga kirishishgan. Mehnat migrantlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, ularning atigi 6-7% ishlab topgan pullarini ishlab chiqarishga sarflab, o'z biznesini boshlash niyatida³³. Migrantlar ishlab topgan pullarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflaydilar, yangi ish o'rinnari yaratadilar, boshqa odamlarni ish va maosh bilan ta'minlaydilar, bu respublikada ishsizlik va kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirishning haqiqiy omilidir. Ayrim mehnat migrantlari topgan

³⁰ Qирг'изистон mehnat migratsiyasining muammolari va paradokslari. [Kirish rejimi: <https://kloop.kg/blog/2018/08/23/strana-izhdivenii-kyrgyzstan-vyzhivaet-na-dengi-migrantov-no-ne-umeet-ih-tratit/>].

³¹ 2004 yil 25 oktyabrdagi Turkmaniston Soliq kodeksi (200-modda) 2014 yil 1 martdagи 49-V-soni va 2016 yil 15 oktyabrdagi o'zgarishlar bilan // Turkmaniston Prezidentining aktlari va Turkmaniston Hukumatining qarorlari to'plami. 2015 yil fevral 6-sonli. 3680-modda.

³² Turkmaniston Prezidentining 2013 yil 6 martdagи "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'risida" qarori // Turkmaniston Prezidenti aktlari to'plami va Turkmaniston hukumati qarorlari. 2013. 3-sonli. 2465-modda.

³³ Maksakova L.P. O'zbekistonda migratsiya va mehnat bozori // Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi migratsiya va mehnat bozori. Mintaqaviy seminar materiallari (Toshkent, 2001 yil 11-12 oktyabr) / Maksakova L.P. tomonidan tahrirlangan, M. – Toshkent. 2002 yil. 35-b.

pullarini uy-joylarni ta'mirlash, yangi uylar qurish, kvartiralari sotib olishga sarfladilar, oziq-ovqat, keng iste'mol mollari, uy-joy, ta'limga bo'lgan asosiy ehtiyojlarni faol ravishda qondira boshladilar, mollar importi o'sdi, bu esa O'zbekiston Respublikasida bozor savdosi o'sishini rag'batlantirdi. Mehnat migrantlari kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanirish uchun nisbatan kam mablag' sarflaydilar: ba'zi migrantlar yoki ularning qarindoshlari tomonidan kichik bizneslar (novvoyxonalar, qahvaxonalar, do'konlar va boshqalar) ochilgan. Bundan tashqari, qaytib keladigan mehnat migrantlari O'zbekiston Respublikasiga yangi biznes texnologiyalarini olib kelmoqdalar, natijada bu tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlanirishga turtki bo'lmoqda, mehnat migrantlari o'z ishini ochish va rivojlanirish uchun ham mablag' kiritmoqdalar. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida aholining tadbirkorlik salohiyatini amalga oshirish uchun imtiyozli soliq sharoitlari yaratilmoqda, bu mehnat migrantlarining oilalarini o'z bizneslarini rivojlanirishga rag'batlantirmoqda. Masalan, ko'plab tashabbuslar mahalliy darajada – mahalla qo'mitalari darajasida amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish bo'yicha katta ish olib borilmoqda, bu turli investitsiya loyihalariga pul o'tkazmalarini keng jalg qilish va ularning investitsion salohiyatini oshirishga yordam beradi. Muhim omil – bu migrant oilalarga investitsiya qilish amaliyotini o'zlashtirishda yordam berish, mintaqalarda iqtisodiyotga sarmoya qilish uchun pul o'tkazmalarining salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish imkonini beradigan yetarli va oddiy mexanizmlarni yaratish: mehnat migrantlarining investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun bank-moliya tizimini fayllashtirish, ularning pul o'tkazmalarini depozit omonatlariga jalb qilishdan manfaatdorligini oshirish, mikrokreditlar tizimini rivojlanirish, oilaviy biznesni tashkil etishga qaratilgan soliq imtiyozlarini joriy etish va aholining investitsiya jarayonlarida ishtirok etishdan manfaatdorligini oshiradigan boshqa chora-tadbirlar. 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rak O'zbekiston Respublikasida dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari amaldagi kichik biznes sub'ektlari soni 238,5 mingni tashkil etdi (2001 yilda atigi 99,4 ming). Kichik biznes sub'ektlarining umumiy sonidan 8 % ini kichik korxonalar va 92% ini mikrofirmalar tashkil etadi.

Markaziy Osiyo davlatlari aholining tadbirkorlik salohiyatidan foydalanishlari kerak. Mehnat migrantlarining oilalarini o'z ishlariga sarmoya kiritisga rag'batlantiradigan imtiyozli soliq sharoitlarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Xorijga mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyo mamlakatlariga iqtisodiyotni rivojlanirishning yangi modellariga o'tish imkoniyatini beradi.

XMgT xodimlari va ko'ngillilari Xalqaro migrantlar kuniga bag'ishlangan axborot-ma'rifat kampaniyasi doirasida Dushanbe aeroportida axboriy varaqalar bilan ortoqlashmoqdalar.

Surat: XMgT Tojikiston, 2017



Nazorat savollari:

- Chet elda ishlayotgan migrantlar Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotiga qanday demografik va ijtimoiy-iqtisodiy hissa qo'shadi?
- Mintaqangizdagagi yoki aholi yashash joyidagi migrantlar qanday demografik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishi mumkin?
- Pul o'tkazmalari milliy va mahalliy rivojlanishda qanday rol o'ynaydi?
- Mintaqangizda yoki aholi yashash joyida mehnat migrantlarining pul o'tkazmalariga nimalar qurilgan? Misollar keltiring.
- Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi qaytib kelgan migrantlarning salohiyatini mahalliy rivojlanishga jalg qilishga yordam beradigan turli dasturlarga misollar keltiring. Sizning nuqtai nazaringizga ko'ra qaysi dasturlar samaraliroq va mintaqangizda qo'llanilishi mumkin?

Amaliy mashg'ulot:

"Mehnat migratsiyasining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishi uchun oqibatlari" ishbilarmonlik o'yini.

I bosqich: "Miya hujumi" guruhlarida ishlash. Auditoriyani 2 ta jamoaga bo'lish zarur. Mehnat migratsiyasining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlariga taalluqli atamalar ro'yxatini tayyorlash bo'yicha jamoalarga bo'linib ishslash tashkilshtiriladi (5-10 daqiqa). Har bir jamoa o'z ro'yxatini tayyorlaydi va tushuntirishlar bilan taqdimot qiladi.

II Bosqich: Atamalar ro'yxatini tartiblash bo'yicha jamoalarga bo'linib ishslash. Atamalarni ahamiyat darajasi bo'yicha saralash kerak, eng muhim beshtasini ajratib ko'rsatish va aynan nima uchun ular muhimligiga javob berish zarur.

III bosqich: SWOT-tahlil Auditoriya 4 guruhga bo'linadi SWOT tahlili – bu jarayonning kuchli va kuchsiz tomonlarini, shuningdek jarayonni tashkil qilishda imkoniyatlar va tahdidlarni tahlil qilish. Birinchi guruh mehnat migratsiyasi jarayonining mamlakat uchun kuchli tomonlari yoki afzalliklari ustida ishlaydi. Ikkinchi guruh mehnat migratsiyasi jarayonlarini tashkil etishning zaif tomonlarini tavsiflaydi. Uchinchi guruh mehnat migratsiyasining mavjud imkoniyatlarini belgilaydi. To'rtinchi guruh mehnat migratsiyasining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarini aniqlaydi.

IV bosqich: mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida migratsiyaning o'rni. Ilgari bo'llingan 4 ta guruhda ishlash. SWOT tahlili ma'lumotlari asosida "Beshta nega?" 1) Nega? vositasi yordamida mehnat migratsiyasini tartibga solishning samarali jarayonini tashkil etishdagi qiyinchiliklarning sabablari aniqlanadi. Mehnat migratsiyasi jarayonini tashkil etish masalalarini hal qilishda samarasiz qarorlar qabul qilinmoqda; 2) Nega? Mehnat migratsiyasi jarayonida tajribaning yetishmasligi; 3) Nega? Mehnat migratsiyasini tashkil qilish bo'yicha qaror qabul qilishda xato qilishdan qo'rquamiz; 4) Nega? Mehnat migratsiyasining muammolarini aniq ta'riflash va aniqlash juda qiyin; 5) Nega? Mehnat migratsiyasini boshqarish masalalarida vaziyatlar va istiqbolli yechimlar tahlil qilinmagani.

Qo'shimcha tarzda guruhlarga quyidagi savollar taklif etiladi: 1) Agar sizda "Nega?" bor bo'lsa? 2) Yana qanday "Nega?" bo'lishi mumkin?

Ish natijalariga ko'ra guruhlar taqdimot qiladilar.

Asosiy adabiyot:

1. Bekyashev D.K. Majburiy va mehnat migratsiyasini xalqaro-huquqiy tartibga solish. – M.: Prospekt, 2014. 392 b.
2. Gavrilova T. Zamonaviy jamiyatda xalqaro migratsiya va bandlik. – M.: Mir, 2012. 232 b.
3. Migratsiya va milliy davlat. – M.: Mustaqil ijtimoiy tadqiqot markazi, 2016. 216 b.
4. Markaziy Osiyo mamlakatlarda mehnat migratsiyasi, pul o'tkazmalari va inson rivojlanishi. Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun inson taraqqiyotiga oid bir qator tahliliy qaydlar. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va Yevroosiyo Taraqqiyot Banki (YTB). – Istanbul: BMTTDning Yevropa davlatlari va MDH bo'yicha mintaqaviy ofisi. 2015. 81 bet. [Kirish rejimi: [www.undp.org/content/dam/rbec/docs/CAM&RHDpaper\(eng\)FINAL.pdf](http://www.undp.org/content/dam/rbec/docs/CAM&RHDpaper(eng)FINAL.pdf)].
5. Sadovskaya Ye.Yu. XXI asr boshlarida Markaziy Osiyoda xalqaro mehnat migratsiyasi (Qozog'iston Respublikasi misolida). – M.: Sharq kitobi (Sharq-G'arb, Chumoli), 2013. 410 b.

Qo'shimcha adabiyot:

1. Alayeva G.T. Migratsiya qonuning shakllanishi va rivojlanishi. Xalqaro siyosiy-amaliy konferensiya materiallari "Globallashuv sharoitida siyosiy va huquqiy tartibga solishning dolzarb muammolari" (28.02.2014). – Olmaota. "Turon" universiteti. 243-247 b.
2. Akramov Sh.Yu. Vazirov Z.K., Raxmonov A.X. Rossiya Federatsiyasiga Tojikiston Respublikasidan kelgan migrantlar: aholi soni va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini baholash // Ilmiy tahlil. 1 qism. Iqtisodiyot va huquq. 2018. 3-4 sonlari. 10-18 b.
3. Gender tengligi, Markaziy Osiyoda yoshlar va migratsiya: ehtiyojdan harakatlarga. FAOning Yevropa uchun mintaqaviy konferensiyasi. 31-sessiya (2018 yil 16-18 may, Voronej, Rossiya Federatsiyasi).
4. Denisenko M.B., Chudinovskix O.S. MDH mamlakatlari o'rtasidagi migratsiya. Demiskop Weekly. № 533-534 (26.11.2012 – 9.12.2012) [Kirish rejimi: www.demoscope.ru/weekly/2012/0533/analit04.php].
5. Ikromov D.Z. Markaziy Osiyo mamlakatlardan xalqaro mehnat migratsiyasining Rossiya Federatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya: 08.00.14. – Sankt-Peterburg, 32 yil. 32-b.
6. Qozog'iston: tashqi iqtisodiy aloqalar va siyosat // Migratsiya. 255-256-sor. 29.03.2018 [Kirish rejimi: <http://ranking.kz/ru/a/infopovody/kazahstancy-stali-chashe-poluchat-dengi-iz-za-rubezha-v-1-kvartale-2017-kolichestvo-tranzakcij-vyroslo-pochti-na-20-obem-denezhnyh-perevodov-v-rk-uvelichilsya-na-27>].

7. Maksakova L.P. O'zbekistonda migratsiya va mehnat bozori // Markaziy Osiyo mamlakatlari dagi migratsiya va mehnat bozori. Hududi seminar materiallari. Toshkent, 2001 yil 11-12 oktyabr / Maksakova L.P. tomonidan tahrirlangan, M. – Toshkent. 2002 yil. 180 bet.
8. Maksakova L. O'zbekiston Respublikasi xalqaro migratsiyalar tizimida // Sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyingi o'zgarishlar: migratsiyaga ta'siri / J.A. Zayonchkovskaya va G.S. Vitkovskaya tomonidan tahrirlangan. – M.: Adamant. 2009 yil. 323-349 b.
9. 2013-2016 yillarda MDH mamlakatlari milliy mehnat bozorlarining holati monitoringi. – M.: MDH davlatlararo statistika qo'mitasi, 2017. 213 b. [Kirish rejimi: http://www.cisstat.com/eng/Monitoring_labour2013-2016.pdf].
10. Mukomel V.I. Migrantlarning moslashuvi va integratsiyasi // Rossiyada migratsiya 2000–2012. Xrestomatiya: 3 jilddan iborat 1-jild, 2-bo'lrim / Rossiya xalqaro ishlar kengashi notijorat tashkiloti; I.S. Ivanova tomonidan umumiy tahrirlangan; Ma'sul tahrirchi J.A. 695-b.
11. Ryazantsev S. Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotini rivojlantirishda mehnat migratsiyasining roli. – M., 2016 yil. 40-49 b.
12. Ryazantsev S. Iqtisodiy inqiroz sharoitida Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat migratsiyasi. // Valday qaydlari. 55 soni. Avgust 2016. 58-b. [Kirish rejimi: <http://ru.valdaclub.com/files/22140/>].
13. Tieme S. Qayerga qaytish lozim? Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida qishloq va shaharning o'zaro aloqalari. Tahviliy qaydlar. AMOU ijtimoiy tadqiqotlar markazi. [Kirish rejimi: https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Susan_rus.pdf].
14. Migratsiya va pul o'tkazmalari, Jahon banki (Migration and Remittances Fact book 2018, 3hd Edition, Washington DC, The World Bank), 2018, 320-b.
15. Bruck T., Mahe C., Naude W. Return Migration and Self-employment: Evidence from Kyrgyzstan. IZA Institute of Labor Economics. Bonn. 2018. [Kirish rejimi: <http://ftp.iza.org/dp11332.pdf>].

Videolavhalar:

1. Rossiyada mehnat migrantlari muammolari. Butun haqiqat [Kirish rejimi: www.youtube.com/watch?v=pRhGK-0h-mw].
2. Rossiyaga migrantlar kerak-mi? Moskva ko'chalarida o'tkazilgan so'rovnama [Kirish rejimi: www.youtube.com/watch?v=ACCw2VeqVC8].
3. Haqiqiy fribgarlar yoki Rossiyadagi ish beruvchi o'zbekistonlik mehnat migrantlarini qanday qilib aldagani [Kirish rejimi: www.podrobno.uz/cat/obchestvo/nastoyashchie-moshenniki-ili-kak-rab/].

3.4. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaytuvchi migrantlarning moslashish va reintegratsiyasi muammolari

Mundarija. Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaytib kelgan migrantlar integratsiyasining ijtimoiy-madaniy, diniy va til jihatlari. Qaytib kelgan migrantlarning sog'liq salohiyati. Qaytib kelgan migrantlarning oilalarining ahvoli, oilaviy munosabatlardagi buzilish, bolalar va o'smirlarni ota-onasiz tarbiyalash muammolari, Markaziy Osiyoda parchalangan oilalarning muammolari.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida ixtiyoriy qaytish va reintegratsiya migrantlarning o'zlariga, shuningdek IQRYni amalga oshiradigan barcha ishtirokchilarga samarali yordam berish uchun muhim bo'lgan ko'plab jihatlarga ega. Shu o'rinda, qaytib kelgan migrantlari integratsiyasining ijtimoiy-madaniy, diniy va til jihatlarini, shuningdek, qaytib kelgan migrantlarning sog'liq salohiyatini, oilalarning buzilishi va bolalar tarbiyasi muammolarini alohida ta'kidlash kerak. Asosan ushbu jihatlar integratsiya, reintegratsiya va moslashuv jarayonida Rossiya va Qozog'istonda bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan migrantlar uchun eng qiyin hisoblanadi.

Migrantlarning integratsiyasi deganda *shunday jarayon tushuniladiki*, uning natijasida migrantlar mahalliy sotsium tomonidan yakka va guruh darajasida qabul qilinadi hamda migrantlar madaniy aynan o'xshashligini saqlagan holda, guruhlar va qabul qiluvchi muhit uchun muhim etnik bo'lмаган asosda qabul qiluvchi muhit bilan yagona hamjamiyatga birlashishi nazarda tutiladi¹. Migrantlarning integratsiyasi bilan bir qatorda *ularning moslashishi va reintegratsiyasi juda muhim*.

Moslashuv ikki yoqlama ko'rib chiqilishi mumkin: integratsianing boshlang'ich davri va migrantlar, ularning hamjamiyatlarining mahalliy aholi bilan o'zaro munosabatlari strategiyasi sifatida. Migrantlarning moslashuvi deganda, *o'z me'yoriy va qadriyatlar tizimini* (me'yorlar, an'analar, urf-odatlar va boshqalar) saqlab qolgan holda doimiy (vaqtincha) yashash uchun yangi yashash joyiga o'mashish va o'zlarining shaxsiy (yakka, oilaviy) ehtiyojlari va manfaatlarini qanoatlantirish maqsadida, migrant xulqi va yurish-turishining jamiyatda ustunlik qiluvchi me'yorlar va qadriyatlar tizimiga moslashish jarayonini ham natijasini ham tushunish mumkin².

Migrantlar kelib joylashgan hududiga moslashgan taqdirda, migrant o'z tarixiy vatanida ijtimoiylashuv jarayonida o'zlashtirgan urf-odatlar, an'analar, me'yorlar va qoidalarni saqlab qolgan holda, migrantlarning yangi muhitning qadriyatları va me'yorları tizimini boyitishi mumkin. Moslashuv mexanizmini shakllantirishning asosi bo'lib qarindoshlik, do'stlik, qo'shnichilik, yurtdoshlik, ma'lum bir millatning, umumiy tarixiy o'tmishning, madaniyatning (qarash, e'tiqod tizimlari va boshqalar) vakili sifatida bir birlariga e'tirofi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy migrantlar va migrant bo'lish

¹ Mukomel V.I. Migrantlarning moslashuvi va integratsiyasi. Rossiyada 2000-2012 yillar migratsiyasi. 3 jildan iborat xrestomatiya 1-jild, 2-bo'lim Rossiya xalqaro ishlar kengashi Notijorat Tashkiloti I.S. Ivanova tomonidan umumiy tahrirlangan Ma'sul tahrirchi J.A. Zayonchkovskaya. M.: Maxsus kitob, 2013 695-b.

² Shu yerga qarang, 695-b.

ehtimoli bor shaxslar, hamda ularning atrofidagi kishilar o'rtasidagi o'zaro ishonchli munosabatlar hisoblanadi. Resurslar almashinuvi (axborot, moddiy va nomoddiy boyliklar) bunday mexanizmni qo'llashning bir usuli bo'lib hisoblanadi.

Migrantlarning *reintegratsiyasi deganda* migrantlarning o'zi avval tarkibiga kirgan mahalliy hamjamiyatiga qayta integratsiyasini tushunish kerak, ammo nafaqat mazkur hamjamiyatda, balki migrantlarning o'zlaridagi muayyan o'zgarishlar tufayli ular ijtimoiy, psixologik, moliyaviy, huquqiy, madaniy va boshqa jihatlardan moslashuvni o'z ichiga oladigan chora-tadbirlarga ehtiyoj sezadilar.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tavsya etilishi mumkin bo'lgan mehnat migrantlarining reintegratsiyasi va reabilitatsiyasi bo'yicha xalqaro tajriba mavjud. Migrantlarga xizmat ko'sratishning turli shakllari va mexanizmlari mavjud bo'lib, ular to'laqonli fuqaroni jamiyatga kelgusida mehnat faoliyatini amalga oshirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda faol ishtirok etish uchun qaytarishga yo'naltirilgan. Filippin tajribasi ijobji misollardan biri bo'lib hizmat qila oladi.

Misol 3.4.1. Filippinda qaytib kelgan migrantlarni ishga joylashishga yordam berish orqali reintegratsiya qilish

Filippinda mehnat migratsiyasi masalalari bilan shug'ullanadigan Mehnat va bandlik Vazirligi tuzilmasida migrantlar va ishsiz fuqarolarni qabul qilish va ularga yordam berish departamenti faoliyat yuritadi. Har yili kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, shuningdek tegishli ish haqi bilan yangi ish o'rinnarini yaratish uchun davlat byudjetidan qisqa muddatli kreditlar ko'rinishida kamida 400 million peso (taxminan 85 million AQSh dollari) ajratiladi. Ushbu masala va natijali shaffof faoliyatning samaradorligi shundan iboratki, har yili Filippindagi ishsizlik darajasi 1% pasayadi va bunday muvaffaqiyat jahon ekspertlarining ijobji bahosini oldi.

IQRYni amalga oshirish jarayonida reintegratsiya va moslashuv muammolari migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlar uchun ham, migrantlar qaytayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarbdir. Markaziy Osiyo mamlakatlarda reintegratsiya va moslashuv muammolari turli xil mezonlarga ega, ammo umuman olganda ular bir xil omillarni qamrab oladi: *ijtimoiy-madaniy, diniy va til, psixologik va huquqiy*. Shu bilan birga, jo'natuvchi yoki qabul qiluvchi mamlakatlarning tabiatি reintegratsiya va moslashuv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Faqat barcha partiyalar va mamlakatlarning samarali hamkorligi tufayli IQRYlarni samarali amalga oshirish mumkinligini tushunish juda muhimdir. Shu o'rinda, migrantlar qolgan mamlakatlarda, xususan, Qozog'istonda va ularni qabul qiluvchi mamlakatlarda – Qиргизистон, Тоҷикистон, Туркманистон ва О'збекистонда migrantlarning reintegratsiyasi va moslashuvi muammolariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Qozog'iston migrantlar boradigan asosiy va muqobil xususiyatga ega mamlakatdir, shuning uchun moslashuv va reintegratsiya muammolari shu o'rinda ko'rib chiqildi. Shunday qilib, Qozog'istonda migrantlarning maqomi, ularning huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi ichki va tashqi migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi huquqiy baza ishlab chiqildi. Migratsiya sohasidagi amaldagi qonun hujjalarning tahlili shuni ko'ssatadiki, qaytish migratsiyasi asosan tartibga solinmagan maqomga ega mehnat migrantlarini majburiy qaytishiga nisbatan nazarda tutiladi. Nozik vaziyatlarda bo'lgan migrantlarga nisbatan Qozog'iston Respublikasining milliy qonun aktlari tatbiq etilmaydi. Ixtiyorli qaytish faqat tarixiy repatriantlarning qaytishi va aholining janubiy, zinch joylashgan tumanlaridan

mamlakatning shimoliy hududlariga ichki migratsiyasi to'g'risidagi huquq normalarida aks etgan: Qozog'iston Respublikasining 2011 yil 22 iyuldag'i 477-IV sonli "Ahолининг миграцияси тоғ'рисида" qonuni, 1991 yil 20-dekabrdagi 1017-tonli "Qozog'iston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida" qonuni, Qozog'iston Respublikasi Sog'lioni saqlash va ijtimoiy taraqqiyot vazirining 2016 yil 14-iyundagi 515-tonli "Ishchi kuchi harakatchanligini oshirish uchun odamlarni ixtiyoriy ko'chirish Qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" Buyrug'i va boshqa shu kabi hujjatlar.

Qozog'istonda yashayotgan migrantlarning tartibga solinmagan maqomi bunga jiddiy to'siq bo'lib hisoblanadi. Viza rejimi va hatto mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun milliy rejim yo'qligiga qaramasdan (Qиргизистондан kelgan migrantlar uchun), Qozog'istondagi migrantlarning aksariyati noqonuniy yashashi va (yoki) mehnat faoliyatini amalga oshirishi sababli eng zarur xizmatlardan (birinchi navbatda tibbiy) foydalanish imkoniyatidan mahrum.

Qozog'iston migrantlar boradigan asosiy mamlakatidir, ammo so'nngi yillarda ko'pincha muqobil yoki tranzit mamlakati bo'lib qolmoqda. Bunga sabab Rossiya Federatsiyasining immigratsiya qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar – ma'muriy huquqbazarliklarni sodir etgan xorijliklarning mamlakatga qayta kirishiga taqiqlarning kiritilishi, shuningdek Rossiya iqtisodiyotining girdobsimonligi bo'ldi. Ushbu vaziyat Markaziy Osiyo mamlakatlaridan bo'lgan mehnat migrantlari -1,5 milliondan ortiq kishining besh yilgacha Rossiyaga qaytib bora olmasligiga olib keldi³.

Bundan tashqari, Qozog'istonda ko'p uchraydigan yondashuv migratsiya oqimlarining milliy iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish va yuqori malakali mehnat migrantlarini mamlakatning mehnat bozoriga jalb qilish bo'lib hisoblanadi. Natija umuman, shu jumladan, Qozog'istonga qaytib kirish rad etishlishidan shok holatiga tushgan migrantlar guruhi uchun ham cheklovchi ma'muriy choralarining kuchaytirilishi bo'ldi. Ko'pincha, Qozog'istonga kelganda, migrantlar o'zlarini yo'qotib tushkunlikka tushib qoladilar. Bu umuman ularning zaifligini kuchaytiradi, bundan tashqari, hatto barcha hujjatlari bo'la turib migrantlar navbatdagi ro'yxatdan o'tishni va ularni huqiquy xarakterdagi maydondan olib chiquvchi tartiblarni o'tkazib yuboradilar Tadqiqotlarga ko'ra, shu kabi migrantlar yashirin zo'ravonlik, hiyla-nayrang va ehtimol radikallahuv qurbaniga aylanish xavf-xatariga duchor bo'ladilar⁴. Ushbu qismda reintegratsiya jarayonida radikallahuv muammo va hatto tahlikaga aylanishi haqidagi Markaziy Osiyodagi tadqiqotlarga havolalar (4) mavjud. Ushbu tadqiqotlar, hiyla ishlatalishiga ta'sirchan va aniq migratsiya strategiyasiga ega bo'lмаган migrantlarda radikallahuv ehtimoli ko'proq bo'lishini ko'rsatadi. Ular borgan mamlakatida jamiyatga yomon integratsiyalashadilar. Ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarga qo'shimcha ravishda, ular ijtimoiy adolatsizlik hissini boshdan kechirishadi, chunki ularning huquqlari uyda ham, borgan mamlakatlarida ham poymol qilinadi. Bu, shuningdek, radikallahuvga turtki beradigan omildir.

Shu bilan birga, migrantlar ma'lum bir madaniy shokni boshdan kechirishadi va tillarning (qirg'iz va o'zbek tillari) qozoq tiliga yaqin bo'lishiga qaramasdan til bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Tojikistondan qaytib kelgan migrantlar bu borada ko'proq muammolarga duch kelishadi. Tillarni bilmaslik, tartibga

³ Migrantlarning himoyasi bo'shligi va Markaziy Oziyoga migratsiyaga bo'lgan ehtiyoji Qaytish migratsiyasining asosiy sabablar va ijtimoiy-iqtisodiy natijalari. Markaziy Osiyoda mintaqaviy tabiiy sharoitda baholash. 2016. 9-b. [Kirish rejimi: <https://kazakhstan.iom.int/publications>].

⁴ Shu yerga qarang, 30-b.

solinmagan maqom, shuningdek huquqiy savodxonlikning pastligi faqat norasmiy vositachilarga murojaat qilish va sog'liq uchun xavfli ish sharoitida eng kam maosh beradigan ishlarni bajarishga majbur qiladi.

Gender jihatlar ayniqsa ta'sirchan jihat bo'lib qolmoqda. Feminizatsiya allaqachon barqaror tendensiyaga aylangan, bu hodisa qaytish migratsiyasiga ham taalluqli. Yosh bolalari bilan qolgan ayollar hayotning barcha qiyinchiliklarini boshdan kechiradilar, bolalarni tarbiyalashda muammolarga duch kelishadi, ularni ko'pincha qarovsiz qoldirishga to'g'ri keladi.

Har ikki jinsdagi yosh migrantlarning muammolarini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Qaytib keluvchi barcha migrantlarga xos bo'lgan umumiy muammolardan tashqari, ushbu guruh eng zaifidir, chunki yoshlar o'zlarini qabul qiluvchi yoki jo'naturvchi mamlakatlar jamiyatining bir qismi deb his qilmaydilar. XMgT tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu vaziyatda bo'lgan yosh migrantlar nafaqat radikallahuvga, balki kriminallashishga ham, shu jumladan Qozog'istonda ham moyil⁵.

Qozog'istondagi barcha qaytib kelgan migrantlar uchun juda muhim muammo ularning sog'liq ahvoli va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligidir.

Tibbiy xizmatlardan foydalanish bo'yicha Qozog'iston qonun hujjatlariga binoan (Qozog'iston Respublikasi xalq sog'ligi va sog'lijni saqlash tizimi to'g'risidagi kodeksining 88.5-moddasi), faqatgina aholi uchun xavf tug'diradigan yuqumli kasalliklar mavjud bo'lgan taqdirda, tartibga solingan maqomga ega bo'lgan mehnat migrantlari bepul tibbiy xizmatdan foydalanishlari mumkin⁶. MDH mamlakatlaridan, shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlaridan kelgan migrantlarga, ularning migratsiya maqomidan qat'i nazar, favqulodda holatlarda bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi. Boshqa hollarda, mehnat migrantlari tibbiy xizmatlardan pullik foydalanish imkoniyatiga ega.

Tartibga solingan maqomga ega Qирг'изистондан kelgan mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari Qozog'iston sog'lijni saqlash tizimidan Qozog'iston fuqarolari bilan bir xil darajada va bir xil sharoitlarda foydalanish imkoniyatiga ega. Bu Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi to'g'risidagi shartnomada ko'zda tutilgan⁷. Aslida, qирг'изистонлик migrantlarning aksariyati oldindan kelishuv tuzmasdan Qozog'istonda ishlaydi. Shu sababli ular cheklolvlsiz tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lib, faqat favqulodda holatlarda bepul tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, Qирг'изистондан kelgan migrantlar ko'pincha Tojikiston va O'zbekiston migrantlari bilan bir xil vaziyatga tushib qolishadi.

Barcha migrantlar uchun tibbiy xizmatdan foydalanishi cheklanganligining boshqa sabablari moliyaviy to'lovga qobiliyatsizligi, shuningdek, kasalxonaga murojat qilgan paytda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan ushlanishdan qo'rqishidir.

Bundan tashqari, Qozog'istonda aholini ro'yxatga olish tizimi joriy etilgan, unga ko'ra har bir kelgan shaxsning STIR, shaxsiy identifikatsiya raqami bo'llishi kerak (bunga doimiy yashash huquqiga ega bo'limgan chet el fuqarolari uchun soliq xizmati javobgar bo'ladi). Ko'p sonli tartibga solinmagan

⁵ Migrantlarning himoyasi bo'shligi va Markaziy Oziyoga migratsiyaga bo'lgan ehtiyoji Qaytish migratsiyasining asosiy sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy natijalari. Markaziy Osiyada mintaqaviy tabiiy sharoitda baholash. – 2016 – 38-b

⁶ Qozog'istondagi maqomsiz va huquqsiz mehnat migrantlari. Sentabr. 2016 [Kirish rejimi: www.fidh.org/IMG/pdf/note_kazakhstan_681r_6_sept_2016_ru_web.pdf].

⁷ Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risida shartnoma (Ostona shahrida 29.05.2014 yilda imzolangan) 15/03/2018 y. dagi tahriri [Kirish rejimi: www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_163855].

maqomiga ega mehnat migrantlari ro'yxatdan o'tmaganlilari yoki mamlakatdan chiqarib yuborilish vahimasidan kelib chiqqan turli xil ta'qiblardan qo'rqiishi tufayli bu raqamni ololmaydilar⁸. Bir tomonidan, ushu tizim xizmatlardan umuman foydalanishni istisno qilmaydi, masalan, xizmatlar tijorat asosida taqdim etiladi, ammo boshqa tomonidan, bu cheklovchi omil hisoblanadi.

Qaytib kelgan migrantlarning tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati cheklanganligini hisobga olgan holda, mehnat migrantlarining sog'lig'i yomonlashishi muammosi dolzarb bo'llib qolmoqda. Buning sababi⁹ yashash va mehnat sharoitlarining yomonligi, mehnat migrantlari ko'pincha ishlab chiqarishdag'i baxtsiz hodisalar qurboni bo'lishadi, yuqumli kasalliklarga duchor bo'ladi yoki ularning kasalliklari ma'lum vaqt o'tgach, yordam ko'rsatish qiyinlashtirilgandan keyingina yuzaga chiqadi. Ko'pincha migrantlar, shu jumladan, vataniga qaytganlar, odam immunitet tanqisligi virusi (OIV) yoki sil kabi kasalliklar to'g'risida kam ma'lumotga ega yoki umuman ma'lumotga ega emas, diagnostika testlaridan o'tish imkoniga ega emaslar, qo'rquv yoki moliyaviy resurslarning yetishmasligi sababli ularni chetlab o'tishadi yoki e'tiborsiz qoldiradilar. 2015 yildagi ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, migrantlarning 15% gacha sil kasalligiga chalingan yoki OIV infektsiyasini yuqtirganlar¹⁰.

Shunday qilib, Qozog'istonda qaytib kelgan migrantlarning reintegratsiyalashish va moslashish jarayoni ijtimoiy-madaniy, shu jumladan tilni (bilmaslik) bilish, shuningdek ularning ma'naviy va psixologik salomatligi bilan bog'liq bo'lgan bir qator omillar bilan murakkablashadi. Ushbu omillarning barchasini qaytgan migrantlarni reintegratsiyalash va moslashtirish jarayonlarida hisobga olish kerak.

Markaziy Osiyoning qabul qiluvchi mamlakatlariga kelsak, qaytib kelgan migrantlarning jamiyatga va milliy mehnat bozoriga reintegratsiya qilishi muhim vazifaga aylanmoqda, chunki Qирг'изистон, Тоҷикистон, Туркманистон ва О'збекистон учун qaytish migratsiyasi tobora muhim ahamiyatga ega hodisaga aylanmoqda. Ko'pchilik qaytayotgan migrantlar chet elda orttirgan yangi ko'nikma va malakalar bilan kelishmmoqda. Qaytib kelayotgan migrantlarning reintergatsiyasida qaytish sabablarini, qaytishdag'i mayjud muammolar va xavflarni tahlil qilish muhim rol o'ynaydi.

Radikallahuv ehtimolini jiddiy muammo sifatida asoslash

Mahalliy mehnat bozorlarining torligi, ishsizlik va qashshoqlik, shuningdek, yangi hayotiy vaziyatlar tufayli paydo bo'lgan kuchli ruhiy stressni hisobga olgan holda, Rossiyaga qayta kirishga ruhsat berilmagan migrantlar eng zaif guruhlardan biriga aylanadilar va terrorist, ekstremist va jinoiy guruhlar tomonidan yollanib qolish xavfiga duchor bo'lishadi¹¹.

Bunda Qирг'изистон fuqarolarining jangarilar va ularning oila a'zolarining urush hududlaridan qaytish migratsiyasi alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, Qирг'изистон Respublikasiga qaytib kelgan migrantlarning ushu toifasini reintergatsiya qilish uchun dasturlar mayjud emas. Shuni yodda tutish

⁸ Qozog'istondagi maqomsiz va huquqsiz mehnat migrantlari. Sentabr. 2016 [Kirish rejimi: www.fidh.org/IMG/pdf/note_kazakhstan_681r_6_sept_2016_ru_web.pdf].

⁹ Migrantlarning munosib va samarali ish bilan ta'minlanishini monitoring qilish. Ma'ruba. Ostona. 2018 [Kirish rejimi: <https://redcrescent.kz/wp-content/uploads/2018/10/Doklad-po-dostupu-migrantov-k-dostojnomueffektirnomu-trudoustrojstvu-Krasnyj-Polumesyats-RK.pdf> yoki <https://kkassiyet.files.wordpress.com/2019/02/reportaccesstolabour2018redcrescent.pdf>].

¹⁰ Qozog'istondagi maqomsiz va huquqsiz mehnat migrantlari. Sentabr, 2016 [Kirish rejimi: www.fidh.org/IMG/pdf/note_kazakhstan_681r_6_sept_2016_ru_web.pdf yoki <https://kkassiyet.files.wordpress.com/2019/02/reportaccesstolabour2018redcrescent.pdf>].

¹¹ Qaytish migratsiyasi va Markaziyo Osiyodagi tahdidlar: 2017-yil xatarlar tahlili. Qozog'iston, 2017. – 12-b.

kerak-ki, migrantlarning mumkin bo'lgan radikallashuvining oldini olishda reintergatsiya masalalarida jamoat, norasmiy yetakchilar muhim rol o'yaydi.

Misol 3.4.2. Qirg'izistonga qaytayotgan migrantlar reintergatsiyasida imomlarning roli

Imomlar jamoatni muhtoj bo'lgan migrantlarga yordam berishga chaqiradi. Shu sababli migrantlar salafitlar safiga qo'shilib ketmaydilar.

Qaytayotgan ko'p migrantlar mustaqil ravishda ish topa olishmaydi. Bunday vaziyatda bandlikka ko`makkashish tashkilotlari bunday migrantlarning radikallashuvining oldini olish usullaridan biri sifatida oldindi qatorga chiqadi. Muammoni hal etishning usullaridan biri sport tadbirlari va sport klublarini tashkillashtiruvchi tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Tashabbuskor fuqarolar tavba qilgan sobiq jangarilar bilan birgalikda maktab o'quvchilari uchun uchrashuvlar yushtiradilar.

Kimdir Suriyadan qaytgan, biroq jang qilmaganligi tasdiqlangan vatandoshlariga shaxsan yordam beradi. Kimdir organlar (militsiya) tomonidan ta'qib qilinishidan himoya qilish maqsadida vositachi vazifasini bajarishga ham tayyor.

Odatda migratsiyada yosh va o'rta yoshdag'i odamlar ishtirok etishadi, ularning farzandlari esa buvi va buvalari bilan qolishadi. Shu tarzda, oilalarda ijtimoiy-psixologik munosabatlar sezilarli darajada o'zgaradi. Ota-onalar va bolalarning bir-birlaridan uzoq vaqt ayrilishlari salbiy oqibatlarga olib keladi: ta'lif muassasalariga qatnash davomati pasayadi, o'zlashtirish yomonlashadi, bolalarda psixologik muammolar paydo bo'la boshlaydi, qariyalar haqida g'amxo'rlik qilishning iloji bo'lmay qoladi¹².

Qirg'iziston Davlat doirasida qaytish dasturi bo'yicha faoliyat yuritgan qayrilmanlar reintegratsiyasi to'g'risida alohida eslab o'tish joiz.

Misol 3.4.3. Tog'li Afg'onistondan Qirg'izistonga etnik qirg'izlarning reintegratsiyasi

Afg'on Pomiri hududida qariyb yuz yildan buyon qirg'izlar istiqomad qilishadi. Faqtgina hozir ularda mutlaqo boshqa bir hayot borligini bilish imkoniyati tug'ildi. Qirg'izistonda ko'chib ketgan kishilarni qaytarish dasturi ishga tushdi. Vatani Qirg'izistonga hozircha 49 nafar kishi qaytib keldi. Har bir oilaga turar joy bilan yordam berishdi. Ko'pchilik uchun bu ilk bor bo'ldi. Misol uchun, televizor. Ko'p bolaning onasi bo'lgan Jamba Pomiri yana bir bor farzand tug'di, u hayotida ilk bor tug'ruqxonaga tushdi, ilk bor ginekogni ko'rди. «13 ta farzandimdan olitasini ko'mganman. Tug'ilishi bilan kasal bo'lishardi va hayotdan ko'z yumishar edi. Bizning o'qimagan buvilarimiz bola onasidan qo'rqqan va o'lgan deyishardi. Shunchaki bizda shifokorlar yo'q. Eng yaqin afg'on shahriga yetib borish uchun sakkiz kun qo'tos yoki tuyada tushish kerak. Qishda esa barcha yo'llar qor bilan yopilib qolar edi, umuman o'tib bo'lmas edi. Tug'ayotganda bir birimizga doyalik qilamiz. Shu sababli bizda ayollar kam, ko'pchiligi tug'ish paytida halok bo'lishadi» – deb so'zlab berdi bu ayol. Erkaklar esa ba'zida ko'chib kelganidan afsuslanishadi. Bo'sh yerlarni so'rashadi, chorvalarni haydar kelishni istashadi. Aks holda qanday qilib oila boqish mumkin? Afg'onistonda qarindoshlari qolib ketdi deb havotir olishadi. Hammasi ham hujjatlarni rasmiylashtira olishmagan¹³.

¹² Tieme S. Qayerga qaytish lozim? Ichki va tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida qishloq va shaharning o'zaro aloqalari. Tahliliy qaydlar. AMOU Ijtimoiy tadqiqotlar markazi. [Kirish rejimi:https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Susan_rus.pdf].

¹³ Uy tomon mashaqqatli yo': Pomir qirg'izlarining qaytishi. Mir-24 IA. 2018 yil 8 aprel [Kirish rejimi:<https://mir24.tv/articles/16299948/trudnaya-doroga-domoi>].

Qirg`iziston hukumati tomonidan ko`chib kelgan etnik qirg`izlar uchun pensiya pullari va ijtimoiy nafaqa olish masalalari oxirigacha ko`rib chiqilmagan¹⁴. Mahalliy hokimiyat va aholi tomonidan hech qanday ish olib borilmayapti. Buning natijasida – qayrilmalarning ortga, Afg`onistonga qaytib ketish holatlari ham mayjud. Bunday jarayon uchun alohida ibora yo`q, biroq bu muvaffaqiyatsiz reintegratsiyaga yaqqol misoldir.

Misol 3.4.4. Tog`li Afg`onistondan kelgan etnik qirg`izlarning Qirg`izistonda reintegratsiyalashishidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar.

«Ishlash uhun ishtiyoyq yo`q, zero biz bu yerda hech kimni bilmaymiz. Biz bilan kelgan qarindoshlarimiz har xil shaharlarga bo`lib yuborishdi. Agar biz birga bo`lganimizda bir ish bilan shug`ullanardik. Pomirda hukumat bizga yordam bermas edi, barchasini o`zimiz qilar edik, chorva hisobiga kun ko`rardik. Bu narsalar bilan bu yerda ham shug`ullansa bo`ladi, biroq biz hech ko`nika olmayapmiz», – deb Jeenbek uulu so`zlab berdi.

Kochkor tumani Kara- Too qishlog`ida istiqomad qilayotgan Islamiddin Nasriddin uulu ham o`z oilasi bilan ishsiz o`tirbdi. U pomirlik qirg`izlar chorvachilik bilan aloqador bo`lmagan ishda ishlashmoqchiligini yashirmayapti. «Chorvani begona yerda ko`paytirish oson emas. U boshqa joyga o`tlab ketsa, bizga g`alati qarashadi. Rostini aytsam chorva boqishni hoxlamayman, Bu juda ham qiyin. Taksi haydovchisi, yoki payvandchi bo`lishni istardim, biroq bu uchun o`qish kerak, – deydi Nasriddin uulu. – Men tog`larda ishlab topgan pullarimni kvartira uchun berdim, kerakli oziq-ovqatlar sotib olayapmiz. Bu yerda hamma joyda pul kerak. Buning ustiga bizning uyda yolg`iz men ishlayman. Pul ovqatga yetishi uchun ish, arzonroq uy izlayman». Pomir qirg`izlarishuni ta`kidlab o`tishmoqda-ki, ijaraga olingan uy uchun to`lovni oshirishga mablag`lari bo`lmagan sababli ortga qaytishlariga to`g`ri kelishi mumkin. «Agar hukumat bizlarga yer ajratib bersa, biz Pomirdagi chorvalarimizni sotib, o`zimizga uy qurib olamiz. Aks holda biz bu yerda ortiq yashay olmaymiz», – dedi Nasriddin uulu¹⁵.

Shunday qilib Qirg`izistonda migrantlarning reintegratsiyalashishi va moslashish muammolari anche oldin xalqaro miqyosda ko`rib chiqilishi kerak va hal etilishikerak bo`lgan jiddiy muammolar to`plamidir. Muntazam ravishda joylarda NNT, davlat idoralari va xususiy sektorlar ishtirokida katta ishlar olib borilmoqda. Ayni aytda hal etish kerak bo`lgan hali ko`p kamchiliklar va muammolar mavjud.

Tojikiston migratsiya siyosatidagi migrantlarning reintegratsiyasi masalalariga yetarada jiddiy e`tibor qaratilmoqda. Aylanma migratsiya jarayoni Respublika aholisining tashqi mehnat migratsiyasining asosiy qismlaridan biriga aylandi. Mehnat migrantlarining asosiy qismi mavsumiy ishlarga borishadi va ish yakunida o`z yurtlariga qaytishadi. Ammo qaytgan ko`p migrantlar o`zlarini keraksizdek his etishadi va jamiyatning to`laqonli a`zosi bo`lish uchun nima qilishni bilmay qolishadi, ish topishni, o`z hayotlarini yaxshilashni va o`z biznesini boshlashni istashadi. So`ngi yillarda ma`muriy javobgarlikka tortilgan va Rossiya Federatsiyasiga qayta chiqish huquqidan mahrum bo`lgan Tojikiston fuqarolari soni 275 ming kishidan oshdi. Shu sababli, so`ngi yillarda davlatda Tojikistonga qaytgan va deportatsiya qilingan mehnat migrantlarining reintegratsiyasi mexanizmini tuzib chiqishga urinish ishlari olib borilgan.

¹⁴ XMgT, Qirg`iziston – kengaytirilgan migratsiya profili. Bishkek. 2018. 37-38 b. [Kirish rejimi:<https://iom.kg/wp-content/uploads/2011/07/Migration-Profile-2018-in-Russian.pdf>].

¹⁵ Yurtimizga ketamiz – Pomir qirg`izlari nimadan norozi? Videolavha. Sputnik Qirg`iziston. 2018 yil 13-iyul [Kirish rejimi:<https://ru.sputnik.kg/video/20180710/1040104513/kyrgyzstan-pamirske-kyrgyzy-video-zhizn.html>].

Shuni ta'kidlab o'tish kerak-ki, so'ngi yillarda qonun hujjatlari bazasi bilan bir qatorda mehnat migrantlarining reintegratsiya markazlarini yaratishga harakat qilingan. 2010 yil iyul oyida ACTED xalqaro dasturi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Yevropa Komissiyasi tomonidan Mehnat, migratsiya va aholi bandligi Vazirligining ijtimoiy himoya, bandlik va migratsiya bo'yicha Davlat Agentligi bilan hamkorlikda moliyalashtiriladigan «Salohiyatni oshirish va ma'lumot almashinuvi» loyihasi doirasida, mehnat migratsiyasining qishloq jamoalarining o'sishi va rivojanishiga ijobiy ta'sirni kuchaytirish maqsadida mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish Markazini yaratish bo'yicha ishlar boshlandi.

Ushbu markaz vataniga qaytayotgan mehnat migrantlarining ijtimoiy va kasbiy reintegratsiyalashishini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan. Markazning asosiy vazifalari: qaytib kelayotgan migrantlarga individual maslahatlar taqdim etish, kasbiy ko'nikmalarni baholashda yordam berish, qaytgan migrantlarni ishga joylash, mehnat migrantlariga shaxsiy biznesini ochishda ko'maklashish. Keyinchalik Markazning filiallari Tojikistonning Sug'd va Xatlon viloyatlarida ishga tushdi. Mehnat migrantlarini reintegratsiyalash Markazlari qisqa muddat ichida cheklangan miqdordagi mablag'lar bilan tashkil topgan. Ushbu markazlarning maqsadi va tashkil topishi – deportatsiya qilingan migrantlarning jamiyat hayotiga integratsiyasi va tegishli davlat organlarining aholining ushbu toifasiga yordam ko'rsatishga tayyorligining yaqqol namunasi bo'ldi. Reintegratsiya Markazlarining asosiy muammolari quyidagilardir: deportatsiya qilingan migrantlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasining yo'qligi; aholi bandligi markazlari muttaxasislari va ruhshunoslarning tegishli malakaga ega emasligi; mablag' bilan ta'minlashning cheklanganligi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha muammolar tegishli tuzilmalarning muvofiqlashtirilgan tarzda faoliyat yuritishi orqali hal qilinishi mumkin, bu mumkin bo'lgan vazifalarning bir-birini takorlashiga yo'll qo'ymaslik, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, deportatsiya qilingan migrantlarning ma'lumotlar bazasini yaratishga asos solish va umumiylar sinergik samaraga erishish uchun vakolatlarni taqsimlashga imkon beradi.

Yana bir muhim muammo mutaxassislarning aholi bandligi markazlarida ixtisoslashishi va ruhshunoslarning yo'qligi bo'lib hisoblanadi. Muttaxassislarning malakasini qisqa muddatli treninglar orqali qisqa vaqt ichida oshirish mumkin, biroq past oylik maosh sababli ularni ish o'rinalarda saqlab qolish dargumon.

Shu sababli, yetarli darajada mablag'lar ajratmasdan vaziyatning keskin o'zgarishini kutmaslik kerak. Shu bilan birga, mablag'larning ko'payishi bilan bir qatorda, qiyomat va sarf-xarajatlarni tahlil qilib, hozirgi paytda ajratilayotgan mablag'lardan samarali foydalanishiga ham e'tibor qaratish lozim.

Reintegratsiya markazlarini tashkil etish davlat tuzilmalari shug'ullanmaydigan va ijtimoiy-huquqiy yordamga muhtoj bo'lgan shaxslar toifasi uchun alohida ahamiyatga ega. Shuningdek shu kabi markazlar mehnat migrantlari va ularning oilalariga har tomonlama yordam berishlari va zarur xizmatlarni ko'rsatishlari lozim. Tojikiston Respublikasidagi mehnat migratsiyasining ko'lami yuz minglab odamlarni tashkil etadi, shuning uchun bu kabi yordamga ko'plab odamlar muhtoj deb fikr yuritish mumkin. Mehnat migratsiyasi, shuningdek mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi sohasidagi bir qator hal etilmagan muammo va masalalarni hisobga olgan holda ushbu loyihaning amalga oshirilishi natijalar olib kelishi aniq. Ekspertlarning baholashlariga ko'ra, Tojikiston migrantlari zaif va mehnat bozoridagi raqobatga tayyor emas, shu sababli ularga yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash faoliyati ko'p qirrali va benihoya kengdir.

Bunday omillarni inobatga olgan holda, reintegratsiya Markazining vazifasi qaytib kelayotgan migrantlarga individual maslahat taqdim etishi, kasbiy malakalarini baholashda va ish bilan ta'minlashda yordam ko'rsatishdir. Shuningdek shaxsiy biznes ochayotganda qo'llab-quvvatlash, mehnat va bandlik agentliklariga qaytib kelgan migrantlarni ishga joylashtirishlarida yordam ko'rsatish, migratsiya jarayonlarining monitoringi, baholash va prognoz qlish, aholi migratsiyasi masalalarini tartibga solish yuzasidan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish joiz-ki, Tojikistonning davlat organlari va jamoatchilik sektori bo'lib o'tgan fuqarolik urushidan keyin to'plangan migrantlarni mamlakat ichida reintegratsiya qilish bo'yicha ancha boy tajribaga ega.

Mehnat migrantlarinin reintegratsiyalash Markazlarining yana bir muhim vazifasi bo'lib o'qitish va turli xil muttaxasisliklar bo'yicha kurslar tashkil etish hisoblanadi. Biroq ushbu markazlar xohlovchi barcha mehnat migrantlariga ta'lil xizmatlarini taqdim eta olmaydi. Shuning uchun kasbiy-texnik ta'lil tizimini mehnat migrantlarining ehtiyojlariga, hatto yuqori malakali texnik muttaxasislar va amaliy muttaxasisliklar tayyorlashgacha qisman qayta yo'naltirish zarur.

Qaytgan mehnat migrantlarining fikrlarini tahlil qilgan va mehnat migrantlarini reintegratsiyalash markazlari ekpertlarining fikrlarini o'rgangan holda, ushbu markazlar asosiy vazifalardan tashqari quyidagi vazifalarni ham bajarishlari mumkin:

- qaytib kelgan migrantlarni har kuni qabul qilish va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish, ta'lil yakunida guvohnoma yoki sertifikat taqdim etiladigan profesional tayyorlov markazlarida ta'lil yoki qayta ta'lil olish; Tojikiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli qanday bo'lismidan qat'i nazar tashkilot va korxonalarga ishga joylashish borasidagi barcha masalalar yuzasidan individual maslahatlar berish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish sohasida qo'llab-quvvatlash, ushbu sohadagi muammolarni hal etish mexanizmini tushuntirish, shuningdek mamlakat iqtisodiyotining turli sohalaridagi bo'sh ish o'rnlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etish;
- mavjud ma'lumotlar va ma'lumotlar bankini o'z vaqtida berishni inobatga olgan holda qaytib kelgan mehnat migrantlarining zarur ko'nikmalarni egallashi va ishga joylashtirish, ularning reintegratsiya va rehabilitatsiya jarayonlaridan o'tishlariga amaliy yordam berish bo'yicha masalalar sohasida migratsiya xizmatining hududiy tuzilmaviy bo'linmalariga ko'maklashish;
- mulkchilik shakli qanday bo'lismidan qat'i nazar Tojikiston Respublikasidagi tashkilotlar va korxonalar to'g'risida, ushbu ish beruvchilardan rasmiy ravishda kelib tushgan arizalar asosida qaytib kelgan mehnat migrantlarini ishga qabul qilish va ishga joylashtirish to'g'risida ma'lumotlar to'plash;
- vataniga qaytgan Tojikiston Respublikasi fuqarolarni ish bilan ta'minlash maqsadida Tojikistonga xorijiy ishchi kuchini jalb qilish bilan shug'ullanadigan tashkilotlar va korxonalar, firmalar va xususiy agentliklar to'g'risida ma'lumot to'plash;
- mehnat migrantlari va ish beruvchilar uchun bo'sh ish o'rnlari va ish takliflari to'g'risidagi ma'lumotlar bankidan erkin foydalanish imkoniyatini taqdim etish, mehnat migrantlariga munosib ish topishda va ish beruvchilarga qaytib kelgan mehnat migrantlari orasidan zarur ishchilarni tanlashda yordam berish;

- ijtimoiy-iqtisodiy saviyasini oshirish va kasbiy ko'nikmalarini yanada rivojlantirish maqsadida mehnat migrantlari markaziga murojaat qilgan mehnat migrantlari hisobini yuritish va ma'lumotlar bankini tuzish va hisobot yuritish;
- migratsiya jarayonlarini monitoring qilish, baholash va prognoz qilish, Tojikiston Respublikasi hududidagi aholi migratsiya masalalarini tartibga solish bo'yicha ish olib boruvchi tegishli davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ishlar olib borish;
- ishchilar (qaytib kelgan mehnat migrantlari) va ish beruvchilar ma'lumotlar bazasining ishlab turishi va yangilanishiga ko'maklashish;
- Tojikiston aholisini ish bilan ta'minlash sohasidagi real vaziyatni hisobga olgan holda ishchi kuchiga bo'lgan talab va ehtiyojni o'rganish va prognoz qilsih;
- qaytayotgan migrantlarning aksariyati qishloqlik ekanligini inobatga olgan holda, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda loyihamar ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish hamda shu orqali tegishli ish haqi bilan yangi ish o'rinnarini tashkil etish masalalarini hal etish;
- mehnat migrantlarining mablag'larini mamlakat iqtisodiyotini, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga jalg etish, turli xil ishlab chiqarishlarni tashkil etish va shu tariqa qaytayotgan mehnat migrantlarini doimiy ish bilan ta'minlash bo'yicha shahar va tumanlardagi davlat hokimiyatining ijro etuvchi organlari (hokimiyatlar) bilan hamkorlik qilish;
- migratsiya masalalari bo'yicha konferensiylar, seminarlar, uchrashuvlar o'tkazish, tushuntirish-ma'lumot berish ishlarini olib borish, migratsiya sohasida ma'lumot materiallarini chop etish, ommaviy axborot vositalari ishtirokida tadbirlar tashkil etish;
- Markazning belgilangan bir sohasidagi masalalarni hal etish uchun ilmiy va boshqa tashkilotlarni, olim va muttaxasislarni jalg etish.

Vakolatlar tegishli tuzilmalar/ manfaatdor tomonlar orasida barcha darajalarda aniq taqsimlangansa va topshirilsa, tegishinchaligining mablag'lar bilan ta'minlansa, mavjud mablag'lardan ehtiyojlar va talablarni, foyda va xarajatlarni inobatga olgan holda foydalansila, mablag'lar bilan ta'minlash manbai aniqlansa, barcha vazifalarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Buning uchun ma'lumotlar toplashning samarali sxemasi va deportatsiya qilingan migrantlar to'g'risida ishchonchli ma'lumotlar bazasini yaratish lozim.

Tojikistonda mehnat migratsiyasi ko'laming ancha kengligini hisobga olgan holda, hozirgi paytda ko'pchilik mehnat migrantlari reintegratsiyasi markazi kabi institutning qo'llab-quvvatlashiga muhtojligini ta'kidlash mumkin. Reintegratsiya markazlarining tuzilishi asosan ijtimoiy-huquqiy yordamga muhtoj shaxslar, shuningdek, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolariga har tomonlama yordam va xizmat ko'rsatish uchun katta ahamiyatga ega.

Turkmanistonga qaytayotgan migrantlarning reintegratsiyasi bir tomonidan chet elda olingan ijobjiy malakaga; ikkinchi tomonidan – davlat ichidagi sharoitlariga bog'liq. Turkmanistonga qaytgan migrantlarning aksariyati ijtimoiy-madaniy, diniy va til jihatlari bilan bog'liq moslashish va reintegratsiyalashish borasida unchalik muammolarga duch kelishmaydi.

Ma'lum bir muammolar asosan odam savdosi qurbaniga aylanib qolgan shaxslar, yoki sog'ligida muammosi bor shaxslarga taalluqli bo'ladi. Ushbu nochor fuqarolar toifasiga aniq yordam Turkmanistonning Odam savdosiga qarshi kurashish milliy harakat Rejasi (2016 yil) doirasida taqdim etiladi. Chet eldan sog'lig'idagi muammolari tufayli qaytayotgan shaxslar tegishli tibbiy yordamdan imtiyozli shartlar asosida, shu jumladan bunday xizmatlarning umumiyligi qiyamatidan 50%lik chegirma bilan foydalanishlari mumkin. Shubhasiz migratsiya mamlakatlarida ular qimmat bo'lgani sabablari tibbiy xizmatlardan yetarli darajada foydalana olishmaydi, bu esa migrantlarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

²¹ Qirg'iz diasporalari va xorijdagi vatandoshlarning ekspertlar ro'yxatini xaritalash. Tadqiqot to'g'risida tahvililik hisobot. Bishkek. 2016. 52-b.

²² XMgT, Qirg'iziston – kengaytirilgan migratsiya profili. Bishkek. 2018. 172-b.

Tojik diasporasi. Tojik diasporasining tarixi ko'p asrlarga borib taqaladi. Ularning kelib chiqishini eramizning 2-mingga yil boshlarida, So'g'dlar Hindiston va Xitoyda o'z mustamlakalarini o'rnatgan paytlarida ko'rish mumkin. VII asrning ikkinchi yarmida arab istilochilarining ta'qiblaridan qochib, zardushtiylig dinining izdoshlari, eronzabon xalqlar ushbu mamlakatlarda panoh topganlar. Turli sabablarga ko'ra tojiklarning ommaviy ko'chib ketishi ularning tarixining keyingi davrlarida ham kuzatilgan. Tojik xalqining tarixi diasporalar tarixi bilan, shuningdek, tojiklarning Xitoy, Afg'oniston, Eron, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston hududlariga joylashishi bilan uzviy bog'liqdir. Asosan, tojik diasporalari Irredenta Terra tamoyili asosida shakllangan (italyan tilidan – "ozod etilmagan yerlar", yoki ularning ota-bobolari yashaydigan hududlarda yashaydigan milliy ozchiliklar), ya'ni diasporaning shakllanishi chegaralarning o'zgarishi tufayli yuzaga kelgan.

Hozirgi kunda dunyoda 24 milliondan 30 milliongacha etnik tojiklar yashaydi, shu jumladan Afg'onistonda – 9,8 milliondan 11,5 milliongacha, Tojikistonda – 7 million, O'zbekiston – 1,5 dan (rasmiy ma'lumotlarga ko'ra) 8 milliongacha (norasmiy hisob-kitoblarga ko'ra), Pokistonda – 1,2 million, Eronda – 388 ming, Rossiya – 300 dan 980 minggacha, Germaniyad – 100 ming, AQShda – 76 ming, Xitoyda – 53 ming, Qирг'изистонда – 52 ming, Buyuk Britaniyada – 40 ming, Qozog'istonda – 32 ming, Shvetsiyada – 26 ming, Ukrainada – 7,4 ming, Turkmanistonda – 5,3 ming, Belgiyada – 5 ming, Italiyada – 4,8 ming, Finlyandiyada – 3,5 ming, Gollandiyada – 3,4 ming, Kanadada – 2,4 ming, Polshada – 2 ming kishi.

Tojikistonning rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, vaqtincha ishlash uchun 420 ming kishi mamlakat tashqarisida, shu jumladan Rossiya Federatsiyasida 413 mingdan ortiq, Qozog'istonda 4 ming, Qирг'изистон, Belorussiya va O'zbekistonda 2 ming kishi Ukrainada – taxminan 1 ming kishi bo'lgan. Ushbu ma'lumotlar statistik va sotsiologik taddiqotlar natijalariga to'g'ri kelmaydi. S. V. Ryazantsevning ma'lumotlariga ko'ra Tojikistonning 600 mingga yaqin fuqarosi mehnat migratsiyasida qatnashgan, ularning 85 foizi aynan Rossiyaga ishlash uchun bormoqda²³. Juhon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2010 yilda Tojikistonda 791 ming kishi yoki mamlakat aholisining 11% dan ko'prog'i chet elda bo'lgan²⁴. Ushbu baholashlarning davriy uzoqlikda bo'lismiga qaramay, ular deyarli o'zgarmadi.

Tojik mehnat migrantlari Rossiya Federatsiyasining deyarli barcha viloyatlarida ishlaydi. Ularning aksariyati kichik va o'rta biznes sohalarida mehnat qiladi. Rossiya Federatsiyasida tojikistonlik mehnat migrantlarining ikki guruhini ajratish mumkin. Birinchisi – ko'pchilik- mavsumiy ishchilar. Ularning oqimi bahor va yozda Rossiya Federatsiyasiga qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida ishlash uchun borganlarida ortadi. Agar mavsumiy bandlik haqida gap ketadigan bo'lsa, bu odatda Rossiya iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida faoliyat sohalari pasayadigan qish mavsumidir. Kuzda ular uylariga qaytadilar. Taxminiy baholashlarga ko'ra, Rossiya Federatsiyasining ayrim viloyatlarida mavsumiy migrantlarning taxminan 75-80 foizi aynan tojiklarga to'g'ri keladi²⁵.

Tojik migrantlarining ikkinchi guruhi – Rossiya Federatsiyasida uzoq vaqt ishlagan va ishlayotgan, ammo to'liq huquqiy maqomga ega bo'limganlardir. Ko'pgina migrantlar qonuniy ravishda,

²³ Ryazantsev S. V., Xorie N. Markaziy Osyo mamlakatlaridan Rossiyaga mehnat migratsiyasining oqimlarini modellashtirish: Iqtisodiy-ijtimoiy taddiqotlar. M.: Ilmiy olam. 2011. 35-b.

²⁴ Migratsiya va pul o'tkazmalar, Juhon banki (Migration and Remittances Factbook. Washington. World Bank.)2011. 235-b.

²⁵ Ryazantsev S.V., Krasinets E.S. Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat migratsiyasining hozirgi zamon tendensiyalari va iqtisodiy samarasи. Ilmiy sharh. 1 qism. Iqtisod va huquq. 2016. № 5. 5-14 b.

shuningdek, patentni rasmiy ro'yxatdan o'tkazmasdan yoki yashash joyida, qurilishda, xizmatlarda, uy-joy kommunal xizmatida ro'yxatdan o'tmasdan ishlaydi. Tojikistonlik mehnat migrantlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, migrantlarning aksariyati (qariyb 69%) Rossiyada og'zaki kelishuv asosida ishlagan. Mehnat migrantlarining faqat chorak qismi yozma mehnat shartnomasi asosida ishlaganlar. Shuningdek, respondentlarning atigi 23 foizidagina Rossiyada ishlashga ruxsat bo'lgan²⁶.

Rossiyadagi tojikistonlik mehnat migrantlarning ko'pchiligini erkaklar tashkil qiladi. So'nggi paytlarda ushbu jarayonning feminizatsiyasi kuzatilgan bo'lsa-da: Tojikistondan Rossiyaga migratsiya oqimida, yakka o'zi yoki turmush o'rtoq'i, otasi, akasi va boshqa oila a'zolari bilan ishlashga kelayotgan ayollar soni ortib bormoqda. Migrantlar orasida bolalari bilan kelgan oilalar yoki ayollarni kundan kunga ko'proq uchratish mumkin. Rossiya Federatsiyasi, qabul qiluvchi mamlakat sifatida, oilaviy migratsiyadan manfaatdor bo'lishi kerak. Chunki oilaviy, ayniqsa bolalar bilan qilingan migratsiya ko'p jihatdan migrantlarning qabul qiluvchi muhitga integratsiyalashishiga sabab bo'ladi; qulay psixologik muhit yaratadi; madaniy munosabatlarning yo'qotilishining oldini oladi, migrantlarning marginalizatsiyasiga qarshi harakat qiladi. Shu bilan birga, ayollar, ayniqsa bolalar bilan birga kelgan ayollar, qabul qiluvchi jamiyatning migratsiyasi va ijtimoiy institutlariga (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy kafolatlar tizimidan erkin foydalanish)bir qator maxsus talablarni qo'yadilar va mezbon jamoaga va uning ijtimoiy mas'uliyatiga ma'lum qarshiliklarni tug'diradilar.

Rossiya Fanlar akademiyasining Sotsiologiya instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra (so'rovlар 2004 yilda Moskvada, 2005 yilda Moskva, Samara va Astraxan shaharlarida o'tkazilgan), tojikistonlik ko'plab mehnat migrantlari Rossiya Federatsiyasiga safar qilish va u yerdagi ish faoliyati mobaynida katta qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Jumladan, respondentlarning taxminan 53 foizi Rossiya Federatsiyasiga borishda eng katta muammo chegara o'tish joylarida hujjatlarni tekshirish ekanligini, respondentlarning qariyb 44 foizi bojxona xodimlari, chegarachilar va politsiya tomonidan qonunga xilof yig'imlar undirilishini aytishdi²⁷.

Tojikistondan kelgan migrantlar orasida bolalari bo'lgan oilalar Rossiya fuqaroligi yo'qligi sababli katta qiyinchiliklarga duch kelgan holatlar juda ko'p. Masalan, agar er Rossiya Federatsiyasining fuqarosi bo'lsa, bu uning xotini va bolalariga avtomatik ravishda Rossiya hududida hech qanday huquqiy maqom bermaydi. Natijada, o'z mavqeini qonuniylashtirish uchun, xotin har patent olishi, yoki har uch oyda Rossiyadan chiqib qaytib turishi kerak. Tojikiston fuqaroligi bo'lgan migrantlarning bolalari uchun Rossiya Federatsiyasining yirik shaharlaridagi maktablarda va bolalar bog'chalarida ta'llim olish muammoli masala bo'lib qolmoqda. Tojikiston fuqarolari Rossiya Federatsiyasida vaqtinchá yashash uchun ruxsat va yashash guvohnomasini olish uchun murojaat qilganda ham ko'plab byurokratik to'siqlar saqlanib qolmoqda. Hattoki turmush o'rtoq'i Rossiya Federatsiyasi fuqarosi bo'lgan taqdirda ham. Holbuki Rossiya Federatsiyasidagi hozirgi demografik vaziyatda asli Tojikistonlik Rossiya fuqarolarining turmush o'rtoqlari va bolalari – Rossiyaning ba'zi viloyatlari aholisi sonini to'ldirish uchun yaxshi manba bo'lishi mumkin.

²⁶ Ryazantsev S. V. Rossiya migratsiya siyosatining ustuvorliklari. Ilmiy sharh. 1 qism. Iqtisod va huquq. № 6. 2015. 34-39 b.

²⁷ Akramov F. Sh. Demografik vaziyat va Tojikistondan Rossiyaga mehnat migratsiyasi // Rossiyada chet el ishchilarini jalb qilish va ularidan foydalanish amaliyoti: tendensiyalari, mexanizmlari, texnologiyalari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2006 yil 16-17 oktyabr) / Mas'ul tahrirchi S. V. Rzyantsev. M. 2006. 5-10 b.

Rossiya migratsiya qonun hujjatlarida migrantlarning oila a'zolariga, shu jumladan bolalariga deyarli e'tibor bermaydi. Birinchidan, bu ularning Rossiya Federatsiyasining hududida bo'lishini qonuniy rasmiylashtirish, ish bilan ta'minlash, ta'llim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq. Ko'pincha, bu masalalar faqat Rossiya jamiyatiga uchun ijtimoiy xarakatlar prizmasi orqali ko'rildi. O'rta muddat nazaridan qaraganda esa migrantlarning farzandlarini ta'llim tizimidan va migrantlarning o'zlarini sog'liqni saqlash tizimidan chetlatilishi Rossiya jamiyatiga ancha qimmatga tushadi.

Rossiya Federatsiyasida ro'yxatga olingan rasmiy tojik jamiyatlari: "Ajam", "Tojik mehnat migrantlari", "Tojik xalq ligasi", "Tojik diasporasi", "Qonun va farovonlik", "Somoniyon", "Somon".

Iqtisodiy inqirozlar va migratsiya siyosatining kuchayishi tojikistonlik mehnat migrantlarining o'z vatanlariga chiqib ketishiga turtki bo'ladi.

Turkmaniston diasporasi. Sobiq Sovet Ittifoqining deyarli barcha mamlakatlarida, shuningdek Iraqda (3 millionga yaqin kishi), Suriyada (3 millionga yaqin), Afg'onistonda (2 millionga yaqin), Eronda (1,5 milliondan 3 milliongacha), shuningdek ba'zi Yevropa mamlakatlarida (Germaniya, Shvetsiya va boshqalar) tashkil topgan. Umuman olganda, SSRI tarkibiga kirmagan mamlakatlarda 10 millionga yaqin etnik turkmanlar istiqomat qiladi.

2000 yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 152 mingga yaqin turkman yashagan. O'zbekistondagi turkmanlar asosan qadimgi Xorazm va Amudaryo havzasini bilan chegaradosh hududlarda istiqomat qilishadi.

2010 yildagi Butunrossiya aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Rossianing turli viloyatlarida 36 mingdan ortiq etnik turkmanlar istiqomat qilishgan. Eng ko'p sonli turkman diasporalari Stavropol ollkasida, Moskva va Astraxan viloyatlarida mayjud. Turkmanlar o'z madaniyatini, tilini, milliy o'ziga xosligini saqlab, Turkmaniston bilan aloqa qiladigan turkmanlarning monoetnik aholi yashash joylari mayjud (masalan, Stavropol o'lkasining Blagodarnenskiy tumanidagi Edelbay qishlog'i).

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Tojikistonda 20 mingga yaqin turkman istiqomad qiladi. Boshqa Sobiq Sovet Ittifoqi mamlakatlarida etnik turkmanlarning soni juda ham kam va ko'pincha boshqa millatlar toifasida yoki boshqa turkiy etnik guruhlar bilan birgalikda ko'rildi.

Chet elda turli xil ijtimoiy guruhlarni birlashtiradigan turkman etnik uyushmalari tashkil etilgan. Masalan, Rossianing yirik universitetlarida Turkmaniston talaba yurtdoshlar uyushmalari mayjud. Turkmaniston diasporalari faoliyatining asosiyo yo'naliishlari Turkmanistondan kelgan migrantlarga mamlakatda moslashuv va ijtimoiy lashuvda yordam berish, ularni qabul qiluvchi mamlakatda axborot bilan ta'minlash, mamlakatning ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan turkmanistonlik talabalarni qo'llab-quvvatlash, mamlakat va Turkmaniston o'rtaida ijtimoiy-madaniy va gumanitar aloqalarini rivojlantirishdan iborat. Ular migrantlar va Turkmanistonning chet eldag'i diplomatik vakolatxonalar / konsullik idoralari o'rtasida o'ziga xos bog'lovchi bo'lib, migrantlar – Turkmaniston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq turli masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Xorijiy davlatlardagi turkman diasporalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlashmaq sadida Turkmanistonda 1991 yil 24 oktyabrda tashkil etilgan Butunjahon turkmanlarning Gumanitar Uyushmasi (BTGU) faoliyat yuritadi. Butunjahon Turkmanlar gumanitar Birlashmasi – vakolatxonalarini joylashgan mamlakatlarning qonunlari amal qiladigan xalqaro gumanitar tashkilot. BTGU tarkibiga Turkmanistonning ichidagi

viloyat filiallaridan tashqari dunyo bo'ylab 27 ta amaldagi bo'limllar kiradi. Turkman diasporalari Rossiya, Germaniya, Qozog'iston, O'zbekiston, Iroq, Eron, Fransiya va hattoki Norvegiyada ham mavjud. To'g'ri, hamma mamlakatlarda ham BTGU bo'limlari mavjud emas. Umumiy qilib olganda, ular 14 mamlakatda ro'yxatga olingan, masalan, Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Afg'oniston, Pokiston, Qozog'iston, Tojikiston va boshqalar.

BTGUning turkman bo'limlari doimiy ravishda o'zlarining xorijiy hamkorlari bilan gumanitar, madaniy va iqtisodiy aloqalarni qo'llab turadilar. BTGUning yuzlab individual a'zolari mavjud bo'lib, shu jumladan 400 ga yaqin xorijiy mamlakatlardan, shuningdek, butun dunyo bo'ylab 340 korxonalar tashkilotlarni ifoda qiluvchi jamoa a'zolari bor.

BTGU har yili chet eldag'i vatandoshlarning dolzarb muammolarini muhokama qilish uchun o'ziga xos munozara maydoni bo'lib xizmat qiladigan uchrashuvlar o'tkazadi. So'nggi yillarda BTGUning xorijilik vatandoshlar bilan faoliyatining tarkibi va yo'nalishlari sezilarli darajada xilma xillashdi. Ilm-fan va ta'lif, madaniyat va san'at, tadbirdorlik sohalarida aloqalar faollashdi. Uyushma Turkmaniston va boshqa davlatlar o'rtaisdagi hamkorlikni rivojlantirishda, shu jumladan, vatandoshlar va migrantlar orasida Turkmaniston siyosatini targ'ib qilishda alohida rol o'ynaydi. BTGU bo'limlari va diaspora orqali migrantlar migratsiya munosabatlari, shu jumladan o'z vatanlariga qaytish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni olishlari mumkin.

BTGU muntazam ravishda Uyushma bo'limlari mavjud bo'lgan mamlakatlarda turkman madaniyati, urf-odatlari va tilini ommalashtirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadi. Shuningdek, uning tashabbusi bilan "Buyuk Uyg'onish davri va dunyo turkmanlari" nomli ijodiy tanlov o'tkazildi. Tanlov ishtirokchilari va hakamlar hay'atining a'zolari orasida turli mamlakatlardan kelgan turkman millatining vakillari bor edi.

BTGUning Turkmanistonda joylashgan bo'limlari mehnat jamoalarining xorijiy hamkasblari bilan uchrashuvlar o'tkazadilar, uchrashuvlar uchun chet elga, masalan, Rossiya Federatsiyasining Stavropol o'lkasiga, Germaniyaga va hkz. sayohatlar uyushtirishadi

BTGUning yana bir asosiy faoliyatlaridan biri – gumanitar faoliyat. Turkmanistonda juda ham sovuq kelgan qish mavsumlarida, BTGU tashabbusi bilan Tojikiston va Afg'onistonga yuzlab tonna dizel yoqilg'isi, un va kiyim-kechak shaklidagi gumanitar yordam jo'natilganligi ma'lum. Bundan tashqari, Afg'onistonning 4 million dollardan ortiq qarzi hisobdan chiqarilgan. Shuningdek, ushbu mamlakatga imtiyozli narxlarda elektr energiyasi eksport qilingmoqda va temir yo'l qurilmoqda.

Turkmaniston Prezidenti G. Berdimuxamedov Jahon turkmanlari gumanitar birlashmasi prezidenti sifatida chet elda vatandoshlarni yig'ish ishlariiga katta e'tibor beradi. Prezident tashabbusi bilan turkman diasporalariga til va o'ziga xos an'analarni saqlash, ijtimoiy va madaniy ob'ektlar qurilishida yordam ko'rsatilmoqda. Shunday qilib, 2018 yilda Rossiya Federatsiyasining Astraxan viloyatidagi ushbu mintaqadagi eng yirik turkman diasporasi yashaydigan Funtovo-Prrivoljsk qishlog'ida, Turkmaniston Prezidenti tashabbusi bilan turkman quruvchilari tomonidan barpo etilgan Maxtumquli Fragi nomli o'rta umumiyligi ta'lif maktabi ochildi.

Uyushmaning xorijiy filiallar bilan hamkorlik qilishining jiddiyligidan Ashxabodning Mekan saroyidagi shtab-kvartirada joylashgan BTGU muzeyining borligi dalolat beradi, bu yerda Turkmaniston tarixi, madaniyati, etnografiyasi to'g'risidagi adabiyotlar bilan olti tilda: turkman, rus, arab, ingliz, fransuz, turk tillarida tanishish mumkin. Muzej fondlari doimiy ravishda noyob eksponatlar bilan to'ldirilmoqda.

O'zbek diasporasi. Hozirgi vaqtida O'zbekistondan tashqarida dunyoning turli mamlakatlarda bir necha million etnik o'zbeklar istiqomat qilishiadi. Eng ko'p sonli o'zbek diasporalari Afg'onistonda (1,7 milliondan 2,7 milliongacha), Qирг'изистон ва Тоҷикистонда (900 ming), Qозоғ'истонда (550 ming), Түркменистонда (500 ming), Rossiya Federatsiyasida (300 ming), Turkiyada (70 ming), AQSh da (70 ming), Pokistonda (70 ming kishi) mavjud. Hozirgi kunda O'zbekistonning 126 mingga yaqin fuqarosi chet el elchixonalarini va konsulliklarida konsullik muassasalarida doimiy ro'yxatda turadi, shu jumladan Qозоғ'истонда – 49 ming, Rossiya Federatsiyasida – 47,5 ming, Ukraynada – 8 ming, AQShda – 6,5 ming kishi, Germaniyada- 5,5 ming, Isroil va Turkmanistonda – har birida 1,3 mingdan, Tojikistonda – 780, Koreya Respublikasida – 660, Qирг'изистонда – 470, Turkiyada – 400, BAAda – 240 kishi.

O'zbek diasporasining tarkibida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- birinchidan, chet elga doimiy yashash uchun ketgan yoki u yerda vaqtinchalik ishlash maqsadida bo'lgan fuqarolar;
- ikkinchidan, chet elda yashaydigan va chet el fuqaroligini oлган O'zbekiston Respublikasining sobiq fuqarolari, shuningdek, turli yillarda yashash uchun chet elga chiqib ketgan, respublika hududida tug'ilgan va yashagan o'zbek millatiga mansub shaxslar va ularning nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan avlodlari. Shunga qaramasdan, ular O'zbekistonni o'z vatanlari deb hisoblaydilar, u bilan umumiyligi madaniy aloqalar mayjudligini his qiladilar, kundalik hayotda o'z ona tillarini, an'ana va urf-odatlarini saqlab qolishga intilishadi, vatanidagi qarindoshlari yoki tanishlari bilan aloqalarni saqlab qolishadi.

Xorijga doimiy yashash maqsadida ketgan O'zbekiston fuqarolarining hammasi ham doimiy yashash joyidagi O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsulliklarida ro'yhatdan o'tmaganligini hisobga olsak, bu raqamlar chet elda doimiy yashayotgan O'zbekiston fuqarolarining haqiqiy sonidan farq qilishi mumkin. Pasportda belgilanadigan doimiy konsullik qaydi tartibi ixtiyoriydir, ammo "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan (21-modda, 2-band), uch yil davomida konsullikda ro'yxatdan o'tmagan O'zbekiston fuqarosi (2017 yilga qadar 5 yil) fuqarolikni yo'qotishi mumkin²⁸. Shu munosabat bilan, fuqaroligini saqlab qolish istagida bo'lgan chet elda yashaydigan O'zbekiston fuqarolari yashash joyidagi O'zbekiston elchixonasi yoki agar u mayjud bo'lmasa, diplomatik vakolatxonasini joylashgan qo'shni davlatda doimiy konsullikda ro'yxatdan o'tishdan manfaatdor.

Turar joyi bo'yicha doimiy ro'yxatda turishini saqlab qolgan holda chet elda faqat ishlash maqsadida yashaydigan O'zbekiston fuqarolarining soni, u yerda doimiy istiqomat qiluvchilarga nisbatan ancha ko'p. Masalan, Rossiya Federatsiyasida O'zbekiston Respublikasining 1 milliondan ortiq fuqarolari vaqtinchalik yashashadi va ishlashadi, konsullik muassasalarida esa – 47,5 ming kishi doimiy ravishda ro'yxatdan o'tgan; Qозоғ'истонда 500 mingdan ortiq kishi ishlaydi, konsullik muassasalarida esa taxminan 49 ming kishi ro'yxatda turadi; Koreya Respublikasida – 20 mingdan ortiq kishi ishlaydi, konsullik ro'yxatiga olinganlar – taxminan 660 kishi; Turkiyada- konsullik muassasalarida taxminan 400 kishi ro'yxatda turadi, vaqtinchalik yashayotgan va ishlayotganlar soni esa sezilarli darajada ko'proq.

²⁸ 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida" O'zR Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomalari. 1992. 9-son. 338 bet; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami. 2004. 51-son. 514 bet: 2015. 32-son. 425 bet; 2016. 39-son. 457-b.

Vaqtincha ishslash yoki o'qish uchun chet elda bo'lgan O'zbekiston fuqarolari vaqtincha konsullik hisobiga olish uchun elchixonalar yoki konsulliklarga murojaat qilishlari mumkin, ammo ulardan faqatgina ozchiligi amalga oshiradi, buning asosiy sababi majburiy emasligi yoki zarurat yo'qligidir. Chet elda vaqtincha yashayotgan va ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni 2 millionga yaqin, ulardan atigi 7,5 ming kishi O'zbekistonning diplomatik vakolatxonalarida vaqtincha konsullik hisobida turadi.

2017 yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika baynalmil madaniyat markazi va do'stlik jamiyatlari negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalari qo'mitasi tashkil etildi²⁹. Qo'mitaning vazifalariga do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik jamiyatlari, shu jumladan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish kiradi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga Qo'mitaga, chet ellarda faoliyat ko'rsatadigan bir-biriga bog'liq tashkilotlar, o'zbek madaniy markazlari va jamiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shuningdek chet elda faoliyat yurituvchi tegishli tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish ishlari topshirilgan.

2017 yil dekabr oyi oxirida O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarori bilan Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Madaniyat, tashqi ishlar vazirliklari, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Mahalla", "Nuroniy" jamg'armalari, yoshlar ittifoqlari, yozuvchilar, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, fanlar Akademiyasining vakillaridan tarkib topadigan Qo'mitaning jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi³⁰. Jamoatchilik kengashi Qo'mita faoliyatini takomillashtirishga va uning faoliyati bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga yordam ko'rsatadi.

Xorijdagi vatandoshlar bilan o'zaro munosabatlar asosan madaniyat sohasidagi xalqaro hamkorlik doirasida o'zbek diasporalari jamiyatlari bilan madaniy aloqalarni o'rnatish, shuningdek, vatandoshlar diplomatik vakolatxonalarga turli masalalar bo'yicha murojaat qilganda amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda 19 mamlakatdagi o'zbek diasporasining 30 tashkiloti bilan aloqalar o'rnatilgan: ular orasida Qozog'istondagi O'zbek madaniyat Markazi; Qirg'izistondagi "O'sh" o'zbek jamiyat; Tojikistondagi O'zbekiston ma'naviyat va ma'rifat markazi; Rossiya Federatsiyasidagi "Umid" o'zbek vatandoshlar markazi; Turkiyadagi turkistonliklarga madaniy va ijtimoiy yordam ko'rsatish markazi; Germaniyadagi Turkistonlik vatandoshlarining Madaniy jamiyat; Isroildagi O'zbek madaniyat markazi; Turkiston-Amerika uyushmasi, AQSh va Kanadadagi Buxoro yahudiylari kongressi, AQSh va Kanadadagi Kanada o'zbeklarining madaniy uyushmasi; Xitoydagagi o'zbek tili va madaniyatini tadqiq etish markazi va boshqalar.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydag'i PF-5046-sonli "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni. Xalq so'zi. 2017 yil 23 may. 101 soni (6765).

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 25 dekabrdagi 1018-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari Qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori. SPP. № 12. 301-b.

Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqlarni yo'lga qo'yish uchun mas'ul bo'lgan O'zbekistondagi yetakchi idoralar bo'lib chet eldag'i o'xshash tuzilmalar bilan aloqalar o'rnatish orqali ish olib borishi mumkin bo'lgan Millatlararo munosabatlar va boshqa mamlakatlar bilan do'stona aloqalar Qo'mitasi, shuningdek o'z diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari orqali vatandoshlar va ular tashkil etgan hamjamiyatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lgan Tashqi ishlar vazirligi hisoblanadi.

Xorijdagi o'zbek diasporasining vakillari milliy bayramlar (Navro'z, Xayit va boshqalar) bilan bog'liq tadbirlarni tashkil qilish, an'ana va urf-odatlarni saqlash, bolalarga o'zbek tilini o'rgatish uchun istiqomat qiladigan mamlakat qonunlari doirasida, o'z jamiyatlarini, masalan, NNT shaklidagi jamiyatlarini tashkil etishlari, shuningdek o'z faoliyatida mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qo'llab-quvvatlashlarga erishishlari mumkin. Bundan tashqari, bitta mamlakatda bir necha shunday jamiyatlar bo'lishi mumkin, ular ko'pincha o'zbek millatiga mansub odamlarning zinch yashash joylarida mustaqil ravishda tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan chet elda yashayotgan va ishlayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha davlat siyosatining kontsepsiysi bu kabi faoliyatlarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi. To'plangan xorijiy tajribani hisobga olgan holda, unda chet elda yashab, ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidan vatandoshlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga, ularga zarur konsullik xizmatlarini ko'rsatishga, zarur hollarda ularning vataniga qaytishiga yordam beradigan, shuningdek, O'zbekistonning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan xorijiy fuqaroligi bo'lgan vatandoshlar bilan madaniyat va turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik doirasida o'zaro aloqalarni o'rnatish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Kontsepsiya doirasida shuningdek xorijlik vatandoshlar bilan hamkorlik masalalarida davlat vazirliklari va idoralari, jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi dasturlar va qonunlar qabul qilinadi.

Vatandoshlar bilan ishlashning muhim yo'nalishlaridan biri bu ularga O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, odamlar hayotining barcha sohalaridagi ijobjiy o'zgarishlar va yangi imkoniyatlar haqida ma'lumot berishdir.

2018 yil 25 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3982-sonli qarori qabul qilindi, unda o'tgan davr mobaynida chet elda yashayotgan vatandoshlar bilan doimiy muloqot va hamkorlikni rivojlantirish, ularning mamlakatda olib borilayotgan islohotlarda ishtiroy etishini rag'batlantirish, ularning huquq va manfaatlarini to'liq va har tomonlama amalga oshirishga ko'maklashish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgani belgilab o'tilgan³¹.

Hozirda ko'plab yurdoshlar iqtisodiyot, ijtimoiy soha, fan, madaniyat, sport va boshqa sohalarni rivojlantirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmaqdalar, o'zlarining tarixiy vatanlari – O'zbekistonning obro'sini oshirmoqdalar, shuningdek, tashqi dunyo bilan aloqalarini mustahkamlamoqdalar. Shu bilan birga, vatandoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishning so'zsiz ahamiyati

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3982 sonli "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori.

va dolzarbligiga qaramay, samarali hamkorlik va ularning salohiyatini amalga oshirilayotgan islohotlarni sifat jihatidan yaxshilashga to'sqinlik qiladigan bir qator muammolar mavjud:

- unumtdorlikning past darajasi va davlat organlari va tashkilotlarning vatandoshlar bilan aloqalarini tashkil etishdagи parchalanishlarning mayjudligi;
- ustuvor iqtisodiy, ijtimoiy, investitsiya, ilmiy, ta'lim, madaniy va boshqa loyihalar va dasturlarni amalga oshirishda vatandoshlarning imkoniyatlaridan samarasiz foydalanish;
- vatandoshlar tashkilotlari tomonidan o'zbek tili, madaniyati va an'analarini saqlash va ommalashtirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli va uzoq muddatli strategiyaning yo'qligi;
- chet elda tahsil olayotgan O'zbekiston yoshlari bilan ishlashga e'tiborning yetarsizligi, vatanga qaytgandan keyin ularni ishga joylashtirish tizimining yo'lga qo'yilmaganligi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining maqsadlaridan kelib chiqqan holda, uzoq muddatga mo'ljallangan vatandoshlar bilan hamkorlikning samarali tizimini yaratish, shuningdek uni samarali tarza amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining vatandoshlar bilan hamkorlik sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadlari belgilandi:

- istiqomat qiluvchi mamlakat qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalar asosida chet eldagи vatandoshlarning huquqlari va erkinliklarining xalqaro tan olinigan prinsiplar va normalarga muvofiq amalga oshirilishiga ko'maklashish nazarda tutiladi;
- yurtdoshlarimizning O'zbekistonning madaniy, ilmiy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish, uni o'rganish va dunyo miqyosida ommalashtirish, vatandoshlar yashaydigan mamlakatlarda o'zbek tili, madaniyati va urf-odatlarini saqlab qolish va rivojlantirish, O'zbekistonda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishni va uning xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli va do'stona munosabatlari yo'lga qo'yilishini istagan vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;
- vatandoshlarning O'zbekiston hududida kasbiy, shu jumladan tadbirdorlik, investitsiya, ilmiy, ta'limiylar va madaniy faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yanada mustahkamlash uchun vatandoshlarning salohiyatini jaib qilish.

Ushbu Qaror qabul qilinishi bilan chet elda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasidagi O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati Konsepsiysi tasdiqlandi. Ushbu Konsepsiya muvofiq ushu sohada mamlakat siyosatining tamoyillari, maqsadlari, asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari belgilandi. Chet elda yashayotgan vatandoshlarga juda aniq ta'rif berildi:

- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan yoki o'qish, mehnat faoliyati, oilaviy va boshqa sabablar bilan vaqtincha chet elda yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

- chet elga ketgan va chet davlat fuqarosi bo'lgan asli O'zbekistonliklar, shuningdek ularning vatanga nisbatan ma'naviy va madaniy daxldorlik hissini saqlab qolgan va O'zbekiston Respublikasi bilan do'stona madaniy, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa aloqalarni rivojlantirishga intiladigan avlodlari;
- chet elda istiqomat qiladigan, etnik jihatdan va tilga mansubligi bo'yicha, shuningdek madaniy va tarixiy nuqtai nazardan o'zlarini o'zbeklar yoki qoraqalpoqlar deb hisoblaydigan va O'zbekiston bilan har tomonlama aloqani qo'llashni xohlaydigan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar.

Vatandoshlar tashkilotlariga ta'rif berilgan – bu ular tomonidan o'z tashabbuslari bilan tashkil etiladigan, vatandoshlarning manfaatlarini ifoda qiladigan va hamma e'tirof qilgan tamoyillar hamda xalqaro huquq normalari, yashash joyi va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, shuningdek o'zlarining ustavlari (Nizomlari) asosida ish yuritadigan jamoat madaniy va milliy markazlari, uyushmalar, talabalar jamiyatlari, mакtablar, jamg'armalar va tadbirkorlik tuzilmalari.

Konsepsiya binoan, O'zbekiston va vatandoshlar o'rtasidagi hamkorlik tamoyillari belgilangan:

- O'zbekiston bilan ma'naviy, madaniy va huquqiy aloqani saqlab qolishga, shuningdek mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ishtirok etishga intilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir;
- O'zbekiston va xorijdagи vatandoshlar o'rtasidagi hamkorlikning barcha shakllari va yo'nalishlari ochiqlik, hamkorlik, ixtiyorilik, qonuniylik, ular yashab turgan mamlakatning qonun hujjatlariga hurmat, davlat suvereniteti va mustaqilligi, tenglik va bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, hamma e'tirof qilgan tamoyillar va xalqaro huquq normalari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga rioya qilish tamoyillariga asoslanadi;
- ushbu sohadagi davlat siyosati, manfaatdor bo'lgan vatandoshlar bilan har tomonlama do'stona hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek ularning etnik, milliy, diniy va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishni , xususan, madaniyat, til, ta'lim, axborot sohalarida qo'llab-quvvatlashga, O'zbekiston Respublikasi bilan iqtisodiy va gumanitar aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan;
- mamlakatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash, vatandoshlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini amalga oshirishda ko'maklashish, yashash mamlakatida madaniy o'ziga xoslikni saqlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida vatandoshlarning tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikka doimiy e'tibor qaratiladi.

Yuqorida bayon etilgan tamoyillar asosida O'zbekiston va vatandoshlar o'rtasidagi hamkorlikning asosiy maqsadlari ham belgilab berildi:

- hamma e'tirof qilgan tamoyillar va xalqaro huquq normalari , yashash mamlakatining qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq chet eldagи vatandoshlarning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishda ko'maklashish;
- yurtdoshlarimizning O'zbekistonning madaniy, ilmiy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish, uni o'rganish va dunyo bo'ylab ommalashtirish, vatandoshlar yashaydigan mamlakatlarda o'zbek

tili, madaniyati va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirish, ularning O'zbekistonda ta'llim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishni va uning xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli va do'stona munosabatlari yo'nga qo'yilishini istagan vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;
- vatandoshlarning O'zbekiston hududida kasbiy, shu jumladan tadbirdorlik, investitsiya, ilmiy, ta'llimiylar va madaniy faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun qulay huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yanada mustahkamlash uchun vatandoshlarning salohiyatini jaib qilish.

Shu bilan birga, O'zbekistonning rivojlanishiga hissa qo'shishga , uning madaniy, ilmiy, ma'naviy merosi va zamonaviy yutuqlarni yashash mamlakalarida saqlab qolish va ommalashtirishga intilayotgan vatandoshlar faoliyatining amalga oshirilishiga O'zbekiston har xil yo'llar bilan ko'maklashadi. Iqtisodiyot, fan va texnika, tibbiyot, ta'llim, madaniyat va sport sohalarida yuqori malakaga ega, boshqa sohalarda iste'dod va xizmatlari e'tirof etilgan vatandoshlar bilan o'zaro munosabatlarga alohida e'tibor beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 oktyabrdagi "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3982-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasidagi davlat siyosati Konsepsiysi qoidalaridan kelib chiqqan holda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ishtiroy etishga intilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining vatandoshlar bilan ushbu sohadagi hamkorligining asosiy maqsadlari qilib belgilangan.

O'zbekiston quyidagi maqsadlarda ishbilarmon doira vakillari, xorijiy kompaniyalarning xodimlari, investorlar, xalqaro moliyaviy tuzilmalarning xodimlari va vatandoshlar qatoridan boshqa mutaxassislarning moliyaviy, iqtisodiy va intellektual-texnologik salohiyatini jaib qilishdan manfaatdor:

- O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish;
- to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, ilg'or texnologiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga faol jaib qilish, qo'shma korxonalar tashkil etish, O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'nga qo'yish;
- mahalliy mahsulotlar eksporti hajmini oshirish va uning jug'rofiyasini kengaytirishga ko'maklashish;
- xorijiy sayyoohlarni jaib qilish, mamlakatning sayyoohlilik salohiyatini, turizm infratuzilmasini va O'zbekistonda yangi turizm turlarini rivojlantirish;
- bank-moliya faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish;
- investitsion jozibadorlikni oshirish, tadbirdorlikni va O'zbekistonda xorijiy investorlarning faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish;

- ilg'or xalqaro tajriba asosida barcha iqtisodiyot tarmoqlarining jadal innovatsion rivojlanishini ta'minlashga yordam berish, jahon ilm-fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, zarur iqtisodiy, ilmiy, texnika boshqa mutaxassislik sohalarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun xorijiy professional kadrlar, maslahatchilar va boshqa ekspertlarni jalg qilish;

Ushbu sohadagi amaliy qadamlar, masalan, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi vakillarining amaliy qadamlari diasporalar o'z vatanlari bilan iqtisodiy jihatlar nuqtai nazaridan qanchalik samarali munosabatda bo'lislari mumkinligidan dalolat beradi. Ya'ni 2018 yil 2 may kuni Rossiya Federatsiyasidagi o'zbek diasporasini ifoda qiluvchi vakillar va ishbilarmon doiralarining vakillari orasida norasmiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Delegatsiya tarkibida Rossiyaning 7 mintaqasida: Sverdlovsk o'lkasi, Primorsk o'lkasi, Krasnodar va Astraxan viloyatlari, Chuvashiya Respublikasi va Tataristonda, Udmurtiya respublikasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan 8 kishi yetib keldi. Suhbat chog'ida O'zbekiston Respublikasi hududida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga rossiyalik investorlarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarini jalg qilish orqali yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Tibbiyot sohasidagi loyihalarga katta qiziqish bildirildi. Mamlakat hududlarida onkologik markazlar qurish va Xorazm shahrida Rossiya Federatsiyasida keng tarqalgan otolaringologik xizmatlar ko'rsatadigan klinikalar tarmog'idan biri bo'lgan franshiza ochish mavzulari muhokama qilindi. Neft-gaz va sanoat sohalaridagi hamkorlik ham istiqbolli deb qayd etildi. Qalqonsimon tambalar ishlab chiqarish va yetkazib berish va sanoatda turli xil texnologik jarayonlarda ishlataladigan vakuum moslamalarini ishlab chiqarish masalasi ham ko'tarildi. Uchrashuv yakunida Rossiya Federatsiyasidagi o'zbek diasporasi vakillari Rossiya Federatsiyasining barcha mintaqalaridagi o'zbek biznes- diasporasi vakillari bilan va O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi va Tashqi savdo vazirligi ishtirokida biznes-forum tashkil etishga ko'maklashish istagini bildirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3982-soni "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan tasdiqlangan xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasidagi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati Konsepsiysi qoidalaridan kelib chiqqan holda vatandoshlarning O'zbekistonning madaniy, ilmiy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish, uni o'rganish va dunyoda ommalashtirish, vatandoshlar yashaydigan mamlakatlarda o'zbek tili, madaniyati va an'analarini saqlash va rivojlantirish, O'zbekistonda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasining ushbu sohada vatandoshlar bilan hamkorligining asosiy maqsadlari qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi vatandoshlar va ularning tashkilotlari bilan madaniyat, fan, ta'lim va axborot sohalarida faol hamkorlik qilishga, ular bilan O'zbekiston va boshqa davlatlar o'rtaсидаги do'stona aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan qo'shma tadbirlarni quyidagilar orqali tashkillashtirish niyatida:

- ularning salohiyatini qo'shma ilmiy, ta'lim, tibbiy, madaniy, ma'rifiy, sport va boshqa loyihalarni amalga oshirishga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidan yosh kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashga jalg qilish;

- vatandoshlarning ta'llim va malaka oshirish, shuningdek, o'z tarixiy Vatanining ilmiy, madaniy va ijtimoiy hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;
- vatandoshlar va ularning tashkilotlariga doimiy yashash mamlakatida o'zbek tili, madaniyat va an'analarini o'rganish, saqlab qolish va yosh avlodga topshirishda har tomonlama yordam berish;
- vatandoshlarning xorijdagi hayoti va faoliyatini yanada kengroq yoritish, shuningdek, ularga O'zbekiston to'g'risida zarur ma'lumotlarni berish maqsadida ommaviy axborot vositalari sohasida axborot almashinuvini va hamkorligini kengaytirish;
- chet elda tahsil olayotgan O'zbekiston fuqarolari orasidan yosh vatandoshlar bilan doimiy aloqani o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, ularga O'zbekistonda ishga joylashishga yordam berish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 oktyabrdagi "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3982-tonli Qiaronining qoidalari bilan vatandoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari quyidagi tartibda tasdiqlandi:

- kirish vizalari, shu jumladan ko'p martali va uzoq muddatli vizalar, yashash guvohnomasi, shuningdek mehnat faoliyati uchun ruxsatnomalarni soddalashtirilgan tarzda rasmiylashtirish;
- O'zbekistonda talab qilinayotgan mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali kadrlarni ishga joylashtirish;
- ijtimoiy va maishiy muammolarni hal qilishda yordam berish;
- vatandoshlarning tadbirdorlik, ilmiy-tadqiqot, ta'llim, innovatsion va boshqa loyihalar hamda dasturlarni amalga oshirishlari uchun bo'sh davlat mulki va yer uchastkalarini berish;
- vatandoshlarning o'qishi, mehnati va boshqa ijtimoiy masalalarini mablag'lar bilan to'liq (qisman) ta'minlash;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlat tashkilotlarida rahbar lavozimlarda ishlash uchun yuqori malakali mutaxassislar orasidan vatandoshlarni, shuningdek ularning rahbarlariga maslahatchi sifatida jaib qilish;
- O'zbekiston fuqaroligini soddalashtirilgan tartibda taqdim etish;
- vatandoshlarga – chet el fuqarolariga O'zbekistonning oliv o'quv yurtlarida o'zbek tili va adabiyoti, tarix, kino, madaniyat, teatr san'ati, televideniye va radio yo'nalishlari bo'yicha o'qish uchun grantlar ajratish;
- O'zbekistonda vatandoshlar – OAV vakillarini akkreditatsiya qilishning soddalashtirilgan tartibi;
- O'zbekiston taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan vatandoshlarni davlat mukofotlari va faxriy unvonlar bilan mukofotlash.

Nazorat savollari:

1. Diaspora nima degani? Ushbu ta'rifga qanday yondashuvlar bor?
2. Kelib chiqish va yashash mamlakatlarini rivojlantirishda diasporalarning roli qanday?
3. Markaziy Osiyo mamlakatlarida qaysi davlat idoralari diasporalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi?
4. Qozoq, qirg'iz, tojik, turkman va o'zbek diasporalarining o'xshashlik tomonlari va farqlari nimada?
5. Markaziy Osiyo davlatlarining o'z diasporalariga nisbatan siyosati qanday farq qiladi?

Amaliy mashg'ulot:

1. Qirg'iziston Respublikasi hukumati tomonidan taklif etilgan "Meken kart" tizimini diasporalar bilan o'zaro munosabatlар nuqtai nazaridan tahlil qiling. Xorijiy mamlakatlar bilan qiyos qiling. Ushbu tashabbus Qirg'izistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini prognoz qiling.
2. Qozoq, qirg'iz, tojik, turkman va o'zbek diasporalarining o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslang.
Namunaviy qiyoslash rejasi:
 - a) soni;
 - b) joylashtirish jo'g'rofiyasi;
 - c) diasporaning vatanni rivojlantirishga hissasi;
 - d) vatan bilan o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari;
 - e) vatanning diasporaga nisbatan davlat siyosati;
 - f) taqdimot qiling.
3. Sizning davlatingizda diaspora ishlari bo'yicha vazirlik tashkil etish zarurligini (zarurat yo'qligini) asoslang.

Asosiy adabiyot:

1. Kondarteva T. S. Zamonaviy dunyodagi diasporalar: hodisa va tushuncha evolyutsiyasi// Perspektivalar. Tarixiy istiqbol jamg'armasining tadqiqot va tahlil markazi. 2010. [Kirish rejimi: www.perspektivy.info/srez/etnos/diaspora_v Sovremennoe_mire_evolucija_javlenija_i_ponatija_2010-02-27.htm]
2. Ryazantsev S. V., Xorie N. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Rossiyaga mehnat migratsiyasining oqimlarini modellashtirish: Iqtisodiy-ijtimoiy tadqiqotlar. M.: Ilmiy dunyo. 2011. 250-b.
3. Toshenko J. T., Chapykova T. I. Diaspora ijtimoiy tadqiqot obyekti sifatida// Socis. 1996. № 12. 33-42 b.
4. Sheffer G. Dunyo siyosatidagi diasporalar// Diasporalar. 2003. № 1. 162-184 b.

5. Diasporas: New Partners in Global Development Policy. Ed. by K. Newland. Migration Policy Institute. USAID. 2010. 288 p. [Kirish rejimi: www.migrationpolicy.org/research/diasporas-new-partners-global-development-policy]

Qo'shimcha adabiyot:

1. Akramov F. Sh. Demografik vaziyat va Tojikistondan Rossiyaga mehnat migratsiyasi // Rossiyada chet el ishchilarini jalg qilish va ulardan foydalanish amaliyoti: tendensiyalari, mexanizmlari, texnologiyalari: Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2006 yil 16-17 oktyabr) / Mas'ul tahrirchi S. V. Rzyantsev. M., 2006. 5-10 b.
2. Baltabayeva K. N., Mamashev T.A., Ermekbay J.A. va boshqalar. Qozoq diasporasi va repatriatsiyasi (1991 – 2012). Olmaota: Eltanyym. 2015. 187-b.
3. Qaytish migratsiyasi va Markaziyo Osiyodagi tahdidlar: 2017-yil xatarlar tahlili. Ostona: XMgT – Qozog'iston. 2017. 68-b.
4. Qирғыз diasporalари жана жориждеги жандаршларни экспертилар ро'yxатини сарталаш. Тадқиқот хақида тahlili hisobot. Bishkek. 2016.
5. Mendikulova G. M. Qozoq diasporasi va irredenta: tarix va hozirgi zamon. Qozoq diasporasi va irredenta: ta'rifi, tipologiyasi va tavsifi // Qozoq diasporasi: hozirgi zamon va kelajak. Ostona: Elorda. 2005. 38-47 b.
6. Ryazantsev S.V., Krasinets E.S. Markaziy Osiyodan Rossiyaga mehnat migratsiyasining hozirgi zamon tendensiyalari va iqtisodiy samarasi. Ilmiy sharh. 1 qism. Iqtisod va huquq. 2016. № 5. 5-14 b.
7. Sa'dizoda J., Fayzizoda, N. Buyuk Kir va Buyuk hurlik qo'lyozmalari deklaratysi: o'xshashlik va farqlar// Huquqiy hayot. 2015. №2 (10). 74-88 b.
8. Rivojlanishni rejalashirish jarayonida migratsiya masalalarining hisobi: direktiv organlar va amaliyotchilar, XMgT uchun qo'llanma (Mainstreaming Migration into Development Planning: A Handbook for Policy-makers and Practitioners. IOM. Global Migration Group). 2010. 152-b. [Kirish rejimi: <https://publications.iom.int/es/books/mainstreaming-migration-development-planning-handbook-policy-makers-and-practitioners>]

Videolavhalar:

XMgT Bosh direktorining tabrik maktubi (Welcome Message of Director General IOM. Diaspora Ministerial Conference (18-19 June 2013)) [Kirish rejimi: <https://diaspora.iom.int>].

IV BO'LIM.

MARKAZIY OSIYODA QAYTISH MIGRATSİYASI, TAHDİDLAR VA STRATEGİYALAR

4.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va migrantsion siyosati: qaytish migrantsiyasining roli

Mundarija. Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining milliy strategiyalari va ularda migrantsianing rivojlanish manbai sifatidagi o'rni. Markaziy Osiyo davlatlarining migratsiyani tartibga solishga yondashuvlari. Migratsiya siyosatining milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi bilan o'zaro aloqasi. Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida migratsianing aks etishi. Milliy strategiyalarda qaytish migrantsiyasi. Qaytish migrantsiyasini milliy rivojlanish strategiyalariga kiritish istiqbollari. Markaziy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mintaqaviy va mahalliy dasturlarida qaytish migrantsiyasi. Qaytish migrantsiyasini dasturlarga kiritish istiqbollari.

Migratsiya sohasidagi siyosat milliy hukumatlarning vakolatiga kiradi. Biroq kelajakda global rivojlanish konsepsiysi haqidagi muhokamalarda migratsiya tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning 2030 yilgacha global va milliy darajada barqaror rivojlanish jarayonining monitoringi doirasida 2015 yil sentabr oyida BMT Sammitida qabul qilingan Barqaror rivojlanish Maqsadlariga (BRM) erishishdagi roli ochiq-oydindir. Shu jumladan:

Barqaror rivojlanish maqsadlarining 8.8-vazifasi "barcha mehnatkashlar, shu jumladan, mehnat migrantlari, ayniqsa migrant ayollar va barqaror ish bilan band bo'limganlar uchun mehnat huquqlarining himoyasini ta'minlash hamda ishonchli va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish" ga chaqiradi;

Barqaror rivojlanish maqsadlarining 10.7-vazifasi "tashkillashtirilgan, xavfsiz, muntazam va mas'uliyatli migratsiya va odamlarning harakatlanishiga, shu jumladan rejalashtirilgan va puxta boshqarilgan migratsiya siyosatini amalga oshirish asosida yordam berish";

Barqaror rivojlanish maqsadlarining 17.18-vazifasi "rivojlanayotgan mamlakatlarga ... daromadi, jinsi, yoshi, irqi, etnik mansubligi, migrantsion maqomi, sog'liq ahvoli, jo'g'rofiy joylashuvi va milliy sharoitlarda dolzarb bo'lgan boshqa parametrlar bo'yicha ajratilgan mayjud sifatli, o'z vaqtidagi va ishonchli ma'lumotlarning hajmini ancha ko'paytirish maqsadida salohiyatlarini oshirishni qo'llab quvvatlashni kuchaytirish" ga chaqiradi;

Barqaror rivojlanish maqsadlarining 10-vazifasi "migrantlarning pul o'tkazmalari bilan bog'liq amaliyot xarajatlarini 3% dan pastgacha tushirish va xarajatlari 5% dan yuqori bo'lgan pul o'tkazmalari kanallarini tugatishga" chaqiradi¹.

BMTning migratsiya va taraqqiyot bo'yicha qo'shma tashabbusi mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlariga migratsiya va rivojlanish sohasidagi siyosatning kelishilganligini oshirish uchun boshqaruvning barcha sohalarida o'z sa'y-harakatlarini faollashtirishga yordam berishga mo'ljallangan "Migratsiyani mahalliy rivojlanishni rejalashtirishga kiritish bo'yicha qo'llanma" ni e'lon qildi. Migratsiya va rivojlanish siyosatining turli sohalarda qanday amalga oshirilishini namoyon etadigan ko'rsatkichlar to'plami ishlab

¹ BRM [Kirish rejimi: <https://sustainabledevelopment.un.org/focussdgs.html>].

chiqildi. Ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun migratsiya integratsiyasi va ularni mahalliy darajada bartaraf etishda institutsional, siyosiy va intervention kamchiliklarni yoki zaif tomonlarni aniqlashga mas'ul mutaxassis-amaliyotchilar ishlaydi. Qo'llanma ko'rsatkichlari ikki asosiy toifaga bo'linadi: (1) institutsional mexanizmlar hamda (2) siyosat va amaliyot².

XMG-T-BMTTD qo'shma global dasturining umumiyligi maqsadi hukumatlarga va ularning hamkorlariga migratsiyaning davlat rivojlanishi uchun oqibatalarini aniq baholash va hammaga bildirish; inson salohiyatining rivojlanish natijalarini yaxshilash va migrantlar, ularning oilalari va kelib chiqish va borish joyidagi jamoalar uchun xavf-xatarlarini kamaytirish uchun migratsiya hodisasini boshqarish imkonini berishdir³. Umuman olganda, har bir mamlakatning milliy migratsiya siyosatining uyg'un birligini baholash uchun uni Migratsiya boshqarish Indikatorlari (MGI) nuqtai nazaridan tahlil qilish lozim.

2015 yilda XMG-T milliy darajada "yaxshi boshqariladigan migratsiya siyosati" nima ekanligini aniqlash uchun Migratsiyani boshqarish tizimini (MiGOF) ishlab chiqdi. O'sha yilning o'zida XMG-Tga a'zo davlatlar MiGOF ni ham qo'llab-quvvatladilar. Migratsiyani boshqaris Indikatorlari (MGI) milliy tuzilmalarni baholash va MiGOFning amaliy bajarilishiga yordam berish uchun ishlab chiqildi.

MGI – bu mamlakatlardan tomonidan migratsiya boshqaruvini rivojlantirish uchun foydalanimli shart mumkin bo'lgan siyosiy vositalarni tushunishga imkon beruvchi vosita. MGI mamlakatlarni migratsiya siyosatini ishlab chiqish yoki amalga oshirish bo'yicha darajalarga ajratish uchun mo'ljallanmagan, balki mamlakatlarga ularning migratsiya siyosatining uyg'un birligini baholashda, shuningdek kamchiliklar va faoliyatning asosiy yo'nalishlarini aniqlashda yordam berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. MGI ni qo'llashdan maqsad – Barqaror rivojlanish maqsadlarining 10.7-vazifasi matnida "yaxshi boshqariladigan migratsiya" qanday ko'rinishda bo'lismi tushuntirish orqali migratsiyani boshqarish bo'yicha munozaralarini ilgari surishdir.

MiGOF va MGI migratsiyani boshqarishning olti jihatini o'z ichiga oladi:

1. *Migrantlarning huquqlari.* Ushbu sohadagi ko'rsatkichlar migrantlarning sog'liqni saqlash, ta'limga va ijtimoiy ta'minot kabi asosiy ijtimoiy xizmatlardan foydalanimli nuqtai nazaridan mamlakat fuqarolari bilan bir xil maqomga ega ekanlik darajasini baholaydi. Shuningdek, unda migrantlarning oilasini birlashtirish, mehnat qilish, yashash va fuqarolik huquqlari ham bayon etilgan. Unga asosiy xalqaro konvensiyalarning ratifikatsiyasi ham kiritilgan.
2. *Umum davlat yondashuvi.* Ushbu sohadagi indikatorlar mamlakatlarning migratsiya siyosati bo'yicha institutsional, huquqiy va me'yoriy bazasini baholaydi. Shuningdek, unda migratsiyaning rivojlanishiga mos keladigan milliy migratsiya strategiyalarining mavjudligi, institutsional shaffoflik va migratsiyani boshqarish bo'yicha kelishilganlik ko'rib chiqiladi. Ushbu soha, shuningdek, hukumatlar migratsiya ma'lumotlarini qay darajada to'plashi va qo'llashiga ham bag'ishlangan.
3. *Hamkorlik.* Ushbu sohada mamlakatlarning migratsiya masalalari bo'yicha boshqa davlatlar va tegishli nodavlat subyektlari, shu jumladan fuqarolik jamiyatni tashkilotlari va xususiy sektor bilan

² Mahalliy rivojlanishni rejalashtirishda migratsiyani hisobga olishning yetakchi tamoyillari (Success Stories Guidelines on Mainstreaming Migration into Local Development Planning) [Kirish rejimi: http://migration4development.org/sites/default/files/guidelines_on_mainstreaming_migration.pdf].

³ Migratsiya masalalarini milliy rivojlanish strategiyalarida hisobga olish (Mainstreaming Migration into National Development Strategies) [Kirish rejimi: www.iom.int/mainstreaming-migration-national-development-strategies].

hamkorlik bo'yicha qilayotgan xatti-harakatlariga e'tibor qaratiladi. Hamkorlik standartlarni moslashtirish va ko'tarish, muloqotni kengaytirish va qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun tuzilmalar yaratish orqali boshqaruvni yaxshilashga imkon beradi.

4. *Migrantlarning farovonligi*. Ushbu soha mamlakatlarning migrantlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini boshqarish bo'yicha siyosat ko'rsatkichlarini, shu jumladan migrantlarning ta'lim va kasbiy malakasini e'tirof etish, talabalar migrantsiyasini tartibga soluvchi qoidalar va mamlakatlar o'rtaida ikki tomonlama mehnat shartnomalari mavjudligini o'z ichiga oladi. Ko'rsatkichlar diasporalarni jalb qilish va migrantlarning pul o'tkazmalari bilan bog'liq umumiyligi siyosat va strategiyalarga bir xil darajada qaratilgan.
5. *Ko'chish bilan bog'liq inqirozning jihatlari*. Ushbu sohada mamlakatlarning tabiiy ofatlar, atrof-muhit va/yoki nizolar bilan bog'liq ko'chish inqirozlariga tayyorlik turi va darajasi o'rganiladi. Ushbu ko'rsatkichlar tabiiy ofatlar paytida ham, undan keyin ham fuqarolar va fuqaro bo'limganlarning ahvolini, shu jumladan insonparvarlik yordamidan migrantlar va mamlakat fuqarolari teng darajada foydalana olishi to'g'risidagi masalani ta'riflash uchun qo'llaniladi.
6. *Xavfsiz, tartibli va munosib migratsiya*. Ushbu sohada mamlakatlarning migrantsiyani boshqarishga yondashuvi chegara nazorati va huquq qo'llanishi, migrantlarni qabul qilish mezonlari, katta va kutilmagan migrantsiya oqimlari holatiga tayyorlik va barqarorlik, shuningdek, odam savdosi va migrantlarning noqonuniy olib kirlishiga qarshi kurashish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ushbu ko'rsatkichlar qaytib kelgan fuqarolarning integratsiyalashishiga yordam beradigan harakatlar va rag'batlarni baholaydi⁴.

Shunday qilib, migrantsiya va rivojlanish sohasidagi siyosatning kelishilganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki migrantsiya boshqaruvning barcha sektorlariga ta'sir qiladi: sog'lijni saqlashdan tortib ta'lim sohasigacha hamda uy-joy berishdan tortib ijtimoiy ta'minotgacha. Ta'lim, ishga joylashtirish va boshqa sohalardagi choralar migrantlar va boshqa joyga ko'chirilgan shaxslarning aniq ehtiyojlari va huquqlariga javob bermasa, faqat migrantsiya bilan shu holicha bog'liq siyosat samarasiz bo'lishi mumkin.

XMgT Markaziy Osiyoning migrantsiya sohasidagi bir nechta muammolarni ajratib ko'rsatadi:

- mamlakatlar o'rtaida migrantsiya masalalari bo'yicha muloqotning yo'qligi;
- nomutanosib mintaqaviy va milliy migrantsiya siyosati, shuningdek, rivojlanmagan me'yoriy-huquqiy baza;
- muvofiqlashtirishning sustligi va migrantsiya ma'lumotlarini toplash mexanizmlarining yo'qligi;
- migrantsiya masalalarining davlat idoralari tomonidan yetarli darajada tushunilmasligi, shuningdek migrantsiyani boshqarishi va chegaralarni kesib o'tishda salohiyatining rivojlanmaganligi;
- migrantlarning keng tarqagan mehnat va jinsiy ekspluatatsiyasi;
- migrantlarning pul o'tkazmalaridan o'z mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi uchun foydalanish saloiyatining yo'qligi.

⁴ Migrantsiyani boshqarish indikatorlari (Migration governance indicators) [Kirish tartibi: <https://gmdac.iom.int/migration-governance-indicators>].

Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida turgan va mintaqadagi migratsiya holatiga ta'sir etadigan muammolarning o'xshashligiga qaramasdan, har bir davlat faqat o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida ichki – xususan, qishloqlardan shaharlarga va tashqi – mamlakatlar o'rtasida katta migratsiya oqimlari kuzatilmoqda. Bu asosan Rossiya, Qozog'iston, mintaqadan tashqaridagi mamlakatlarga mavsumiy mehnat migratsiyasidir. Markaziy Osiyodagi migratsiya oqimining manba mamlakatlari Qирг'изистон, Тоҷикистон ва О'збекистон bo'lib, ular aholining tez o'sishi va qishloq joylardagi ishsizlik kabi rivojlanish muammolariga duch kelmoqdalar. Qishloq xo'jaligi yetarli darajada ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega emas, bu esa qishloq ayollari va erkaklarini, ayniqsa yoshlarni migratsiyaga majbur qiladi. Yoshlar ish qidirish va pul topish uchun ko'chib o'tishda muayyan muammolar va xavf-xatar omillariga duch kelishmoqda. Ularning ketishi, shuningdek, demografik vakuumni ham keltirib chiqaradi, bu esa mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Migratsiya, yoshlar va gender tenglik muammolarini hal qilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barcha jihatlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega va ular mintaqada hal etilishi lozim – bu barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun zarur shartlardan biridir. Xususan, "Yigirma guruhi" o'zgartirish Tashabbusida ta'kidlanganidek, qishloq yoshlarining ishtiroki qishloq tumanlarining barqaror rivojlanishining yetakchi omiliga aylanishi mumkin.

Shu munosabat bilan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va ularning migratsiya siyosatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Strategiya" atamasi (qad. yunoncha στρατηγία – "lashkar boshi san'ati") – bu urush haqidagi fan bo'lib, xususan, uzoq vaqt ni qamrab oladigan harbiy faoliyatning, keyinchalik esa har qanday turdag'i inson faoliyatining umumiyligi, bataysil bo'limgan rejasи, shuningdek murakkab maqsadga erishish usulidir⁵. Strategiyaning vazifasi asosiy maqsadga erishish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanishdir (strategiya harakat usuli sifatida asosiy maqsadga to'g'ridan-to'g'ri erishish uchun yetarli resurslar mavjud bo'limgan vaziyatda juda zarur bo'lib qoladi).

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda bunday rivojlanishning maqsadlari, strategiyasi va vositalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi. Strategiyani ishlab chiqishda asosiy vazifa – umumiy iqtisodiy muvozanatga amal qilgan holda, mamlakat aholisining farovonligini oshirish – yashash va ishslash uchun qulay muhitni shakllantirish, shuningdek iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdan iborat.

Rivojlanish sohasidagi davlat strategik hujjatlarini yaratishda ularga migrantlar oldida turgan vazifalar va muammolarni hisobga olgan holda migratsiya bo'limlarini kiritish lozim. Vaqt vaqt bilan ichki va tashqi mehnat bozorlарidagi vaziyatni tahlil qilish, zarur mutaxassisliklar nuqtai nazaridan mehnat resurslariga talabni o'rganish va prognoz qilish zarur.

Mehnat migrantlari reintegratsiyasi masalasidan tashqari strategiyada ta'lim, tibbiyat, bank, ijtimoiy sug'urta va himoya, ichki mehnat bozoridagi bandlik va mamlakat mintaqalarini rivojlantirish masalalari ham ko'riliishi lozim.

⁵ Strategiya, taktika va strategik fikrlash nima degani? [Kirish rejimi: <https://ivanpalii.com/strategy-and-tactics/>].

4.4.1-jadval Markaziy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari

Davlat	Strategiya va dasturlar, asosiy qoidalar
Qozog'iston	<ul style="list-style-type: none"> - "Qozog'iston-2050" strategiyasi; - 2012 yil dekabr oyida davlat rahbarining mamlakat xalqiga murojaatida Qozog'iston Respublikasining 2050 yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasi taqdim etildi. Uning asosiy maqsadi – kuchli davlatga, rivojlangan iqtisodiyotga va umumiy mehnat qilish imkoniyatiga asoslangan gullab-yashnagan jamiyatni yaratish, Qozog'istoni dunyoning eng rivojlangan 30 mamlakati qatoriga kiritish; - 2015-2019 yillarga mo'ljallangan "Nirlijol" infratuzilmani rivojlantirish davlat dasturi; - "Nirlijol" dasturi Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 apreldagi 1030-sonli qarori bilan tasdiqlangan; - Qozog'iston Respublikasini 2025 yilgacha rivojlantirishning strategik rejasি: <ul style="list-style-type: none"> a) Qozog'iston Respublikasini 2025 yilgacha rivojlantirishning strategik rejasи Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 15 fevraldagи 636-sonli qarori bilan tasdiqlandi; b) Qozog'iston Respublikasini 2025 yilgacha rivojlantirishning strategik rejasи davlat rejalashtirish tizimining o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan hujjati bo'llib, Qozog'istoni 2050 yilgacha rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan; - Sanoat-innovatsion rivojlanish davlat dasturi. Dastur Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 1 avgustdagи 874-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Dasturning maqsadi – ishlov berish sanoatining diversifikatsiyasini rag'batlantirish va raqobatbardoshligini oshirish; - 2011-2020 yillarda Qozog'iston Respublikasida Ta'limni rivojlantirish davlat dasturi Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 7 dekabrdagi 1118-sonli qarori bilan qabul qilingan; - 2016-2019 yillarda Qozog'istonda sog'liqni saqlashni rivojlantirishga mo'ljallangan "Densauliq" Davlat dasturi.
Qирғизистон	<ul style="list-style-type: none"> - Qирғизистон Respublikasining 2018-2040 yillarga mo'ljallangan milliy rivojlanish strategiyasi; - Qирғизистон Respublikasi hukumatining "Birlik. Ishonch. Yaratuvchanlik" Dasturi; Yaratuvchanlik" Dasturi; - Qирғизистон Respublikasi Mintaqaviy siyosat konsepsiysi Qирғизистон Respublikasi Hukumatining 2017 yil 31 martdagи 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Tojikiston	<ul style="list-style-type: none"> - Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda milliy rivojlantirish strategiyasi; - Tojikiston Respublikasining 2016-2020 yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli rivojlantirish dasturi (Tojikiston Respublikasi Majlisi Namoyandagon Majlisi Oliyning 2016 yil 28 dekabrdagi 678-sonli qarori bilan tasdiqlangan); - Tojikiston Respublikasi fuqarolari – mehnat migrantlarini 2015 yilda ish bilan ta'minlash dasturi; - 2018-2019 yillarda Tojikiston Respublikasi aholi bandligiga ko'maklashish davlat dasturi; - 2018-2021 yillarda Tojikiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlarining ijtimoiy va iqtisodiy reintegratsiyasi bo'yicha yo'l xaritasi (2018 yilda tasdiqlangan).
O'zbekiston	<ul style="list-style-type: none"> - 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi; - 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi.
Turkmaniston	<ul style="list-style-type: none"> - "Turkmanistoni 2020 yilgacha iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlantirish strategiyasi" milliy Dasturi.

Qozog'iston. Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 29 noyabrdagi 790-sonli "Qozog'iston Respublikasida davlat rejalashtirish Tizimini tasdiqlash to'g'risida" qaroriga muvofiq davlat rejalashtirish Tizimi hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- Qozog'istonnei 2050 yilgacha rivojlantirish strategiyasi;
- Qozog'iston Respublikasini 10 yilgacha rivojlantirishning strategik rejasi, shu jumladan mamlakatni hududiy rivojlantirishning Prognoz sxemasi;
- Qozog'iston Respublikasining 5 yillik yoki 5 yildan ortiq muddatga mo'ljallangan milliy xavfsizlik strategiyasi;
- 5 yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozi;
- davlat dasturlari (kamida 5 yil);
- davlat organlarining 5 yilga mo'ljallangan strategik rejalar;
- 5 yilga mo'ljallangan hududlarni rivojlantirish dasturlari;
- ustav fondida davlat ishtirok etgan milliy boshqaruv xoldinglari, milliy xoldinglar va milliy kompaniyalarni rivojlantirishning 10 yilga mo'ljallangan strategiyalari⁶.

⁶ Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 29 noyabrdagi 790-sonli "Qozog'iston Respublikasida davlat rejalashtirish Tizimini tasdiqlash to'g'risida" qarori [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/P1700000790>].

2012 yil 14 dekabrdagi "Qozog'iston-2050" strategiyasida o'sib borayotgan demografik nomutanosiblik yangi migratsiya to'lqinlarini keltirib chiqarayotgani va butun dunyo bo'ylab ijtimoiy keskinlikni kuchaytirayotgani, Qozog'iston qo'shni davatlardan kelayotgan migratsiya oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirishi kerakligi va istiqboldagi vazifa sifatida mahalliy malakali kadrlar uchun ularning tashqi mehnat bozorlariga ortiqcha chiqib ketishining oldini maqsadida qulay shart-sharoitlarni yaratish lozimligi to'g'risida so'z yuritiladi.

Qozog'iston Respublikasini 2025 yilgacha rivojlantirish Strategik rejasida malakali va talab yuqori bo'lgan inson resurslarini jalb qilish uchun viza va migratsiya rejimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilibishi ko'rsatilgan⁷.

Qozog'iston Respublikasining milliy xavfsizligi to'g'risida qonun hujjatlari asosiy xavflardan biri sifatida nazoratsiz migratsiya jarayonlarini ko'rsatadi⁸.

2019-2023 yillarga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozida salbiy tendensiyalarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar sifatida migrantlar oqimi va malakali kadrlarning rivojlangan bozorlarga chiqib ketishi xavf-xatari ko'rsatilgan. Hujjatda, shuningdek, davlat migratsiya siyosati quyidagilarga qaratilishi ta'kidlangan: ichki migratsiyani rivojlantirish – fuqarolarni ustuvor mintaqalarga ixtiyoriy ravishda ko'chirishga ko'maklashish; xorijiy ish kuchini jalb qilish, tanlash va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish; migrantlarning moslashishiga, migrantlar va qabul qiluvchi hamjamiyat o'rtasida konstruktiv o'zaro munosabatlarning shakllanishiga ko'maklashish; noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish⁹.

Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 29 noyabrdagi 790-sonli "Qozog'iston Respublikasida davlat rejalashtirish Tizimini tasdiqlash to'g'risida" qarorining 9-bandiga binoan, konsepsiylar va doktrinalar Qozog'iston Respublikasini rivojlantirishning strategik rejası, mamlakatni hududiy rivojlantirishning Prognoz sxemasi, davlat dasturlari, davlat organlarining strategik rejalarini va qonunlari orqali amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, migratsiya siyosatini amalga oshirish parametrlari va mexanizmlari yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarda o'z aksini topishi lozim.

Mamlakatni hududiy rivojlantirishning Prognoz sxemasi qishloq joylaridan shaharlarga ko'chib kelgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlovchi dasturlar va institutlarning yaratilishi to'g'risida ma'lumot beradi. Qozog'istondagi urbanizatsiyaning ustuvor yo'nalishlari qatorida qishloq aholisining integratsiyasi qayd etiladi¹⁰. Bunda asosiy e'tibor qaytish migratsiyasi va etnik repatriatsiya bilan bog'liq masalalarga qaratilmagan.

Aholi migratsiyasi bo'yicha alohida davlat dasturi mayjud emas. Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 29 sentyabrdagi 602-sonli qarori bilan Qozog'iston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo'ljallangan migratsiya siyosati konsepsiysi tasdiqlandi.

⁷ Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 15 fevraldag'i 636-sonli "Qozog'iston Respublikasini 2025 yilgacha rivojlantirish Strategik rejasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni [<http://adilet.zan.kz/rus/docs/U1800000636#1255>].

⁸ Qozog'iston Respublikasining 2012 yil 6 yanvardagi 527-IV-sonli "Qozog'iston Respublikasining milliy xavfsizligi to'g'risida" qonuni [<http://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1200000527>].

⁹ Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 2019-2023 yillarga Prognozi [Kirish rejimi: www.gov.kz/memleket/entities/economy/documents/details/26696?lang=ru].

¹⁰ Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 21 iyuldag'i 118-sonli "Mamlakatni 2020 yilga qadar hududiy rivojlantirishning Prognoz sxemasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/U1100000118>].

Markaziy va mahalliy davlat organlarining strategik rejalarida qaytish migratsiyasi, migrantlarning moslashuvi va integratsiyasi, qaytib kelgan migrantlar va diasporani jamiyat rivojiga jaib qilish bo'yicha maqsadli indikatorlar aniq ko'rsatilishi zarur. Bunday holda, Qozog'iston migratsiya rivojlanish manbai sifatida qabul qilinadigan va tegishli loyihamalga oshirilayotgan xalqaro tajribaga murojaat qilishi zarur.

Qирғизистон. Qирғизистонни ижтимои-иқтисадлы ривожлантарышдаги асоси муваммо бу меҳнатга лаъоqатли ахолининг исхомини сонига нисбатан ниҳоятда тез сур'атлarda о'sишадир. Ушбу ко'рсаткичлар орасидаги тафовут иккى баравардан ham ко'проqни ташкил эти. Мамлакатда исхизлик даражаси hali ham yuqoriligidicha, исх haqining pastligi va yangi исх оринларининг yetishmasligi bilan bir qatorda, Qирғизистон ахолиси орасида меҳнат migrantlarining yuqori darajasi ham bunga sabab bo'lmoqda.

Tabiiyki, Qирғизистонда меҳнат bozorini tartibga solish va migratsiyani boshqarish bo'yicha davlat siyosati, avvalambor, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va muvofiqlashtirilgan bo'lishi zarur; ikkinchidan, ular iqtisodiy faol ахолининг raqobatdoshligini oshirishga, ichki migratsiyani tartibga solishga va tashqi меҳнат migratsiyasining sivilizatsiyalashgan rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishga yo'naltirilishi lozim. Afsuski, Qирғизистонда so'nggi yillarda migratsiyani boshqarish muammolarini bir necha marta bir boshqarmadan boshqasiga o'tdi, oqibatda bir necha idoralar ular bilan yetarli darajada shug'ullanmadи.

Bugungi kunda Qирғизистонning migratsiya boshqaruvi sohasidagi ustuvor yo'nalishlari konseptual tarzda quyidagilarga yo'naltirilgan:

- birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda chet elga ketayotgan Qирғизистон fuqarolarining sonini kamaytirish va joylarda yangi исх оринлари yaratish;
- ikkinchidan, ichki меҳнат bozorini muhofaza qilish. Qирғизистонда xalqaro меҳнат bozorida raqobatdosh bo'lgan исхчи kuchini shakllantirish. Uzluksiz kasbiy ta'lum tizimini rivojlanish orqali меҳнат bozori talablariga javob beradigan исхчи kuchining raqobatbardoshligini oshirish;
- uchinchidan, etnik qaytish migratsiyasini qo'llab-quvvatlash (qayrilmanlar) va diasporalar bilan ishslash. Davlat etnik qирғизларнинг Qирғизистон Respublikasiga ko'chib kelishlari uchun imtiyozli shart-sharoitlarni yaratadi va kayrilmanlarni zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan ta'minlaydi.

Qирғизистон Bangladesh, Ekvador, Yamayka, Moldova Respublikasi, Marokash, Serbiya, Tunis bilan birgalikda Migratsiyani milliy rivojlanish strategiyalariga kiritish bo'yicha Global qo'shma dasturda (2014-2018) ishtirot etdi. Biroq, мамлакатда migratsiyani boshqarishning samarali davlat mexanizmlari hali to'liq shakllantirilmagan, меҳнат resurslarini boshqarishning umummilliyl strategiyasi ishlab chiqilmagan, yaqin kelajakda uni ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.

Qирғизистон Respublikasi Hukumatining "Birlik. Ishonch. Yaratuvchanlik" Dasturini amalga oshirish bo'yicha 2018 yilga mo'ljallangan harakatlar Rejasiga chora-tadbirlar Qирғизистондан chet elga ketgan меҳнат migrantlarining huquqlarini himoya qilish normalarini takomillashtirish nuqtai nazaridan, Qирғизистон Respublikasining "Chet eldag'i vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asoslari to'g'risida" qonuni loyihasining yangi tahririni ishlab chiqish, shuningdek, YOII ga a'zo davlatlar hududidagi Qирғизистонлик меҳнат migrantlarining huquqlarini himoya qilishni yaxshilash ko'zda tutilgan edi. Qирғизистон Respublikasi Hukumati 2018 yilga mo'ljallangan ish rejasida mintaqalarni rivojlanishish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan shahar rivojlanishining асоси

yo'nalishlarini – "o'sish nuqtalarini" aniqlashni nazarda tutgan. Yana bir vazifa ishsizlikni kamaytirish va natijada eng faol va mehnatga layoqatlari aholining migratsiyasi ko'laminini kamaytirish maqsadida qayta ishslash korxonalarini ishga tushirishdir¹¹.

So'nggi yillarda mintaqalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. 2018 yil 10 yanvarda Qирг'изистон Республикаси Президентининг "2018 yilni hududlarni rivojlantirish yili deb e'lon qilish to'g'risida" Farmoni qabul qilindi va Qирг'изистон Республикаси Hukumatining 2017 yil 31 martdagи 194-sonli qarori bilan Qирг'изистон Республикасининг mintaqaviy siyosati Konsepsiysi tasdiqlandi. Ushbu dasturiy hujjatlarda o'rta va uzoq muddatli davrga mo'ljallangan mintaqaviy rivojlanish yo'nalishi belgilangan. Mintaqani rivojlantirishning umumiy maqsadlariga erishish uchun davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining hamkorligi ta'minlanadi. Mintaqalar aholisining turmush darajasi ularning ehtiyojlariga, xizmat ko'rsatish standartlarining talablariga javob beradi va jug'rofiy joylashuvi, iqlim sharoiti va mamlakat markazidan uzoqligiga bog'liq bo'lmaydi.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqbul taqsimlash asosida iqtisodiyotni rivojlantirish bo'ladi. Qabul qilingan chora-tadbirlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishslash sanoatini rivojlantirish, mol so'yish sexlarini tashkil etish, sanoatni jonlantirishni ta'minlaydi. Joylarda qishloq xo'jaligi kooperativlarini, yengil sanoatni rivojlantirish klasterlari shakllantiriladi, turizmni, shu jumladan ekologik va etnik yo'nalishdagi turizmni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratiladi. Mintaqaviy iqtisodiyot resurslarning o'ziga xos xususiyatlari, iqlim, jug'rofiy joylashuv va infratuzilmaning mavjudligini hisobga olgan holda hududning ixtisoslashuviga asoslanadi.

Tegishli loyiha ishlab chiqilgan bo'lsa ham, Qирг'изистонning migratsiya siyosati Konsepsiysi hali tasdiqlanmagan. Davlat o'z vataniga qaytmoqchi bo'lgan migrantlarga alohida e'tibor qaratishi lozim: ular uchun yer ajratish bo'yicha qulay sharoitlar yaratish, moliyaviy va iqtisodiy yordam ko'rsatish – bu masalan, past foizli kreditlar, ssudalar, ipoteka kreditlari berish va boshqalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Qирг'изистон Respublikasining 2018-2022 yillarga mo'ljallangan Mintaqaviy siyosati Konsepsiyasida 20 ta aholi yashash joylarini mintaqaviy o'sishning asosiy nuqtalari sifatida belgilash taklif qilingan¹². Mintaqalarning o'sish nuqtalari sanoat parklarini va sanoat klasterlarini jadal rivojlantiruvchi mintaqaviy markaz rolini o'ynaydi. Davlat hokimiyatining hududiy organlari, aholi va biznesga xizmat ko'rsatish markazlari, logistika markazlari, ijtimoiy ob'ektlarni tayanch shaharlarga joylashtirish majburiy shart hisoblanadi. Shaharlarning maqsadli rivojlanishi avtomatik ravishda iqtisodiy rivojlanish sohasiga qo'shni hududlardagi korxonalar va xo'jaliklar tarmog'ini jalb qiladi, mahalliy biznesni kengaytirish va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Shunday qilib, ayniqsa, viloyat shaharlarida yangi ish o'rirlari yaratiladi. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga jalb qilinadi va bularning barchasi hayotiy faoliyatning barcha sohalarida ko'p karrali samarani ta'minlaydi. Ya'ni, mehnat migrantlarini o'zlarining yashash joylariga ixtiyoriy ravishda qaytarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

¹¹ Qирг'изистон Respublikasining 2018-2022 yillarga mo'ljallangan mintaqaviy siyosati Konsepsiysi. Qирг'изистон Respublikasi Hukumatining 2017 yil 31 martdagи 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan [Kirish rejimi: <http://mineconom.gov.kg/ru/direct/9/npb>].

¹² Shu yerga qarang.

Tojikiston. Migratsiya masalalarini tartibga solish zamonaviy sharoitda eng dolzarb muammo bo'lib, Tojikiston Respublikasi hukumati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayni paytda migratsiya masalalari mamlakat hayotining turli sohalarini rivojlanirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi, shuning uchun ko'pgina davlat va me'yoriy-huquqiy hujjalarda migratsiya masalalarini, ayniqsa mehnat migratsiyasi talqinini tez-tez uchratish mumkin.

Mehnat migratsiyasi masalalari Tojikiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish milliy strategiyasida o'z o'mmini topdi¹³. Ushbu hujjatda mehnat migratsiyasini tartibga solish "samarali bandlikni kengaytirish" deb nomlangan strategik maqsad doirasida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadga erishishning muhim harakatlaridan biri "tashqi mehnat migratsiyasini, shu jumladan gender omilini hisobga olgan holda diversifikatsiya qilish va migrantlarning qaytish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish" hisoblanadi¹⁴. Davlat boshqaruvi tizimi, fuqarolik jamiyatni va biznes tuzilmalari muvozanatlari hamkorlikni amalga oshirishni boshlagan hozirgi bir paytda, keng diversifikatsiya va raqobatbardoshlikni hisobga olgan holda, iqtisodiyotning barcha sohalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlashda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining muvofiqlashtirilishi va javobgarligi alohida ahamiyatga egadir. Muvoqiflashtirish va javobgarlik tizimlarini rivojlantirish davlat sektori va biznes faoliyatini nazorat qilishda fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirishni ta'minlaydi.

Tojikiston Respublikasini rivojlantirish milliy strategiyasi – bu davlat boshqaruvi tizimining barcha darajalari uchun direktiv harakatlar rejasiga bo'lib, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatni uchun ushbu hujjat harakat rejasiga sifatida xizmat qiladi. Tojik jamiyatining tegishli sektorlari uchun direktiv va indikativ harakatlar rejasining o'zaro bog'liqligi ijtimoiy hayotning dolzarb muammolarini, shu jumladan migratsiya jarayonlarini hal qilishga yordam beradi.

Demografik prognozlarga ko'ra, yaqin kelajakda Tojikiston ichki va tashqi mehnat bozorlarining har ikkalasi uchun mehnat resurslarining to'laqonli donori sifatida ishtirot etadi.

Tojikiston tashqi mehnat migratsiyasini, mehnat migrantlarining manfaatlari qadriyat jihatidan bo'lgani kabi huquqiy jihatdan ham, ijtimoiy jihatdan ham to'líg'icha himoya qilinadigan va ta'minlanadigan, bunda ular salbiy film qahramonlarining prototiplari, u yoki bu xalqning qadr-qimmatini va oddiy zamonaviy aqli raso odamning g'ururini kamsituvchi turli xil axborot matnlarining qahramonlari bo'lib xizmat qilmaydigan to'laqonli mehnat bozorlariga yo'naltirishga kirishdi¹⁵. Xususan, tojikistonlik mehnat migrantlarini Fors ko'rfafiga yuborish to'g'risida muzokaralar olib borilmoqda. Hujjatda, shuningdek, mamlakatda mehnat migratsiyasi va migrantlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish jarayonini qonuniylashtirishga qaratilgan harakatlar muhim ekanligi qayd etiladi.

Aholining bandlik masalalari Tojikiston Milliy strategiyasining tegishli bandlarida ham aks ettirilgan: "Ekilmay yotgan va yangi yerlarni o'zlashtirish orqali qishloq aholisini ish o'rinnari bilan ta'minlash; ayollar, yoshilar, himoyasiz guruuhlar, shu jumladan nogironlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish, qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha ta'llim tarmoqlarini

¹³ Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish milliy strategiyasi. Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2016 yil 1 sentyabrdagi 392-sonli qarori bilan qabul qilingan.

¹⁴ Shu yerga qarang, 14-b.

¹⁵ "Gasterbayterlar mamlakati" shov-shuvli maqolasi "AiF" dan "yo'qoldi" [Kirish rejimi: <https://rus.ozodi.org/a/27096438.html>]; Tojikiston – gasterbayterlar mamlakat. [Kirish tartibi: www.dw.com/ru/a-609347].

rivojlantirish; ta'lim sohasidagi siyosat bilan muvofiqlashtirilgan bandlik bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish"¹⁶.

Tashqi mehnat migratsiyasiga taalluqli yana bir muhim jihat iste'molchi va investitsion talabni rag'batlantirish orqali mehnat migrantlarining pul o'tkazmalarini mamlakat iqtisodiyotiga erkin jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liqidir. Bunday holda, mehnat migrantlarining pul o'tkazmalarini mamlakatning iqtisodiy o'sishiga yordam beradigan tashqi moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Hujjat sanoatda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va "yangi eksport bozorlariga chiqish hamda mamlakatni migrantlarning pul o'tkazmalariga qaramligini kamaytirish" ni hisobga olgan holda sanoat, qishloq xo'jaligi va moliya sektorining jadal o'sishini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi¹⁷.

Tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat jamoat hayotining ko'plab muammo va masalalarini hal qilishga yordam berdi, balki ma'lum ijtimoiy muammolarning manbai ham bo'ldi. Agar oxirgi 20 yil ichida mamlakat ichidagi mehnat salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratilganida edi, bugungi kunda Tojikiston rivojlanishning boshqa darajasida bo'lar edi.

Chet elga tashqi mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlari mayjud. Masalan, erkak mehnat migrantlarining ishidan ajralishi. Qaytib kelgan mehnat migrantlari munosib ishsiz va tirikchilik uchun mablag'siz oilaning qolgan qismi uchun qo'shimcha yuk bo'lib qoladilar, chunki endi ular oilani va migrantning o'zini ham boqish uchun ko'proq ishlashlariga to'g'ri keladi. Erkaklarning ommaviy emigratsiyasi gender nomutanosiblikka olib keldi: Erkaklar ayollarga nisbatan 0,5% ga ko'p; ammo, mehnat migratsiyasi tufayli mamlakatdagi erkaklarning haqiqiy soni rasmiy ma'lumotlardagiga qaraganda ancha kam¹⁸. Bu ba'zan oilalarning buzilishiga olib keladi va tug'ilishni kamaytiradi. Vatanida qolgan migrantlarning oilalarida ijtimoiy muammolarning chuqurlashuvi muammosi "migrantlarning ayollar" va "ko'cha bolalari" kabi himoyasiz ijtimoiy guruhlarning shakllanishiga olib keladi¹⁹.

Tashqi mehnat migratsiyasining yana bir muhim jihat – mehnat migrantlarining pul o'tkazmalariga bog'liqligi bo'lib, bu ichki bozorda mehnatga layoqatli odamlarning faol bo'limgan qatlaming shakllanishiga olib keladi, ularning ma'lum qismi mehnat migrantlarining xotinlari va bolalaridan iboratdir. Bu jarayon shunday guruhlarning bir qolipdag'i "iste'molchi munosabati" ni yanada kuchaytiradi.

Bunday himoyalanishning hech qanday imkoniyatiga ega bo'limgan tashqi mehnat migrantlarini ijtimoiy himoya qilish uchun ayrim qabul qiluvchi mamlakatlarda, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasida ushu masalani hal etish yo'llari va usullari taklif qilinmoqda, shu jumladan "mehnat migrantlari uchun ham pensiyalarni shakllantirishning sug'urta, jamg'arib boriladigan tamoyiliga o'tishni ta'minlash" kuzatilmoxda²⁰.

¹⁶ Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish milliy strategiyasi. Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2016 yil 1 sentyabrdagi 392-soni qarori bilan qabul qilingan. 14-b.

¹⁷ Shu yerga qarang, 19-b.

¹⁸ Shu yerga qarang, 21-b.

¹⁹ Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish milliy strategiyasi. Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2016 yil 1 sentyabrdagi 392-soni qarori bilan qabul qilingan. 32-b. Tojikistonga shuningdek muvozanatlashtirilgan oilaviy va demografik siyosat zarus.

²⁰ Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish milliy strategiyasi. Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2016 yil 1 sentyabrdagi 392-soni qarori bilan qabul qilingan. 85-b.

Shunday qilib, Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bol'gan davrda rivojlantirish Milliy strategiyasida ushbu hujjatda ko'rsatilgan talablarning samarali va o'z vaqtida bajarilishini hisobga olgan holda kutilayotgan natijalar aks ettirilgan. Ta'kidlanishicha, "samarali bandlik va inson kapitalini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan bandlikni rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi quyidagi natijalarga olib keladi: mehnatga layoqatlari aholi va ish o'rinalining soni va sifatining muvozanatlashuvi, ishsiz aholi sonining kamayishi; erkaklar va ayollarning jadal rivojlanish istiqbollariga ega bo'lgan tarmoqlarda bandlik darajasining oshishi; gender guruuhlarining demografik tuzilishini hisobga olgan holda, mehnat bozorini tahlil qilish va prognoz qilish mexanizmining kuchayishi, mehnat bozori to'g'risidagi ma'lumotlar yiliga kamida ikki marta yangilanadi; mehnat unumdarligining barqaror o'sishini rag'batlantirish uchun milliy tizim yaratilgan; bandlik bo'yicha hududiy tafovutlarning pasayishi, ichki migratsiya bosimining pasayishi ta'minlangan; ishga joylashish bo'yicha alohida muammolarini bo'lgan odamlarning bandligi yaxshilandi"²¹.

Tojikiston Respublikasini rivojlantirish milliy strategiyasi migratsiya jarayonlarining muammolarini, ayniqsa tashqi mehnat migratsiyasini hal qilishning barcha jihatlarini qamrab oladi, bunda rasmiy bandlik, norasmiy bandlik va mehnat migratsiyasi teng darajada faol bo'lgan "uch komponentli" mehnat bozori rivojlanadi. Ushbu uch komponentli mehnat bozorida tashqi mehnat migratsiyasi hanuzgacha ma'lum darajada norasmiy va nazorat qilib bo'lmaydigan holda qolmoqda, shuning uchun ushbu jarayonni tartibga solish masalalari bo'yicha aniq qadamlar zarur.

Tashqi mehnat migratsiyasini strategik jihatdan tartibga solishning yana bir muhim muammosi – mehnat migrantlarining kelib chiqish mamlakatlarda reintegratsiyalashish qiyinchiliklaridir. Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2014 yil 4 iyundagi 390-sonli qaroriga binoan Tojikiston Respublikasi Mehnat, Migratsiya va bandlik vazirligida mehnat migrantlariga maslahatlar berish va ularni tayyorlash bo'yicha : Dushanbe, Xorog, Xo'jand va Boxtar shaharlarida to'rtta markaz faoliyat ko'rsatmoqda. 2015 yilda Tojikiston Respublikasi Mehnat, Migratsiya va Bandlik Vazirligi tomonidan Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlarga kirish uchun "ta'qiq" qo'yilganlar" ro'yxatiga kiritilgan Tojikiston Respublikasi fuqarolarini – mehnat migrantlarini ishga joylashtirish bo'yicha dastur qabul qilindi. Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 26 oktyabrdagi 499-sonli ushbu qarori munosabati bilan Tojikiston Respublikasida 2018-2019 yillarda aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat dasturi tasdiqlandi.

Dasturda aholining bandligi bo'yicha davlat siyosatining asosiy vazifalari belgilangan, shuningdek, qaytib kelgan mehnat migrantlarining faoliyatini moslashtirish bo'yicha davlat siyosati chora-tadbirlari amalga oshirish hamda aholining bandligi bo'yicha davlat siyosati chora-tadbirlarining amalga oshirilishini Tojikiston Respublikasida 2020 yilga qadar mehnat bozorini rivojlantirish bo'yicha Davlat strategiyasi va Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha rivojlantirish Milliy strategiyasini amalga oshirish bilan muvofiqlashtirishni ta'minlash ko'rsatib o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, Tojikiston Respublikasida 2018-2019 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish davlat dasturi "Tojikiston Respublikasining davlat prognozlari, konsepsiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlari to'g'risida" Tojikiston Respublikasi qonunining 7-moddasiga hamda "Bandlikka ko'maklashish to'g'risida" Tojikiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga muvofiq

²¹ Tojikiston Respublikasi aholisini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha 2018-2019 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi, 2017 yil 26 oktyabr, 499 www.adlia.tj/show_doc.fwx?Rgn=130357&login=yes.

ishlab chiqilgan. Dastur yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozorida vositachilik qilish, mehnat resurslarini professional rivojlantirish, qaytib kelgan mehnat migrantlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayollar va yoshlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish va ishsizlikning davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Tojikiston Respublikasi Mehnat, Migratsiya va Bandlik vazirligi tomonidan Tojikiston Respublikasiga qaytib kelgan mehnat migrantlarini ijtimoiy-iqtisodiy reintegratsiyalash bo'yicha 2018-2021 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi va 2018 yilda tasdiqlandi. Yo'l xaritasi o'z vataniga qaytgan mehnat migrantlarining reintegratsiya jarayoniga erishish yo'llarini aks ettiruvchi 8 ta maqsaddan iborat.

Tojikiston Respublikasini rivojlantirishga oid turli strategik hujjatlar, migratsiya sohasidagi dasturlarning mazmunini ko'rib chiqayotganda, Tojikiston Respublikasi davlat migratsiya siyosatining kelgisidagi asosiy maqsad va vazifalarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- Tojikiston Respublikasining migratsiya sohasidagi xalqaro shartnomalarga qo'shilishi va Tojikiston tomonidan migratsiya masalalari bo'yicha xalqaro majburiyatlarning bajarilishi;
- xalqaro miqyosda tan olingan huquqiy normalarga, Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq migrantlarning huquqlari va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- migratsiya jarayonlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bazasini takomillashtirish va rivojlantirish;
- migratsiya jarayonlarini boshqarishning davlat tizimini takomillashtirish va tegishli kadrlarni tayyorlash;
- migratsiya jarayonlarini prognoz qilish, ushbu sohadagi tegishli davlat va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- noqonuniy migratsianing oldini olish; migratsiya jarayonlarini boshqarish bo'yicha ijro hokimiyyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;
- xalqaro talablarga javob beradigan migratsiya nazorati tizimini va yagona ma'lumotlar bazasini yaratish;
- vaqtinchalik migrantlarning bandligini ta'minlash uchun maxsus dasturlarni amalga oshirish yo'l bilan ularning qaytib kelishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- mamlakat ichida doimiy yashash joylarida ko'chirilganlarni ixtiyoriy va xavfsiz ravishda qaytarish uchun siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni ta'minlash.

Turkmaniston. Turkmanistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari va rejali migratsiya oqimlarining aniq ko'rsatkichlari va ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirin o'z ichiga olmaydi, bu esa davlatning migratsiyaga qanday munosabatda ekanligini aniqlashni qiyinlashtiradi. Mamlakatning rejali hujjatlarida va milliy strategiyalarida chet eldan qaytayotgan odamlarning moslashuvi va reintegratsiyasi bo'yicha maxsus choralar hali mayjud emas. IQRK mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiyligi dasturlari va rejalarining bir qismi sifatida ta'minlanadi.

Turkmaniston hukumati ishchi kuchlari va yuqori malakali mutaxassislarining emigratsiyasini kelajakda mehnat bozoriga va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan salbiy

hodisa deb qaraydi. Chet eldan ish tajribasi, yangi ko'nikmalar va ta'l'im olib kelgan migrantlarning qaytishi, aksincha, Turkmaniston iqtisodiyotining rivojlanishi uchun ijobjiy hodisa sifatida ko'rildi.

Mustaqillikka erishilgandan keyingi qisqa davr ichida Turkmanistonda ulkan siyosiy, huquqiy va iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Turkmaniston XIV Davlat oqsoqollar kengashi, Xalq Maslahati va "Galkinish" umummilliy harakati ishtirokchilari bir qator muhim qarorlarni qabul qildilar, ulardan biri "Turkmanistonni 2020 yilgacha iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanirish strategiyasi" Milliy dasturidir. Milliy dastur Turkmaniston davlat oqsoqollar kengashi, Xalq Maslahati va "Galkinish" milliy harakatini XII qo'shma yig'ilishining qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Uni tayyorlash Turkmaniston Prezidenti S. Niyozov boshchiligidagi Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshirildi.

Milliy dasturning strategik maqsadi – Turkmanistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va aholi turmushining munosib standartlari bo'yicha yuksak jahon darajasiga ega bo'lgan jadal rivojlanuvchi kuchli davlatga aylantirishdir. Milliy dasturda uchta ustuvor vazifalar belgilangan:

Birinchidan, Turkmanistonning dunyoning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishi, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari, yangi texnologiyalar va ishlab chiqarishlarning joriy etilishi va mehnat unumdorligining oshirilishi evaziga uning iqtisodiy mustaqilligi va xavfsizligini saqlab qolish.

Ikkinchidan, kishi boshiga yalpi mahsulot ishlab chiqarishning barqaror o'sishi.

Uchinchidan, yuqori investitsion faoliyat va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sanoat ob'ektlari qurilishini ko'paytirish.

Belgilangan ustuvor vazifalarni hal etish Turkmaniston fuqarolarining turmush darajasini rivojlangan dunyo davlatlari darajasiga ko'tarish va turkman xalqi uchun yuqori turmush darajasini ta'minlash imkonini beradi. Ushbu masalalrni hal qilish uchun Turkmaniston iqtisodiy, tabiiy, ruhiy-ma'naviy, axloqiy va intellektual salohiyatga tayanadi²².

O'zbekiston. Hozirgi vaqtida amalga oshirilayotgan davlat boshqaruvi sohasidagi keng ko'lamli islohotlar va xalqaro hamkorlikni rivojlanirish doirasida O'zbekistonda migratsiya masalalariga munosabat tubdan o'zgardi. 2018 yilda O'zbekiston XMgTning to'laqonli a'zosiga aylandi va XMgT Konstitutsiyasini ratifikatsiya qildi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi aholi bandligini oshirish, ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, shuningdek migrantsiya to'g'risida qonun hujjatlarini ishlab chiqish choralarini amalga oshirishni nazarda tutadi (to'rtinchi yo'nalish – "Ijtimoiy sohani rivojlanirish").

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydag'i PF-5052-sonli "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni bilan Mehnat vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi sifatida qaytadan tashkil etildi. Ushbu islohot bandlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirishga yangi yondashuvlarni

²² "Turkmanistonni 2020 yilgacha davrda iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanirish strategiyasi" milliy Dasturi [Kirish rejimi: http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=6787].

joriy etish, mehnat bozori infratuzilmasini, shu jumladan, davlat-xususiy hamkorligi asosida rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida davlatning kambag'allik, tengsizlik va ishsizlikni yumshatish va yengishga, aholining turmush darajasini barqarorlashtirishga va iqtisodiy qiyinchiliklarning og'irliliklarini aholining turli guruhlari o'rtasida bir tekis taqsimlashga qaratilgan ijtimoiy funksiyalarini rivojlantirish va takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoxda. Mamlakatda ijtimoiy adolat tamoyillarini yanada mustahkamlash va aholining daromadlari va yashash sharoiti bo'yicha keskin tabaqalanishining oldini olish masalalariga katta e'tibor qaratilmoxda.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o'rta ta'lif vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirliklarining birqalidagi sa'y-harakatlari bilan mamlakat fuqarolarining mehnat migratsiyasi maqsadida kelish va ketishlarni hisobga olish ma'lumotlarini birlashtirish maqsadida mehnat migrantlarini ro'yxatga olish bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjat ishlab chiqilmoqda.

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosati hamda ish boshlashga tayyor va ish qidirayotganlarning barchasini ish bilan ta'minlash bo'yicha ko'rileyotgan choralar quyidagilarga asoslanadi.

- mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli va mansab mavqeidan, dinga munosabati, e'tiqodi, shuningdek xodimlarning ishbilarmonlik jihatlar hamda ular mehnatining natijalariga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlardan qat'i nazar teng imkoniyatlarni ta'minlash ("Aholini ish bilan ta'minlash to'grisida" Qonunining 5-moddasi);
- kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta'minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- mehnat qilishning ixtiyoriyligi;
- bandlik sohasida ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta'minlash;
- bandlik sohasidagi tadbirlarni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo'nalishlari bilan muvofiqlashtirish va bog'lash.

Davlat bandlik sohasida quyidagi qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qobiliyatli bo'lmagan shaxslarga, shu jumladan 14 yoshga to'lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg'iz ota, yolg'iz onalarga hamda ko'p bolali ota-onalarga;
- o'rta maxsus kasb-hunar ta'lif muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek kasb-hunar ta'lifi muassasalarining va oliy ta'lif muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lif olgan bitiruvchilariga;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilganlarga;
- nogironlarga va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslarga;
- jazoni ijro etish muassasalaridan jazosini o'tab bo'lgandan keyin ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslarga;

- odam savdosidan jabrlanganlarga.

Ish beruvchi ish joylarining belgilangan eng kam miqdori hisobiga ish o'rirlariga ishga joylashtirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy mehnat organlari va boshqa organlar tomonidan yuboriladigan, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarni ishga qabul qilishi shart. Mazkur shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz rad etgan ish beruvchi va uning vakolatli shaxslari belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Xodimlarga ushbu kafolatlarni taqdim etish imkonini bo'limgan hollarda mahalliy mehnat organi ishga joylashishni, zarur hollarda esa ularning bepul kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydi.

Mehnat kodeksi va "Aholini ish bilan ta'minlash to'grisida" qonunida quyidagi asosiy qoidalar belgilangan:

1. Ish bilan ta'minlash – odamlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir. Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan haq to'lanadigan ishni bajarish bilan bog'liq bo'limgan faoliyat bilan shug'ullanish O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mutlaq huquqlaridir. Mehnat qilishga ma'muriy yo'l bilan biron-bir shaklda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno. Odamlarning ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmasligi ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo'lmaydi.
2. O'zbekiston Respublikasining band aholisi jumlasiga quyidagi shaxslar kiradi:
 - yollarib ishlaydigan, shu jumladan haq evaziga to'la yoki to'la bo'limgan ish kunida (haftasida) ish bajaradigan, shuningdek shartnoma (kontrakt, bitim) bilan tasdiqlangan haq to'lanadigan ishga ega bo'lgan, lekin betobligi, otpuska, ishlab chiqarishning vaqtinchcha to'xtatib qo'yilganligi munosabati bilan vaqtinchcha ishda bo'limgan fuqarolari;
 - o'zini ish bilan mustaqil ta'minlaydigan fuqarolari, shu jumladan tadbirdorlar, ishlab chiqarish kooperativlarining a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;
 - haq to'lanadigan lavozimga saylangan, tayinlangan yoki tasdiqlangan fuqarolari;
 - Qurolli Kuchlarda, ichki qo'shinlar va temir yo'l qo'shinlarida, milliy xavfsizlik va ichki ishlar organlarida xizmatini o'tayotgan harbiy xizmatchilar, shuningdek noharbiy (muqobil) xizmatni o'tayotganlar;
 - xalqaro hamda chet el tashkilotlarida ishlovchi fuqarolari;
 - shaxsiy tomorqa xo'jaligida va dehqon (fermer) xo'jaligida ishlab, mahsulotini jamoa xo'jaliklari, sho'ro xo'jaliklari va matlubot kooperatsiyasi tashkilotlariga topshiruvchi hamda bozorda sotuvchi fuqarolari;
 - ishlab chiqarishdan ajralgan holda umumiyligi ta'lim maktablarida, hunar-texnika bilim yurtlarida, o'rta maxsus harbiy va oliy o'quv yurtlarida, aspirantura, ordinatura va doktoranturada ta'lim olayotgan fuqarolari;

- o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshirayotgan jamoat tashkilotlari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolari ish bilan ta'minlangan aholi jumlasiga kiradi.

Boshqa davlatlarning respublika hududida vaqtincha turib, diplomatik vakolatxonalar faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq bo'limgan ishlarni bajaruvchi fuqarolari ham ish bilan ta'minlangan aholi jumlasiga kiradi.

Birinchi marta ish qidirayotgan, kasbi (ixtisosi) bo'limgan shaxslar uchun oldindan kasb tayyorgarligini talab qiluvchi ish, bunday ishni taklif etish imkoniyati bo'limgan taqdirda esa, fuqarolarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga oladigan hamda mehnat to'g'risidagi qonunlarning talablariga mos keladigan haq to'lanadigan boshqa ish (shu jumladan vaqtinchalik ish) maqbul keladigan ish hisoblanishi mumkin.

Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun mehnat birjasi tomonidan taklif qilingan, ularning kasb tayyorgarligiga mos bo'lgan, yoshini, sihat-salomatligini, mehnat stajini va oldingi kasbi bo'yicha tajribasini, yangi ish joyiga transportda qatnashiga hisobga oluvchi ish maqbul keladigan ish hisoblanadi, kasbiga (ixtisosiga) mos ish topib berish mumkin bo'limgan taqdirda, odamning qobiliyatini, kuchini, oldingi tajribasini va unga qulay bo'lgan ta'lim vositalarini hisobga olib, kasbini (ixtisosini) o'zgartirishni talab qiladigan ish maqbul keladigan ish hisoblanishi mumkin.

Ishdan mahrum bo'lgan, birinchi marta ish qidirayotgan, shuningdek uzoq tanaffusdan keyin (1 yildan ortiq) mehnat faoliyatini davom ettirishni xohlaydigan va ishsiz deb tan olingan shaxslar quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- ishsizlik nafaqasini to'lash;
- shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda moddiy yordam berish;
- kasb-kor o'rganish, malaka oshirish yoki qayta tayyorlash davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davr umumiyligi va uzuksiz mehnat stajiga qo'shilishi;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati.

Mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilinganda xodimlarga qo'shimcha moddiy qo'llab-quvvatlash kafolatları taqdim etiladi.

Qo'shimcha kafolatlar qo'shimcha ish joylari va ixtisoslashtirilgan korxonalar, shu jumladan nogironlar mehnat qiladigan korxonalar barpo etish, ish o'rgatishning maxsus dasturlarini tashkil etish, fuqarolarni ishga joylashtirish uchun korxona tomonidan ish joylarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishi yo'lli bilan va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa choralar bilan ta'minlanadi.

Ishga joylashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qilinishini nazorat etish davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning tarkibiy bo'linmalari, kasaba uyushmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishsizlarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga keng jalb qilish asosida aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 oktyabrdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi huzurida jamoat ishlari Jamg'armasi tashkil etildi.

2017 yilning 4 oktyabr kuni Oliy Majlis Senatining fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha Parlament komissiyasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi va fuqarolarning kafolatlangan mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar rejasidagi qabul qilindi. 2018 yilning 1 yanvaridan 22 iyuniga qadar Oliy Majlis Senatiga 4530 ta murojaat kelib tushdi, shundan 115 tasi (2,5%) mehnat qilish huquqlari va ish bilan ta'minlash huquqlarining buzilishi bilan bog'liq edi.

O'zbekistonda tashqi va ichki migratsiya masalalarini qonun hujjatlari bilan hal etish yetarli darajada ishlab chiqilmagan, bu esa tartibsiz migratsiya va O'zbekiston fuqarolari uchun chet elda zarur huquqiy himoyaning yo'qligiga olib keladi. Migratsiya jarayonlarini huquqiy qo'llab-quvvatlash migratsiya, O'zbekiston Respublikasiga kirish va chiqish tartibi, chet elliqlar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquqiy maqomi va boshqa masalalarga oid bir qator qonun hujjatlari qabul qilishni talab qiladi.

O'zbekistonda saqlanib qolgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga qaramasdan, kollejlarda o'qitish saviyasi Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistonning o'zida ham mehnat bozori talablarini qondira oladigan mutaxassislarni ommaviy ravishda tayyorlash to'g'risida fikr yuritishga imkon bermaydi. Ommaviy, keng qamrovli o'qitishga yo'naltirish tartibi yaxshi moddiy-teknik bazani va o'qituvchilar tarkibining zarur saviyasini ta'minlashga imkon bermaydi. Bundan tashqari, kollejlarda kechagi maktab o'quvchilari ommaviy ravishda o'qitiladi, ular yetarli ish tajribasiga ega emaslar, faqat boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishadi, shuning uchun o'qishni bitirgandan keyin ularning kasbiy mahoratining yuqori darajasi haqida gapirishning hojati ham yo'q.

O'zbekistonda migrantlar tomonidan mustaqil ravishda erishilgan mehnat ko'nikmalarini sertifikatlash muammosi jiddiy muammo emas, chunki ishdan qaytgan mutaxassislarni ishga qabul qilish odatda mayjud ko'nikmalarni turli shakkarda dastlabki sinovdan o'tkazuvchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, bunda xodimning kasbiy darajasini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar talab qilinmaydi.

"Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida" qonunda Xususiy bandlik agentliklarining O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha xizmatlari ularda tegishli litsenziya mayjud bo'lgan taqdirda taqdim etilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu xizmatlar xususiy bandlik agentligi va ish qidirayotgan shaxs o'rtasida tuzilgan xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma asosida ko'rsatiladi hamda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish masalasi bo'yicha chet elliq hamkorlar bilan o'z vakolatlari doirasida muzokaralar (suhbatlar) o'tkazish, shartnomalar, bitimlar va bayonnomalarning loyihibarini tayyorlash;
- ehtimol tutilgan ish beruvchilarni qidirish, xorijiy mamlakatlarning mehnat bozorini o'rganish asosida bo'sh ish o'rnlari mayjudligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslarga axborot taqdim etish;
- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyatini amalga oshirishni xohlayotgan shaxslar haqidagi axborotni faqat ularning roziliqi bilan chet elliq ish beruvchilar o'rtasida tarqatish;
- ish qidirayotgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun dastlabki tayyorgarlik tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslar ishga joylashtiriladigan mamlakatda bo'lish qoidalari, mehnat sharoitlari, ijtimoiy va uy-joy-maishiy ta'minoti, chet ellik ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalarini tuzishning huquqiy jihatlari haqida xabardor qilish;
- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslar bilan ish beruvchilar o'rtasida mehnat shartnomalarini tuzishga ko'maklashish.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun xususiy bandlik agentliklari zaxira qilinadigan summa sarflangan taqdirda mablag'larning o'rnini to'ldirish, shuningdek litsenziya tugatilgan yoki bekor qilingan taqdirda mablag'larni qaytarish shartlari bilan 50 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish Jamg'armasida zaxira qilib qo'yadi. Ayni paytda O'zbekistonda 65 ta xususiy bandlik agentliklari ro'yxatga olingan, ulardan 51 tasi O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidiruvchilarni ishga joylashtirishda yordam berish uchun litsenziyaga ega.

Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish Jamg'armasi quyidagi xarajatlarni moliyalashtirishga mo'ljallangan:

- chet elda ish faoliyati mobaynida huquqiy va ijtimoiy himoya ko'rsatish, shuningdek zo'r lashlarga, majburiy ishlashga va diskriminatsiyaga, mehnatda va boshqa masalalarda huquqburzaliklarga duch kelgan, moddiy tomondan mushkul vaziyatga tushib qolgan va shaxsini tasdqilovchi hujjatlarsiz va tirikchilik uchun zarur mablag'larsiz qolganlarga moddiy yordam berish;
- mehnat migratsiyasida bo'lgan davrida tan jarohati olgani, baxtsiz hodisaga duch kelgan fuqarolarga, agar ular mehnat migranti mablag'lari hisobiga o'zlariga ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar haqini to'lay olmasa, to'langan mablag'ni keyinchalik qoplab berish sharti bilan, tibbiy xizmat ko'rsatish;
- respublika hududidan tashqarida mehnat migratsiyasida bo'lgan davrda vafot etgan respublika fuqarolarining jasadlarini, shuningdek xorijdagi mehnat faoliyati vaqtida mayib bo'lgan yoki mehnat qilish qobiliyatining yo'qotilishiga olib kelgan og'ir jarohatlar olgan fuqarolarni, tegishli ishga joylashtirish davlat organlari tomonidan tasdiqlansa, olib kelish;
- avval xorija tashkillashtirilgan qabul doirasida ishslashga yuborilgan va bo'lgan mamlakatining qonun hujjatlarini buzishi natijasida chiqarib yuborilgan (deportatsiya) qilingan fuqarolarni, to'langan mablag'larni keyinchalik mazkur fuqarolar hisobidan qoplash sharti bilan qaytarish, shuningdek xorijiy ish beruvchilar tomonidan ishga joylashtirish bo'yicha kelishilgan shartlar bajarilmagan bo'lsa, fuqarolarni qaytarish;
- mamlakat mintqalarida ketishdan oldin moslashtirish, kasbga tayyorlash, o'qitish va chet tillarni bilishini sinash markazlarini tashkil etish va jihozlash, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorija jo'nab ketayotgan fuqarolarning kasbiy malakasini tasdiqlash;
- tartibga solinmagan mehnat migratsiyasining oldini olishga qaratilgan fuqarolarning chet elda tashkillashtirilgan ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish masalalri bo'yicha axborot-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish.



XMgT Saodat Alimurodovaga, 42 yoshda, o'z kichik korxonasini ishga tushirishi uchun tikish uskunalarini taqdim etdi. Bugungi kunda u o'z tikuv biznesini kengaytirdi, qo'shni qizlarni ishga olmoqda va qizlariga o'z ko'nikmalarini o'rgatmoqda. Shaartuz, Tojikiston

Fotosurat: XMgT Tojikiston, 2019

Nazorat savollari:

1. Hozirda Markaziy Osiyoda strategik hujjatlarning qaysi turlari migratsiyani boshqarish masalalarini o'z ichiga oladi?
2. Migratsiyani tartibga solish strategiyasi yoki konsepsiysi davlatga nima uchun zarur? U qanday hujjatlar bilan aloqador bo'lishi lozim?
3. Markaziy Osiyoda mamlakatlari mehnat migratsiyasining qanday yangi yo'nalishlarini rivojlantirmoqda? Nima uchun Markaziy Osyo mamlakatlari mehnat migratsiyasining jug'rofiyasini strategik ravishda diversifikatsiya qilishga urinmoqdalar?
4. Markaziy Osiyoning qaysi mamlakatlarida qaytish migratsiyasi strategik hujjatlarda ko'rib chiqilgan?

Amaliy mashg'ulot:

Mamlakatingiz, mintaqangiz yoki aholi yashash joyining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini o'rganing. Unda migratsiya bo'yicha masalalar ko'tarliganlini aniqlang. Ushbu hujjatga migratsiya siyosatining qaysi yo'nalishlarini kiritish mumkinligini izohlab bering. O'z nuqtai nazaringizni asoslang.

Majburiy adabiyot:

1. Tojikiston Respublikasidagi ijtimoiy va mehnat munosabatlari tuzilmasida mehnat migratsiyasi./ Mas'ul muharrir S.D. Mutieva, Yu.R. Yusufbekov. Dushanbe: Mehnat, migratsiya va aholini ish bilan ta'minlash ilmiy-tadqiqot instituti nashriyoti. 2016. 163-b. [Kirish rejimi: www.rtsu.tj/upload/files/data3/Монография_ТРУДОВАЯ%20МИГРАЦИЯ.pdf].
2. Vorobyova O.D., Topilin A.V., Mukomel V.I. va boshqalar. Aholi migratsiyasi: nazariya, siyosat: o'quv qo'llanmasi. M.: Ekonomicheskoye obrazovaniye. 2012. 364-b.
3. Mahalliy rivojlanishni rejalashtirishda migratsiyani hisobga olish bo'yicha yetakchi tamoyillar (Guidelines on Mainstreaming Migration into Local Development Planning) [Kirish rejimi: http://migration4development.org/sites/default/files/guidelines_on_mainstreaming_migration.pdf].
4. Mainstreaming Migration into National Development Strategies [Kirish rejimi: www.iom.int/mainstreaming-migration-national-development-strategies].

Qo'shimcha adabiyot:

5. Azimova M., Maxmadbekov M., Raimdodov U va boshqalar. Tojikiston Respublikasidagi ijtimoiy va mehnat munosabatlari tarkibidagi mehnat migratsiyasi. Dushanbe. 2016. 163-b.
6. Tojikiston Respublikasining 2017 yil 26 oktyabrdagi 499-soni 2018-2019 yillarda ish bilan ta'minlashga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi [Kirish rejimi: http://www.adlia.tj/show_doc.fwx?Rgn=130357&login=yes].

7. Qirg'iziston Respublikasida migratsiya bo'yicha birlashtirilgan ma'ruza. Qirg'iziston Mehnat, yoshlar va migratsiya vazirligi. Bishkek: Qirg'iziston Respublikasi Mehnat, migratsiya va yoshlar vazirligining nashriyoti. 2014. 40-b.
8. Qirg'iziston Respublikasining 2018-2022 yillarga mo'ljallangan mintaqaviy siyosati Konsepsiysi. Qirg'iziston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 31 martdagи 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan [Kirish rejimi: <http://mineconom.gov.kg/ru/direct/9/npb>] Qirg'iziston Respublikasining migratsiya siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish. Qirg'iziston Respublikasi Milliy strategik tadqiqotlar instituti hisoboti. Bishkek. 2013. 94-b. [Kirish rejimi: https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Publications/18_migrac_report.pdf].
9. "Turkmanistonni 2020 yilgacha iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlantirish strategiyasi" Milliy dasturi [Kirish rejimi: http://base.spinform.ru/show_doc.fwx?rgn=6787].
10. Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish milliy strategiyasi. Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2016 yil 1 sentyabrdagi 392-sonli qarori bilan qabul qilingan.
11. Qozog'iston Respublikasi Hukumatining 2017 yil 29 noyabrdagi 790-sonli "Qozog'iston Respublikasida davlat rejalashtirish Tizimini tasdiqlash to'g'risida" qarori [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/P1700000790>].
12. Ryazansev S.V., Bogdanov I.Ya., Dobroxleb V.G., Lukyanets A.S. YOII integratsiya jarayonlari sharoitida Markaziy Osiyo mamlakatlarining Rossiya va Qozog'iston bilan o'zaro migratsion ta'siri// Markaziy Osiyo va Kavkaz. 2017. 20-jild 1- nashr. 44-56 -b.
13. Qirg'iziston va Tojikistonda mehnat migratsiyasi va ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlar: Markaziy Osiyoda inson rivojlanishi imkoniyatlari. Sankt-Peterburg: Yevroosiy Taraqqiyot Bankining Integratsion tadqiqotlar markazi. 2015. 127-b. [Kirish rejimi: https://eabr.org/upload/iblock/0b9/report_ca_labour_migration_and_labour_intensive_sectors_full_rus.pdf].
14. Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 21 iyuldagи 118-sonli "Mamlakatni 2020 yilga qadar hududiy rivojlantirishning Prognoz sxemasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/U1100000118>].
15. Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 15 fevraldagи 636-sonli "Qozog'iston Respublikasini 2025 yilgacha rivojlantirish Strategik rejasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni [Kirish rejimi: <http://adilet.zan.kz/rus/docs/U1800000636#1255>].
16. Mahalliy rivojlanishni rejalashtirishda migratsiyani hisobga olish bo'yicha yetakchi tamoyillar (Guidelines on Mainstreaming Migration into Local Development Planning) [Kirish rejimi: http://migration4development.org/sites/default/files/guidelines_on_mainstreaming_migration.pdf].

4.2. Migratsiya siyosati va IQRY inobatga olgam holda markaziy osiyo mamlakatlarida qaytish migratsiyasining amalga oshirilishi

Mundarija. Markaziy Osiyo mamlakatlarining migratsiya siyosatiga konseptual yondashuvlar. Markaziy Osiyo mamlakatlari migratsiya siyosatining milliy strategiya va rivojlanish dasturlari bilan o'zaro aloqadorligi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining qaytish migratsiyasiga yondashuvlari. Qaytish migratsiyasi dasturlari va mexanizmlarining mavjudligi. Qaytish migratsiyasi g'oyalarini amalga oshirishda qaytib kelgan migrantlar va mahalliy aholi manfaatlarining muvozanatini topish zaruriyati. Qaytish migratsiyasining davlat axborot vositalari. Migranatlar bo'lib Markaziy Osiyaga qaytayotgan davlatlarning o'rni va javobgarligi.

Mamlakat hududida va undan tashqaridagi tartibga solinmaydigan migratsiyaning tendensiyalari va oqibatlari Markaziy Osiyo davlatlarini migrantlarning huquqlarini himoya qilishga, shuningdek, migratsiya uchun xavfsiz muhit yaratishga, paydo bo'layotgan tahdidlarga, masalan, migrantlarni radikal oqimlarga jalb qilish tahdidlari qarshi turish chora-tadbirlari to'g'risida o'ylashga majbur qilmoqda.


Tartibsiz migratsiyaning oldini olish bilan bog'liq bo'lgan migratsiya jarayonlarini tartibga solishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu readmissiya to'g'risida bitimlar tuzish bo'ldi. Readmissiya ko'plab mamlakatlar tomonidan qaytish migratsiyasi matnida ko'rib chiqilmoqda¹. Readmissiya sohasining mavzusi – bu aholining bir davlatdan boshqasiga migratsiyasi jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlardir².

Rossiya Federatsiyasiga takroran kirishga qo'yilgan ta'lqiq Qozog'istonga aks ta'sir ko'rsatadi: bu yerda qaytib kelgan tranzit migrantlar paydo bo'ldi. Chegarada "qolib ketgan" migrantlar asosan Tojikiston, O'zbekiston va Qirg'iziston fuqarolari bo'lib, bu davlatlar Rossiya Federatsiyasi bilan hatto umumiy chegaraga ham ega emas. Ta'qiqning kiritilganligi va odamlarning bundan xabardor emasliklari sababli ko'plab migrantlar Qozog'istonda qolib ketishga majbur bo'lishdi. Yuzaga kelgan vaziyatni tushungan va ob'eaktiv anglagan holda migrantlar uylariga Qozog'iston orqali qaytib kelishga qaror qilishlari yoki Qozog'istonnei kelgisida bo'lish mamlakati sifatida hisoblashi kerak edi. Natijada ko'p sonli migrantlar yo tranzit davrida, yo mumkin bo'lgan ishga joylashish davrida Qozog'iston Respublikasi hududiga kirishga majbur bo'lishdi. Migrantlarning ushbu toifasi xavf-xatarning g'oyat o'ziga xos vaziyatlariga duch kelishadi (4.2.1-rasm).

¹ Kajaeva O.S. Xalqaro huquqda readmissiya instituti: yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyaning avtoreferati. Mutaxassislik 12.00.10 – xalqaro huquq; Yevropa huquqi. M. 2014. 32-b.

² Readmissiyaning huquqiy asoslari: "Yurisprudentsiya" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanmasi. I.N. Glebov, A.S. Prudnikov tomonidan tahlilangan. – M.: UNITI-DANA: Qonun va huquq. 2010. 8-b.

4.2.1-rasm. Rossiya Federatsiyasiga qayta kirishlari ta'qiqlangan Qozog'istondagi migrantlar uchun xavf-xatar vaziyatlari, respondentlarning %³



Shu munosabat bilan, bir tomonidan fuqarolik aholisining ichki xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash va uning manfaatlarini ta'minlash, boshqa tomonidan esa migrantlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish dek ko'p funksiyali vazifalar yuklatilgan davlat organlarining mos, taroziga solingen va to'g'rilangan nuqtai nazari muhim ahamiyatga ega. Sayyoramizdagi har bir inson kabi, har bir migrant ham inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida e'lom qilingan, "yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxsizlik huquqi, har qanday kamsitilishdan teng himoyalanish huquqi va huquqqa ega shaxs sifatida tan olinish huquqi, qonun tomonidan teng ravishda himoya qilinish huquqi, hech kim qullikda yoki qaramlikda saqlanishi mumkin emasligi; hech kim qynoqqa solinishi yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazoga duchor etilishi mumkin emasligi, hamma odamlar qonun oldida tengdirlar va hech bir farqsiz, qonun tomonidan teng darajada himoya qilinish huquqiga egaligi, hech kim o'zboshimchalik bilan qamalishi, ushlab turilishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emasligi" kabi asosiy huquq va erkinliklarga ega¹⁴.

Qozog'istonda migratsiya qonun hujjatlari sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazaning tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatdagi amaldagi qonun hujjatlari, asosan, doimiy maqomga ega bo'lмаган shaxslarga nisbatan qaytish migratsiyasining tartiblarini tavsiflaydi. Shu bilan birga, davlat siyosatining umumiy strategiyasi kelajakda ixtiyoriy qaytish dasturini ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha mamlakatning jahon miqyosidagi ijobji imidjini faol ravishda qo'llab-quvvatlaydigan ko'plab samarali vositalarni o'z ichiga oladi.

³ 2016 yil yanvar-iyun oylarida Qozog'istondagi suhbatlar va guruuh suhbatlarining natijalari bo'yicha.

⁴ BMT Bosh assambleyasining 217 (A) (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi (1948 yil 10 dekabr).

Majburiy migrantlar uchun bunday og'ir vaziyatda davlat nazoratining muhimligini e'tirof etgan holda, XMgT Markaziy Osyo mintaqaviy muvofiqlashtirish idorasi tomonidan qaytish migratsiyasi xavf-xatarlarini mintaqaviy miqyosda baholash o'tkazildi⁵. Ushbu tadqiqotda Qozog'istonning quyidagi davlat tuzilmalari ham qatnashdilar: Qozog'iston Respublikasi Prezidenti devonxonasi, Xavfsizlik Kengashi, Milliy xavfsizlik qo'mitasi, Din ishlari va fuqarolik jamiyatni vazirligi, Tashqi ishlari vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Ichki ishlari vazirligi (Migratsiya xizmati Qo'mitasi), Aktau, Olmaota va Ostona shahar hokimliklari.

Qaytish migratsiyasining rivojlanishiga yordam beradigan asosiy milliy mexanizmlar sifatida, birinchi navbatda, qaytayotgan migrantlarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan reintegratsiyasiga yordam ko'rsatilishi lozim.

Iqtisodiy reintegratsiya ish o'rinalarini tashkil etish, yangi, mehnat bozorida talabgir bo'lgan yangi kasblarni egallash, ish va muloqot uchun zarur til darajasini egallash, mikrokredit olish va tadbirkorlik asoslarini, moliyaviy savodxonlik asoslarini o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish bilan bog'liq, shuningdek, qaytib kelgan migrantlarning moslashuvi uchun davlat xizmatlarini ommaviy raqamlashtirish, biznes muhitini, professional hamjamiatlarni, tadbirkorlar palatasini jaib qilish zarur.

Ijtimoiy integratsiya sog'liqni saqlash, ta'lim, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar, milliy diasporalarni moslashtirish va integratsiya qilish uchun qo'shilish, qiziqishlar bo'yicha professional hamjamiatlarga jaib qilish va boshqa davlat xizmatlarini ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

4.2.1-misol. **Qozog'istonda qaytib kelgan migrantlarning iqtisodiy reintegratsiya institutlari**

Qozog'iston Respublikasi hukumati "Qozog'iston aholisini ish bilan ta'minlash Dasturi" ni amalga oshirmoqda. Ushbu Dastur mamlakatda qashshoqlik darajasini 8,2% dan 6% gacha pasaytirishga imkon tig'diradi, ishsizlik darajasi esa 5,5% dan oshmaydi. Ushbu dasturning vazifalari mustaqil band shaxslar, ishsizlar va kam ta'minlangan aholini samarali iqtisodiy bandlikka jaib qilish, sanoatlashtirish dasturini amalga oshirish uchun kadrlar salohiyatini rivojlanтирish va manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirishdan iborat. Dasturni amalga oshirish uch bosqichni o'z ichiga oladi: dastlabki bosqich – 2011 yil, ikkinchi bosqich – 2012-1015 yillar, uchinchi bosqich – 2016-2020 yillar⁶.

Hozirda Qирг'изистонда мемнат мигрантлари, аниқса малақали мутаксисларнинг қайтишини раг'батлантарish борасидаги са'y-harakatlar faollashmoqda. Ушбу масала бо'yicha 2010 yilda XMgT ko'magida tashkil etilgan Qирг'изистон Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish Markazi faol rol o'ynamoqda⁷. Loyha doirasida Rossiya Federatsiyasi hududlari malmuriyatları bilan aloqalar mustahkamlanmoqda: ular orasida Moskva, Yaroslavl, Sverdlovsk, Orenburg, Perm, Penza, Samara va boshqalar bor. So'nggi matbuot xabarlariga ko'ra, Penza viloyati rahbariyati qishloq xo'jaligini "jonlantirishga" va Qирг'изистондан 2 ming nafargacha мемнат мигрантларини jaib qilish orqali qishloq joylarida малақали

⁵ Markaziy Osyoda migrantlarning zaif tomonlari va integratsiyaga ehtiyoji: Qaytish migratsiyasining asosiy sabablari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. XMgTning Markaziy Osyoda mintaqaviy tabiiy sharoitdag'i bahosi Ostona. 2017. 68 b. [Kirish rejimi: <https://kazakhstan.iom.int/publications>].

⁶ Qozog'iston Respublikasi Bandlik dasturi 2020 [Kirish tartibi: <http://shu.zhambyl.kz/dorozhnaya-karta-zanyatosti-2020/>].

⁷ Qирг'изистон Respublikasida migratsiya bo'yicha birlashtirilgan ma'ruza. Qирг'изистон Respublikasi Mehnat, yoshlar va migratsiya vazirligi. Bishkek. 2014. 18-b.

tibbiyot xodimlarining yetishmasligi muammosini hal qilishga umid qilmoqda. Markaz, shuningdek, ishga yollash masalalari bo'yicha Koreya Respublikasi, Turkiya va Yaqin Sharq bilan yo'lga solingan hamkorlik tizimiga ega.

Qирг'изистонда, shuningdek, mehnat migrantlarining milliy ma'lumotlar bazasini tuzish choralari ko'rilmoxda, u chegarani kesib o'tish va ro'yxatdan o'tish to'g'risidagi ma'lumotlar, qaytib kelgan migrantlarni qiziqtirishi mumkin bo'lgan bo'sh ish o'rinnari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Migratsiyani Qирг'изистонning milliy ustuvorliklariga muvofiq tartibga solish quydagi chora-tadbirlarni talab qiladi:

1. Chet elda qonuniy ravishda ishga joylashish imkoniyatlari to'g'risida migrantlarni xabardor qilish:
 - ish joylari to'g'risidagi e'lolnarni nashr etadigan axborot manbalarini moliyalashtirish va yaratish; umumrespublika y ommaviy axborot vositalarida (qo'shni davlatlarning bevosita ishtirokida) nashrlar uchun joy ajratish;
 - ketish ehtimoli yuqori bo'lgan migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatdagi mehnat sharoitlari va huquqiy rejim to'g'risida xabardor qilish uchun ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish.
2. Chet elda Qирг'изистон Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirish:
 - mintaqaning boshqa mamlakatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri muvofiqlashtirgan holda, mehnat migrantlarining manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunlarni uyg'unlashtirishni, shu jumladan chet el fuqarolari uchun pensiya va ijtimoiy nafaqalar to'g'risidagi nizomlarni qabul qilishga ko'maklashish.
3. Qирг'изистон Respublikasi fuqarolarini qo'llab-quvvatlash maqsadida chet ellardagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik vakolatxonalarining salohiyatlarini mustahkamlash:
 - ish kuchini qabul qilish to'g'risida ikki tomonlama shartnomalar tuzish orqali mintaqaning boshqa mamlakatlari bilan ishchi kuchiga bo'lgan talab va mehnat migrantlari – Qozog'iston Respublikasi fuqarolari uchun kvotalarini ko'paytirish bo'yicha doimiy muvofiqlashtirishni kuchaytirish.
4. Qирг'изистон Respublikasidan keladigan migrantlarni qabul qiladigan mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash:
 - yuboruvchi mamlakatlar ham, qabul qiluvchi mamlakatlar ham mehnat migratsiyasi sohasida umumiy va o'ziga xos muammolarga duch kelmoqdalar. Kelib chiqish mamlakatlarning birinchi navbatdagi vazifasi – o'z mehnat migrantlari, ayniqsa huquqlari buzilishida eng zaif bo'lganlarning (masalan, uy xo'jaligi bilan ban bo'lgan ayollar) himoyalanganligi va farovonligidan mumkin qadar amin bo'lish.
5. Chet elda Qирг'изистон Respublikasi fuqarolarining ijtimoiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha xalqaro shartnomalarning tuzilishi:
 - mehnat migrantlarining mehnat va ijtimoiy huquqlarining asosiy buzilishlari ish beruvchining migrant bilan mehnat shartnomasini (kontrakt) tuzish va (yoki) migrantning huquqiy holatini qonuniylashtirishdan bosh tortishi; ish haqini o'z vaqtida to'lamaslik yoki ish haqini to'lashdan

bosh tortish, bepul ishslashga majburlash; ish beruvchi tomonidan pasportning tortib olinishi, ish beruvchi tomonidan ish joyini tark etishning ta'qiqlanishi; vositachining firibgarligi; malakali tibbiy yordam ko'rsatishdan bosh tortish kabi holatlarda kuzatiladi.

6. QrRning chet eldag'i xorijiy muassasalarida ro'yxatdan o'tish va zarur hujjatlarni olish tartib-taomillarini takomillashtirish:
 - yashash joyida (ishslash joyida) ro'yxatdan o'tish qabul qiluvchi mamlakatdagi migrantlarning soni bo'yicha eng aniq ma'lumotlarni beradi. Bundan tashqari, globalashuv sharoitida chet elga ko'chib ketgan va joylashib olgan qirg'izlar bilan aloqani qo'llab-quvvatlash uchun maxsus dastur ishlab chiqilishi lozim, u Qirg'iziston va chet eldag'i qirg'iz diasporalari o'rtaSIDagi aloqani saqlab qolish va ijtimoiy-madaniy me'yorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini ham ko'zda tutgan bo'lar edi.
7. Chet elda ishga joylashish munosabati bilan ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qilish choralarini ta'minlash:
 - bugungi kunda qirg'iz migrantlari tomonidan tashlab ketilgan bolalarning haqiqiy sonini hisoblashning imkoniy yo'q. Migrantlar tomonidan dunyoga keltirilgan bolalarning soni bo'yicha rasmiy statistika mavjud emas;
 - mehnat migrantlari bolalarining huquqlari, garchi bolalar 90 kundan ortiq muddatga mamlakatda qolishlari mumkin bo'limgan (agar ularning fuqaroligi yoki Rossiya Federatsiyasi hududida vaqtinchalik yashash ruxsatnomasi bo'lmasa), demak bolalar bu yerda ota-onalari bilan qonuniy yashashlari va mакtabga borishlari mumkin bo'limgan Rossiya Federatsiyasida qo'pol ravishda buzayotgan bo'lsa ham, kelib chiqish mamlakati hukumati tomonidan ham himoya qilinmaydi.

Qirg'iziston Respublikasining qaytish migratsiyasi masalasini ko'zda tutuvchi oldingi dasturiy hujjatlari – bu Qirg'iziston Respublikasining 2010 yilgacha bo'lgan davlat migratsiya siyosati Konsepsiyasidir⁸. Unda, shu jumladan Qirg'iziston Respublikasida faoliyat ko'rsatadigan xorijiy kompaniyalarda mahalliy mehnat resurslaridan ustuvor foydalanishni hisobga olgan holda milliy mehnat bozorining muvozanatini ta'minlash, aholining tartibsiz migratsion qayta taqsimlanishidagi nomutanosiblikning oldini oladigan hamda alohida mintaqalar va aholi yashash joylarida ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, ekologik va mehnat keskinligining kuchayishiga yo'l qo'ymaydigan aholini oqilona joylashtirish uchun samarali iqtisodiy rag'batlantirishni yaratish va joriy etish ko'zda tutilgan.

Qirg'izistondagi migratsiya muammolari bilan odatda hukumat shug'ullanadi. Qirg'iziston Respublikasi Hukumati huzuridagi Davlat Migratsiya xizmati, Davlat chegara xizmati, Tashqi ishlar Vazirligi, Ijtimoiy rivojlanish Vazirligi va boshqalar ham davlatning migratsiya siyosatini amalga oshirishda bevosita ishtiroy etadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, turli davlat organlari migratsiya masalalarini faqat o'z vakolatlari doirasida tartibga soladilar. Shunga qaramasdan, ushbu davlat migratsiya xizmatining maqomini vazirlik darajasiga ko'tarishga ehtiyoj allaqachon tug'ilgan edi. Vazirlik – bu migratsiya siyosatini davlat miqyosida amalga oshiradigan tarmoq organizidir.

⁸ Qirg'iziston Respublikasining migratsiya siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish. Bishkek. 2013. 57-b. [Kirish rejimi: https://auca.kg/uploads/Migration_Database/Publications/18_migrac_report.pdf].

Qирғизистон Республикаси Ҳукуматининг мамлакатда янги исхоммаларни яратиш ва ортиқча исхоммаларни кучини жалб қилиш төғ'рисидаги қарорлардан бирине бу орта, кичик шаҳарлар ва шаҳар тибдиги посойлкаларни уларнинг шаҳароззлик базасини қайта тиклаш ва мустаҳкамлаш, ичкимигратсиya муаммомларини ҳал қилишда давлат органлари ва махалий о'зини о'зи бoshqarish органлари о'ртасидаги яқин ҳамкорликни та'минлаш орқали қайта тиклашdir.

Та'кидлаш юизки, меҳнат мигратсиyasi va mигратсиya siyosati bo'yicha Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi komissiyasi bilan faol ҳамкорлик Qирғизистон Республикасининг Belorussiya Республикаси, Qozog'iston Республикаси va Rossiya Federatsiyalarining Yagona iqtisodiy makoniga qo'shilishi bo'yicha Yo'll xaritasini ishlab chiqish bosqichida, Yevrosoyo iqtisodiy Ittifoqining shakllanishini hisobga olgan holda boshlandi.

Mehnat migrantlarini қaytarish masalalari endilikda Tojikiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy muammomlarni ҳал қилишда мухим аhamiyat kasb etmoqda. Tojikistonlik migrantlarning asosiy ko'pchiligi uchun vataniga қaytish – мухим ijtimoiy norma. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlayotgan paytlaridada тоjiklar har doim o'z vataniga, uylariga, oilalariga va qarindoshlariga қaytishni orzu қилишган.

So'nggi yillarda mehnat migrantlarini Tojikiston Respublikasiga оmmaviy ravishda қaytarish jarayoni me'yoriy-huquqiy hujjalatlari va maxsus davlat dasturlari va strategiyalarini qabul қилиш va amalga oshirish darajasida alohida e'tiborni va maxsus tartibga solishni talab qiladi. Shu maqsadda Tojikiston Respublikasi Hukumati hamda mehnat, mигратсиya va bandlik sohasidagi tegishli vakolatli органлар migrantlarni қaytarish masalalarini ҳал etishga qaratilgan bir qator hujjalarni qabul qildilar.

Tojikiston Respublikasida 2018-2019 yillarga mo'ljalangan aholini исхоммаларни ҳал қилишга ko'maklashish Davlat dasturiga muvofiq, давлат дарajasida quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:

- yoshlar va ayollar uchun mosligi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda samarali bandlikni ta'minlash maqsadida kichik va o'rta tadbirkorlikni qollab-quvvatlash;
- aholining zaif qatlamlari uchun samarali ish bilan ta'minlash shart-sharoitlarni яратиш va rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat-xususiy ҳамкорлик mexanizmini hamda aholini исхоммаларни та'минлашning mintaqaviy dasturlarini maqsadli moliyalashtirish tamoyillarini joriy etish;
- mehnat unumdorligini rivojlantirishga yordam beradigan milliy tizimni shakllantirish; Tojikiston iqtisodiyoti tarmoqlari mutaxassislarining malakasini baholash dasturlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Tojikiston Respublikasining "Kattalarning ta'limi to'g'risida" qonunini amalga oshirish choralarini ko'rish;
- mehnat migrantlarini qabul qiluvchi мамлакатларга kirishlari ta'qiqlangan, vataniga қaytib kelgan mehnat migrantlarining respublika mehnat bozori sharoitlariga moslashishlariga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- mehnat bozorini tadqiq қилиш орқали mehnat bozorini doimiy ravishda baholab borish, исхоммаларни beruvchilarning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini aniqlash;

- korxona va tashkilotlarda ishchilarni ommaviy qisqartirish holatlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ish bilan ta'minlash bo'yicha davlat siyosatining Tojikiston Respublikasida mehnat bozorini 2020 yilgacha rivojlantirish Davlat strategiyasi va Tojikiston Respublikasini 2030 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish Milliy strategiyasi bilan birgalikda amalga oshirilishini muvofiqlashtirish⁹.

Tojikiston Respublikasida amaldagi migratsiya sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bilan quyidagi bo'limlar bevosita shug'ullanadilar:

- Tojikiston Respublikasi Mehnat, migratsiya va bandlik vazirligi;
- Tojikiston Respublikasi Mehnat, migratsiya va bandlik vazirligi huzuridagi Migratsiya xizmati;
- xorijda ishga joylashtirish bo'yicha Agentliklar;
- Statistika agentligi (kelish va ketish talonlarini ishlab chiqish, so'rovnomalar o'tkazish va aholining ro'yxatga olinishini amalga oshirish).

Tojikiston Respublikasi Hukumatining 2014 yil 4 iyundagi "Migratsiya xizmati to'g'risida" 390-sonli qarorining 4-moddasida Migratsiya xizmatining mehnat migrantlariga nisbatan vazifalari ro'yxati keltirilgan va "qaytib kelgan migrantlar" atamasi ikki marta qayd etilgan: matnda, birinchidan, qaytib kelganlaridan keyin ularni ro'yxatdan o'tkazish zarurligi, ikkinchidan, Migratsiya xizmatining boshqa davlat organlari bilan qaytib kelgan migrantlarni reintegratsiya qilish va reabilitatsiya qilish bo'yicha hamkorligi.

Ushbu vazifani amalga oshirish Tojikistonning barcha mintaqalarida tashkil etilgan migratsiya markazlariga yuklatilgan. Ushbu Markazlar mehnat migrantlariga jo'nab ketishlaridan oldin maslahatlar berish va o'qitish Markazlari deb nomlanadi. Hozirgi kunda 10 ta markazdan 4 tasi tashkil etilgan. Ular Dushanbe, Xorog, Xo'jand va Bohtar shaharlarida joylashgan. Ushbu Markazlarning asosiy maqsadi – mehnat migrantlariga treninglar va maslahat kurslari orqali amaliy yordam ko'rsatish, shuningdek mehnat migratsiyasining quyidagi ikki bosqichida tashkiliy va moliyaviy yordam berishdan iborat: jo'nashdan oldin va qaytib kelgandan keyin.

Migrantlarning ketish va vataniga qaytish paytidagi moslashishi va reintegratsiyasiga yordam beradigan muhim yo'nalish bu mehnat migrantlarini o'qitishdir. Tojikiston Respublikasida 2001 yilda inson huquqlari bo'yicha 2001-2011 yillarga mo'ljallangan ta'lim dasturi qabul qilindi, keyinchalik u 2020 yilga qadar uzaytirildi. Ushbu davlat dasturini amalga oshirish doirasida milliy qonun hujjatlari va xalqaro standartlarning talablariga muvofiq, migrantlarni inson huquqlari sohasida xabardor qilish, bilim berish va o'qitish tizimini takomillashtirish, shu jumladan, migratsiya ta'limi masalalari bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladigan o'zgartirishlarni kiritish mumkin:

- davlat xizmatchilarini inson huquqlari asoslari, shu jumladan migrantlarning huquqlari bo'yicha o'qitish;
- O'quv dasturlariga migrantlarning huquqlari va IQRK bo'yicha tegishli organlarning davlat xizmatchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash kurslarini joriy etish;
- IQRK va migrantlarning huquqlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratish;

⁹ Sulaymonov Sh.F. Tojikiston Respublikasini ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsadlarini amalga oshirish muammolari// Zamonaliv iqtisodiyot muammolari. 1-soni (61). 2017. 165-168 b.

- mehnat migrantlarini jo'nab ketishdan oldin o'qitish bo'yicha ixtisoslashgan markazlarni tashkil etish;
- migrantlarning huquqlari bo'yicha turli ilmiy va axborot nashrlarini chop etish.

Shuningdek, "Ochiq Jamiyat" "Yordam fondi – Tojikiston" Instituti ko'magi bilan Tojikiston Respublikasiga qaytib kelgan mehnat migrantlarining ijtimoiy-iqtisodiy reintegratsiyasi bo'yicha 2018-2021 yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi ishlab chiqilgan bo'lib, u 8 ta maqsaddan iborat:

- 1-maqsad. Tojikistonning davlat organlariga migrantlar chet elga ketishlaridan oldingi va qaytganlaridan keyingi harakatlarining 2018-2021 yillarga mo'ljallangan keng qamrovli va real harakatlar rejasini tuzishda ko'maklashish.
- 2-maqsad. Migrantlarning ketishdan oldin asosiy inson huquqlari himoyalanishini kuchaytirish.
- 3-maqsad. Integratsiyani va keyingi reintegratsiyani yaxshilash uchun ketishdan oldin migrantlarning kasbiy salohiyatini kuchaytirish.
- 4-maqsad. Qaytish va reintegratsiya tadbirlari uchun muvofiqlashtirish mexanizmi va hamkorlik tuzilmasini yaratish.
- 5-maqsad. Migrantlarning qaytishi va reintegratsiyasini boshqarish bo'yicha markaziy va mahalliy darajadagi mas'ul hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyatining salohiyatini kuchaytirish.
- 6-maqsad. Migrantlarning ijtimoiy va iqtisodiy reintegratsiyasini qo'llab-quvvatlash.
- 7-maqsad. Davlat organlari va diaspora tashkilotlari o'rtafiga hamkorlikni kuchaytirish.
- 8-maqsad. "2018-2021 yillarda Tojikistonda migratsiyani boshqarish bo'yicha yo'l xaritasi" monitoringini tashkil etish va bajarilishini baholash.

Shunday qilib, so'nggi yillarda Tojikistonda migratsiya jarayonlarini, shu jumladan mehnat migratsiyasini va qaytib kelgan mehnat migrantlarining reintegratsiyasini tartibga solishning samarali mexanizmi ishlab chiqilgan. Binobarin, migratsiya masalalari bo'yicha qabul qilingan hujjatlar, strategiyalar, dasturlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni samarali amalga oshirish ustida ishslash lozim.

Turkmanistonda mamlakatga qaytish va reintegratsiyalashishga yordam, qayd etilganidek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiyligi dasturlari va rejalar (ish o'rnlari tashkil etish, ta'lim, sog'liqni saqlashni rivojlantirish va boshqalar) doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarda o'z ifodasini topgan.

Ko'rsatilgan masalalar Turkmaniston Prezidentining 2016 yil 18 martdagি qarori bilan tasdiqlangan Turkmanistonda odam savdosiga qarshi kurashish Milliy harakat rejasida aniqroq ko'rib chiqiladi. Harakatlar rejasida belgilangan chora-tadbirlar, xususan, odam savdosidan jabrlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish, ularni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilish, shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarning huquqlarini tiklash va ularga kompensatsiya to'lashga qaratilgan.

Qaytib kelgan migrantlar oldida turgan muhim muammolardan biri bu reabilitatsiya va reintegratsiya to'g'risidagi ma'lumotlarning yetishmasligir. Bu boradagi xabardorlik oshirilishi, shu jumladan me'yoriy-huquqiy baza va bandlik sohasidagi imkoniyatlar to'g'risida ma'lumot berilishi zarur.

Migratsiyani, shu jumladan, qaytish migratsiyasini tartibga solishning institutsional asoslari birinchi navbatda mamlakatning davlat tuzilmalariga yuklatilgan. Turkmanistonning Migratsiya to'g'risidagi Qonuniga binoan, Turkmanistonning migratsiya sohasidagi vakolatli davlat organlari – Turkmaniston

Davlat Migratsiya Xizmati, Turkmaniston Tashqi ishlar vazirligi, Turkmaniston Milliy xavfsizlik vazirligi, Turkmaniston Ichki ishlar vazirligi, Turkmaniston Davlat chegara xizmati va migratsiya masalalari bilan shug'ullanadigan boshqa davlat organlaridir (5-modda).

"Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" Qonunga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan organlarga qo'shimcha ravishda, Turkmaniston Bosh prokururasi ham aytib o'tilgan (10-modda, 2-qism).

Ushbu davlat organlarining huquqiy maqomini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadi, migratsiya jarayonlarini soddalashtirishda ularga muhim funksiyalar va vakolatlar berilgan. Shunday qilib, Turkmaniston Respublikasining 2009 yil 21 noyabrdagi "Migratsiya xizmati to'g'risida" qonuniga muvofiq, migratsiya jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini (markazini) yaratish va ma'lumotlarni qayta ishlashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish (6-modda, 4-qism) Davlat Migratsiya xizmatining asosiy vazifalaridan biridir. Davlat Migratsiya xizmatining muhim vazifalaridan biri fuqarolarni migratsiya masalalari bo'yicha qabul qilish, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish, ushbu shikoyatlarni umumlashtirish va tahlil qilish, Davlat Migratsiya xizmatining vakolatiga kirdigan masalalar bo'yicha aholi va yuridik shaxslarning xodimlari o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishdir (11-modda, 19-qism).

Aholini ish bilan ta'minlash muammolarini e'tirof etgan holda, O'zbekiston Hukumati munosib ish o'rinalarini tashkil etish va aholini ish bilan ta'minlashni rag'batlantirishga ustuvor ahamiyat qaratadi. Shunday qilib, yangi barqaror ish o'rinalarini yaratish orqali bandlik darajasini oshirish, tadbirkorlik va biznes uchun qulay muhit yaratish yo'lli bilan tashqi mehnat migratsiyasi va ichki mehnat migratsiyasini tartibga solish, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar Dasturi qabul qilindi. Dasturda tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagini bildirgan vaqtinchalik ishsiz fuqarolarni jalb qilish bilan tadbirkorlikni rivojlantirish, ishsizlik nafaqalari o'rniga yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha birinchi navbatdgi xarajatlarni to'lash uchun bir martalik maqsadli subsidiya berishga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ish bilan ta'minlashning hududiy va tarmoq dasturlari tizimini rivojlantirish, yangi ish o'rinalari yaratish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ishga joylashtirish uchun kvotalarga davlat buyurtmasini belgilash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilingan. 2018 yil 1 yanvardan boshlab o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining birinchi marta ishga qabul qilingan bitiruvchilariga ish haqi to'lashda yagona ijtimoiy to'lov stavkasi birinchi ish yilda 50% ga, ikkinchi va uchinchi yillarda esa 25% ga pasaytirildi. "Elektron mehnat daftarchasi" tizimi joriy etildi, NNT larga litsenziya asosida fuqarolarni malakat hududida va chet elda ishga joylashtirish sohasida pullik xizmatlarni ko'rsatish huquqi berildi, Bandlik vazirligining Jamoat ishlari Jamg'armasi tashkil etildi.

¹⁰ O'zbekistonda barqaror bandlik: ahvoli, muammolar va ularni hal etish yo'llari. Tahliliy xat [Kirish tartibi: www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Employment/un_doc_uzb_employ_brief_WEB.pdf].

2017 yilda 336 mingta yangi ish o'rirlari yaratildi, ularning yaratilishiga tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati yordam berdi. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlash, xususiy mulkni har tomonlama muhofaza qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 sentyabrdagi 703-sonli qarorining 2-bandida, zarurat tug'ilganda, O'zbekiston shaharlarida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligining Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha agentligining mintaqaviy byurosini tashkil etish to'g'risidagi qoida mustahkamlangan.

Qarorning 4-bandida chet elga ketayotgan fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi filiallarida jo'nab ketishdan oldin moslashtirish va o'qitish markazini tashkil etish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 sentyabrdagi 725-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Litsenziyalash Bandlik va mehnat munosabatlari Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Uning ishchi organi Tashqi mehnat migratsiyasi Agentligi bo'lib, u quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tanlash, tayyorlash, moslashtirish tadbirlarini o'tkazish va xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilish orqali ularga xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashish;
- tashqi mehnat migratsiyasini kompleks tahlil qilish, shu asosda me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarga ishga joylashishga ko'maklashish;
- mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini tartibga solish va ularning mehnat huquqlarini ta'minlash masalalari yuzasidan xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qilish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish va ularning faoliyatini nazorat qilish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorija ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasbiy malakasini tasdiqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ishchi organi vazifalarini bajarish;
- yuridik shaxslarga xorijiy ishchi kuchini jalb qilishga ruxsatnomalarni va xorijiy fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomalarni belgilangan tartibda berish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida mehnat qilayotgan xorijiy fuqarolar hisobini yuritish.

Agar chet ellik ish beruvchi ijtimoiy va yashash sharoitlari, mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha kelishilgan talablarni bajarmasa yoki ish beruvchining migrantni ishga joylashtirishdan bosh tortishiga

olib keladigan boshqa masalalarni hal qilmasa, jo'natuvchi tashkilot arizachining boshqa xorijiy ish beruvchi tomonidan ishga qabul qilinishini ta'minlash uchun shoshilinch choralar ko'radi.

Agar ilgari kelishilgan talablarga muvofiq talabnomaga beruvchini ishga qabul qilishning imkonini bo'lmasa, jo'natuvchi tashkilot arizachining vataniga qaytib kelishini ta'minlashi shart.

